Инновацион муҳит кўринишида эса - бу тижорат билан боғлиқ фаолиятнинг, ташкилий алоқаларнинг алоҳида ҳилма-ҳиллиги билан, функционал структурасининг ривожланганлиги ва мослашувчанлиги билан, кенг мослашиш имкониятлари ва венчур (таваккалчилик) капиталдан фойдаланиш билан таъсифланади. Шундай, инновацион муҳит маъносида, инновацион жараён қатнашчиларига таалуқли бўлган ички ва ташқи вазият, имкониятларнинг бирикмасидир. Бу фаолиятларнинг барчасини ҳаракатга келтирувчи драйвери – инсон капитали ҳисобланади. Демак, инноватор тадбиркорликка кириш жараёнида, аввало ўзида инсон капиталини мужассамлаштириши лозимлиги кўриниб турибди.

Аниқлайдиган бўлсак, **инсон капитали** – муайян инсонда мавжуд бўлган билим, тажриба, кўникма ва қобилиятларнинг умумий йиғиндисидан иборат бўлган мотивациялашган фаолиятдир, десак ўйлаймизки мантиққа мос келади. Чунки, инсондаги бу қобилиятлар муайян мотивация туфайлигина капиталга айланади. Аксинча ҳолатда эса капитал тусида бўлмайди.

Зеро, ҳар қандай инсондаги интеллектуал қобилиятларнинг йиғиндиси ҳам капиталга айланавермайди. Пул фақат қўшимча қиймат олиш мақсадида сарфланганда капиталга айланганидек, инсондаги бу интеллектуал қобилиятлар йиғиндиси ҳам, (инновацияларни яратиш жараёнида) тижорат мақсади томон йўналтирилганда, яъни фойда олиш мақсадига сарфлангандагина капиталга айланиши мумкин, яъни инсон капитали кўринишини олади.

Лекин барча олимлар, илмли-тажрибали кишилар, интеллектуал қобилиятлар эгаси бўлиб, инсон капиталининг манбалари ҳисобланади (қалбаки олимлар бундан мустасно). Албатта, бу ҳали заҳира кўринишида турибди. Ушбу ўринда В.Щетинин таъкидлайдики, инсон капитали – бу ҳар бир одамда мавжуд бўлган билимлар, қобилиятлар ва мотивацияларнинг заҳирасидир [14]. Ваҳоланки, бундай аниқлаш инсондаги мавжуд бўлган интеллектуалларни капиталлашув жараёнини англамайди. Бу кўриниш инсон капитали эмас.

Булардан қандайдир қисми мотивация туфайли инсон капиталига айлана олади. Аксинча, аксарият ҳолатда кўпчилиги эса, ўз интеллектуал қобилиятларини ишга солмай, балки мотивациянинг йўқлиги сабабли, истак билдирмай кундалик оддий мажбуриятни бажариш билан машғул бўлиб, бир четда қолиб кетади. Ҳар хил сабабларга кўра мавжуд имкониятлардан, фойдалана олмаслик оддий ҳолат. Демак,

бозор иқтисодиёти шароитидагина инсоннинг ижодий ва ишлаб чиқарувчи кучлари инсон капитали сифатида майдонга чиқа олади.

Вахоланки, инноватор-тадбиркор тайёр ҳолда туғилмайди, балки у ўзининг хоҳишига кўра, ўқиб ўрганиши, изланиши, ҳаракат қилиши ва доимий равишда амалиётдан тажриба орттириши орқали шаклланади. Шу аснода у, мотивация туфайли тижорат сирларини бирин-кетин эгаллайди ва шундагина ўз мақсадига етиши мумкин.

Инсон капиталидан унумли фойдаланиш давлат иқтисодий ривожланиши ва жамият тараққиётида муҳим омил бўлиб ҳисобланади. Бинобарин, ҳозирги даврда инсон капитали – иқтисодий ўсиш ва ривожланишнинг асосий омили сифатида тадқиқ этилиши ва унинг долзарблиги давлат ва жамият ривожини ҳамда иқтисодий, интеллектуал ва ижтимоий тараққиёт барқарорлигини таъминлайди. Шунингдек, миллий ва умуминсоний қадриятларни тиклаш ва юксалтиришда, таълим ва тарбиянинг уйғунлигини таъминлашда ўз ифодасини топади.

Ҳозирги даврда, анъанавий таълимга йўналтирилган университетлар ҳам, ўз функцияларини трансформация этаётган классик таълимдаги университетлар ҳам, тадбиркорлик ва стартап лойиҳалар, илмий фаолият натижаларини тижоратлаштириш, таълим орқали консалтинг хизматлари ва бошқа турдаги хизматларини, бизнес ва инвестиция фаолиятини юритаётган тузилмадаги ташкилотларга қаратмоқда. Университет фаолиятидаги глобаллашув жараёни хорижий университетларда илмий ишланмаларни тижоратлаштириш, фан ва таълим орқали қўшимча даромад олиш, асосий ривожланиш талаби сифатида ўрганилмоқда.

Шунга кўра, замонавий фан-техника тараққиёти қуйидаги хусусиятларни биринчи даражали режа қилиб олдинга сурмоқда. Бу - инновацион тадбиркорликнинг ахборот технологияси, интеллектуал мулк, ташкил этиш, илм-фан кадрларининг маълумоти ва классификацияси. Демак, инновацион тадбиркорлик, инновацион жамиятнинг реал ҳолатига боғлиқ бўлиб, инновацион жараёнларни стратегик бошқаришни тақозо этади.

Бу борада айтиш лозимки, ҳозирда жаҳоннинг илғор ва ривожланган мамлакатларида инсон капиталининг миллий бойликдаги салмоғи 80-90 фоизни ташкил этади [6.388]. Россияда бу кўрсаткич анчагина паст даражада эканлиги қайд этилган. Чунки, ривожланган мамлакатларда инсон капитали, табиий ресурслар ва жисмоний капиталнинг ўзаро нисбатлари 43:20:6 ни ташкил этса, Россияда бу кўрсаткич – 5:4:1 дан иборат холос [9.1]. Ўзбекистонда эса бу кўрсаткичлар яна ҳам паст бўлиши турган гап. Бу шундан далолат берадики, шунинг учун ҳам мамлакатнинг социал-иқтисодий ривожланиши стратегиясида инсон капиталини ривожлантиришни фаоллаштириш муаммоси ўз аксини топганлиги бежиз эмас [2].

Инсон капиталининг аҳамиятига кўра, А.Э.Сулейманқадиева, М.А.Петров, И.Н.Александров ва О.А.Папазоваларнинг илмий қарашларида, иқтисодий ўсиш ва ҳозирги жамият ривожланишининг омиллари (ер, меҳнат, капитал, тадбиркорлик қобилияти) бешинчиси қилиб қўшиб, интеллектуал капитални ҳам қўшилишини таъкидланганлиги, мантиқан ўринли деб ҳисоблаймиз. Шунингдек, улар ҳақли равишда “Янги билимларни фаол такрор ишлаб чиқарувчи, яъни иқтисодиёти интеллектуалоемкости ўсиб боровчи мамлакатлар, 2030-2050 йилларга бориб, жаҳон

иқтисодиётида лидерлик позициясини ушлаб қолиш қобилияти туфайли, ривожланган мамлакатлар бўла оладилар, деган фикри билдирганлар [7. С. 1558].

Шунинг учун, билвосита ҳозирги бозор иқтисодиёти шароитида мамлакатимиз иқтисодиётини янада ривожлантириш мақсадида инновацион фаолиятга алоҳида эътибор берилмоқда. Бунинг негизида эса инсон капитали мужассамлашган бўлиб, кейинги йилларда уни ривожлантиришни фаоллаштириш масаласи долзарб муаммо бўлиб келмоқда.

Ўзбекистон Республикасини 2019-2021 йилларда инновацион ривожлантириш стратегиясининг бош мақсади этиб **инсон капиталини** ривожлантириш белгиланган эди. Шундан келиб чиқиб, иқтидорли ёшларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш ҳамда уларнинг илмий салоҳиятини ривожлантириш мақсадида Инновацион ривожланиш вазирлиги ҳузурида Ёшлар академияси ташкил этилди.

2021 йил апрель ойида иқтисодиётнинг реал сектори ва ижтимоий соҳа эҳтиёжларидан келиб чиқиб, илмий фаолият натижаларини тижоратлаштириш самарадорлигини юксалтириш, шунингдек, хорижий технологиялар трансферини амалга ошириш ва маҳаллийлаштиришга кўмаклашиш мақсадида Инновацион ривожланиш вазирлиги ҳузурида Инновацияларни жорий қилиш ва технологиялар трансферининг миллий офиси ташкил этилди.

Ҳудудларда инновацион фаолиятни янада жадаллаштириш, мавжуд ижтимоий-иқтисодий муаммоларга илмий-техник ечимлар таклифини шакллантириш, ҳудудий илмий-тадқиқот лойиҳаларининг тижоратлаштирилишини таъминлаш, аҳолининг, хусусан, ёшларнинг «маҳаллабай» тарзда ғоя ва ташаббусларини қўллаб-қувватлаш тизимини тўлиқ ташкил этиш мақсадида Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларнинг инновацион ривожланиш бошқармалари ташкил этилди.

Мамлакатимизда 2019 йилнинг октябрида Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси қабул қилинди. Ушбу ҳужжатга интеллектуал тараққиётни жадаллаштириш, рақобатбардош кадрлар тайёрлаш, илмий ва инновацион фаолиятни самарали ташкил этиш ҳамда халқаро ҳамкорликни мустақкамлаш мақсадида фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини ривожлантириш сингари вазифалар асос қилиб олинди.

Концепция мазмунида мамлакатимиз олий таълим тизимини ислох қилишнинг устивор йўналишлари белгиланган. Унга кўра, олий ўқув юртларида қамров даражасини кенгайтириш ҳамда таълим сифатини ошириш, рақамли технологиялар ва таълим платформаларини жорий этиш, ёшларни илмий фаолиятга жалб қилиш, инновацион тузилмаларни шакллантириш, илмий тадқиқотлар натижаларини тижоратлаштириш, халқаро эътирофга эришиш ҳамда бошқа кўплаб аниқ йўналишлар белгилаб берилган. Бинобарин, Президент ташаббуси билан кўзланган таълим ислохотлари орқали Ўзбекистонда янги Уйғониш даври, яъни учинчи Ренессанс пойдеворини яратишни асосий мақсад қилиб белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётини инновацион ривожлантириш концепциясига кўра, уни амалга ошириш чора-тадбирларидан бири қилиб **интеллектуал мулкни ҳимоя** қилиш алоҳида кўрсатиб ўтилган. Шунингдек аҳоли, олимлар ва тадқиқотчилар орасида қуйидагилар орқали тадбиркорлик маданиятини ошириш кўзда тутилган:

- инноваторларнинг тадбиркорлик ташаббусларини амалга оширишни қўллаб-қувватлаш;

- олимлар ва тадқиқотчиларнинг тадбиркорлик билан бандлигини таъминлаш.

Бу мотивациялар ўз навбатида, бу соҳада эркин бозор механизмларини боқичма-босқич жорий этилишини тақозо этмоқда.

Шу қўйилган вазифаларга биноан, мамлакатимизда кейинги йилларда қандай ижобий натижаларга эришилганлигини таъкидлаб ўтамиз. Стратегияда мамлакатимиздаги инновацион ривожланишнинг ҳозирги ҳолати белгиланганидек: - инновация ва илм-фан соҳаларига Давлат бюджетидан ажратиладиган йиллик маблағлар ҳажми 2018 йилга нисбатан 3 бараварга оширилган ва 1,5 триллион сўмга етган; - ёш олимлар 2018 йилда 6,5 минг нафар бўлган бўлса, 2022 йилда уларнинг сони 10,8 минг нафарни ташкил этмоқда, яъни бир ярим бараварга ўсганлигини билдиради; - кейинги 4 йилда инновацион фаолиятни молиялаштириш бўйича махсус институтлар - инновацион жамғармалар, венчур ташкилотлар ва бошқаларларнинг сони 28 тага етган; - инновацион технологиялар платформаси шалланмоқда [2].

Шунингдек, тизимдаги ислоҳотларнинг энг муҳим жиҳатларидан бири, олий таълим билан ишлаб чиқариш ўртасидаги алоқадорлик интеграциясини вужудга келтириш бўлди. Зеро, ҳамкорликсиз юқори малакали, замон талабидаги кадрлар тайёрлаш мумкин эмас. Мамлакатимиздаги йирик саноат корхоналарининг бузилиб кетиши натижасида ҳамкорлик алоқалари узилиб, таълим ўз йўлида, ишлаб чиқариш ўз йўлида фаолият юритар эди. Бугунги кунда мамлакатимизда йирик ва ўрта ишлаб чиқариш корхоналари қад кўтарди, олий таълим билан ишлаб чиқариш ўртасидаги ҳамкорлик интеграцияси йўлга қўйилди.

2022-2026 йилларга мулжалланган Инновацион ривожланиш **Стратегиянинг асосий мақсади** — мамлакатда креатив иқтисодий шакллантиришда янги иш ўрни яратишдан бошлаб иқтисодий қиймат (капитал) яратишгача бўлган «тармоқ-худуд-илмий/олий таълим ташкилот» узлуксиз экотизимни ривожлантиришдир.

Стратегиянинг асосий йўналишларидан бири этиб: “инновацион инфратузилма субъектлари: инновацион технологик парк, технологиялар трансфери маркази, инновацион кластер, венчур ташкилоти, инновация маркази, стартап акселератор, инкубаторлар тармоғини шакллантириш орқали стартап ташаббусларни қўллаб-қувватлаш ҳамда йирик ҳажмли ишлаб чиқаришни (капитал яратишни) ташкил этиш” белгиланган [2].

Юқоридагиларга кўра, Олий Таълим Муассасалари ва илмий-тадқиқот институтларидаги мавжуд шарт-шароитлар ва илмий салоҳиятдан келиб чиқиб юксак самара берадиган, **янги стратегик инновацион муҳитни** яратиш тўғрисида сўз юритилмоқда. Шунингдек, кичик тадбиркорликнинг инновацион фаолигини ошириш орқали худудларнинг ижтимоий-иқтисодий жадал ўсишини таъминлаш кўзда тутилган.

Фикримизча, бу янги стратегия мавжуд муассасалар таркибида инновацион **микрофирмаларни** ташкил этишни тақозо этади. Афсуски, бундай инновацион тадбиркорлик микрофирмалари мамлакатимизда шаклланиш босқичидадир.

Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, бозор иқтисодиётини ривожлантиришда айнан кичик инновацион фирмаларнинг улуши жуда каттадир, чунки микрофирмаларнинг афзаллик томонлари кўпдир. Масалан, янги шароитга тез

мослашиши, ходимларнинг кам миқдорда эканлиги, молиялаштиришдаги ва жойлашишдаги қулайликлар, таваккалчиликнинг ўзига хос оқлаши ва бошқалар.

Мамлакатимиздаги ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ҳозирги кунда мавжуд бўлган инновацион тадбиркорлик структуралари туфайли амалга ошмоқда. Шунингдек, инновацион бизнес бу келажакнинг бизнесидир, шунга кўра инновацион тадқиқотлар атроф муҳитни экологик жиҳатдан ҳимоя қилиш, энергия ва жонли меҳнат истеъмоллини камайтириш, ҳом-ашё материалларини тежаш, янги илғор технологияларни, шунингдек ахборот технологияларини яратишга имконият туғдиради. Бошқача қилиб айтганда, қандайдир янги сифатдаги истеъмол товарларни, яъни оригинал маҳсулотлар яратилади. Бу билан ўз навбатида, рақамли иқтисодиёт раванқ топади.

Жаҳондаги аксарият етакчи тадқиқотлар университетлари инсоний захиранинг юқори сифати, яъни: профессор-ўқитувчилар таркибининг малакасини доим ошириб бориш; иш берувчилар ҳамда илмий ишланмалардан фойдаланувчилар билан ҳамкорлик қилиб, билимлар ва илғор инновацияларни кенг ёйиш; муассасанинг ўз замонавий илмий-тадқиқот ҳамда тажриба ўтказиш инфратузилмасига эга бўлиши каби кўрсаткичлар билан ажралиб туради.

Шунингдек, Н.Зуфарова адолатли баҳо берганидек: “Глобал муҳитда университетларнинг ўзаро рақобатда афзаллиги, уларнинг юқори сифатли кадрлар тайёрлаши, илмий тадқиқотлар натижаларининг муҳимлиги, иқтидорли талабалар сони, академик мустақиллиги, илмий ишланмаларни давлат ва хусусий корхоналар орқали тижоратлаштириш ҳисобланади”[12.109].

Юқоридагиларга асосан инновацион тадбиркорликни ривожлантириш имкониятларининг бош асоси - инсоннинг илмий ижодини фаоллаштириш ҳисобланади. Бусиз ҳар қандай соҳада инновациянинг бўлиши мумкин эмас.

Инновацион ривожланиш Стратегияга мувофиқ: - “таълимнинг барча босқичларида яратувчанлик, инновацион тадбиркорлик ва рационализаторлик кўникмаларини ривожлантириш орқали инновацион фаолият бошқарувида **инсон капиталлини янада ривожлантириш**” [2] кўзда тутилган.

Хўп, Ўзбекистонда бу масалада аҳвол қандай? Инсон капиталлини фаоллаштириш жараёни қандай кечмоқда?

Натижалар. Маълумотларга назар ташлайдиган бўлсак, 2023 йилга келиб Ўзбекистонда олий таълим муассасаларининг сони 200 тадан ошди, шулардан 70 тага яқини хусусийлардир. Шунингдек, кейинги йилларда Ўзбекистон олий таълим соҳасида сезиларли ижобий ўзгаришлар амалга оширилмоқда. 50 га яқин олий таълим муассасаларига молиявий ва академик мустақиллик берилди. Билим даргоҳларининг моддий-техника базаси яхшиланяпти, илмий ишланмаларни молиялаштириш ва ижтимоий қўллаб-қувватлаш кучайтирилмоқда, шунингдек, профессор-ўқитувчиларнинг даромадлари ҳам ортяпти. Инновация йўналишидаги алоҳида давлат тузилмалари ташкил этилиб, олий ўқув юртларида ҳам янги бўлинмалар очилмоқда. Буларнинг барчаси ҳозирда бозор томон йўналтирилган бўлиб, охир оқибатда улар ўртасида биз кутган, жаҳоннинг илғор мамлакатларидаги каби рақобат кураши шаклланди.

Бу жараёнда Ўзбекистондаги барча олий ўқув юртларига ўртак сифатида, Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш инженерлар институтини кўрсатиш мумкин. Ушбу институтда яқин ўтган йиллар мобайнида инновацион инфратузилманинг бир бутун системаси яратилган: булар – ҳозирги кунда фаолият кўрсатиб келаётган замонавий технопарклар, технополислар, илмий-инновацион кластерлар ва лабораториялар, бизнес-инкубаторлар, янги замонавий кафедралардир. Институтда «тармоқ-худуд-илмий/олий таълим ташкилот» узлуксиз экотизими шакллантирилган. Бугунги кунда институтнинг умумий илмий салоҳияти эса 69 фоизни ташкил этади [15].

Шуларга қарамасдан, инновацион жамиятнинг реал ҳолатига (стратегия бўйича) баҳо бериладиган бўлса, иқтисодиётнинг реал секторида, шунингдек олий таълим тизимида, илмий ва инновацион ишланмаларни тижоратлаштириш даражаси, илм-фан, таълим ва саноат ўртасидаги ҳамкорлик алоқалари жаҳондаги илғор университетларга нисбатан паст бўлиб қолмоқда.

Бу масалада олий таълим муассасаларининг аксарият кўпчилигида инновацион муҳит суст даражада эканлиги ҳаммамизга маълум, буни инкор эта олмаймиз. Ҳозирги вақтдаги вужудга келган вазият аниқ. Аниқроғи: - олий таълимда иш ҳақининг юқори бўлишига қарамай, молиявий аҳволини яхшилаш мақсадида қўшимча юкломани бажариш билан банд бўлиб қолган педагоглар кўпчиликни ташкил этади; - инновация билан шуғулланганларнинг кўпчилиги эса, фақат кичик хўжалик шартномасини бажариш фаолиятидан нарига ўтмайди; - аксарият ҳолларда ходимлар рейтинг балларини кўтариш учун олий таълим муассасаси ҳисоб рақамларига “сунъий хўжалик шартномаси” орқали маблағ туширишлар эса, анъанага айланиб қолган; - инновацион тижорат бўлинмаларини очишни тарғибот қилиш ва уларни шакллантириш жуда ҳам суст даражада; - баъзи таълим муассасаларида бу масаладаги ташаббускорларни қўллаб қувватланмаганлик ҳолатлари ҳам учраб туради; - университет ва институтлар ўз рейтингларини кўтаришга интилишларига қарамай, ҳанузгача илмий салоҳиятга эга бўла олмаган (билими паст) педагоглар кўпчиликни ташкил этади; - бу йилдан чет тилини ўрганиш масаласида, яъни мустақил илмий изланувчиларга диссертация мавзуларини тасдиқлаш учун чет тили бўйича махсус сертификатнинг талаб қилиниши, кўпчилик ёши ўтган педагогларни ҳафсаласини пир қилди ва ҳозирги кунда улар икки ўт орасида қолмоқдалар; - ташқи ўриндошларнинг мазкур олийгоҳга инсон капитали сифатидаги улушлари жуда ҳам паст, деярли йўқ даражада; - чет тили, шунингдек рус тилида дарс берувчи педагогларнинг етишмаслиги сурункали ҳолатга айланган; - кўпчилик олий таълим муассасаларида ханузгача бозор рақобатида устуворликни таъминловчи стратегияни тадқиқот қилувчи маркетинг марказлари ташкил этилмаган; - шулар билан биргаликда, ижтимоий тамоқларда етакчи университетларнинг олимлари айтганларидек: “Замонавий ўлчов илмий асбоблари йўқ, уларни сотиб олишга эса деярли 30 йилдан буён маблағ ажратилмайди. Экспериментал илмий мактаблар тугаган, шунга қарамасдан, раҳбарият илмий нашрларни ҳалқаро журналларда чоп этишни талаб қилмоқда !...Яхши дарсликларсиз, приборлар ва ускуналарсиз, яхши мутахассисларни тайёрлаш мумкин эмас”[17].

Булардан англашимизча, “инновацион тадбиркорлик фаолияти – ҳақиқий, ҳалол даромад манбаи” эканлигини тушуниб етишимиз зарур. Бинобарин, тушуниб

етканларга ҳам, хар ҳил ортиқча ўқув юкнамалари (бир ставкадан кўпи), жамоат ишлари, тадбирлар, хар ҳил текширувлар ва ҳали ҳам давом этиб келаётган қоғозбозликлар имконият бермаётганга ўхшайди. Масалан, баъзи институтларда электрон журнал жорий қилингани билан, бунга параллел равишда гуруҳларга хар бир фан учун журнал юргизиш давом этиб келинмоқда. Бу билан педагогларда вақтдан унумли фойдаланилмаётганлиги, аниқ кўриниб турибди.

Олий таълим муассасаларидаги бу бугунги кунда юзага келган ҳолат, кўпчилик профессор-ўқитувчиларимизни оғир вазиятга тушириб қўйган. Ўйлаймизки, шу ва шунга ўхшаш бугунги кунда йиғилиб қолган муаммолар, олим-педагог кадрларимизнинг интеллектуал қобилиятларини капиталга айланишига тўсиқ бўлиб турибди. Шунингдек, бунга кўшимча равишда, бугунги кунга келиб, ўзгаришлар тенденциясида шуни кузатиш мумкинки, айнан давлат таълим муассасаларида кадрлар кўнимсизлиги бошланган, яъни билимли, малакали, илмий салоҳиятга эга бўлган замонавий ёш кадрларнинг хусусий таълим муассасаларига ўтиб кетиши кузатилмоқда. Бинобарин, рақобат кураши бошланди ва авж олиши арафасида турилибди. Бу жиддий масала олий таълимдаги раҳбарларни ўйлантириб қўймоқда деб ҳисоблаймиз.

Кўриниб турибдики, шунга ўхшаш муаммолар олий таълим муассасаларида инсон капиталини фаоллаштиришга имконият бермай келмоқда. Ўйлаймизки, бу вазиятни тушуниб олиш зарурияти аллақачон етиб келган. Ваҳоланки, кечиктирмай бу муаммоларнинг турли вариантлардаги ечимларини излашимизга тўғри келади.

Шундай экан, олимларимизнинг инновацион тадбиркорлик билан шуғулланишига яна нималар тўсқинлик қилиши мумкин? Ваҳоланки, турли кўринишдаги инновацион тадбиркорлик жараёнини қўзғатувчиси, ҳаракатга келтирувчиси интеллектуал капитал экан, ўйлаймизки бундай имконият деярли хар бир профессор ўқитувчида мавжуд. Шундай экан, улар олдида турган бугунги кундаги муаммо – ўз ички кечинмаларидаги тўсиқларни енгиб, мавжуд имкониятлардан фойдаланиш орқали ташаббускорлик қилиб инсон капиталига айлана олишдир.

Бу масалада давлатимиз томонидан мазкур фаолият хар томонлама қўллаб-қувватланаётганлигини айтиб ўтиш ўринлидир. Стратегияда: - “инновацион фаолиятни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг институционал механизмларини такомиллаштириш орқали инновацион фаол ташкилотлар улушини ошириш; - янги турдаги маҳсулотлар ва инновацион технологиялар яратишнинг ғоядан якуний истеъмолчигача бўлган комплекс тизимини таъминлаш орқали инновацияларга бўлган талабни рағбатлантириш” - яратилган капитални «тубдан янгиловчи» инновацияларга қайта йўналтириш тизимини шакллантириш [2]; - корхоналарнинг ўз маблағлари ҳисобидан амалга ошириладиган илмий-тадқиқот ва инновацион ишларини солиқ имтиёзлари орқали рағбатлантириш кўзда тутилган [1.151].

Хулоса ва таклифлар. Албатта, булардан фойдаланиш йўл-йўриқларини билишимиз лозим бўлади. Ҳолбуки, олий таълим муассасаларининг раҳбарияти томонидан мамлакатда инсон капиталини фаоллаштириш бўйича олимлар ҳамда талабалар учун яратилаётган имкониятларни тушуниб етиш керак бўлади. Ҳозирги вазиятда Республикадаги олий таълим муассасаларида умумий массага нисбатан инновацион тадбиркорлик билан шуғулланувчи профессор ўқитувчилар жуда озчиликни ташкил қилади. Чунки, манфаатлар мувофиқлаштирилмаган. Шу сабабли

умумий ҳолатни аниқлаш мумкин – кўпчилик педагог олимларимизда тадбиркорлик хисси деярли йўқ даражада, кўпчилиги ҳанузгача уни англаб етмаган.

Юзага келган ушбу вазият, ҳали ҳам таълим, фан соҳасида бозор мотивациясини етари эмаслиги, реал инновацион тадбиркорлик муҳитининг шаклланмаганлигидан далолат беради деб ҳисоблаймиз. Ваҳоланки, олий таълим муассасалари ўртасида яқинда шакилланган рақобат кураши бу муаммоларга жиддий ёндашишни талаб қилаётганини эсдан чиқармаслигимиз лозим. “Бозор конъюктураси ва рақобат ҳар қандай корхона даражасида ишчи кучининг сифати ҳақида ғамхўрлик қилишга мажбур қилади. Бозорда кимнинг маҳсулотининг сифати юқори ва хизмат кўрсатиш даражаси яхши бўлса, меҳнат унумдорлиги юқори ва бошқариш самарали бўлса ўша ютади” [13.696].

Юқоридаги мулоҳазаларга асосланиб, олий таълим муассасаларида инсон капитални фаоллаштириш учун қуйидагиларни тавсия этамиз:

- ОТМлардаги мавжуд илмий салоҳият (потенциал)ни тўлиқ ҳисобга олиш зарур. Бу муассасалар инновацион инфраструктураларининг ядроси ҳисобланади ва бу Республикаимизнинг алоҳида минтақаларини гармоник ривожланиши учун жуда катта, етакчи имконият манбаидир;

- ОТМларда инновацион тадбиркорликни ривожлантириш учун, бугунги кун зарурияти - мавжуд олимлар потенциалидан унумли фойдаланишнинг бозор механизмини ишлаб чиқишни тақозо қилади, яъни яқин вақт мобайнида ОТМларда педагогик кадрларни инновацион тадбиркорликка ундайдиган “Бозор мотивациясини” яратиш зарурдир;

- Ташкилий масалада олимларга илм соҳасида бозор иқтисодиётининг ҳуқуқий асосларига биноан, илғор кафедралар таркибида янги хусусий микрофирмалар ва давлат шерикчилик асосидаги корхоналарни, технопаркларни, илмий марказларни очишга тарғибот ишларини жадаллаштириш лозим;

- Инновацион концепциясига биноан ОТМ раҳбарлари профессор ўқитувчиларни инновацион тадбиркорлик билан фаолият кўрсатишида ҳар томонлама (жой, молиялаштириш, субсидия) уларни қўллаб-қувватлаш лозим;

- ОТМларда инновацион жараёнлар натижаларига кўра инноватор-тадбиркорларни янги муносиб рағбатлантиришни жорий этиш лозим;

- Ривожлаган Ғарб мамлакатлари тажрибасидан келиб чиқиб, Республикаимизда инсон капитални рағбатлантиришга қаратилган Жамғарма ташкил этиш мақсадга мувофиқдир.

Хулоса қилиб айтганда: “Олдинга, янгилашиш сари бир неча қадам қўйиш учун, халқимиз асрлар давомида тўплаган бебаҳо тажриба, яъни кадрлар тайёрлаш бўйича ҳамда илмий-таълимий соҳада эришилган ютуқлар, услубий, тузилмавий, моддий ва ниҳоят, инновацион ривожланиш (чет эл) тажрибасини ҳисобга олиш ҳамда ундан фойдаланиш лозим” [15].

Адабиётлар/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри. – Тошкент:“O‘zbekiston” нашриёти, 2022. - 440 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-165- сон “2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2022 йил, 6 июль фармони//Халқ сўзи газетаси, 2022 йил. 7 июль.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5847- сон “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2019 йил 8 октябрь фармони//Халқ сўзи газетаси, 2019 йил, 9 октябрь.
4. Экономическая теория. Трансформирующаяся экономика: Учеб. Пособие для вузов: под ред.проф. И.П.Николаевой. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. – с.401-415. Кўшимча: Schultz, T. W. Investment in Human Capital [Text] / T.W. Schultz // The American Economic Review. 1961. Vol. 51. Pp. 1-17.
5. Друк В.Ю. Человеческий капитал как важнейший фактор активизации научно-инновационной деятельности вуза / В.Ю. Друк, О.А.Золотарева, О.А.Румак. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2013. - №5(52). –с.292-296. – URL: <https://moluch.ru/archive/52/6839/> (дата обращения: 29.03.2023);
6. Отто О.Э. Влияние человеческого капитала на формирование цифровой экономики в Узбекистане / О.Э.Отто. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2020. - №22 (312). – с.388-390. - URL: <https://moluch.ru/archive/312/79758/>(дата обращения: 29.03.2023).
7. Сулейманкадиева А.Э., ПетровМ.А., Александров И.Н., Папазова О.А. Развитие человеческого капитала в условиях перехода общества к новому технологическому укладу //Вопросы инновационной экономики. – 2021. – Том 11. - №4. – с. 1557-1572./ <https://elibrary.ru/item.asp?id=48125303>
8. Малехина П.Ю., Дмитриев А.Г. Перспективы развития человеческого капитала в экономике Российской Федерации // Economics and management of a national economy. Economics: Yesterday, Today and Tomorrow. 2021, Vol. 11, Is. 3A. – с.355-363.
9. Клеева Л.П. Развитие человеческого капитала как часть стратегии социально-экономического развития // Компетентность / Competency (Russia). — 2021. — № 7. DOI: 10.24412/1993-8780-2021-7-44-49
10. Яров А. Инсон капитали – иқтисодий барқарорлик таянчи// Бозор, Пул ва Кредит - 2020. №1. – 43-46 бетлар.
11. Зуфарова Н. Иқтисодиётни рақамлаштириш шароитида олийгохлар бренд капиталини шакллантириш масаласи//AGRO-ILM. №4.2022. 106-109 б.
12. Артамонова А., Симоненко С. О человеческом капитале // Парламентская газета. 20.12.2021 г.
13. Қутибоев Т. Ишчи кучи сифати инсон капиталининг асосий элементи сифатида// “Erkin bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sog‘lom raqobat muhitini yaratish orqali hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari” mavzusida respublika miqyosidagi

- ilmiy-amaliy anjuman (2023 yil, 4 mart) ilmiy maqolalar va tezislar to'plami. – Andijon.: AndMI, 2023. – 694-696 b.
14. Щетинин В. Цена труда в России – меньше не бывает // Человек и труд. - 2000. - №1.
 15. Умурзоқов Ў. Таълим тизими ислоҳотлари Ўзбекистонда янги Уйғониш даври пойдеворини яратади//<https://xs.uz/uzkr/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri-pojdevorini-yaratadi./29.10.2020>.
 16. Абдуқундузова Н. Ўзбекистон – 2022 йилда инновациялар бўйича глобал етакчи. Инновацион ривожланиш агентлиги котибияти хабари//old.mininnovation.uz^oz/news/post-1129 30.12.2022 да қўйилган.
 17. Иргазиев Б.Ф., Турсунметов К.А., Файзуллаев Б.А. "Слегка специалисты". Преподаватели бьют тревогу, качество высшего образования находится на критическом уровне // <https://podrobno.uz/cat/obchestvo/slegka-spetsialisty-prepodavateli-byut-trevogu-kachestvo-vysshego-obrazovaniya-nakhoditsya-na-kritich/> 4 апреля 2023, 16:30 17453

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Очилов НEMAT Явқочович,
ЎзМУ Иқтисодиёт факультети
катта ўқитувчиси., PhD
E-mail: nigmat_o@yahoo.co.uk

ХУДУДЛАРНИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНТИРИШНИ БАҲОЛАШ ВА ПРОГНОЗЛАШТИРИШНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аннотация. Мақолада ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни баҳолаш ва прогнозлаштиришнинг назарий-услубий асосларини такомиллаштириш билан боғлиқ жараёнлар тадқиқ этилган. Ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни баҳолаш ва прогнозлаштиришни такомиллаштириш орқали интенсив иқтисодий ривожланишни таъминлашнинг мавжуд имкониятларидан мақсадли фойдаланиш йўллари асосланган. Ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш даражаси ва унинг ўзгариш динамикасини баҳолашга доир мутлоқ ва нисбий кўрсаткичлар орқали ҳудудлар иқтисодиётини баҳолаш ва прогнозлаштиришни такомиллаштиришга доир илмий таклиф амалий тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: ҳудудлар иқтисодиётини баҳолаш, ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни интеграл кўрсаткичлари, ҳудудий бошқарув жараёнлари, ҳудудлар иқтисодиётини стратегик режалаштириш, ҳудудий прогнозлар тизими, ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш матрицаси.

Очилов НEMAT Явқочович,
Старший преподаватель
Экономического факультета НУУз

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ БАЗЫ ОЦЕНКИ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ

Аннотация. В статье исследуются процессы, связанные с совершенствованием теоретико-методологических основ оценки и прогнозирования социально-экономического развития регионов. Систематизированы пути целевого использования имеющихся возможностей для обеспечения интенсивного экономического развития за счет совершенствования прогнозирования и оценки социально-экономического развития регионов. Даны научное предложение и практические рекомендации по совершенствованию системы оценки и прогнозирования региональной экономики через абсолютные и относительные показатели уровня социально-экономического развития регионов и динамики его изменения.

Ключевые слова: оценка региональной экономики, интегральные показатели социально-экономического развития регионов, процессы регионального управления, стратегическое планирование региональной экономики, система региональных прогнозов, матрица социально-экономического развития регионов.

Ochilov Nemat Yavqochovich,
Senior lecturer of the
Faculty of Economics of NUU, PhD

IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS FOR ASSESSING AND FORECASTING THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REGIONS

Abstract. The article examines the processes associated with the improvement of the theoretical and methodological foundations for assessing and forecasting the socio-economic development of regions. The ways of targeted use of the available opportunities for ensuring intensive economic development by improving the forecasting and evaluation of the socio-economic development of the regions are systematized. A scientific proposal and practical recommendations are given for improving the system for assessing and forecasting the regional economy through absolute and relative indicators of the level of socio-economic development of regions and the dynamics of its change.

Key words: assessment of the regional economy, integral indicators of socio-economic development of regions, processes of regional management, strategic planning of the regional economy, system of regional forecasts, matrix of socio-economic development of regions.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N07>

Кириш. Жаҳон иқтисодиётидаги ижтимоий-иқтисодий жараёнлар ва мамлакатларда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар ҳудудларни комплекс ривожлантиришнинг асосий катализатори сифатида хизмат қилади. Ушбу катализаторнинг амалий аҳамияти ҳудудларни зарур иқтисодий ресурслар билан таъминлаш, ҳудудларда жойлашган инфратузилмалар фаолият самарадорлигини ошириш, иқтисодиётнинг реал сектори фаолиятига жалб қилинаётган инвестициялар ўртасидаги ҳудудий номувофиқликларни бартараф этишнинг ижро механизмини такомиллаштирига асос яратади.

Мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришнинг стратегик мақсад ва вазифаларидан келиб чиқиб, ҳудудлар иқтисодиётини ривожлантиришнинг ижтимоий-сиёсий ва институционал механизмларини кенгайтиришга йўналтирилган давлат дастурлари шакллантирилади. Ушбу давлат дастурларининг самарадорлиги ҳудудларда яшовчи аҳолининг турмуш сифатини такомиллашуви, харид қобилиятини юксалиши, мавжуд хўжалик юритувчи субектларнинг иқтисодий ривожланиш даражаси, улар ўртасида иқтисодий ресурсларни мақбул тақсимлаш даражаси ҳамда тармоқларни ривожлантиришнинг жорий ва истиқболли фаолиятида намоён бўлади.

Ҳудудий бошқарув жараёнларини қўллаб-қувватлашнинг илмий-услубий базасини яратиш, стратегик режалаштириш воситаларидан фойдаланган ҳолда ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасини ислоҳ қилиш ва ривожлантиришни тартибга солиш тизимини ташкил этиш, ҳудудий ривожланиш стратегияларини ишлаб чиқишда юқори профессионал ижрочиларни жалб қилиш билан бирга баҳолаш ва прогнозлаштиришнинг услубий асосларига алоҳида эътибор қаратишни талаб этади.

Ўзбекистонда ҳудудий иқтисодий ривожланишни устувор жиҳатларидан келиб чиқиб, иқтисодиётни комплекс ривожлантириш доирасида, мавжуд иқтисодий ресурслардан фойдаланиш йўналишларини белгилаш, ресурслардан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишларига алоҳида эътибор қаратишни тақозо этади. Мамлакат иқтисодиётини ривожланишнинг ҳозирги босқичида қатор муаммолар мавжуд бўлиб, уларнинг аксарияти ҳудудий даражадаги номутаносибликлар билан тавсифланади. Мазкур номутаносибликларни бартараф этиш ҳозирги ҳолатни чуқур таҳлил қилиш ва истиқболга йўналтирилган мақсадли дастурларни ишлаб чиқиш учун

асос яратади. Аммо, комплекс баҳолаш жараёнида юзага келаётган муаммоларни ҳал қилиш бўйича тегишли чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва уларга тезкорлик билан лозим даражада жавоб қайтаришни ягона мувофиқлаштирилган механизмнинг йўқлиги тўқтинлик қилмоқда [1].

Юқоридаги қатор ҳолатлар ҳудудлар даражасида манфаатли ҳамкорликка асосланган муносабатларни ривожлантириш, иқтисодий ривожланишни тизимли ташкил этиш йўллари асослашга йўналтирилган жараёнларни баҳолаш ва прогнозлаштиришнинг услубий асосларини такомиллаштиришга доир тадқиқотларни амалга оширишни долзарб аҳамиятга эга эканлигидан далолат беради.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасини прогнозлашнинг объектив қонуниятлари, унинг мантиқий асоси ва прогнозлаштиришни амалга оширишни ташкил этиш механизми иқтисодчи олимлардан Д.А. Абдурахимов тадқиқотларида алоҳида ўрин эгаллайди. Тадқиқот жараёнида ҳудудлар иқтисодиётини баҳолаш ва прогнозлаштиришнинг услубий асосларини такомиллаштириш жараёнлари ҳудудий иқтисодий сиёсатни амалга ошириш механизми ва самарадорлигини таъминлаш воситаси сифатида эътироф этилади [2; Б.2-4.]. Иқтисодчи олимлардан А.В. Андреев илмий тадқиқотларида ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш жараёнларини прогнозлашнинг ташкилий ва услубий асослари ишлаб чиқилиб, ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш жараёнларидаги номутаносибликларни келтириб чиқарувчи сабаб ва оқибатли боғлиқликлар ёритиб берилди [3; Б.213-224.]. А. Боровик илмий изланишлари орқали ҳудудлар иқтисодиётини экстенсив ривожланишининг барча мумкин бўлган йўллари, бу борада ривожланишнинг янги ёндашувлари ва усулларини қўллаш орқали иқтисодиётни ривожлантиришнинг кўп вариантли сценарийлари ишлаб чиқилган [4; Б.29-32.]. Т.А. Дуброва ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни баҳолаш ва прогнозлаштиришда бир ўлчовли вақтли қаторларини таҳлил қилиш ва усуллари тизимлаштирилган бўлиб, бу борада амалиётда энг кўп қўлланиладиган усулларнинг амалий дастурлар пакетини яратишга эътибор берилган. Ялпи ҳудудий маҳсулотдаги трендларни текислаш процедуралари ва уларни ўзига хос методологиясини шакллантиришга устуворлик берилди [5; Б.119-142.]. Д.А. Каримов миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланиши ва унинг рақобатбардошлигини таъминлашда ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий салоҳиятидан самарали фойдаланиш, бу борада ҳудудлар иқтисодиётини ривожланиш кўрсаткичларини шакллантиришнинг рейтинг баҳолаш тизимини аҳамияти ва афзалликларини асослаб беради [6; Б. 179-188.]. Шунингдек, бошқа қатор адабиётларда ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни баҳолаш ва прогнозлаштиришнинг услубий асосларини такомиллаштириш орқали иқтисодий ривожланишни таъминлашга доир тегишли қарорларни қабул қилиш жараёнларига эътибор берилган.

Муҳокама. Ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожланиш тенденцияларини баҳолаш ва мониторинг қилишнинг интеграл кўрсаткичлари замонавий ахборот-таҳлил тизими ва технологияларидан фойдаланилган таҳлил натижаларига асосланади. Ҳозирда ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнларини таҳлил қилишнинг умумэътироф этилган методологияси мавжуд эмас. Шу сабабли, ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнларини баҳолашда: тизимли

усул, мувозанат усули, картографик усул, математик моделлаштириш каби усуллардан кенг фойдаланилади.


Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнларини баҳолашда худудий иқтисодий ривожланишга таъсир кўрсатувчи энг муҳим омилларни ажратиб олиш мақсадга мувофиқ. Ушбу омиллар худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнларини баҳолаш ва прогнозлаштиришга доир кўрсаткичларни тизимлаштириш имкониятини беради. Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасини комплекс баҳолашда, жамият ҳаётининг ижтимоий-иқтисодий соҳаларини умумлаштирган қуйидаги кўрсаткич-лардан фойдаланилади:

1. Ялпи худудий маҳсулотни аҳоли жон бошига тақсимоти (харид қобилияти паритетини ҳисобга олган ҳолда);
2. Асосий капиталга инвестициялар ҳажмини аҳоли жон бошига тақсимоти;
3. Худудий ташқи савдо айланмасини аҳоли жон бошига тақсимоти;
4. Худудларни молиявий таъминлаш ҳажмини аҳоли жон бошига тақсимоти;
5. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг худудий даражада аҳоли бандлигини таъминлашда улуши;
7. Пулли хизматларни аҳоли жон бошига тақсимоти;
8. Иқтисодиётнинг тармоқ ва соҳаларини асосий фондлар билан қуролланиш даражаси;
9. Ижтимоий инфратузилма тармоқлари фаолиятини ривожланиш даражаси.

Юқорида тавсифланган кўрсаткичларга мувофиқ, худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасини баҳолаш ва таққослашда қатор усуллардан фойдаланилади. Баҳолаш жараёнидаги турлича услубий ёндашувлар таъсирида муаммонинг ягона ечими шакланмайди. Ушбу вазиятни ҳисобга олиб, худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасини баҳолаш методологиясини такомиллаштириш доимий зарурият ҳисобланади. Ижтимоий-иқтисодий жараёнларнинг ҳолати ва динамикасини акс еттирувчи кам сонли кўрсаткичлардан фойдаланганда мавжуд усулларнинг афзалликлари ва камчиликларини ҳисобга олиш лозим.

Худудлар ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг тармоқ хусусиятлари, унинг ўзига хос тенденциялари ва мавжуд шароитларни ҳисобга олган ҳолда ривожланиш даражасини миқдор жиҳатдан акс еттирувчи кўрсаткичлар тизимини кенгайтириш мумкин.

Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни баҳолаш жараёнларига доир мониторинг натижалари худудларни ривожланиш даражасини баҳолашда $X_y = \{X_{yj}\}$ кўрсаткичларига мувофиқ j ($j = 1, \dots$) дастлабки маълумотлар матричасини шакллантиришдан бошланади. Маълум бир худуд учун i ($i = 1, \dots, n$) ўрганиш даври t ($t = 1, \dots, k$). Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни маълумотлар матричаси худудларни ривожланиш даражасини баҳолашнинг ҳар бир йўналиши учун алоҳида шакллантирилади. Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни баҳолаш жараёнида ишлатиладиган кўрсаткичлар турли қиймат ва ўлчов бирликларига эга. Шу сабабли, уларни солиштириш ва таққослама таҳлил қилиш имкониятини берадиган ягона тизимга мувофиқлаштириш зарур (1-расм).



1-расм. Худудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасини баҳолашнинг такомиллаштирилган методологияси асосидаги баҳолаш алгоритми*.

Таҳлил жараёнларини тегишли процедураларига мувофиқ кўрсаткичлар ўртасидаги фарқланиш даражаси, ҳудудий иқтисодий тизимни ривожлантириш муаммосини очиб бериши мумкин. Аммо, худудлар иқтисодий салоҳиятининг таҳлилий ва прогнозлаш учун маълумотларни стандарт оғиши бўйича нормаллаштириш усулидан фойдаланиш таклиф этилади. Ушбу усул мазкур формулага мувофиқ амалга оширилади.

$$\bar{X}_{ij}^t = \frac{X_{ij}^t - \bar{X}_j^t}{S_j},$$

бу ерда X_{ij} - бошланғич кўрсаткичнинг нормаллаштирилган қиймати;

X_j - ҳар бир таҳлил қилинадиган t давр учун j кўрсаткичнинг ўртача арифметик қиймати, у қуйидагича ҳисобланади:

$$\bar{X}_j^t = \frac{\sum_{i=1}^n X_{ij}^t}{n};$$

S_j - бутун ўқиш даври учун X_j нинг стандарт оғиши:

* Тадқиқот натижаларига мувофиқ муаллиф томонидан шакллантирилган.

$$S_j = \sqrt{\frac{\sum_{j=1}^n (X'_{ij} - \bar{X}'_j)^2}{m}}$$

Худудлар иқтисодий салоҳиятининг алоҳида омилларини танлаш маълум бир кўрсаткичнинг омил юқининг қийматини аниқлашга имкон берадиган миқдорий усуллардан фойдаланишни ўз ичига олади. Натижада ЯХМ ва худуднинг ижтимоий-иқтисодий салоҳияти ўртасида сабаб-оқибатли боғлиқлик таъминланади. Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни баҳолаш ва прогнозлаштиришга доир таҳлил натижалари худуднинг ижтимоий-иқтисодий салоҳиятини миқдор ва сифат жиҳатидан тавсифловчи энг муҳим омилларни танлаш имкониятини беради. Омилларни танлаш жараёни худуднинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасини интеграл баҳолашни аниқлаш учун муҳим кўрсаткичлар таркибини ўзгаришсиз қолиши мумкин эмаслигини кўрсатади.

Юқорида худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни баҳолаш ва прогнозлаштириш жараёнида маълумотларни стандарт оғиши бўйича нормаллаштириш усулидан фойдаланиш бўйича таклиф этиладиган формулалар ҳар бир йўналиш бўйича худудларнинг ривожланиш тенденцияларини ҳисобга олишда таксономик таҳлил усулидан кенг фойдаланиш имкониятини беради. Аммо, бу усул жуда кўп турли хил хусусиятлар билан тавсифланган кўрсаткичларни солиштириш имкониятини бермайди. Хусусан, ушбу фарқланиш даражалари стимулятор ва дестимулятор характерга эга бўлиб, ҳар бир ўрганилаётган объектнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасига таъсир характери кенг кўламли асосга эга бўлади.

Натижалар. Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни баҳолаш ва прогнозлаштириш-нинг услубий асосларини такомиллаштириш орқали ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг комплекс худудий режаси-прогнозини ишлаб чиқишнинг асосий усуллари сифатида қуйидагилар қўлланилади:

Биринчидан, мантиқий моделлаштириш усуллари - иқтисодий ривожланишнинг умумий қонуниятлари асосида башорат қилинган ҳодисанинг ривожланишини сифат кўрсаткичини тавсифлайди. Шунингдек, ушбу усулдан фойдаланиш жараёнида иқтисодий ислохотлар сценарийси ва унинг оқибатларини ҳисобга олиш зарурати юзага келади. Масалан, молия-кредит сиёсати масалаларига мувофиқ солиқ сиёсатини шакллантириш, солиқ кодексини қабул қилиш ва солиқ ундиришнинг прогнозлаш муҳим аҳамиятга эга.

Иккинчидан, худуднинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш кўрсаткичларига таъсир қилувчи омилларнинг ўзгаришини эксперт баҳолаш усули. Ушбу усулдан худудий ресурсларни прогноз қилинадиган ҳажмини баҳолашда фойдаланиш мумкин (масалан, ноқулай об-ҳаво шароити туфайли сўнгги йилларда ҳосилдорликнинг пасайиши).

Учинчидан, баъзи ҳолларда ҳисоб-китобларда эгилувчанлик коэффицентлари қўлланилади. Эгилувчанлик коэффиценти прогноз жараёнида бошқа қийматнинг ўзгаришига қараб бир қийматнинг ўзгаришини кўрсатади. Эластиклик коэффицентларидан, хусусан, истеъмол товарларига бўлган талабни прогнозлашда фойдаланиш мумкин. Маълумки, масалан, товарга бўлган талаб унинг нархиға,

истеъмолчи даромадига ва бошқа бир-бирини алмаштирадиган товарлар нархига боғлиқ. Нархларнинг ўзгаришига нисбатан истеъмолчи томонидан талаб қилинадиган маълум маҳсулот миқдорининг ўзгариши талабнинг нарх эгилувчанлигини тавсифлайди. Амалда талабнинг нарх эгилувчанлиги қиймати талаб статистикаси - маълум бир маҳсулотни сотиш ҳажми тўғрисидаги маълумотлар асосида ҳисобланиши мумкин. Шундай қилиб, талабнинг истеъмол товарлари нархига боғлиқлигини аниқлаш учун дастлабки ҳисобланган кўрсаткич сифатида озиқ-овқат ва ноозиқ-овқат товарларининг айрим номенклатура объектлари бўйича қийсий нархларда савдо ҳажмининг кўрсаткичи олинади.

Тўртинчидан, иқтисодий-математик моделлаштириш усуллари - прогноз параметрлари ўртасидаги аналитик боғлиқликни аниқлаш учун қўлланилади. Математик ҳисоб-китоблар натижалари бошқа моделларда ҳисобга олинмаган маълумотларга мувофиқ тузатилган бошқа услубий ёндашувлар асосида олинган хулосавий натижаларни таққослаш имкониятини беради.

Хулоса. Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни баҳолаш ва прогнозлаштириш-нинг услубий асосларини таҳлил қилиш асосида қуйидагиларни таъкидлаш лозим:

биринчидан, худуднинг барқарор фаолият юритишини таъминлаш муаммоси доимий муаммо ҳисобланиб, баҳолаш ва прогнозлаштириш янги худудий сиёсатни шакллантириш, худудий иқтисодиётни барқарор ривожланишига йўналтирилган механизмларни асослашга йўналтирилган бўлиши керак;

иккинчидан, баҳолаш ва прогнозлаштиришнинг асосий мақсади худудий ривожланишни тартибга солишнинг мавжуд усуллари унга барқарор ривожланишнинг концептуал тамойилларини интеграциялашган ҳолда такомиллаштиришдан иборат бўлиши керак. Шунингдек, худудларда яшовчи аҳоли эҳтиёжларини максимал даражада қондиришга қаратилган худудий иқтисодиёт моделини шакллантириш лозим;

учинчидан, худудлар иқтисодиётининг барқарор ривожланиш даражасини баҳолаш нафақат худуднинг, балки бутун мамлакатни ривожлантириш тизими учун зарур. Бу борада ишлаб чиқариш, хўжалик фаолиятини режалаштириш, бошқариш, ташкил этиш ва назорат қилишнинг замонавий бозор тизимига йўналтирилган усуллари ўзлаштириш талаб этилади;

тўртинчидан, худудий ривожлантириш дастурларини ишлаб чиқиш ва молиялаштиришда иқтисодий фаолиятни таҳлил қилиш ва бошқариш жараёнлари принципаал аҳамиятга эга. Аҳолининг турмуш сифати ва даражасини ошириш, худудий иқтисодиёт тузилмасини такомиллаштириш, аҳолининг турмуш даражасини ошириш, аҳолининг турмуш даражасини ошириш зарурлигини ифодалаб беради.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 1 майдаги “Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш тўғрисида” ги ПҚ-4702-сонли Қарори.

2. Абдурахимов Д.А. Прогнозирование развития регионов Узбекистана / Д.А. Абдурахимов. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 21.1 (125.1). — С. 2-4. — URL: <https://moluch.ru/archive/125/34524/> (дата обращения: 31.03.2023).
3. Андреев А. В. Региональная экономика: учебник для вузов/А.В. Андреев. - СПб: Питер, 2012. – 464 с.
4. Боровик А. Основы и факторы, определяющие социально-экономическое развитие региона //Финансовая жизнь. – 2012. – №. 3. – С. 29-32
5. Дуброва Т.А. Статические методы прогнозирования. М.: Юнити, 2003, – 206 с.
6. Каримов Д.А. Республика худудларининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таҳлил қилишда рейтинг баҳолаш тизимининг моҳияти ва афзалликлари// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil., №5/2020. – Б. 179-188

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Nuraliyev Temurjon Erkinjon o'g'li,
Farg'ona Politexnika Instituti,
"Menejment" kafedراسи assistenti,
e-mail: tima4184@gmail.com

BIZNES JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA UNING TASHKILOT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada biznes jarayonlarini avtomatlashtirish orqali kompaniya istiqbolini ta'minlash mumkinligi haqida fikr yuritiladi, zero, biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish tizimini joriy yetish operatsiyalar tezligini oshiradi, ish faoliyatini sifat jihatidan yaxshilaydi va katta hajmdagi ma'lumotlarda kompaniyani boshqarish jarayonini soddalashtiradi. Maqola doirasida ko'plab biznes jarayoniga avtomatlashtirishning ta'siri ko'rib chiqildi va tahlil etildi, so'ngra umumiy xulosalar shakllantirildi, takliflar berildi.

Kalit so'zlar: biznes jarayonlari, boshqaruv jarayoni, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, avtomatlashtirish, ishlarini robotlashtirish, texnologik samaradorlik.

Нуралиев Темуржон Эркинжон угли,
Ферганский Политехнический Институт,
ассистент, кафедры "Менежмент",

ВАЖНОСТЬ АВТОМАТИЗАЦИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация. В этой статье рассматривается, как можно обеспечить перспективу компании за счет автоматизации бизнес-процессов, ведь внедрение системы автоматизации бизнес-процессов увеличивает скорость операций, качественно повышает производительность и упрощает процесс управления компанией в больших объемах данных. В рамках статьи было рассмотрено и проанализировано влияние автоматизации на многие бизнес-процессы, а затем сформулированы общие выводы, даны предложения.

Ключевые слова: бизнес-процессы, процессы управления, автоматизация бизнес-процессов, автоматизация, роботизация, технологическая эффективность.

Nuraliyev Temurjon Erkinjon o'g'li,
Fergana Polytechnic Institute,
Assistant, Department of "Management",

THE IMPORTANCE OF BUSINESS PROCESS AUTOMATION AND ITS IMPACT ON THE EFFECTIVENESS OF THE ORGANIZATION

Abstract. This article discusses how to ensure the company's perspective by automating business processes, because the introduction of a business process automation system increases the speed of operations, qualitatively increases productivity and simplifies the process of managing a company in large amounts of data. Within the framework of the article, the impact of automation on many business processes was considered and analyzed, and then general conclusions were formulated, suggestions were given.

Keywords: business processes, management processes, automation of business processes, automation, robotization, technological efficiency.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N08>

Kirish. Qattiq raqobat sharoitida muvaffaqiyatli ishlash zarurati korxonaning biznes jarayonlari samaradorligiga o'z talablarini qo'yadi. Samaradorlikni oshirish muammosini hal qilish jarayonlarni axborot bilan ta'minlash bilan uzviy bog'liqdir, shuning uchun bugungi kunda deyarli barcha korxonalar o'zining axborot tizimini yaratish zarurligiga shubha qilmaydi. Ushbu sohada qaror qabul qiladigan odamlarning aksariyati axborot tizimini yaratish yoki qurish masalalari biznes jarayonlarini takomillashtirish muammolari kontekstida hal qilinishi kerak degan fikrga qo'shilishadi. Shuningdek, bu tizim, yeng samarali ishlab chiqarish siklini doimiy ravishda axborot bilan ta'minlaydigan tizim bo'ladi — yangi mahsulotni yaratishdan boshlab to uning seriyali ishlab chiqarib uni iste'molchiga yetkazib berishgacha.

Shu bilan birga, korxonalarining axborot tizimlarini joriy etishga tayyorligiga qaramay, ularni qurish va amalga oshirish usullariga yondashuvlar, yumshoq qilib aytganda, xilma-xildir. Shu bilan birga, axborot tizimini joriy etishni boshlagan har qanday korxonada ushbu jarayonni eng qisqa vaqt ichida va yuqori sifatda amalga oshirishga intiladi, shu munosabat bilan amalga oshirish jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni oshiradi. Joriy etishning zamonaviy usullari jarayon yondashuvi deb ataladigan narsaga asoslanadi va bunday amalga oshirishning o'zi odatda jarayonga yo'naltirilgan yoki oddiygina jarayon deb ataladi. Uni qo'llash imkoniyati amalga oshirilayotgan tizimga ma'lum talablarni qo'yadi. Avvalo, bunday tizimda korxonaning biznes jarayonlarini takrorlash va ularni takomillashtirish vositalarining mavjudligi zarur. Boshqa talablar qatorida yagona axborot muhitining mavjudligi va foydalanuvchilarning bir xil axborot obyektlari bilan birgalikda ishlash qobiliyati muhimdir.

Ma'lumki, ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish jarayonlari ishlab chiqarishni loyihalash va texnologik tayyorlash bosqichida paydo bo'ladigan ma'lumotlarga asoslanadi. Binobarin, butun axborot tizimining samaradorligi ushbu bosqichda olingan ma'lumotlarning dolzarbligi va to'liqligiga bevosita bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarishni loyihalash va texnologik tayyorlash ishlab chiqarish masalalarini hal qilish uchun axborot asosi bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi bir necha yil ichida biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va robotlashtirish jadal rivojlanishi kuzatildi. Global raqamli jarayonlarni avtomatlashtirishning kelajagi ham yorqin va bulutsiz: ushbu bozor 2018-yildagi 6,77 milliard dollardan 2023-yilga kelib 12,61 milliard dollargacha o'sishi kutilmoqda [1].

Zamonaviy kapitalistik iqtisodiyotdagi tashkilotlar uchun biznes jarayonlarini boshqarish har doim muhim bo'lgan. Biznes jarayonlarini boshqarish kompaniyalarga o'zlarining "hozirgi holatini" tushunishga, takomillashtirish sohalarini aniqlashga va rivojlanish, samaradorlik va rentabellikni oshirish uchun harakatlar rejalarini ishlab chiqishga imkon beradi. Bozor iqtisodiyotida moliyalashtirish manbalarining ishonchliligi, xavfsizligi, riskiligi, daromaddorligi, likvidiligi, aniq maqsadlari va ularga erishish usullari o'rtasida chambarchas aloqadorlik bor [14]. Shuningdek, biznes jarayonlarini boshqarish axborot texnologiyalari va operatsion texnologiyalarga investitsiyalarni biznes strategiyasi bilan uyg'unlashtirishning kalitidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sanoatning barcha tarmoqlarida texnologik taraqqiyot asosan ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish darajasi bilan belgilanadi. Jarayonlarni avtomatlashtirish mehnat unumdorligini oshiradi, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sonini kamaytiradi, mehnat sharoitlarini yaxshilaydi, mahsulot sifatini oshiradi va uning narxini pasaytiradi, uskunalardan samarali foydalanish ko'rsatgichlarini yaxshilaydi, ishlab chiqarish braklarini va chiqindilarini kamaytiradi, baxtsiz hodisalarni oldini oladi va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshiradi.

Shu o'rinda biz "ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish" termini haqida to'xtalishimiz darkor, chunki ko'plab biznes jarayonlari va nazariy fikrlar turli tarmoq va sohalar fonida juda xilma-xil izohlanadi. Misol uchun hozirgi vaqtda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish: mashinasozlikda-avtomobillarni bo'yashda, avtozavod konveyerlarida metallni kesishda; qurilish ishlab chiqarishda – tuproq ishlarini robotlashtirish va avtomatlashtirishda, qurilish bloklari va elementlarini o'rnatishda, beton ishlarni avtomatlashtirishda, pardozlash uchun robot komplekslarida foydalanishda, hatto harbiy ishlarda ham qo'llaniladi.

XXI asr kelib jarayonlarini avtomatlashtirish gullab-yashnagan davrini boshladi hamda insoniyat jamiyati hayotiga to'liq kirib borishiga erishdi. Biz endi kompyuterlar, mobil telefonlar, kontrollerlar, mikroprotsessorlarsiz o'z hayotimizni tasavvur qila olmaymiz.

Bularning barchasi XX asrning 80-yillari boshidan elektronika va mikroelektronikaning jadal, inqilobiy rivojlanishi natijasida mumkin bo'ldi. Bu borada mamlakatimiz olimlari H.P. Abulqosimov va boshqalar o'zining "Institutsional iqtisodiyot" nomli darsligida shunday yozadi "XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan mamlakatlar innovatsion sohalar ustuvor bo'lgan post industrial jamiyatni yaratdilar. Bu iqtisodiyot innovatsion iqtisodiyot deb ataldi, chunki innovatsiyalar iqtisodiyotning barcha sohalarida va jabhalarida yaratildi va ishlatildi Natijada innovatsiyalarni ommaviy ishlab chiqarish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy kaliti – yuqori malakali va ijodiy inson kapitali to'plandi" [2; 434 b].

Shu o'rinda yana shuni ta'kidlash kerakki biznes jarayonlarini avtomatlashtirish barcha sohalarga tegishli va har bir sohaning rivojini belgilaydi misol uchun respublikamiz iqtisodchi olimlaridan N.A.Mavrulova "Sug'urtada axborot texnologiyalari" nomi o'quv qo'llanmasida sug'urta biznesni avtomatlashtirish haqida shunday fikr bildirgan "O'zbekiston sharoitida sug'urtani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyati va tez sur'atlarda o'sishi, sug'urta tashkilotlari oldida turgan qator rivojlanish muammolari sug'urtalashni avtomatlashtirishni zaruratga aylantirmoqda. Shu bilan birga, sug'urta faoliyatini avtomatlashtirish uchun dasturiy ta'minot nafaqat sohaning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan va ushbu muammolarni hal qiladigan, balki sug'urta kompaniyasi faoliyati samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan talablarga javob berishi kerak [3; 4 b].

Fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo bundan 150-yildan oldin biznes jarayonlarini avtomatlashtirish muammolari haqida fikr yuritgan edi [4], demak o'sha davrlarda ham jarayonlarni avtomatlashtirish masalasi dolzarb bo'lib hisoblangan. Albatta, dunyodagi texnik va raqamli inqiloblar mehnat bozori holatida o'z aksini topadi. Kadrlar bo'yicha mutaxassislarining ta'kidlashicha, bunday faol innovatsion o'zgarish bir qator kasblarning yo'q bo'lib ketishiga olib kelishi mumkin [10]. Darhaqiqat, professional doiralarda jarayonlarni avtomatlashtirish ba'zi kasblarni "yeydi" yoki hatto ularning ba'zilari yo'q bo'lib ketishi sababli

ommaviy ishsizlikka olib keladi degan fikrlar ham mavjud. Ammo bu uydirma va haqiqatga mos kelmaydigan fikr deyidigan mutaxassislar ham bisyor.

Ma'lum bo'lishicha, agar biz ma'lum biznes jarayonlarini avtomatlashtirsak, ishsiz odamlar havzasini yaratamiz. Nafaqat malakali, e'tirof etilgan obro'li kishilar ish topa olmaydigan vaziyat yaratiladi, va bu havza barcha uchun tegishlidir degan qarashlar mavjud. Bunda haqiqat bordek tuyulishi mumkin, ammo bu muammoni birinchi, yuzaki ko'rinishidir. Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish takomillashtirish va rivojlantirishning eng samarali hamda to'g'ri yo'ldir [5; 235 b]. Bugungi kunda o'zingizga savol bering, biz nimani modernizatsiya qilishga birinchi navbatda harakat qilyapmiz? Asosan, biz davriy, muntazam, ijodiy va intellektual yondashuvni talab qilmaydigan vazifalar haqida gapiramiz. Ammo inson robot emas, bu o'z tajribasi va hayotga qarashiga ega ijodiy shaxsdir. U ushbu ijodiy ehtiyojlarni amalga oshirishni xohlaydi, shundagina u o'zi bilan uyg'unlikda yashay oladi.

Optimist mutaxassislar biznes jarayonlarini avtomatlashtirishni farovonlik, jamiyat va turmush darajasini evolyutsion takomillashtirish yo'li deb bilishadi. Ishsiz qolish qo'rquvi mutaxassisning qobiliyatsizligi, ularning bilimlari, ko'nikmalari va salohiyatlariga ishonchsizlik tufayli yuzaga keladi. Agar mutaxassis strategik fikrlashga qodir bo'lmasa, u robot kabi harakat qilishga odatlangan bo'lsa, ha, afsuski, bu kishilar jarayonlarda chetda qoladi. Jarayonlarni avtomatlashtirish jamiyat rivojlanishining tabiiy bosqichidir. Formulali tarzda harakat qiladigan va o'ylaydigan odamlar o'zlarining samaradorligi haqida o'ylashga majbur bo'ladilar, ehtimol ular yangi kasblarni o'rganishlari va yangi ko'nikmalarni o'rganishlari yo'lini tanlashlari kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaning yozishdan belgilangan vazifalarni hal qilishda biznes jarayonlarini avtomatlashtirishning bo'yicha nazariyalar va tadqiqot, amaliyotda qolinayotgan usullar tahlil etildi bunda quyidagilarga asoslanadi: tizim va omili tahlili, funksional modellashtirish, ma'lumotlar tahlil etish va ekspert baholash. Bunda asosiy masala sifatida biznes jarayonlarini avtomatlashtirishning ehtiyoji va uning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini o'rganish belgilan olindi.

Natija va muhokamalar. Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish-bu dasturiy ta'minotdan foydalanish orqali operatsiyalar, ma'lumotlar va resurslarni boshqarish imkonini beruvchi jarayonlarni boshqarish yondashuvi. Shuningdek, avtomatlashtirish zamonaviy ilmiy va texnologik taraqqiyotning yo'nalishlaridan biri sifatida tushunilishi kerak, bu o'z - o'zini tartibga soluvchi texnik vositalar va matematik usullar majmuasidir, o'z navbatida firma xodimlarini bevosita ishlab chiqarish, shuningdek, energiya, turli materiallar, mahsulotlar yoki axborotdan foydalanish jarayonlarida ishtirok etishdan ozod qilish uchun faol foydalanadi [6], [8].

Avtomatlashtirish qanday ishlashini tushunish uchun avval biznes jarayoni nima ekanligini tushunishingiz kerak. Bu biznesga ma'lum bir maqsadga erishishga yordam beradigan har qanday harakatlar ketma-ketligi bo'lishi mumkin. Avtomatlashtirish bilan birgalikda bu IT tizimlari, xizmatlari, dasturlari ishtirok etadigan bir qator bosqichlardan iborat takroriy operatsiyalarda tashkil topadi.

Masalan, biznes jarayonlari buyurtmani bajarish, arizani tasdiqlash, hisobotni qayta ishlash yoki yangi xodimni yollashni o'z ichiga olishi mumkin. Biznes jarayonlarini boshqarish tizimi bilan ushbu vazifalar odatda elektron pochta xabarlari, hujjatlar bilan ishlash, qo'ng'iroqlar va boshqa harakatlar zanjiri orqali amalga oshiriladi. Ammo odam ushbu

vazifalarni bajarayotganda, hatto kichik xato ham muvaffaqiyatsizliklarga hamda muddatlarning surilishiga olib keladi.

O'sish, rivojlanish, saralay o'zgarishlar har qanday biznesning maqsadidir. Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish ushbu maqsadlarga erishishga yordam beradigan va biznesning turli yo'nalishlarini keyingi bosqichga olib chiqadigan strategiyalardan biridir. Buni ko'plab jarayonlar misolida ko'rish mumkin.

Mijozlar boshqarish. Kichik kompaniyalar uchun mijozlar ma'lumotlar bazalarini boshqarish ko'pincha qiyin, ammo maxsus xizmatlar hamda dasturlar ularni yangilab turishga yordam beradi va bu dolzarb vazifani hal etish imkoniyati yaratiladi. Kerakli ma'lumotlarga kirishni tom ma'noda bitta tugmani bosish orqali olish mumkin bo'ladi.

Marketing. Kompaniyalar biznes operatsiyalarini soddalashtiradigan va qayta tuzadigan ekotizimlarni yaratadilar. Buning uchun ko'pincha turli xil xizmatlar qo'llaniladi, ko'pincha bitta yechim boshqasiga birlashtiriladi [11].

Mijozlarni qo'llab-quvvatlash. Avtomatlashtirish vositalari mijozlarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq ko'plab muammolarni bartaraf etadi: har qanday so'rov kuzatiladi va yo'qolmaydi. Kompaniyalar potensial va mavjud mijozlarni xizmatga yoki dasturga qo'shishlari mumkin, shunda ular xabarlar, bildirishnomalar orqali aloqalarni boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Vazifalar sonini kamaytirish. Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish qo'lda ishlashni minimallashtiradi. Bu, masalan, xabarlar, minnatdorchilik xatlari, eslatmalar, rejalashtirish, mijozlarni boshqarish va boshqa vazifalarni yuborish uchun foydalidir.

Loyihalarni boshqarish. Avtomatlashtirish tufayli kompaniyalar vazifalar va amalga oshirish bosqichlarini kuzatishi mumkin. Loyihaga osongina kirish va ish qanday ketayotganini nazorat qilish mumkin bo'lganda qulay tizim yaratiladi.

Dolzarb masalalarni tezda muvofiqlashtirish. Avtomatlashtirish vositalarini joriy etish tasdiqlash zanjirini qisqartiradi va natijada bu jarayonni tezlashtiradi. Dunyo iqtisodiyotining yuqori sur'atlarda rivojlanishi xamda uning xususiyatlari korxonalar faoliyaning professional yondashuvni talab qiladi [9].

Savdo bo'limi uchun tahlil vosita. Savdo menejerlari noyob ma'lumotlarga ega bo'ladi (real vaqtda reja-fakt tahlili va boshqalar). Ma'lumotlar ichidan keraksizlarini o'z vaqtida aniqlash va murakkabliklarni aniqlash hamda yo'q qilish, ko'proq sotishga yordam beradigan ma'lumotlardan foydalanishni joriy etish.

Samarali aloqa. Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish biznesga umumiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Barcha jarayonlar birlashtirilgan va aloqa uzilishlari to'xtaydi.

Xatolarni kamaytirish. Avtomatlashtirilgan vositalar odatda odamlarga qaraganda aniqroq. Ular insonning samarasizligi va xatolari bilan bog'liq qimmat xarajatlardan qochishga yordam beradi. Bunday vositalardan foydalanish uzoq muddatli istiqbolda boshqaruv xarajatlarini tejashga imkon beradi.

Siz deyarli har qanday biznes jarayonini avtomatlashtirishingiz mumkin. Ko'pincha, bu jarayonlar sotish, sotib olish, xodimlarni boshqarish, mahsulotni ishlab chiqish, inventarizatsiyani kuzatish, logistika va etkazib berish, o'qitish, IT, ishlashni boshqarish, ma'lumotlarni tahlil qilish va xavflarni baholash bilan bog'liq.

Avtomatlashtirish kompaniya ishini soddalashtiradi, uni boshqarishga imkon beradi va mahsuldorlikning o'sishiga hissa qo'shadi. Bundan tashqari, biznes jarayonlarini boshqarishni avtomatlashtirish tizimlari kerak bo'lganda takomillashtirish orqali ularni tezda boshqarishga yordam beradi. Avtomatlashtirishning yuqori darajasi jarayonni aqlli tahlil qilishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda umuman korxonada faoliyatini optimallashtirishning asosiy omilidir [7].

Avtomatlashtirishni amalga oshirishdan oldin, sizning kompaniyangiz nima uchun kerakligini tushunish muhimdir. Muayyan jarayon qanday ishlashi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishga harakat qiling, mavjud infratuzilma va biznes imkoniyatlarini tushunib oling.

Jarayonlarga va umuman biznesga ta'sirini to'liq baholamasdan avtomatlashtirishga o'tish ko'pincha rivojlanishni va samaradorlikning pasayishiga olib keladi. Deyarli har bir takrorlanadigan biznes jarayoni qulay vositalar yordamida avtomatlashtirilishi mumkin va kerak:

- xabarlarini jo'natish;
- mijozlar bilan aloqa qilish jarayoni;
- marketing kampaniyasini rejalashtirish va ishlab chiqish jarayoni;
- ishga qabul qilish jarayoni;
- dasturiy ta'minotni ishlab chiqish jarayoni;
- jamoa bilan hamkorlik;
- natijalarni kuzatish va takomillashtirish;
- hisobotlarni tarqatish va saqlash;
- mijozlarga xizmat ko'rsatishda muammolarni hal qilish;
- ish haqi.

Jarayonni tahlil qilgandan so'ng, siz biznes maqsadlariga mos keladigan texnologiyani tanlashga o'tishingiz mumkin.

Siz tanlagan avtomatlashtirish turi oxirgi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olishi kerak. Barcha manfaatdor tomonlar o'zgarishlardan mamnun bo'lishlari kerak. Biror jarayonni avtomatlashtirish uchun ishlash usulini butunlay o'zgartiradigan tizimlarni qo'llashdan mantiqiy ma'no yo'q. Aksincha, u allaqachon ishlatilgan vositalarni takomillashtirishi kerak.

Amalga oshirish bosqichida texnologiya o'rnatiladi. Shu bilan birga, siz bir qator vazifalarni bajarishingiz kerak, shu jumladan funksiyalarning batafsil ro'yxatini yaratish, foydalanuvchilarni o'qitish va kirishni ta'minlash. Texnik yordamdan foydalanish juda muhimdir. Yakuniy bosqich "to'siqlarni" va jarayonga xalaqit beradigan barcha omilarni topishga qaratilgan bo'ladi. Keyinchalik, kamchiliklarni tuzatish uchun zarur chora tadbirlar rejasi yaratiladi.

Xulosa. Har bir biznes sohasi noyob bo'lganligi sababli, avtomatlashtirishni joriy yetish butun sohaga ham, ish qoidalariga ham individual yondashuvni talab qiladi.

Lekin bizningcha barcha biznes jarayonlarini avtomatlashtirishni uchta asosiy bosqichga bo'lish lozim:

Asosiy — kompaniyaning daromadiga bevosita ta'sir qiladigan, bu kompaniyaning asosiy faoliyatini ifodalaydi: ishlab chiqarish, sotish, marketing, mijozlar bilan ishlash.

Qo'llab quvvatlash — bu to'g'ridan-to'g'ri kompaniya daromadga ta'sir qilmaydi, ammo ularsiz ishlash imkonsiz bo'ldi: kadrlar, buxgalteriya hisobi, texnik yordam bo'limi.

Boshqaruv — biznesni boshqarishga imkon beradi, bu kompaniyaning maqsadlari, strategiyalari va rivojlanishini rejalashtirish bilan bogʻliq tashkiliy biznes jarayonlarini oʻz ichiga oladi.

Avtomatlashtirish biznes hajmidan qatʼi nazar ishlatilishi mumkin. Biroq, hamma ham murakkab avtomatlashtirishga muhtoj emas.

Bozorda mavjud boʻlgan tayyor yechimlar kichik biznes uchun juda mos keladi-individual loyihani yaratish va katta miqdorda sarmoya kiritish mantiqiy jihatdan shart emas. Yirik kompaniyalar koʻpincha individual jarayonlarni yagona integratsiyalashgan tizimga avtomatlashtiradilar. Bunday hollarda standart yechimlar yetarli emas, shuning uchun jarayonlarni avtomatlashtirilgan tizimi buyurtma asosida yaratiladi. Agar biz yirik korporatsiyalar haqida gapiradigan boʻlsak, unda ular avtomatlashtirish tufayli ular muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu yerda kompaniyani toʻliq modernizatsiya qilish uchun yechimlar tanlanadi, bu barcha jarayonlarga chuqur shoʻngʻishni va individual yechimni yaratishni talab qiladi.

Soʻngi xulosa sifatida shuni aytish mumkinki biznes jarayonlarini avtomatlashtirish-bu yaqin kelajakda biznes tayanishi kerak boʻlgan asosiy omildir. Raqobat endi biznes samaradorligi, tezlik va xizmat koʻrsatish nuqtai nazaridan kelib chirib shakllanadi.

Agar ilgari avtomatlashtirish faqat yirik biznes uchun mavjud boʻlgan boʻlsa, endi bu rivojlanish vositasi va kichik biznes uchun ham zarur. Shuning uchun, zamonaviy axborot texnologiyalariga barcha biznes vakillari uchun zaruriy ehtiyojga aylanib boʻldi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, texnologiyaning samaradorligi ularni boshqaradigan odamlarga bogʻliq.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Schaefer, R., Schmidt, H. M. A., Ravasi, G., Mozalevskis, A., Rewari, B. B., Lule, F., ... & Dalal, S. (2021). Adoption of guidelines on and use of oral pre-exposure prophylaxis: a global summary and forecasting study. *The Lancet HIV*, 8(8), e502-e510.
2. InstitutSIONAL iqtisodiyot: darslik./ Н.Р. Abulqosimov, В.В. Berkinov, М.Н. Abulqosimov, А.Т. Umarov, А.А. Qulmatov – Т.: “LESSON-PRESS” nashriyoti”, 2021. – 511 b.
3. N.A.Mavrulova. Sugʻurtada axborot texnologiyalari (Oʻquv qoʻllanma).. – Т.: “Nihol print” OK, 2022. – 120 b.
4. Ботнарюк, М. В., & Классовская, М. И. (2020). Цифровые технологии: новые решения в управлении бизнес-процессами в транспортной логистике. *Морские интеллектуальные технологии*, 4(4), 73-78.
5. Щербаков В.В. Автоматизация бизнес-процессов в логистике: Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения / В.В. Щербаков, А.В. Мерзляк, Е.О. Оглы. — Санкт-Петербург : Питер, 2020. — 464 с.
6. Kudbiev, D., Tursunova, D., & Qudbiyev, N. (2022). Buxgalteriya Hisobini Avtomatlashtirish Masalalari. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 107-112.
7. Морозевич Е.С., & Панфилов И.А. (2017). Process Mining как инструмент совершенствования бизнес-процессов. *Решетневские чтения*, (21-2), 228-229.

8. Раззакова, Д. (2022). Системы Автоматизации Бухгалтерского Учета-Основа Эффективного Управления Экономикой. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(5), 62-67.
9. Razzaqova, D. A. Q. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI AVTOMATLASHTIRISHNING ROLI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 2(8), 243-249.
10. Роздольская, И. В., & Исманов, И. Н. (2019). Стратегическая направленность разработки функционально-целевой модели институционального менеджмента как нового прикладного направления современного управления. In *Экономика и управление: инновационное решение проблем* (pp. 7-15).
11. Davlyatova, G. M., & Kurpayanidi, K. (2020). Marketing as the main factor in introducing innovative products to the market. *International Multidisciplinary. Research Journal*, 10(5), 430.
12. Davlyatova, G. M., & Abdullaeva, S. H. (2020). Economic perspectives of using the model "UNIVERSITY 3.0" in the education system of Uzbekistan. *Экономика и бизнес: теория и практика*, (2-1), 75-79.
13. DavlyatshaeV, A. A., & Temirkulov, A. A. (2022). Internationalization of the Educational Process in a Market Economy. *Journal of algebraic statistics*, 13(3), 3459-3464.
14. Давлятшаев, А. (2023). O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(3), 78-87.
15. Abdullayeva, M. (2019). Яшил иқтисодиётни шакллантиришда энергия сарфини камайтиришнинг асосий жихатлари. *Архив научных исследований*.
16. Одинаев, Д. Ш. (2018). Жаҳонда «яшил иқтисодиёт» нинг энергетика соҳасига йўналтирилган инвестицияларнинг ҳозирги ҳолати таҳлили ва ривожланиш тенденциялари. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (7), 2-13.
17. Афанасьев В. Нам пора реально включиться в борьбу против угрозы глобальной экологической катастрофы - Россия вполне в состоянии стать локомотивом развития экологических технологий / В. Афанасьев // БОСС. Бизнес: организация, стратегия, системы. - 2013. - № 11. - С. 42-55.
18. IEA (2023), *Monthly Electricity Statistics*, IEA, Paris <https://www.iea.org/data-and-statistics/data-tools/monthly-electricity-statistics>

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Қаршиев Келдиёр Эшпулатович

Олмалиқ шаҳар хокимияти,
ҳоким ёрдамчиси

E-mail: kkeldiyor@gmail.com

ЎЗБЕКИСТОН СУҒУРТА БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ ХИТОЙ ТАЖРИБАСИ АСОСИДА

Аннотация. Ушбу мақолада Хитой суғурта бозорини ривожланиш жараёнлари тахлили келтирилиб, Хитой суғурта бозорининг Ўзбекистон суғурта бозори билан қиёсий тахлили асосида Ўзбекистон суғурта бозорини ривожлантириш истиқболлари келтирилган. Ўзбекистон суғурта бозорида ҳаёт суғуртаси аҳамиятини ошириш бўйича таклифлар мавжуд.

Калит сўзлар: суғурта бозори, эркин савда, суғурта компанияси, ҳаёт суғуртаси, суғурта захираси, узоқ муддатли инвестиция, экспорт суғуртаси, суғурта бадали, суғурта портфели, шахсий суғурта, суғурта фаолияти.

Қаршиев Келдиёр Эшпулатович,

Алмалыкский городской хакимият,
помощник хакима

ПУТИ РАЗВИТИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ОПЫТА

Аннотация. В данной статье представлен анализ процессов развития страхового рынка Китая, перспективы развития страхового рынка Узбекистана на основе сравнительного анализа страхового рынка Китая со страховым рынком Узбекистана, есть предложения по повышению значимости жизни страхование на страховом рынке Узбекистана.

Ключевые слова: страховой рынок, свободная торговля, страховая компания, страхование жизни, страховой резерв, долгосрочные инвестиции, экспортное страхование, страховая премия, страховой портфель, личное страхование, страховая деятельность.

Karshiev Keldiyor Eshpulatovich

Almalyk city government,
assistant to the mayor

WAYS OF DEVELOPMENT OF THE INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN ON THE EXAMPLE OF THE CHINESE EXPERIENCE

Abstract. This article presents an analysis of the development processes of the Chinese insurance market, prospects for the development of the insurance market of Uzbekistan based on a comparative analysis of the Chinese insurance market with the insurance market of Uzbekistan, there are proposals to increase the importance of life insurance in the insurance market of Uzbekistan.

Key words: insurance market, free trade, insurance company, life insurance, insurance reserve, long-term investments, export insurance, insurance premium, insurance portfolio, personal insurance, insurance activity.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N09>

Кириш. Суғурта бозори мамлакат молия бозорининг ажралмас қисми ҳисобланади. Суғурта хизматлари бозорининг ривожланиши миллий ишлаб чиқариш соҳасининг жадал ўсиши билан чамбарчас боғлиқ. Суғурта хизматлари бозорининг ривожланишига қимматли қоғозлар бозорининг ҳамда инвестиция бозорининг кенгайиши, шунингдек мамлакат иқтисодиётининг жаҳон иқтисодиётига интеграциялашув жараёнларини тезлашиши ижобий таъсир қилади. Сўнгги йилларда жаҳон суғурта бозорида ўртача ўсиш суръатлари кузатилмоқда. Суғурта хизматлари ривожланаётган бозорларда ҳаётни суғурталаш бўйича тўловларнинг ўсиши барқарор бўлмоқда. Айнан ривожланаётган Осиё мамлакатлари суғурта бозорида суғурта хизматларига бўлган талаб ўсишда давом этмоқда. 2021 йил жаҳон суғурта бозори кўрсаткичлари бўйича “Swiss Re Institute” ҳисобатига кўра асосий бозорларда суғурта мукофотларининг ўсиши Хитой учун 6,3%, АҚШ учун 1,7%, Ғарбий Европа учун 2,8% ва ривожланаётган бозорлар учун 5,6% даражасида прогноз қилинган[1].

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили ва методология. Хитой суғурта бозорини тараққий топиш жараёнлари турли хил усулларда МДХ ва хорижий олимлар томонидан тадқиқ этилмоқда. МДХ олимларидан Вerezубова Т.А., Исаченко В.Ю. Жилина Л.Н лар томонидан илмий изланишлар олиб борилган. Bingzheng Chen, Sharon Tennyson, Maoqi Vang va Xayzhen Chjou Цай Юньсяолар томонидан “Хитой суғурта бозорининг ривожланиши ва тартибга солиниши: тарих ва истиқболлари” ҳақидаги тахлилий илмий мақолаларда Хитой суғурта бозори ҳақида илмий изланишлар олиб борилган. Мақоламиз Хитой суғурта бозори ривожланишини қиёсий тахлили асосида Ўзбекистон суғурта бозорини ривожлантириш йўллари тахлил қилинганлиги билан ажралади.

Муҳокама ва натижалар. Хитойда макроиқтисодий муҳитнинг ўзгариши, инновацион технологияларнинг жорий этилиши ва аҳоли сонининг кўплиги каби омиллар Европа ва АҚШ суғурта бозорларидаги ривожланиш омилларидан фарқ қилади. Шунингдек Хитойнинг 2001 йилда ЖСТга аъзо бўлиши ва у билан боғлиқ ҳолда ташқи иқтисодий сиёсатдаги ўзгаришлар суғурта бозорининг ўсишига хизмат қилмоқда.

Хитой суғурта бозори дунёдаги энг йирик суғурта компаниялари жумладан “United Health Group” АҚШ, “АХА” Франция, “Allianz” Германия каби йирик суғурта компанияларининг диққат марказига айланди. Бу қизиқишнинг моҳияти шундаки мамлакатда 1 миллиард 400 миллиондан ортиқ аҳоли истиқомат қилиши ҳаёт суғуртасини ривожланиши учун муҳим манба ҳисобланади. Хитойнинг 2000 йилдан 2023 йилга қадар Ялпи ички маҳсулоти ўртача 5-6 фоиз атрофида ўсиш тенденциясига эга эканлиги, қулай иқтисодий муҳитнинг шаклланганлиги хорижий суғуртачиларнинг қизиқишини орттирди. Хитойнинг замонавий суғурта бозори тузилган шартномалар сони ва ундирилган мукофатлар ҳажми бўйича дунёдаги энг йирик суғурта бозорлардан бири ҳисобланади. Суғурта бозорида мол-мулкни суғурталаш билан боғлиқ суғурта турлари суғурта портфелида иккинчи ўринда туради.

Хитой суғурта бозори тарихига эътибор қаратсак ушбу бозор ривожланиши юз йилдан ошиб ҳар доим давлатнинг қаттиқ назорати остида фаолият юритган. 1805

йилдан бошлаб Хитой ва Англия ўртасида халқаро савдони амалга оширувчи юк кемаларини суғурта қилиш амалиёти инглизлар томонидан амалга оширилган. 1865 йилда Хитойнинг Шанхай худудида “Yihe” деб номланган миллий суғурта компанияси ташкил топган[2; 3; 2-б.].

1912 -1925 йиллар оралиғида Хитойда 39 та суғурта компанияси фаолият юритган. Ушбу даврда Англия АҚШ каби ривожланган давлатларнинг халқаро суғурта компаниялари Хитой суғурта бозори иштирокчилари саналган. 1926-1936 йилларда Хитой суғурта компаниялари фаолияти ривожланиб уларнинг умумий капитали ўтган ўн йилликка нисбатан бир неча баробарга ошган. Миллий суғурталанувчиларга сифатли суғурта хизматлари кўрсатилиб ушбу даврда Хитой банклари суғурта соҳасига инвестиция киритиш амалиётини бошлаган. 1929 йилда Хитой ҳукумати томонидан “Суғурта фаолияти тўғрисида”ги қонун ишлаб чиқилган.

1949 йилда Хитой Халқ Республикаси қайта ташкил топгач суғурта соҳаси устидан қаттиқ давлат назорати ўрнатилган, малакатдаги ўтиш даври қийинчиликлари сабабли Хитой ҳукумати суғурта соҳасини монополлаштиришга мажбур бўлган. Суғурта соҳасида ягона монопол давлат суғурта компанияси PICC (People’s Insurance Company of China - Хитой Халқ суғурта компанияси) ташкил этилиб суғурта соҳасида фаолият юрита бошлаган. 1956 йилга келиб ушбу компания икки миллион Юанлик капитал билан барча бошқа суғурта компанияларни ўзида бирлаштириб ягона монопол суғурта ташкилотига айланиши Хитой суғурта бозоридан бошқа барча хорижий суғурта компанияларини тарк этишига олиб келган. 1953-1954 йилларда суғурта соҳасида кўпгина тартибсизликлар суғурта бозоридаги муаммолар Хитой ҳукумати томонидан бир неча бор муҳокама қилиниб охир оқибатда 1958 йилда Хитойда суғурта соҳасини тугатиш тўғрисида қарор қабул қилинган. Ташқи иқтисодий фаолиятда мажбурият юзасидан хорижий суғурта компаниялари билан камдан-кам ҳолатларда халқаро суғурта фаолияти амалга ошириб турилган. Ушбу даврда Хитой фирмалари ва тадбиркорлари ҳамда аҳолиси учун суғурта хизматлари кўрсатилмаган.

1978 йилдан Хитойда режали иқтисодиётдан чекиниш ва очиқ иқтисодиётга ўтиш даври бошланди. Хитой халқ банки ташаббуси билан суғурта соҳасини қайта тиклаш ва замонавий суғурта тизимини ташкил этиш ҳаракати ишлаб чиқилиб унга кўра PICC (People’s Insurance Company of China - Хитой Халқ суғурта компанияси) Хитой халқ банкидан ажралиб чиқиб фуқароларни бахтсиз ходисалардан ва уларнинг мол-мулкларини турли хил хавф-хатарлардан суғурталаш хизматларини ташкил этди[4].

1980 йилдан бошлаб Хитойда суғурта соҳаси тиклана бошлади. 1980 йилда PICC (People’s Insurance Company of China - Хитой Халқ суғурта компанияси) суғурта компаниясининг суғурта мукофатлари миқдори 460 миллион Юанга тенг бўлиб 2000 йилда ушбу кўрсаткич 160 миллиард Юан бўлиб 347 баробарга ошган. 1980-2000 йилларда Хитой суғурта бозори йилига 30 фоизга ўсган. 1988 йилда Хитой суғурта бозорида иштирокчилар сонини кўпайтириш мақсадида Ping An Insurance суғурта компанияси ташкил этилди ушбу компания бугунги кунда дунёдаги топ 10 суғурта компаниялари қаторида фаолият олиб бормоқда. 1996 йилдан Хитойда суғурта хизматини кўрсатиш бўйича АҚШ нинг машҳур AIG (American International Group). Суғурта компанияси лицензия асосида фаолият юрита бошлади. 1980 йилларнинг ўрталарига келиб суғурта хизматларини кенгайтириш мақсадида PICC (People’s

Insurance Company of China) суғурта компанияси Хитой халқ банки назорати остида “PICC Group” холдинг компаниясига айлантирилиб унинг 4 та шўба қорхоналари ташкил этилди. Ушбу шўба қорхоналарни ҳар бирининг мамлакатни барча ҳудудларида бўлинмалари мавжуд бўлиб улар томонидан жисмоний ва юридик шахсларга барча суғурта хизматлари ташкил этилган. Хитой суғурта бозорининг юқори рентабеллиги ва жозибadorлигини ошириш натижасида 1991 йилда (China Pacific Insurance - Хитой Тинч океани суғуртаси) суғурта компанияси ташкил этилди. China Pacific Insurance Group суғурта компанияси мулк ва бахтсиз ходисалардан суғурталаш, ҳаёт ва қайта суғурталаш, активларни бошқариш ва инвестицияларни ташкил қилувчи интеграциялашган суғурта провайдери ҳисобланиб Хитой суғурта бозорида эткачи суғурта компаниялардан биридир.

1998 йилга келиб Хитой суғурта бозорини янада ривожлантириш ва назорат қилишни такомиллаштириш мақсадида Хитой ҳукумати томонидан суғуртани назорат қилиш ва тартибга солиш учун CIRC (China Insurance Regulatory Commission) ташкил этилди. “CIRC” томонидан “PICC Group” холдинг компаниясининг амалда фаолият олиб бораётган 4 та шўба қорхоналари PICC (ҳаёт бўлмаган суғурта), China Re (қайта суғурта қилиш), China Insurance ХК (хорижий фаолият), China Life (ҳаёт суғуртаси). фаолияти янада ривожлана бошлади. Айнан ушбу даврдан бошлаб Хитой суғурта бозорида ҳаётни суғурталаш бўйича суғурта мукофатлари ўса бошлади.

Ҳозирга даврда Хитойда суғурта қонунчилиги либераллаштирилмоқда, фоиз ставкалари ошиш тенденциясига эга. Аҳоли фаровонлигини ошаётганлиги узоқ муддатли ҳаёт суғуртаси ва шахсий суғурта билан боғлиқ суғурта маҳсулотларини сотиш бозорда устунлик қилаётганлиги кузатилмоқда.

Суғурта хизматлари бозори иштирокчиларининг молиявий барқарорлигини ошириш ва улар ўртасидаги соғлом рақобатни ривожланиши каби муҳим омиллар суғурта тизимини мустақамланишига олиб келиб миллий суғурталанувчиларнинг суғурталовчиларга бўлган ишончини оширади.

Ўзбекистон суғурта бозори 2020-2021-2022 йиллар якунига кўра бир қанча ижобий кўрсаткичларга эришган. Булар асосан суғурта мукофатлари ҳажмини ва суғурта қопламалари ҳажмини ошганлиги билан характерланади[4].

Ўзбекистон суғурта бозорида 2020 йилда жами йиғилган суғурта мукофатлари 2 213 713 млн сўмни ташкил этиб ушбу йилда тўланган жами суғурта қопламалари 737 587 млн сўмни ташкил этган, тўланган қопламалар қабул қилиб олинган мукофатларни 33.3 фоизини ташкил этган. 2021-йилда жами йиғилган суғурта мукофатлари 3 732 845 млн сўмни ташкил этиб ушбу йилда тўланган жами суғурта қопламалари 1 235 061 млн сўмни ташкил этган, тўланган қопламалар қабул қилиб олинган мукофатларни 33.1 фоизини ташкил этган. 2022-йилда жами йиғилган суғурта мукофатлари 6 231 726 млн сўмни ташкил этиб ушбу йилда тўланган жами суғурта қопламалари 2 596 926 млн сўмни ташкил этган, тўланган қопламалар қабул қилиб олинган мукофатларни 41.6 фоизини ташкил этган. Бу кўрсаткич Россияда 53,7 фоиз, АҚШ, Япония ва Европа мамлакатларида эса 70-90 фоизни ташкил этади.



Ўзбекистон суғурта бозорида фаолият олиб бораётган суғурта компаниялари томонидан тўлаб берилаётган суғурта қопламаларининг бошқа ривожланаётган мамлакатлардаги суғурта компаниялари тўлаётган суғурта қопламаларига нисбатан камлиги куйдаги сабабларга боғлиқ:

- суғурта компаниялари ўртасида рақобат муҳити сезиларли даражада шаклланмаган;
- суғурта маҳсулотлари учун белгиланган таъриф ставкалари барча суғурталанувчилар иқтисодий ижтимоий аҳволдан келиб чиқиб белгиланмаган яъни тарифлар юқори;

Хулоса ва таклифлар. Қиёсий таҳлилларимизга кўра Ўзбекистон суғурта бозори ривожланишига Хитой тажрибаси асосида куйидаги таклифлар ўзининг ижобий самарасини бериши мумкин:

- Хитой суғурта бозорининг сўнгги ўн йилликдаги юқори даражадаги юксалишига биринчи ўринда ЖСТ га аъзо бўлиши ва эркин савдо бўйича бошқа ҳамкор давлатлар билан иқтисодий интеграциялашуви сабаб бўлган[6]. Ўзбекистон суғурта бозорида хорижий суғурта компаниялари фаолиятини ташкил этиш амалиётини жорий қилиш миллий суғурта бозорида ижобий ўзгаришларга олиб келиши мумкин. Ўзбекистон суғурта бозорига хорижий суғуртачиларни иштирокини кенгайтириш бўйича чора тадбирлар амалга оширилиши зарур. Ўзбекистон учун яқин ҳамкор ва қўшни ҳисобланувчи қардош Қозоғистонда 2021 йилдан бошлаб хорижий суғурта компаниялари фаолият юритиши бўйича Қозоғистон Республикаси Молия бозорини тартибга солиш ва ривожлантириш агентлиги томонидан хорижий суғурта компаниялари иштирокига рухсат бериш ва уларни фаолият олиб бориши бўйича тартиб ишлаб чиқилган. Бугунги кунда Қозоғистон суғурта бозорида хорижий суғуртачилар суғурта фаолиятини амалга ошириш амалиёти йўлга қўйилди, бу албатта Марказий Осиёда Қозоғистон суғурта бозорини энг йирик суғурта бозорига айлантириб унинг юқори ривожланиш кўрсаткичларига эга бўлишини таъминламоқда[7].

- Хитойда суғурта бозори профессионал иштирокчиси ҳисобланувчи хорижий ва миллий суғурта компаниялари турли хил рағбатлантирувчи инструментлар орқали қонун доирасида қўллаб-қувватланиш амалиёти йўлга қўйилган. Жумладан ҳаёт суғуртаси билан шуғулланувчи суғурта компанияларига солиқдан бир қанча имтиёзлар белгиланган, Ўзбекистонда ҳаёт суғуртасининг ривожланишига хизмат қилувчи рағбатлантириш механизмларини янада кенгайтириш керак айнан аҳоли фаровонлигини ошишига таъсир этувчи солиқ имтиёзларини суғурталанувчилар даромадларига нисбатан қўллаш керак.

- Мамлакат аҳолисининг барча қатламларини айнан моддий таъминот даражаси ўртача ва ўртачадан паст бўлган қисмининг манфаатларига мос келувчи суғурта турларини яратиш орқали суғурталанувчилар синфини кенгайтириш керак. Бунда паст фоизли микро суғурта маҳсулотлари таклифини яратиш зарур бўлади.

- Фуқаролар томонидан банклардан олинаётган шахсий кредитларни таъминот занжирига ҳаёт суғурта полисларини ҳам киритиш амалиётини яратиш орқали ҳаёт суғурта тармоғини ривожини жадаллаштириш мумкин.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Молия вазирлиги ҳузуридаги Суғурта бозорини ривожлантириш агентлиги 2020-2021-2022 йил ҳисобатлари.
2. swiss-re-institute-sigma-3-2021-en. Swiss Re Institute 2021 йил ҳисобати.
3. Вэйхуа Ч. Вступление Китая в ВТО стало фактором мирового экономического роста. // Экономика. – Москва, 2017. – №4. – С. 6-32.
4. Везубова Т.А., Юньсяо Ц. Эволюция страхового рынка Китая. // Экономика. – СП, 2021. – №11. – С. 58-72.
5. Chen B., Tennyson S. The Development and Regulation of China's Insurance Market: History and Perspectives // Risk Management and Insurance Review, 2013, Vol. 17, No. 2, 241-263.
6. See W. China's Insurance Regulation: Framework, Issues and Prospects, in: P. M. Liedtke and J.Monkiewicz, eds., The Future of Insurance Regulation and Supervision:A Global Perspective Basingstoke: Palgrave Macmillan), 2022. pp. 337-353.
7. <https://dknews.kz/> “Как будут работать иностранные страховые компании в Казахстане” 8 феврал 2021 й.

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Isomitdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna,
Farg‘ona Politexnika Instituti,
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi assistenti,
e-mail: gulbaxor.isomitdinova@ferpi.uz

INVESTITSIYALARNING IQTISODIY AHAMIYATI VA UNING YANGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyati va ularning rivojlanish tendensiyalari o‘rganildi, investitsiyalarni jalb qilish nuqtai nazaridan iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari aniqlandi va asosiy muammolari tadqiq etildi. Muhokamada investitsiyalarning yangi turlarini o‘ziga xosliklarini va istiqbollari aniqlash markaziy o‘rinni egallaydi.

Kalit so‘zlar: investitsiyalar, kapital migratsiyasi, investitsion jozibadorlik, ishbilarmonlik muhiti, investitsion muhit, biznesni yuritish, iqtisodiyotini rivojlantirish va modernizatsiya qilish

Исомитдинова Гулбахор Курбоналиевна,
Ферганский политехнический институт,
Ассистент кафедры “Бухгалтерского учета и аудита”

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЙ И НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИХ РАЗВИТИЯ

Аннотация. В данной статье изучено экономическое значение инвестиций и тенденции их развития, определены приоритетные отрасли экономики с точки зрения привлечения инвестиций, изучены основные проблемы в этой сфере. В дискуссии центральное место занимает определение специфики и перспектив новых видов инвестиций.

Ключевые слова: инвестиции, миграция капитала, инвестиционная привлекательность, деловая среда, инвестиционный климат, ведение бизнеса, развитие и модернизация экономики.

Isomitdinova Gulbakhor Kurbanaliyevna,
Fergana Polytechnic Institute,
Assistant of the Department of Accounting and Auditing

ECONOMIC SIGNIFICANCE OF INVESTMENTS AND NEW TRENDS IN THEIR DEVELOPMENT

Abstract. In this article, the economic significance of investments and their development trends are studied, priority sectors of the economy are identified in terms of attracting investments, and the main problems are studied. The discussion focuses on determining the specifics and prospects of new types of investments.

Keywords: investments, capital migration, investment attractiveness, business environment, investment climate, doing business, development and modernization of the economy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N10>

Kirish. Investitsiyalar rivojlangan va rivojlanayotgan turli mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishining bir qismidir. Investitsion faoliyat iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun asos yaratadi, shuningdek uni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish istiqbollarini aniqlashga yordam beradi.

Xalqaro kapital migratsiyasi jahon iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, chunki bu tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarning mustahkamlanishiga olib keladi. Shuningdek, tashqi savdo aylanmasining o'sishi, kapitalning xalqaro migratsiyasi iqtisodiy rivojlanishning tezlashishiga va ishlab chiqarishning ko'payishiga olib keladi.

Investitsiyalarning muhim xususiyatlaridan biri jahon bozorida ishlab chiqarilgan tovarlarning raqobatbardoshligini va import qiluvchi mamlakatlarning texnik imkoniyatlarini yaxshilaydi; bu esa, o'z navbatida, mamlakatda bandlik darajasining oshishiga olib keladi. Biroq, jahon iqtisodiyotida investorlar o'z kapitallarini boshqa mamlakatlar va mintaqalarga yetarlicha asosga ega bo'lmay turib kiritmaydilar.

Investitsion faollik mamlakat iqtisodiy rivojlanishining harakatlantiruvchi omillaridan biridir. Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish ustuvor vazifadir, chunki ular iqtisodiy o'sishga, texnologiyalarni yangilashga va xodimning kasbiy fazilatlarini yaxshilashga yordam beradi.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar juda muhim rol o'ynaydi, chunki ularsiz har qanday iqtisodiy yoki ijtimoiy muammolarni, shuningdek, davlat xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni hal qilish mumkin emas. Shu bilan birga, shuni yodda tutish kerakki, investitsiyalar har doim kelajak uchun ishlaydi va qoida tariqasida ular inson faoliyatining har qanday sohasida rejalashtirilgan ijobiy natijaga erishishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Boshqa har qanday iqtisodiy kategoriya singari, "Investitsiya" tushunchasi, o'zining tarixiy rivojlanishiga ega. Ko'plab olimlar o'z asarlarida "investitsiya" tushunchasini ochib berishga harakat qilgan va o'zining davri uchun o'z qarashlarini ifoda etgan. Birinchilardan biri sifatida "investitsiyalar" toifasi merkantilistlarning asarlarida uchratish mumkin. Merkantilizm ta'limotiga asoslangan asosiy tushunchalar "boylik" va "investitsiyalar" edi. Merkantilistlar tomonidan ilgari surilgan muhim talab ichki bozorda xorijiy investitsiyalar paydo bo'lishining oldini olish edi.

Qarama-qarshi fikrni klassik siyosiy iqtisod maktabi tarafdorlari bildirdilar. Ular merkantilistlarning tamoyillarini keskin tanqid qildilar, milliy iqtisodiyotda ham, boshqa davlatlar bilan ham erkin raqobat va erkin savdo tamoyiliga amal qildilar. XIX asrning ikkinchi yarmida klassik siyosiy iqtisodiyotning yakuniy bosqichining yorqin shaxslaridan biri K. Marks edi. U investitsiyalarni "jamg'arish" tushunchasi bilan aniqladi va ularni birinchi navbatda foyda olish bilan bog'ladi.

"Investitsiya" atamasining shakllanishiga J. Keyns sezilarli hissa qo'shdi. Keynsning fikriga ko'ra, "investitsiyalar-bu ma'lum bir davrdagi daromadlarning iste'mol uchun ishlatilmagan qismi, ushbu davrdagi ishlab chiqarish faoliyati natijasida kapital aktivlari qiymatining hozirgi o'sishi" [4; 147 b].

Mashhur "investitsiyalar" darsligi mualliflari V. F. Sharp, G. D. Aleksandr, D. V. Beyli ta'kidlaganidek, keng ma'noda "investitsiya" so'zi: "kelajakda katta miqdorni olish uchun bugun

pul bilan xayrlashish". Shu bilan birga, mualliflar investitsiya jarayoni bilan bog'liq ikkita omilga e'tibor berishadi: birinchisi vaqt, ikkinchisi risk [5; 11-12 b].

Zamonaviy adabiyotlar o'rganilganda quyidagi "Investitsiya" atamasining izohlariga guvoh bo'lishimiz mumkin rus olimlari L. I. Yuzvovich va boshqalar investitsiyalarning ko'p tomonlama xususiyatiga asoslanib, investitsiyalarning ikkita ta'rifi mavjudligini aytib o'tishgan — iqtisodiy va moliyaviy [6; 60 b].

Iqtisodiy ta'rifga ko'ra, investitsiyalar—bu sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasi iqtisodiyotining boshqa tarmoqlariga uzoq muddatli kapital qo'yilmalar shaklida amalga oshiriladigan xarajatlar majmui. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalarning bir qismi umumiy iqtisodiy jarayonni, ekologik vaziyatni, ijtimoiy sohani barqarorlashtirishga yoki iqtisodiy samaradorligi oldindan noma'lum bo'lgan texnologiya va texnologiyalarning tubdan yangi yo'nalishlarini yaratishga qaratilgan. Biroq, kuchli firmalar ham, transmilliy korporatsiyalar ham texnologik yutuq xarajatlarini qoplashlari mumkin. Keng ma'noda investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining o'sishi va rivojlanishini moliyalashtirish uchun zarur mexanizmni ta'minlaydi.

Moliyaviy nuqtai nazardan, ya'ni barcha mulkchilik shaklidagi korxonalarining pul iqtisodiyoti rentabelligi nuqtai nazaridan investitsiya-bu kelajakda daromad olish uchun tadbirkorlik faoliyati obyektlariga mablag'larni kiritish.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminov, D.G'ozibekov, D.Tojiboyeva, N Qo'ziyeva, G. Maxmudovalar tomonidan investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va munosabat bildirilgan. Jumladan, A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar tomonidan investitsiyalarning mazmun-mohiyati bo'yicha bayon etilgan ta'rifda: "investitsiyalar — foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlari, intellektual boyliklar", [7; 7 b] deb ta'riflangan.

O'zbekiston respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida investitsiyalarga quyidagicha tarif berilgan "investitsiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar" [1].

Iqtisodiyotda investitsiyalardan samarali foydalanish ularni moliyalashtirish bilan bevosita bog'liqdir [8]. Investitsiyalarni moliyalashtirish esa, tabiiyki, investitsiya faoliyati asosida amalga oshiriladi [9].

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyov ta'kidlaganidek "Hozirgi kunda O'zbekistonning Davlat tashqi qarzi Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi mezonlariga ko'ra, xavfsiz hisoblanadi. Ayni vaqtda tashqi qarz hisobidan hududlarda amalga oshirilayotgan loyihalar bundan buyon mahalliy kengashlar va jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Ularning natijalari to'g'risida jamoatchilikka hisobot berish tizimi yo'lga qo'yiladi" [3]. Shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" uchinchi yo'nalishida 26-maqsad sifatida "Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70

milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish" etib belgilanishini alohida e'tirof etish zarur [2].

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlariga asoslanib bizning fikrimizcha investitsiyalar-bu iqtisodiyotda aylanishni amalga oshiradigan pul oqimlari. Pul oqimlarining kelib chiqishi asosan milliy iqtisodiyotda yaratilgan investitsiya muhiti, shuningdek investorning davlatga bo'lgan ishonchi bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosi iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni o'rganishga dialektik-materialistik yondashuv, umumiy ilmiy tadqiqot usullari, tizimli yondashuv, statistik kuzatuvlar, ekspert baholari va boshqalar. Nazariy pozitsiyalar va xulosalarni asoslash uchun tadqiqotning tahliliy asoslari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasining statistik ma'lumotlari va boshqa axborot manbalari asoslanadi.

Natija va muhokamalar. Qulay investitsiya muhiti investitsiyalarni jalb qilish jarayonida muhim rol o'ynaydi va iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, innovatsion ishlanmalarni joriy etish, korxonalarining asosiy vositalarini takomillashtirish va yangilash, aholi turmush darajasini yaxshilash va davlatning jadal iqtisodiy o'sishiga yordam beradi.

Investitsiya muhiti tushunchasi ilmiy va o'quv adabiyotlarida turlicha talqin etiladi. Ba'zi mualliflar investitsiya muhitini ma'lum bir iqtisodiy tizimga (mamlakat, mintaqa, korporatsiya iqtisodiyoti) investitsiyalarning jozibadorligi va maqsadga muvofiqligini belgilaydigan ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar to'plamining umumlashtirilgan tavsifi sifatida taqdim etadilar. Yoki boshqacha qilib aytganda, "investitsiya muhiti – bu mamlakat yoki mintaqada samarali investitsiya va innovatsion faoliyat uchun sharoit yaratadigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizim" [11; 29 b].

Bizning fikrimizcha, "investitsiya muhiti" va "investitsion jozibadorlik" tushunchalari o'zaro bog'liq. Investitsiya muhiti poydevor bo'lib xizmat qiladi va bu uning nima ekanligiga, hududning investor uchun jozibadorligiga bog'liq, ya'ni aynan investitsiya muhiti mamlakatning (mintaqa, sanoat) investitsion jozibadorligini ochib beradi. Agar jozibadorlik o'lchovi yuqori bo'lsa va investorlar investitsiya jarayoniga qiziqish bildirsa, bu investitsiya faolligi darajasida namoyon bo'ladi.

Mamlakatning investitsiya muhitini shakllantiradigan asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

- makroiqtisodiy muvozanat (davlat va viloyat byudjetlari, pul-kredit va fiskal siyosati), inflyatsiya ko'rsatkichlari va prognozi;

- tabiiy resurslarning mavjudligi va zaxiralari, iloji boricha ularga kirish, monopollashtirish darajasi;

- infratuzilma obyektlarining mavjudligi va ulardan foydalanish darajasi (avtomobil yo'llari, temir yo'llar, aviakompaniyalar, aloqa vositalari) [14];

- ishchi kuchining hududiy taqsimlanishi va uning malakasi;

- bozorga kirish uchun to'siqlar, raqobat darajasi, jinoyatchilik va korrupsiya darajasi.

Mamlakatlarning investitsiya muhitini tahlil qilishda turli xil usullar qo'llaniladi, ular quyidagi omillarni o'rganishni o'z ichiga oladi:

- kapital qiymati va u bilan bog'liq milliy valyuta kursi;

- soliqqa tortish darajasi, butun soliq tizimining aniqligi va bashorat qilinish qobiliyati;

- xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi, shuningdek, ichki investitsiya faoliyati, mamlakatdan kapitalning chiqib ketish (kirish) darajasi;

- korrupsiya darajasi va investitsiya operatsiyalarini amalga oshirishda korrupsiya komponentining imkoniyatlari;

- adolatlilik darajasi va investorlarning huquqlarini himoya qilishning umumiy tizimi.

Introduction. Jespersen is known to the general readership primarily for his theory of "progress in language", which is associated with the exaltation of the analytical structure of the language and with the praise of the English language as allegedly the most perfect language in existence. This theory was once subjected to deserved severe criticism in our press. However, Jespersen's linguistic views cannot be completely reduced to this theory. [1]

Literature review. The well-known Danish linguist Otto Jespersen (1860-1943) devoted a number of works to questions of general linguistics ("Language", "Grammar System", "Textbook of Phonetics"), questions of the history and theory of the English language ("Progress in Language, in a Special Application to English Language", "The Growth and Structure of the English Language", "Grammar of Modern English on a Historical Basis [in 7 volumes]", "Fundamentals of English Grammar"), as well as issues of teaching foreign languages ("How to Teach a Foreign Language").[2]

Being a linguist of broad interests and a broad outlook, Jespersen develops in his writings a number of theoretical propositions, many of which are also of interest to modern Soviet linguistics. It is true that it should be noted that Jespersen failed to create a coherent system: in his works, interesting observations and particular conclusions are often combined with superficial and unfounded generalizations that do not correspond to the extensive preliminary work that the author has done in collecting and analyzing material from various earthly languages.

Methodology of the research. Unequal in its individual parts is also his work "Philosophy of Grammar" (1924). The title of this work should be understood in the sense that it deals with the relationship between grammatical and logical categories, that is, the relationship between language and thought. Jespersen sets himself the goal of finding out which categories of thinking are reflected in grammatical categories and to what extent grammatical categories correspond to logical ones or diverge from them. Based on this formulation of the question, Jespersen puts forward, for example, the problem of the relationship between the grammatical category of time (eng. tense) and the category of real time (eng. time) and a number of other similar problems. Such a formulation of the question raises no objections and, with a correct and thoughtful analysis of the material, can lead to very fruitful results. If the conclusions that Jespersen comes to do not always turn out to be justified and convincing, this is due to the fact that in a number of cases he is hindered, on the one hand, by a superficial approach to linguistic phenomena, on the other, by an insufficiently clear distinction between different areas of language - grammar and vocabulary. [3]

Setting itself the goal of studying the "philosophy of grammar", it is obviously necessary, first of all, to establish what grammar is and how it differs from vocabulary. Having previously distinguished grammar from vocabulary, one could then proceed to consider the relationship between grammatical and logical categories, i.e., to the "philosophy of grammar, if we use Jespersen's terminology.

However, Jespersen does not give a clear distinction. Without preliminarily defining the specifics of grammar in a number of cases he draws into consideration such linguistic phenomena that are not grammatical at all, and does not make any reservations about this, and

as a result it seems that the exposition seems to remain all the time within the framework of "philosophy" of "grammar", although in reality this is not at all the case.

For example, considering the grammatical category of time in its relationship with real time, Jespersen studies not only verb tenses, which are a grammatical means of expressing time, but also the expression of temporary concepts in the lexical meanings of words and derivational affixes. On p. 329 of that book he says: "Having thus considered the tense relations expressed by the tenses of the personal forms of the verb, we now turn to the question of whether there are similar grammatical phenomena outside this area," [5] and considers such purely lexical phenomena as the meaning of the prefix *ex-* in *ex-king*, the meaning of the adjective *late* in the combination *the late Lord Mayor*, the meaning of the adjective *future*, for example in the combination *a future Prime Minister*, etc., although these facts have nothing to do with grammar. By themselves, such phenomena, of course, deserve careful study, but this should be a matter of lexicology. With the way they are considered, which we find in Jespersen, the specificity of grammar is erased.

Something similar is found when considering the category of genus. Having examined (p. 265 et seq.) the grammatical category of gender in the Indo-European languages, Jespersen then proceeds to such cases as English: *man-servant*, *maid-servant*, *he-devil*, *girl-friend*, where it's all about the lexical meanings of the components of compound words; such cases have nothing to do with grammar and its problems.

Jespersen imperceptibly goes beyond the bounds of grammar when presenting the very essential question of the difference between "formulas" and "free expressions" or "free phrases" (see Ch. 1, p. 16 et seq.). Comparing two sentences of modern English - *How do you do?* "Hello!" and *I gave the boy a lump of sugar* "I gave the boy a lump of sugar," Jespersen rightly notes that the first of them, like the sentences *Good morning!* "Good morning!" *Thank you!* *Thank you*, etc., is an immutable formula. [12]

"Such a formula," he says, "can be analyzed and shown to consist of several words, but it is perceived and interpreted as a whole, the meaning of which can be completely different from the meanings of its constituent words, taken separately ... It is easy to see that the sentence *I gave the boy a lump of sugar* has a different character. In it, you can emphasize any of the full-valued words, make a pause, for example, after *boy*, replace the pronoun *I* with the pronoun *he* or *she*, etc. (pp. 16-17). Here, therefore, the very important question of the lexicalization of whole sentences is touched upon, or, to use the terminology of Prof. A. I. Smirnitsky, about "sentences included in the language system": these sentences are not created anew in the process of speech, but are introduced into speech as ready-made units. From observations, Jespersen then proceeds to the question of "formulas" in various areas of grammatical structure. "Formulas" in this sense are also such plural forms of nouns as *oxen* "oxen"; they are also not created anew in the process of speech, but are introduced into speech as ready-made units: the speaker must have heard such a form before he could use it himself, while the plural forms of nouns formed with the ending *-s*, he did not necessarily had to hear, but he could form himself according to the general rule.

Such a distinction between "formulas" and "free expressions" is skillfully used in the following presentation to characterize the essence of the grammatical structure. However, it should be noted that "formulas" in all cases are the result of lexicalization of one or another

phenomenon of syntax or morphology of a given language. Jespersen does not note this. Thus, the boundaries of grammar here remain unclear.

Moving on to Jespersen's own grammatical theories, we must first of all dwell on a very peculiar interpretation of the difference between morphology and syntax. According to Jespersen, this difference is not based on any difference in the objects of study, but only on the difference in the researcher's approach to these objects. The material with which morphology deals, according to Jespersen, is no different from the material with which syntax deals.

Both morphology and syntax study the totality of the grammatical phenomena of a language. The difference between them, according to Jespersen, lies in the fact that morphology approaches phenomena from the outside, that is, it goes from form to meaning, while syntax comes from within, that is, from meaning to form. [12] So, for example, if we say that the plural form of nouns is formed in modern English in most cases with the ending -s, in some cases with the ending -en, by changing the root vowel, etc., then this will be syntax, because we are moving from meaning to form. If we say that the ending -s can express the following meanings in modern English: 1) the plural of nouns, 2) the genitive case of nouns (-'s), 3) the 3rd person singular of the present tense of the indicative mood of verbs, 4) non-attributive form of possessive pronouns (hers, etc.), then this will be a morphology, since we are going from form to meaning. Such a distinction between an approach from the outside and an approach from within to the same phenomena is, generally speaking, possible (although the "approach from the outside" in this sense seems to be of little fruitfulness). But it is absolutely unacceptable to apply to this peculiar distinction the terms "morphology" and "syntax", which, according to a long and generally accepted scientific tradition, have a completely different meaning. The true difference between morphology and syntax is erased by Jespersen. So, for example, he includes word order in morphology, since the researcher considers it "from the outside", that is, he establishes what meanings this or that arrangement of words in a sentence can have. The use of familiar terms in an unusual sense always creates serious fundamental difficulties.

It is absolutely impossible to accept Jespersen's use of the terms "morphology" and "syntax".

A prominent place in Jespersen's grammatical system is occupied by his theory of "three ranks", which was originally set forth in his "Grammar of Modern English" and, in a slightly modified form, is included in the "Philosophy of Grammar".

According to this theory, words of three "ranks" should be distinguished: 1) primary words, 2) secondary words, or adjuncts, 3) tertiary words, or subjuncts.

This distinction is based on the following principle: primary words stand, so to speak, "by themselves" and do not determine any other word; secondary words stand next to some primary word and determine it; tertiary words stand next to some secondary word and determine it. Of course, Jespersen notes further, there are words that are in tertiary (they could be called quaternary); there are also words that are in quaternary (they could be called quinary), etc.; however, there is no need to establish further gradations, since quaternary, quinary, etc. words do not differ in any way from tertiary ones; so you can limit yourself to three ranks.

The relationship between these three ranks and parts of speech, as well as between the ranks and members of the sentence, remains not entirely clear with Jespersen. To illustrate his points, Jespersen gives the following English examples: extremely hot weather (extremely is a

tertiary word, hot is a secondary word, weather is a primary word), a furiously barking dog. Thus, the primary words are primarily nouns, secondary - adjectives, tertiary - adverbs. However, it is still impossible to identify the concept of a primary word with the concept of a noun, etc.: a pronoun can also be a primary word, etc. On the other hand, it is also impossible to identify a primary word with a subject: the object will also be a primary word. Characteristic of this whole conception of Jespersen is that in the system of three ranks there is no place for the verb-predicate. True, on p. 112 it is mentioned that the verb in the personal form can only be a secondary word, but this incidental statement does not change the essence of the matter: the system of three ranks is conceived as a system for organizing verbless combinations. In essence, the system of "three ranks" characterizes the relations that develop within the phrase, the center of which is a noun (or a substantive pronoun).

The true field of application of the theory of "three ranks" is thus the nominal phrase. However, Jespersen applies the concepts of the "three ranks" not only to this area. "Primary elements" can, according to his theory be subordinate sentences. So, for example, in the composition of the complex sentence That he will come is certain, the subordinate sentence that he will come, according to Jespersen, will be the "primary element"; in the complex sentence I like a boy who speaks the truth, the sentence who speaks the truth will be a "secondary element", etc. (cf. p. 117 et seq.). Such an application of these terms is, obviously, already a further step - the application of concepts developed on the basis of nominal phrases to phenomena characteristic of a complex sentence.

Thus, the theory of "three ranks" has its value in a certain narrow area, but cannot replace either the theory of parts of speech or the theory of sentence members. Another essential point in Jespersen's grammatical theory is represented by the theory of "nexus" and "junction". These terms mean phenomena that have long been familiar to linguistic science. The distinction between "nexus" and "junction" is the distinction between predicative and non-predicative combinations of words. The elementary examples that Jespersen gives on p. 108— "the dog barks" and "the barking dog"—illustrate the phenomena that have been denoted by various terms. It goes without saying that the usual case of "nexus" is a sentence: the connection between subject and predicate will be, to use Jespersen's terminology, a "nexus connection", since in every sentence there is an act of predication - the affirmation or denial of the connection between subject and predicate. However, the "nexus" can meet and in a different grammatical form. "Nexus", according to Jespersen, will also be such a predicative combination that does not consist of a subject and a predicate, but of other elements of the sentence, for example: the combination of her sing in the sentence I heard her sing (p. 133).

Conclusion. Thus, the concept of nexus will fit all those phenomena that we have called "secondary predicativity" — the combination of "objective case with infinitive", "absolute construction", etc. In all these cases, the concept of nexus is treated as a syntactic concept: two separate linguistic units form a nexus if there are predicative relations between them. In this sense, the term "nexus" is quite acceptable: it generalizes a number of linguistic phenomena, uniting them according to one essential feature. However, Jespersen expands this concept so much that it goes beyond syntax and penetrates into lexicology. So, for example, nouns - names of action (arrival "arrival", etc.) he calls "nexus nouns" on the grounds that they denote not a separately existing object, but the objectified action of an object expressed by another noun or pronoun, for example: the doctor's arrival (p. 131). The line of reasoning here seems to be

something like this: the combination of a name with a personal form of the verb, for example the doctor arrived, forms a nexus, since there are predicative relations between both components of the combination; in the noun arrival "arrival", as it were, means the actor; consequently, predicative relations are found, as it were, inside the noun, which Jespersen gives the name "nexus noun". But such a transfer of the syntactic concept of the nexus into the word, that is, its transfer to lexicology, deprives this concept of a distinct grammatical content and leads to a confusion of completely different areas of linguistic research. Here we again see the blurring of boundaries between grammar and lexicology, which was discussed above.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Jespersen O. Philosophy of Grammar. Translation from English. V. V. Passek and S. P. Safronova. Publishing house of foreign literature. Moscow, 1958.
2. Shigabudinova D. Y. The Concept of Culture in English Philosophy //The Journal of Contemporary Issues in Business and Government. – 2021.
3. Shigabudinova D. Y. ISSUES OF APPLICATION OF THE MAIN PRINCIPLES OF COMPARATIVE LITERATURE IN THE STORY GENRE //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 333-336.
4. Mavlonova Ugiloy Khamdamovna. (2021). IRONY IN LYRICS. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(4), 77-81. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejrd/article/view/609>
5. SHIGABUTDINOVA D. Y. INTEGRATING LANGUAGE SKILLS LEARNING IN ENGLISH CLASSES //E-Conference Globe. – 2021. – С. 14-17.
6. У.Х. Мавлянова. [КИНОЯНИНГ ОҒЗАКИ, ВАЗИЯТЛИ ВА ДРАМАТИК КЎРИНИШЛАРДА ҚЎЛЛАНИЛИШ АҲАМИЯТИ](#) - МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 2021.
7. SHIGABUTDINOVA D. Y. LEARNING A FOREIGN LANGUAGE THROUGH TRAVELLING //E-Conference Globe. – 2021. – С. 184-189.
8. O. Mavlonova. [Kinoya yoxud istehzo turlari](#). ВЕСТНИК НУУз/ ЎзМУ хабарлари. 1 (1), 2021, 216-218-b.
9. M.U. KHAMDAMOVNA. [TYPES OF IRONY AND ITS USAGE IN THE CONTEXT](#). SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY/ BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI. 2/78, 2020, 208-213. УДК: 616.89-008.444.5
10. Mukhametzhanova, F. G., Stepashkina, V. A., Panchenko, O. L., Khayrutdinov, R. R., & Shigabudinova, D. Y. (2020). Russian Students' Ideas about Scientific Tourism Concept. *International Journal of Applied Exercise Physiology*, 9(12), 176-181.
11. Mavlonova Ugiloy Khamdamovna. THE ROLE OF IRONY IN UZBEK LITERATURE. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. 2021/3(85), P. 50-59
12. Yasavievna S. D. Elite culture: signs, features, examples //Middle European Scientific Bulletin. – 2020. – Т. 1. – №. 7. – С. 97-100.
13. Khamdamovna, M.U. 2021. Aesthetic and Psychological Features of Irony. *International Journal on Integrated Education*. 4, 10 (Oct. 2021), 184-187. DOI:<https://doi.org/10.31149/ijie.v4i10.2318>.

14. Khamdamovna, M. U. (2021). The use of Irony in Uzbek Poems as a Speech Decoration. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 2(11), 17-20. <https://doi.org/10.47494/cajlpс.v2i11.242>
15. Khamdamovna, M. U. . (2021). Irony and Sarcasm in English Humour. "ONLINE - CONFERENCES" PLATFORM, 78-82. Retrieved from <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/597>
16. Mavlonova, U. (2021). ЭСТЕТИЧЕСКИЕ И ФИЛОСОФСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИРОНИИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.Uz*), 7(7), извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/3937
17. Mavlonova, U. (2022). ADABIY VOSITA: KINOYA VA ISTENZO O'RTASIDAGI FARQ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.Uz*), 8(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4167
18. Khamdamovna M. U., Saidakhmedovna U. D., Izatilloevna K. D. Text Forming Features of Irony in American Prose //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – С. 9691-9697-9691-9697.
19. MU Khamdamovna. [Irony as a Topical Form of Comic](#). International Journal on Integrated Education. Volume 5, Issue 6, Jun 2022. P. 4-7. e-ISSN : 26203502 p-ISSN : 26153785
20. Khamdamovna, M.U. 2022. Irony Expressed by Adjectives and Verbs in English Literature. *International Journal on Integrated Education*. 5, 12 (Dec. 2022), 281-283

09.00.00- Фалсафа фанлари

Sattarov Fozil Faxritdinovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

O'SMIRLARNI XULQ-ATVORIDAGI MUAMMOLARNI HAL QILISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'smirlar xulq-atvorida gedonizm fenomenining xususiyati ularning xarakterida faqat nimalardandir lazzatlanish, qoniqish va ruhiy iztiroblar har qanday yo'llar bilan holi bo'lishga intilish hatti-harakatlarining ustivorligidir. O'smirlarda vujudga kelgan salbiy hatti-harakatlar, axloqiy motivlardagi o'zgarishlar jamiyat ijtimoiy-ma'naviy eng zarur va muhim qadriyatlarga nisbatan salbiy munosabatlarning vujudga kelishida ifodalanmoqda.

Kalit so'zlar: jinoyatchilik, jamoatchilik, munosabatlar, his-hayajonlar, qadriyatlar, ruhiy.

Sattarov Fazil Fakhriddinovich

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

ADDRESSING ADOLESCENT BEHAVIORAL PROBLEMS

Abstract. In this article, the characteristic of the phenomenon of hedonism in the behavior of teenagers is the priority of actions in their character only to enjoy something, to seek satisfaction and to be free from mental anguish by any means. Negative behavior and changes in moral motivations in teenagers are expressed in the emergence of negative attitudes towards the most necessary and important social and spiritual values of the society.

Key words: crime, society, relations, emotions, values, spiritual.

Саттаров Фазиль Фахритдинович

Самаркандский государственный
университет имени Шарофа Рашидова

РЕШЕНИЕ ПОВЕДЕНЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ ПОДРОСТКОВ

Аннотация: В данной статье характеристикой явления гедонизма в поведении подростков является приоритетность действий в их характере только для получения удовольствия, поиска удовлетворения и освобождения от душевных страданий любыми способами. Негативное поведение и изменение нравственных мотивов у подростков выражаются в появлении негативных установок по отношению к наиболее необходимым и важным социальным и духовным ценностям общества.

Ключевые слова: преступность, общество, отношения, эмоции, ценности, духовное.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N15>

Kirish. Bugungi kunda dunyoda odam savdosi jarayonlarida bolalar va katta erkaklar soni ko'paygan, ammo odam savdosining asosiy qurbonlari ayollar bo'lib qolmoqda. Odam savdosi qurbonlarining asosiy katta qismini - 70 foizini ayollar tashkil etmoqda, ularning 20

foizga yaqini voyaga etmaganlardir. Jabrlanganlarning yana 20 foizi voyaga etgan erkaklar, qolganlari o'g'il bolalardir. So'nggi 15 yil ichida odam savdosi kontrabandachilarning aniqlangan qurbonlarining miqdori sezilarli ravishda oshdi va ularning demografik asosdagi tarkibi ham o'zgardi - bolalar ulushi 10 foizdan 30 foizga, kattalar erkaklar ulushi esa ikki baravarga oshdi.

Insoniyatga xos bo'lgan yomon xulq-atvor to'g'risida, mazkur xulqlarning qanday shakllari mavjudligi borasida vatandoshimiz mutafakkir Abdulla Avloniy o'z davrida aytib o'tgan edi: "Insonlarni saodati abadiyatdan mazfum qiladurgan, janobi haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimiz uchun masmum bo'lgan axloqi zamimalar g'azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, haasosat, rahovat, anoniyat, adovat, namimat, g'iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, tama', zulmdur"[1].

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Bugungi kunda o'smirlarning deviant xulq-atvori darajalariga u yoki bu tarzda odam savdosi ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyoda so'nggi 15 yil ichida odam savdosi oqibatidagi qurbonlar orasida bolalarning ulushi uch baravar, o'g'il bolalar esa besh baravar oshdi. Bu jarayonda qizlar asosan jinsiy ekspluatatsiya maqsadida sotib olinsa, o'g'il bolalar ko'proq majburiy mehnatning turli xillariga jalb qilinadi. Bu haqda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) har ikki yilda bir marta chiqadigan yangi hisobotida aytib o'tiladi.

"Dunyo bo'ylab millionlab ayollar, bolalar va erkaklar ishlamaydi, o'qimaydi va ijtimoiy yordam olish imkoniga ega emas. Bunday vaziyatda ular odam savdogarlari qo'liga tushib qolish xavfini yanada oshiradilar"[2], deb ta'kidlaydi BMT vakili Gada Vali. U xalqaro hamjamiyatni odam savdosiga, shuningdek, sayyoramizda yashovchi bolalarni ijtimoiy himoya qilish, ularni turli xil zararli illatlar ta'siridan himoya qilish uchun choralar ko'rishga chaqirdi.

Odam savdosida jabrlanganlarning yarmidan ko'pi jinsiy ekspluatatsiya maqsadida sotib olinadi yoki sotib yuboriladi, 38 foizi majburiy mehnat uchun, olti foizi jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishga majbur qilinadi, taxminan bir foizi esa, tilanchilik qilishga jalb etiladi. Shuningdek, odam savdosiga jalb etilganlarning bir foizdan kamrog'i inson a'zolari savdosi, majburiy nikoh va boshqa maqsadlarda foydalaniladi. Qullarning mehnati, ayniqsa, qishloq xo'jaligi faoliyatida, qurilish, baliq ovi, tog'-kon sanoati xizmatlarida va uy ishlari uchun uzoq aholi punktlarida qo'llaniladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, odam savdogarlari o'z faoliyatida yangi texnologiyalarni - potensial qurbonlarni qidirishdan tortib, odam savdosi orqali sotib olib, ularni qattiq ekspluatatsiya qilishga qadar mukammal rejalashtirilgan hatti-harakatlarni olib borishadi. Do'stlar izlash tariqasida potensial qurbonlar sifatida bolalar ko'pincha ijtimoiy tarmoqlarga jalb qilinadi. 2020 yil 1-dekabrda "Xalqaro qullikni bekor qilish kuni" arafasida BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish "bugungi kunda jahon bo'ylab 40 milliondan ortiq odam zamonaviy qullik zanjiriga tortilganligi, ularning 71 foizi qizlar va ayollardan tarkib topganligi achinarli hol ekanligi" ni ta'kidlagan edi.

Yuqori texnologiyalar, ilm-fan va innovatsiyalar rivojlangan va mazkur jarayon farovonlikka xizmat qilayotgan jamiyatlarda odamlarning to'kin hayotga birdan to'liq asosda erishishga bo'lgan egoistik intilishi ularning ma'naviy qadriyatlariga, tarixiy an'analarga, oila va nikohga va yoshlar axloqini yuksalishiga bo'lgan munosabatlarida inqirozni keltirib chiqarmoqda. Bu holat yoshlar xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlar, gedonistik psixologiyaning

paydo bo'lishiga olib kelmoqda, buning oqibatida jamiyatda qator ijtimoiy-ma'naviy muammolar vujudga kelmoqda.

Shu kabi gedonistik kayfiyatlarning yoshlar ongida paydo bo'lmasligi uchun kurash davlat va jamoatchilik tashkilotlarining, har bir inson va murabbiyning yuksak ma'usliyati hisoblanadi. Bugungi kunda umuman fuqarolar, xususan yoshlar uchun axborot olamidan juda ko'plab ma'lumotlarni olish imkoniyati mavjud. Mazkur axborotlarni qabul qilishda yoshlar axborot madaniyatiga jiddiy e'tibor berishlari, milliy manfaatlarimizga zid keladigan ma'lumotlarni qabul qilmasliklari muhim jihat hisoblanadi. Yoshlar tafakkurining sog'lomligiga mos keladigan axborotlar va ma'lumotlarni ularning hukmiga havola etish sog'lom dunyoqarash, ertangi kunga ishonch, el-yurt oldida yuksak mas'uliyat, insoniy javobgarlik hislarini tarbiyalashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyatda yoshlar axloqiy madaniyati va ijtimoiy jihatdan faoliyatini barqaror tashkil etilish jarayonlarini shakllanishiga to'siq bo'ladigan birqancha destruktiv omillari ham mavjud. Masalan,

- o'smirlar huquqlarini amalga oshirishdagi bo'shliqlar;
- o'smirlarning milliy mentalitetga to'siq bo'ladigan o'ziga xos salbiy qadriyatli xususiyatlari;
- jamoatchilik, ommaviy axborot vositalarining yoshlar hayoti destruktiv jarayonlarini bartaraf etishga ta'sirining samarali emasligi;
- ba'zi o'smirlarning huquqiy bilimlari va ma'naviy dunyoqarashi darajasining yuqori emasligi;
- o'smirlar bilan ishlashda har doim ham huquqni muhofaza qilish sub'ektlarining kasbiy salohiyatini etarli darajada emasligi;
- ba'zi o'rinlarda huquqiy ta'limdagi mavjud kamchiliklar, bu borada infratuzilmalar va kadrlarning yetishmasligi.

Tadqiqot natijalari. O'smirlar deviant xulq-atvorini bartaraf etish va oldini olish yuzasidan birqancha chora-tadbirlarni olib borish maqsadga muvofiq. Masalan, ularning qiyin va muammoli vaziyatlardan chiqib ketish va ijtimoiy munosabatlarda ishtirokini kengaytirish uchun olib boriladigan tarbiyaviy chora-tadbirlarni ko'lamini kengaytirish va samaradorligini oshirish lozimdir. Bu borada 3 bosqichda chora-tadbirlar dasturini olib borish lozim:

1-bosqich. Yo'naltiruvchi bosqich bo'lib, bu jarayonda o'smirlarni yangi samarador, foydali va ijtimoiy jihatdan istiqbolli faoliyatga undash, ularni ishga joylashtirish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;

2-boqich. Korreksion-rivojlantiruvchi bosqich bo'lib, ularni turli mashg'ulotlar, mashqlar va to'garaklarga jalb qilish, ularni bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga chorlash;

3-bosqich. Mustahkamlash bosqichi bo'lib, olingan barcha bilimlar, ko'nikmalar va tarbiyaviy jarayonlarni amaliy faoliyatla olib borish borasidagi hatti-harakatlarni tashkil etish.

Bolalar uyida tarbiyalanadigan o'smirlar ijtimoiy muloqot tarzidan yiroqda bo'ladi. Ularning oilada ota-ona bilan bo'ladigan muloqot tarziga ehtiyojlari katta bo'ladi, lekin bu jarayonning iloji yo'qligi uchun, oilaviy tarbiyani olishdan ular bebahra qoladilar. Lekin shuning bilan birgalikda ta'kidlash lozimki, bolalar uyida tarbiyalangan yoshlarning ma'naviy olamini yuksaltirish borasida muassasa xodimlari tomonidan katta sa'y-harakatlar olib boriladi, ular bolalarga oiladagi tarbiyani bera olmasalarda, ularning to'laqonli shaxs bo'lishlari uchun yuqori darajadagi metodlarni qo'llaydilar. Bu jarayonga qaramasdan, bolalar uylaridagi o'smirlarning

xulq-atvorida deviant xususiyatlarning ko'rinishlari, oilada tarbiya olgan bolalardan ko'ra ko'proq namoyon bo'ladi.

O'smirning jamiyatga qanchalik ijtimoiylashuvi, yuqori mas'uliyatga ega bo'lgan a'zo sifatida o'zini ko'rsata olishi va undagi qonunlar, qoidalar va me'yorlarga to'laqonli ravishda amal qila borishi jarayonida jamiyatda yoshlar, jamiyat va davlat munosabatlari tizimi orqali barqaror muhit shakllanadi. Ijtimoiy xulq-atvor tarbiyasi o'smirlar ongida o'z vataniga sodiqlik, unga fidokorona xizmat qilish, burch va mas'uliyatli bo'lish tuyg'ularini kamol toptirish bilan chambarchas bog'liq jarayondir. Olimlarning ta'kidlashicha, "Hozirgi kunda ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarga sodiq, bilimli, samarali mehnat qilishga qodir fuqarolar, ayniqsa, yoshlar jamiyatning eng asosiy kuchiga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham XXI asr-intellektual bilimlar asrida inson kapitaliga investitsiyalar yo'naltirishni ustivor vazifa sifatida tanlagan mamlakatlardagina yuksak taraqqiyotga erishish mumkin. Shuningdek, bilimli jamiyatgina tahdid va muammolarni yengib o'tishga qodir bo'ladi"[3].

Muhokama. Bu asoslardagi jarayonga Yaponiyaning Nagoya universiteti o'qituvchilarining talabalar o'rtasida ijtimoiy xulq-atvori darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazgan sinovini misol keltirsak bo'ladi. Universitet o'qituvchilari talabalarni ijtimoiy xulq-atvorini sinovdan o'tkazish uchun bir aniq belgilangan joyga olib borib o'g'irlik qilishlariga shart-sharoit yaratib berishadi. Sinov jarayonida 30 nafar talabadan 3 nafari o'g'irlik qilishadi. Natija esa qiziq bo'lgan: jinoyatni sodir etmagan talabalardan bir savol so'raladai, "Siz nega o'g'irlik qilmadingiz?". Savolga turli javoblar olingan: men bu ishni udalay olmayman (30%), menda hamma narsa bor (12%), men ularga ziyon berishdan qo'rqdim (68%).[5] Bundan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy xulq-atvor xususiyatlari o'smirlarda tarbiyalanib borishi ijtimoiy manfaatlarni yuksaltirishda xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv, zamonaviy axborotlashgan jamiyat va texnogen taraqqiyot o'smirlar ichki olami, dunyoqarashi, tafakkuri, fikrlash tarzi va ijtimoiy xulq-atvoriga u yoki bu tarzda ta'sir o'tkazmoqda. Bugungi kunda o'smirlarning ongi va hatti-harakatlarida globallashuv va texnogen sivilizatsiyaning salbiy belgilari shakllanib borayotganligi, ularning ijtimoiy xulq-atvorining yomonlashuvi, ijtimoiy ishdan begonalashuvi kabi illatlarni keltirib chiqaradi. Shaxsda o'smirlik bosqichida kasb-hunar o'rganib, ilm olib, jamiyatga qadam qo'ygandan keyin ijtimoiy xulq-atvori shakllana boshlaydi. Lekin bu davrda baribir ko'pgina o'smirlar ongida ikkilanishlar va qarama-qarshiliklar orqali tanlov vujudga keladi, bu esa istiqbolda yillar davomida sayqallanib boradi.

Shu bilan birga bugungi milliy yuksalish sharoitida yoshlarning ijtimoiy madaniyati, siyosiy faolligi, ma'naviy mas'uliyati va o'z haq-huquqlarini to'la anglashi katta o'ringa egadir. Bu to'g'risida birinchi Prezident I.A.Karimov "O'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga, o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish darkor"[6], deb ta'kidlaydi.

O'smirlarning deviant xulq-atqoridagi motivlarni o'rganishdan oldin ularning ijtimoiy-ma'naviy hayotini o'rganish lozim. Ijtimoiy xulqda o'smirlarning ijtimoiy foydali ishlar va ma'naviy jarayonlardan o'zini olib qochishga intilish bilan bog'liq hatti-harakatlarning namoyon bo'lishi kuzatilsa, ularning axloqiy qiyofasida negativ hissiyotlarning vujudga kelishini anglatadi. O'smirning ichki kechinmalaridagi salbiy holatlarni bartaraf etish,

o'smirning ichki his-tuyg'ularida mu'tadillikni asrash, turli depressiyali vaziyatlardan xalos bo'lish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Psixologik himoya jarayoni o'smirlarni turli salbiy vaziyatlardan va tahdidlardan asrashga, ulardagi ruhiy diskomfortni doimiy ravishda bartaraf etishga xizmat qiladi.

Bugungi zamonaviy o'zgarishlar sharoitida o'smirlarning ijtimoiy mas'uliyati, ya'ni jamiyat ishi uchun tayyorligi borasidagi hatti-harakatlari va yo'nalishlarini ni tarbiyalash mamlakat istiqboli uchun muhim mezondir. Shu sababli ijtimoiy mas'uliyat o'smirning jamiyatda ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarni hal qilishiga tayyorlash, qabul qilingan huquqiy qoidalar, mavjud axloqiy me'yorlarga muvofiq hayot kechirishini taqozo qiladi. Ijtimoiy mas'uliyat o'smirning ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy faolligini ta'minlash bilan mujassamlashgan jarayondir. N.Shodievning ta'kidlashicha, "Fuqaroviy faollik insonlarning jamiyat oldidagi huquq va majburiyatlarini chuqur anglashga va boshqalar manfaati uchun qayg'urishga, jamoat ishlarida faollik ko'rsatishga, ko'pchilik manfaati uchun kurashishga, ko'ngilli faoliyat olib borishga undaydi. Fuqaroviy faollik o'z qiziqish va imkoniyatlarini ifodalashga, shu asosda jamiyatga naf keltirishga rag'bat beradi"[2].

O'smirlarni xulq-atvoridagi muammolarni bartaraf etishda quyidagi sohalar yo'nalishidagi taklif va mulohazalarni ilgari suramiz:

Ma'naviy- ma'rifiy sohada;

- xulq-atvorida nuqsoni bor o'smirlarni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan tarbiyalash borasida mutasaddi tashkilotlar faoliyatlarini jonlantirish;

- ota-bobolarimizning ma'naviy tarbiya borasidagi hikmatli o'gitlarini yoshlar orasida keng targ'ib qilish orqali yoshlar ongi va qalbiga yetib borishini ta'minlash;

- keng yoshlar ommasini birlashtiruvchi tadbir, tanlov, musobaqalarni nafaqat viloyat yoki shahar markazlarida, balki tuman bosqichlarida ham o'tkazish;

- "ommaviy madaniyat"ning turli xurujlaridan himoya qilishga qaratilgan yanada ta'sirli tadbirlar loyihasini tuzish va yoshlarni keng jalb etishga erishish.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohada:

Ushbu sohadagi chora-tadbirlarning asosiy maqsadi - yoshlarning bandligini ta'minlash, kasb-hunarlarini egallashga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat. Jumladan:

- maslahat markazlarini tashkil qilish orqali chekka hududlardagi bekorchi yoshlarni tadbirkorlik faoliyatini olib borishlariga ko'maklashish;

- mahallalardagi vaqtincha ishsiz yoshlardan hududdagi ijtimoiy infratuzilmalar, uy-joy qurilishi ob'ektlariga jalb qilish;

- tuzilgan shartnomalar asosida har bir bitiruvchini ishga joylashib, band bo'lishi yuzasidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

- qishloq joylarda istiqomat qiladigan qizlarni kasb-hunarga o'rgatish, ularni doimiy ish bilan ta'minlash, yosh oilalarga har tomonlama ko'mak berish.

Yoshlarning iste'dod, qobiliyat va talantlarini ro'yobga chiqarishni qo'llab-quvvatlash sohasida:

- joylardan iste'dodli va qobiliyatli yoshlarni izlab topish va ularni har tomonlama rag'batlantirish;

- mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan ilm-fan, innovatsiyalarni olib borayotgan yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash;

- har bir yosh olimlarni ilmiy ishlarini amaliyotga tatbiq etishda ko'maklashish.
- axloqida muammosi bor yoshlarni ijodiy ishlarga jalb qilish;
- kam ta'minlangan yoshlarga oliy o'quv yurtida o'qishlari uchun kvotalar ajratish.

Xulosa. O'smirlar deviant xulq-atvori va ularning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi g'ayriaxloqiy xislatlariga qarshi chora-tadbirlar ko'rish va ularni oldini olish borasidagi ishlarda quyidagi vazifalarni hal etish muhimdir:

salbiy hatti-harakatlarni olib borishga moyil bo'lgan o'smirlarni erta aniqlash;

o'smirlarni ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan ustoz va murabbiylarni tayyorlashni mukammal tarzda olib borish;

deviant xulq-atvorga ega bo'lgan o'smir yoshlar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni olib borishda tegishli mutaxassislarni jalb etish;

bu borada aloqador bo'lgan muassasalar, iodralar, markazlar va xizmatlarning ish mas'uliyatini oshirish;

o'smirlar deviant xulq-atvorini bartaraf etish borasida milliy va mahalliy darajalarda chora-tadbirlarni kuchaytirish, bu borada muhim bo'lgan bugungi va istiqboldagi dasturlar va "yo'l xarita"larini belgilash.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent, O'qituvchi, 1992. –B. 40-41.
2. Shodiyev N. Fuqarolik jamiyatida fuqaroviy faollik: tarixiy va ilmiy xususiyatlari. //Demokratlashtirish va inson huquqlari. №4, 2016 y. –B. 43.
3. Человеческое развития: учебник // Коллектив авторов. - 2-е издание. - Т.: УМЭД, ПРООН, 2011.
4. Новые социальные движения и социокультурные эксперименты. Реф. сб. Вып №1. М. «ИНИОН», 1999. – С. 124.
5. Новые социальные движения и социокультурные эксперименты. Реф. сб. Вып №1. М. «ИНИОН», 1999. – С. 124.
6. Karimov I. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimizdir". -Т.: "O'zbekiston", 2000. -B. 32.
7. Shodiev N. Fuqarolik jamiyatida fuqaroviy faollik: tarixiy va ilmiy xususiyatlari. //Demokratlashtirish va inson huquqlari. №4, 2016 y. –B. 43.

09.00.00- Фалсафа фанлари

Пардаева Мархабо Давлатовна

Республика Маънавият ва маърифат маркази
Бухоро вилояти бўлими раҳбари,
фалсафа фанлари номзоди, доцент

НАҚШБАНДИЯ ТАЪЛИМОТИ НАВОИЙ ИЖОДИНИНГ ҒОЯВИЙ АСОСИ СИФАТИДА

Аннотация. Мақолада тасаввуф таълимоти тизимида Алишер Навоий қарашларининг ўрни таҳлил қилинган. Навоий ижодида нақшбандия таълимоти тамойиллари асосий ўрин эгаллашига эътибор қаратилган. Ҳалол меҳнат ва касб-хунар эгаллаш ғояларининг мазмун моҳияти очиқ берилган. Мутафаккирнинг тасаввуфий қарашларида хунар эгаллашнинг аҳамияти беқиёслиги асарларидан мисоллар келтирилган ҳолда тадқиқ қилинган.

Калит сўзлар: Тасаввуф, нақшбандия, инсон, тамойил, муҳаббат, касб-хунар, маънавий мерос, эътиқод.

Pardaeva Markhabo Davlatovna

Head of the Bukhara Regional Branch of the
Republican Center for Spirituality and
Education, PhD in Philosophy, assistant professor

NAKSHBANDI'S TEACHINGS AS AN IDEOLOGICAL BASIS OF NAVAI'S CREATIVITY

Abstract. The article analyzes the role of Alisher Navoi's views in the system of Sufi philosophy. Particular attention is paid to the principles of the teachings of Naqshbandi, which occupy a central place in the work of Navoi. The essence of honest labor and employment is revealed. Using examples from his works, the significance of mastering a craft in the Sufi views of the thinker is explored.

Keywords: Sufism, Nakshbandiya, man, principle, love, perfection, spiritual heritage, Islam

Пардаева Мархабо Давлатовна

Руководитель Бухарского
регионального отделения Республиканского
центра духовности и просвещения,
кандидат философских наук, доцент

УЧЕНИЯ НАКШБАНДИ КАК ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА ТВОРЧЕСТВА НАВАИ

Аннотация. В статье анализируется роль взглядов Алишера Навои в системе суфийской философии. Уделяется особое внимание на принципы учения Накшбанди, которое занимают центральное место в творчестве Навои. Раскрывается сущность честного труда и занятости. На примерах из его произведений исследуется значение овладения ремеслом в суфистских воззрениях мыслителя.

Ключевые слова: суфизм, нақшбандия, человек, принцип, любовь, совершенство, духовное наследие, ислам.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N16>

Кириш. Тарихий тараққиётдан маълумки, халқимиз маънавий ҳаётида тасаввуфнинг ўзига хос ўринга эга. Нақшбандия тариқатида инсонпарварлик, халқпарварлик, меҳнатсеварлик, тинчлик, ўзаро дўстлик ғоялари кенг ўрин эгаллайди. Тасаввуф таълимотида комил инсон ғояси бош масала бўлганлиги учун халқ тасаввуф вакиллари мукамаллик тимсоли сифатида қараган. Таъкидлаш жоизки, бу борада хожагон-нақшбандия тариқатининг ўрни ва мавқеи жуда баланд бўлган.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Таъкидлаш жоизки, тасаввуф таълимоти Шарқ ижтимоий-фалсафий тафаккури тараққиётида асосий йўналишлардан бири ҳисобланади.

Алишер Навоийнинг ҳаёти, ижодий мероси, дунёқараши ҳақида кўплаб илмий тадқиқотлар мавжуд. Лекин мутафаккирнинг комил инсон тўғрисидаги қарашлари тарихий-фалсафий нуқтаи назардан махсус таҳлил қилинмаган. Шунингдек, шўролар давридаги илмий тадқиқотларда Навоий асарлари, кўпинча, бир томонлама, яъни дунёвий жиҳатдан ўрганилган.

Ушбу мавзунинг баъзи жиҳатлари ҳақида олимлардан Е.Бертельс, И.Мўминов, В.Зоҳидов, Н.Маллаев, М.Хайруллаев, Н.Комилов, М.Орипов, Ҳ.Алиқулов, И.Ҳаққул, Султонмурод Олим, О.Эргашев, Г.Наврўзова, С.Каримов, Б.Эралиев, А.Зоҳидов, М.Муҳиддинов ва бошқалар ўз фикрларини билдириб ўтганлар.

Шуни айтиш ўринлики, ҳазрат Навоий асарларида тасаввуф фалсафасидаги ахлоқ, хулқ-одоб қоидалари, инсонпарварлик ва одамийлик, нафсни тийиш, адолат ва маърифат, табиат ва инсонни севиш, уларни эъзозлаш, таълим-тарбия тўғрисидаги ғоялардан унумли фойдаланди. Бу ғоялар мутафаккирнинг ғазал ва рубоийлари, дostonлари, насрий асарларига сингиб кетган.

Тарихийлик, мантиқийлик, қиёсий таҳлил, илмий холислик, диалектик ёндашув, анализ ва синтез тадқиқотнинг услубий асосларини ташкил қилади.

Муҳокама. Ўрта Осиё Уйғониш даврининг ёрқин вакили, улуғ мутафаккир, ғазал мулкининг султони, буюк гуманист шоир, нақшбандия таълимотининг назарийчиси Алишер Навоий (1441-1501)дир. Алишер Навоий тасаввуф таълимотининг қонун-қоидалари, назарий ва амалий жиҳатларига эътиқод қилган. Шуни айтиш ўринлики, ҳазрат Навоий асарларида тасаввуф фалсафасидаги ахлоқ, хулқ-одоб қоидалари, инсонпарварлик ва одамийлик, нафсни тийиш, адолат ва маърифат, табиат ва инсонни севиш, уларни эъзозлаш, таълим-тарбия тўғрисидаги ғоялардан унумли фойдаланди. Бу ғоялар мутафаккирнинг ғазал ва рубоийлари, дostonлари, насрий асарларига сингиб кетган. И.Ҳаққул таъкидлаганидек, “Навоийнинг тасаввуфга ёндашуви ва бу таълимотдан кўзда тутган мақсади – шахс ва миллат тақдирига масъул, юрт тараққиётига сув ва ҳаводай зарур тушунчаларнинг истиқболи учун ёниб курашган, ҳақиқатни фақат таниш эмас, ҳақиқатни севиш салоҳиятини ҳам кўзлаган мутафаккир санъаткорнинг ёндашув ва мақсади эди” [5, 27-б].

Маълумки, улуғ шоир устози Абдурахмон Жомийнинг таклифи билан нақшбандийлик сулукига киради. Савол туғилиши мумкин: - Нима учун Мир Алишер нақшбандийлик сулукини ихтиёр қилди? Биринчидан, ушбу тариқат ўша даврда нафақат Мовароуннаҳр ва Хуросонда, балки Ҳиндистон ва бошқа Ўрта Шарқ мамлакатларида ҳам кенг тарқалган эди. Иккинчидан, XV асрнинг забардаст шоир ҳамда

тасаввуф вакиллари Хожа Аҳрор, Абдурахмон Жомий ва Ҳусайн Воиз Кошифийлар ушбу тариқатнинг назарий ва амалий жиҳатларини ривожлаштиришга, янги мазмун билан бойитишга катта ҳисса қўшдилар. Учунчидан, нақшбандийлик сулукидаги маънавий-ахлоқий ва инсонпарварлик ғоялари, хусусан ихтиёрий фақирлик, ҳалол меҳнат билан кун кўриш, нафсни тийиш, текинхўрлик, бойлик, тамагирлик ва очкўзликни қоралаш, бева-бечоралар ва муҳтожларга хайр-саховат кўрсатиш каби ғоялари, бизнинг назаримизча, Навоийни ўзига жалб этди.

Юсуф Ҳамадоний, Абдухолик Ғиждувоний ва Хожа Баҳовуддин Нақшбанд (1318-1389) нақшбандийлик тариқатининг 11 та қондасини ишлаб чиққанлар. Улардан 4 таси Ҳамадонийга, яна 4 таси Ғиждувонийга, қолган 3 таси Нақшбандийга тегишлидир. Нақшбанднинг бир парча ери бўлиб, ана шу еридан олган ҳосил эвазига кун кечирган. Бундан ташқари, ул зот кимхоб матоларга нақш бериш билан ҳам машғул бўлган. У бутун умр фақирликда яшаган, ортиб қолган молини етим-есирларга улашган. Муҳаммад Бокир Бин Муҳаммад Алининг келтиришича, “Хожа Баҳовуддиннинг “Қасри Орифон”даги Боғи Мозор ёнида бир хужралари бўлиб, кўпинча шу ерда сокин бўлардилар. Ва ул хужраларида бир эски бўйра, синиқ кўза бўлиб, ажиб бир аҳволда кун ўтказар, ҳалол ризқ талабида кўп эҳтиёткорлик этар, ҳатто замбаркашлик қилар ва шу меҳнатидан келган фойдага ҳам илтифотлари йўқ эрди. Чун бу фойдани якка ўзларига раво кўрмас ва айтар эдиларки, чекаётган риёзатларингизга кўп эътиқод қилманг. Гоҳо нафл рўзасини тутар эдилар” [4, 54-б].

Баҳовуддин Нақшбанд ўзининг тасаввуфий қарашларида таркидунёчиликка қарши чиқди, солиқлар орасида касб-ҳунар эгалаб, меҳнат қилишни тарғиб этди, дангасалик ва текинхўрликни қоралади, ҳаётда фаол бўлишга ундади. Ҳазратнинг фикрича, ҳар бир солиқнинг дили Аллоҳда, кўли эса ишда бўлиши лозим. Мутасаввиф кишиларни бунёдкорликка, мўътадил ҳаёт кечиришга, исрофгарчилик ва ортиқчаликка йўл қўймасликка, сабр-қаноатли, бардошли бўлишга чақирди.

Шуни айтиш лозимки, нақшбандия тариқати вакиллари, унинг йирик намояндалари Хожа Аҳрор, Жомий, Навоий ва кейинги даврда яшаб ижод этган Маҳдуми Аъзам, Машраб, Сўфи Оллоҳёр ва бошқалар нақшбандийликнинг юқоридаги ғояларини халқ орасида кенг тарқатдилар. Улар кишиларни бадий адабиёт, мусиқа, илм-маърифат, ботиний ва зоҳирий илмлар, хаттотлик, наққошлик, савдо-сотик, деҳқончилик билан машғул бўлишга ундадилар [8, 114-б].

Шайх ул-машойихлар, валийлар фазилатлар ва илоҳий хислатларга эга бўлиши мумкинми? Бу саволларга Навоий ўзининг “Насойимул-муҳаббат” асарида жавоб беради. Мутафаккирнинг фикрича, валийлар риёзат чекиб, зарур диний-ирфоний расм-русумларни бажариши, хайрли ишлар қилиши, одамийлик қонун-қоидаларига амал қилиши, яхши ахлоқий хислатлар ва хулқ-одоб қоидаларини эгаллаши лозим. Шундагина комилликка эришиб, Аллоҳ васлига етишиши мумкин! Навоий ушбу асарда аввал пайғамбарлар тўғрисида сўз юритиб, сўнгра машойих ва валийлар эгаллаши лозим бўлган дунёвий ва илоҳий фазилатларга тўхталади. Унингча, валийлар валоят ва каромат соҳиблари бўлиб, “... халойиқга иршод ва аҳдо қилурлар, муборак зотларининг баракоти бу миллат бошидин кам бўлмағай” [2,15-б]. Валийлар бажариши ва амал қилиши лозим бўлган баъзи аъмол ва афъоллар, мутафаккир фикрича, тавба, ҳалол луқма, муайян касб билан машғул бўлиш, шариат қоидаларига риоя қилиш, тариқат

одобига амал қилиш, закот тўлаш, хокисорлик, ўзгалардан ўзини кам деб ҳисоблаш, ширинсухан ва раҳмдил бўлиш, сахий, мард ва мулойим бўлиш, ризолик билан кун ўтказиш, сабрли ва чидамли бўлиш, садоқатли бўлиш, риёзат чекишдан қўрқмаслик, хориқулудда, ғайритабиий аъмоллар, кароматлар кўрсатиш [9, 23-б].

Мутафаккир авлиёлар амал қиладиган юқоридаги баъзи хислатларга махсус тўхтаб ўтади. Хусусан, у ҳалол луқма деганда, валийнинг ўз меҳнати билан кун кўришини, бирор касб билан машғул бўлиб, унинг орқасидан бир бурда нонини топиб ейишини тушунади. Дарҳақиқат, тасаввуфнинг йирик вакиллари, валийлар муайян бир касб-хунар билан шуғулланганликлари тарихдан маълум. Навоийнинг зикр қилишича, машойихлардан Хожа Абдуллоҳ Ансорий этиқдўз, Шайх Муҳаммад Саккок пичоқчи, Шайх Абу-Ҳафз Ҳаддод темирчи, Шайх Абулаббос Омилий қассоб, Шайх Абулҳасан музаййин, Шайх Банон ҳаммол, Ҳазрати Баҳовуддин Нақшбанд эса, матоларга нақш солувчи бўлганлар. Булардан ташқари, Баҳовуддин Нақшбанд деҳқончилик билан ҳам шуғулланганлар. Машойих ва авлиёлар меҳнат қилиб топган даромадига ҳаёт кечирганлар, ортиб қолганини эса бева-бечора ва муҳтожларга тарқатганлар, хайр-эҳсон қилганлар.

XV асрда Мовароуннаҳр ва Хуросонда нақшбандийлик таълимоти кенг ёйилди. Бу таълимотнинг XIV асрдаги асосчиси Баҳовуддин Нақшбанд бўлса, XV асрда унинг йирик раҳнамози Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор (1404-1490) ҳисобланган. Бу зотнинг обрўси ўша вақтда жуда баланд бўлиб, нафақат Ўрта Осиё, балки кўшни мамлакатларда ҳам унинг номи шуҳрат қозонган. У авлиё даражасидан ташқари, Қутб ул-Ақтаб (улуғ даражага етган авлиё) деган даражани олган. Бундай юқори даражага мутасаввиф авлиёлардан фақат уч киши эришган. Шунинг учун “Мақомоти Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор”да ул зотнинг тўла исм, шарифлари “Ҳидоят қутби, орифу зоҳидлар муқтадоси, огоҳлик денгизи асосларининг раҳнамози Ҳазрат Хожа Аҳрор Хожа Убайдуллоҳ” деб келтирилади. Абдурахмон Жомий ва ҳазрат Алишер Навоий Хожа Аҳрорни ўз устозлари ҳисоблаб, комил инсон деб билганлар, “Ҳафт авранг” ва “Хамса” дostonларида унинг шаънига кўп илиқ сўзларни айтганлар. Хожа Аҳрори Валийнинг ижтимоий-сиёсий қарашлари охириги йилларда чоп этилган Фахруддин Али Сафийнинг “Рашаҳот”, Хожа Убайдуллоҳ Аҳрорнинг “Табаррук рисоалар” номи билан форсчадан таржима қилинган асарлари, мақоматлари, ул зот ҳақидаги манбалар, тадқиқотларда ўз аксини топган.

Хожа Аҳрорнинг XV асрда олиб борган сиёсати, Хожагон-нақшбандия таълимотини янада такомиллиштиришга қаратилган ислоҳоти қўйидагиларда кўринади: биринчидан, бу тариқатнинг йирик вакиллари бойлик тўплаш, унга ҳирс қўйишни сулук аъзоларига ман қилган эдилар. Хожа Аҳрор эса, бунга чек қўйиб, тасаввуфга эътиқод қилганлар бойлик эгаси бўлиши мумкинлигини эътироф этади. Айни вақтда мутасаввифнинг фикрича, одам ўзини бойлик эгаси деб билмаслиги, бойлиги билан мақтанмаслиги, камбағалларга паст назар билан қарамаслиги, камтар бўлиши, халққа ёрдам бериши, бева-бечора ва муҳтожларга хайр-эҳсон кўрсатиши даркор.

Тасаввуф адабиётининг икки йирик сиймоси - Абдурахмон Жомий ҳамда Алишер Навоий ҳам бевосита нақшбандия тариқатининг вакиллари эдилар.

Султонмурод Олим “Нақшбанд ва Навоий” асарида таъкидлаб ўтганидек, “Нақшбандия тариқати жаҳоннинг ана шундай энг муҳим ижтимоий муаммоси —

Shunday qilib, tarjima qilingan matnlarda misollar turli natijalarni ko'rsatadi. Birinchidan, misollar butunlay o'xshashdan juda boshqachagacha turli xil vositalardan foydalanadi. Ikkinchidan, nemis tilining grammatik xususiyatlarini yengish zarurati tarjimonni oddiy almashtirishlardan tortib murakkab almashtirish va o'zgartirishlargacha bo'lgan turli tarjima usullaridan foydalanishga majbur boladi? Ayniqsa o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida. Natijada tarjimonlar tomonidan taklif qilingan modal ma'nolarni ifodalash vositalari bir "to be able" modal fe'lga kamaymaydi, balki turli gap bo'laklariga tegishli bo'ladi. Masalan, *Können* modal fe'lini oladigan bolsak, so'zining aletik semantikasi "mumkin emas" predikativ qo'shimchasi va "mumkin bo'lmoq" fe'li orqali berilgan. Epistemik semantika "mumkin bo'lmoq" fe'li, "mahkum" modal semantikasiga ega bo'lmagan kesim, "can" kirish modal so'zi yordamida yetkazilgan. Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, *können* fe'li bilan berilgan semantika har doim ham o'zbek tiliga o'xshash modal fe'l "to be able" yordamida tarjima qilinmaydi. Eng katta farqlar *können* fe'lga xos epistemik semantikaning uzatilishi holatlarida qayd etiladi. Olingan farq o'zbek tilida nemis tiliga xos bo'lgan bir qator grammatik xususiyatlarning yo'qligi bilan bog'liq (ikkinchi fe'lning qo'shma shakli; mukammal infinitiv).

Адабиётлар/Литература/References:

1. Абрамов Б. А. Теоретическая грамматика немецкого языка. Сопоставительная типология немецкого и русского языков: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2004.
2. Sharipov M.M. (2022). Categorical meanings of the verb können (on the example of German texts and their translations into Uzbek). *Philological Sciences. Questions of Theory and Practice*, 12 (12), 370-374.
3. Hall K., Scheiner B. *Übungsgrammatik DaF für Fortgeschrittene, neue Rechtschreibung, Übungsbuch*. 1. Auflage. Ismaning: Max Hueber Verlag, 2020.

13.00.00 – Педагогика фанлари

Jumaboyev Nabi Pardaboyevich

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti,
Email: nabijumaboyev@gmail.com

**SHARQ MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTLARI MAZMUNIDAGI ESTETIK, MA'NAViy,
TARBIYAVIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH OMILLARI**

Annotatsiya. Maqolada Sharq mutafakkirlarining boy pedagogik merosi, tarbiyaviy qadriyatlari hamda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga oid qarashlaridan zamonaviy badiiy ta'lim tizimida foydalanishning bugungi kundagi zaruriyati to'g'risidagi fikr-mulohazalar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda barkamol shaxsni shakllantirish davlat va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda ustuvor masalalar sifatida dolzarbligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Sharq mutafakkirlari, allomalar, tarbiya, ibrat, qadriyat, san'at, madaniyat, pedagogik meros, barkamol shaxs, estetik tarbiya.

Жумабоев Наби Пардабоевич

Базовый докторант Гулистанского
государственного университета,

**ФАКТОРЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКИХ, ДУХОВНЫХ, ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ
ЦЕННОСТЕЙ В СОДЕРЖАНИИ УЧЕНИЯ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ**

Аннотация. В статье содержатся мнения о необходимости использования богатого педагогического наследия восточных мыслителей, воспитательных ценностей и взглядов на воспитание подрастающего поколения в системе современного художественного образования. Кроме того, было отмечено, что формирование всесторонне развитой личности является приоритетным вопросом в обеспечении развития государства и общества.

Ключевые слова: мыслители Востока, ученые, образование, пример, ценность, искусство, культура, педагогическое наследие, всесторонне развитая личность, эстетическое воспитание.

Jumaboev Nabi Pardaboevich

Base doctoral student of Gulistan State University,

**FACTORS OF USE OF AESTHETIC, SPIRITUAL, EDUCATIONAL VALUES IN THE CONTENT
OF THE TEACHINGS OF EASTERN THINKERS**

Abstract. The article contains opinions about the need to use the rich pedagogical heritage of Eastern thinkers, educational values and views on the education of the young generation in the modern art education system. In addition, it was mentioned that the formation of a well-rounded person is a priority issue in ensuring the development of the state and society.

Key words: Eastern thinkers, scholars, education, example, value, art, culture, pedagogical heritage, well-rounded person, aesthetic education.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N22>

Kirish. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmun va mohiyati o'sha asrda yurtimiz erishajak kuch-qudrat, farovonlik va madaniylik, ma'rifiylik va ma'naviylik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Yosh zamondoshimizning ma'naviy kamoloti xususida qayg'urish respublikamiz pedagogika fanining bugungi kundagi dolzarb muammolaridan biridir. Zero, mamlakamizning taraqqiyotida birinchi navbatda, jamiyat a'zolarining aql-zakovati, ma'naviyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, bugungi kunga qadar o'quvchilarning aql-zakovatini charxlash, ma'naviyatini boyitishda etarli darajada qo'llanilmay kelingan manbalarga alohida e'tibor bilan qarash ma'lum bo'shliqlarni to'ldirish imkonini beradi [1; B.192]. Sharq mutafakkirlarining tarbiyaviy qadriyatlarini, boy pedagogik merosi, yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga oid qarashlari, ayniqcha, axloq-odob, estetik did, insof, diyonat, iymon, e'tiqod vijdon, mehnatsevarlik, ilmsevarlik, insoniylik xususidagi g'oyalari barkamol shaxsni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi [2; B.106]. Shuningdek, ularning ta'limiy-axloqiy qarashlarida asosiy o'rin tutgan ilmsevarlik, vatanparvarlik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatvesrlik, iymon-e'tiqodlilik, xalollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, hurfikrlilik kabi barkamol inson tarbiyasiga xos g'oyalarni yosh avlod ongiga muhim ma'naviy-estetik qadriyatlarga oid bilimlarni singdirishda didaktik qimmatga ega.

Sharq mutafakkirlarining ta'limiy, ilmiy-amaliy, tarbiyaviy g'oyalari, qarashlarini yoshlar ongiga etkazish uchun ularning hayotiy faoliyatlari, boy hayotiy tajribalari hamda ma'naviy-pedagogik meroslarini taqdim etishda manbalarni mazmuni va mohiyatini tadqiq etish hamda tahliliy natijalari ulardan zamonaviy sharoitda foydalanish tartiblarini belgilashda metodologik asos vazifasini o'taydi. Tahlillardan ma'lumki, mutafakkirlarning tarbiyaga oid qarashlari qadriyat darajasida e'tirof etiladigan pedagogik merosi markazida barkamol shaxs tarbiyasi masalasi turadi. Zero, barkamol shaxsni tarbiyalashda komillikning barcha komponentlari – ma'naviy-axloqiy, estetik, aqliy, jismoniy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sharq allomalarining pedagogik ta'limoti mazmunida insonni barkamollikka chorlovchi mezon sifatida aql-idrok hamda ta'lim-tarbiyaga ustuvor tarzda qaralgan. Shu bois Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti, estetik qarashlarini o'rganishga yo'naltirilgan faoliyatga kompleks tarzda yondashish talab etiladi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida Sharq mutafakkirlarining estetik qarashlaridan foydalanish ta'lim va tarbiyaga oid ta'limotlaridan, talaba-yoshlarning ilmiy, nazariy bilimlar bilan qurollantirish, barkamol shaxsni shakllantirish, davlat va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda ustuvor masalalar sifatida dolzarbdir. Tadqiqot natijalariga ko'ra talabalarni Sharq mutafakkirlarining ta'lim va tabiyaga oid qarashlaridan foydalanish jarayonida quyidagi pedagogik omillarga e'tibor qaratish lozim:

1. Oliy badiiy pedagogika ta'lim muassasalari o'quv rejasiga kiritilgan "Pedagogika", "Pedagogika tarixi", "Pedagogik mahorat", "Tasviri san'at tarixi", "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" fanlarini o'qitish, til va madaniyat, adabiyot tarixi, madaniyat tarixi, ma'naviyat tarixi, san'at tarixi, tarbiyaviy ishlar metodikasi bilan bog'lik mavzular doirasida Sharqning buyuk mutafakkirlari merosi va xalq pedagogikasidagi an'analardan foydalanish imkoniyatlari kengligini hisobga olish.

2. Barcha guruhlarda imkoniyatlarga qarab talaba-yoshlarda Sharq mutafakkirlari asarlaridagi barkamol shaxsni voyaga etkazish g'oyasini singdirishga qaratilgan suhbatlar, savol-javob kechalari o'tkazish shart-sharoitlarini yaratish. Shu maqsadda o'quv yili mobaynida 2-4 akademik soatlarni nazarda tutish. Professor-o'qituvchilar mazkur mavzularga bag'ishlangan suhbatlarni ma'naviyat va ma'rifat kunlari dasturiga kiritishlari va o'tkazishlari zarur.

3. Tarixiy qadamjolar va mamlakatimizning tarixiy obidalariga sayohatlar uyushtirish, "Eng chiroyli tarixiy obida", "Tarixiy qadamjolarning barkamol shaxsni shakllantirishdagi o'rni", "Xalq amaliy san'atining shakllanish davrlari", "San'atning tarbiyada tutgan o'rni" mavzularida talabalarning ijodiy ishlari ko'rgazmalari va ko'rik-tanlovlarini o'tkazish.

4. Xalq milliy dostonlari va Sharq mutafakkirlari asarlaridan olingan, mazmunida go'zallikni madh etuvchi hamda talabalarga ibratli urf-odatlarining mohiyatini anglash, estetik sifatlarni singdirishga xizmat qiladigan va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan parchalarni sahnalashtirish hamda talabalar muhokamasiga taqdim etish.

5. Talabalarga ajdodlar merosiga, jumladan, allomalarning ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'rifat, nafosatga oid qarashlariga hurmat hissini shakllantirish maqsadida talabalar turar joylarida "Sharq mutafakkirlari asarlari bilimdoni" mavzusida bellashuvlar, savol-javob kechalari, debatlar uyushtirish.

6. Talabalar o'rtasida namoyish qilinayotgan seriallar, milliy filmlar, spektakllar va boshqa sahna asarlarini muhokama qilish hamda ularning mazmunini Sharq mutafakkirlari asarlaridagi milliy qahramonlar obrazlari bilan taqqoslash.

7. Talabalarda Sharq mutafakkirlarining yoshlar tarbiyasiga oid g'oyalarini shakllantirishda ularning ma'naviy-axloqiy, estetik qarashlaridan foydalangan holda suhbatlar o'tkazish jarayonida interfaol usullarni qo'llash.

8. Talabalarda Sharq mutafakkirlarining yoshlar tarbiyasiga oid g'oyalarini shakllantirishga to'sqinlik qiladigan, hozirgi davr talabiga javob bermaydigan, milliy ma'naviyatimizga zid bo'lgan ommaviy madaniyatni targ'ib qiluvchi urf-odat va an'analarning kirib kelishi, ularga ko'r-ko'rona amal qilish salbiy oqibatlariga olib kelishi haqida targ'ibot ishlari ko'lamini kengiytirish kabilar [2; B.108].

Tarixiy manbalarning tahlillari Sharq mutafakkirlari ijodiy faoliyatlarining markazida barkamol avlod masalasi ustuvor tarzda ko'rilganligidan dalolat beradi. Mutafakkirlar yoshavlod tarbiyasiga bag'ishlangan asarlarining mazmunida turli rivoyatlar, hikoyalar, hadis namunalari asoslangan bo'lib, ularning fikrlaricha, mazkur ibratomuz vositalar yordamida talabalar dunyoqarashiga ijobiy sifatlarni singdirish jarayoni jadallashadi. Shu tarzda Sharq mutafakkirlarining bu sohadagi pedagogik qarashlari hozirgi zamon ta'lim-tarbiya tizimi uchun ham muhim didaktik ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalari bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish oliy pedagogik ta'lim jarayonida professor-o'qituvchilarning pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Zero, yoshlar tarbiyasi jamiyat uchun muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, shaxsning shakllanishini ta'minlaydigan eng qadamiy va abadiy ma'naviy qadriyatdir [2; B.110]. E'tiborlisi, bu qadriyatlar mazmunida yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning kompleks tarkibida estetik g'oyalarning talqiniga alohida e'tibor qaratilgan. Shu tariqa barkamol avlod

tarbiyasi inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan asosiy qadriyat sifatida avloddan-avlodga o'tib boraveradi.

Muhokama. Sharq mutafakkirlarining ijodida mavjud bo'lgan yoshlar tarbiyasiga oid g'oyalar va yondashuvlardan foydalanishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng ko'lamda qo'llash ta'lim jarayonida katta samara beradi. Oliy badiiy pedagogik ta'lim jarayonida qo'llanilgan texnologiyalar orqali talabalarga Sharq mutafakkirlarining ta'limotlari taqdim etilganda natijalar yanada samaraliroq bo'lishi mumkin. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida Sharq mutafakkirlarining barkamol avlod tarbiyasiga, xususan estetik tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanish jarayonida aqliy hujum va interfaol usullarni qo'llashning o'ziga xos o'rni bo'lib, u juda katta ahamiyat kasb etadi. Sharq mutafakkirlari ijodida yoshlar tarbiyasiga oid g'oyalarni talabalar ongiga singdirib borish va shu orqali ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, barcha davrlarda bo'lganidek, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu esa talaba-yoshlarning ma'naviy ongini boyitib ular shaxsida tarkib toptiriladigan sifatlar ijtimoiy hayotda o'z o'rnida foydalanishlariga ko'maklashadi. Bugungi kunda "omnaviy madaniyat" niqobi ostidagi individualizm, kosmopolitizm, giyohvandlik, axloqsizlik va boshqa shu kabi illatlarni o'z ichiga qamrab olgan g'oyalar ma'naviy-axloqiy tahdidlar sifatida mamlakatimizga havf tug'dirmoqda, ya'ni "Yangi mafkuraviy hudud"ga egalik uchun kurash faol va ko'p qirrali bo'lib qolmoqda. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. G'oyalar ham ushbu jarayon tufayli er yuzi bo'ylab tez tarqaladi. Natijada ma'lum davlatlar, siyosiy, moliyaviy kuchlar manfaatlariga xizmat qiluvchi turli mafkuraviy markazlar ta'siri kuchli sezila boshlaydi. Bunday sharoitda mustaqil erkin fikrga, kuchli e'tiqodga ega bo'lmagan inson ochiq yoki yashirin mafkuraviy tahdidlarga bardosh berolmaydi [2; B.111]. Ularda ma'naviy-estetik sifatlarni tarkib toptirish, Sharq mutafakkirlarining ta'limotlarini ongli o'zlashtirish talabalarimizda ma'naviy immunitetni shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida ahamiyatlidir.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida ta'lim shaxs tarbiyasi bilan hamohang tarzda, uyg'unlikda amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydilar. Zero, ular ilm o'rganish gnoseologiyasi yoki texnologiyasini ham ancha ishonarli bayon qiladilar. Ilm o'rganayotgan kishi avval uni tushunishi, qalban his qilishi, mazmuni va mohiyatini anglashi lozim. Bu jarayon o'ylash, sukut saqlash orqali mushohada qilish bo'lsa, uni o'rganish o'qish yoki tinglash tarzida bo'lishi kerak. Shuningdek, ma'lumotlar va bilimlarni yodlash orqali mustahkam xotirada saqlash mumkin. Ilm o'rganish gnoseologiyasi – o'qish, tinglash, uni chuqur mulohaza qilish va fahmlash, yodlash esa – xotirada saqlash – unga amal qilish, kishilarga o'rgatish, tarqatishdan iborat. Bular, o'z navbatida, o'ziga xos bilish bosqichlari hisoblanadi [2; B.111]. Ilm-o'qish, tinglash-aqlan fahmlash-yoshdash-amal qilish-tarqatish-o'rganish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bunga erishish uchun esa, har bir shaxs kuchli bilim egasi bo'lishi lozim. Imom G'azzoliy esa ilmni hazinaga, ilmli kishilarni esa hazinachiga o'xshatadi. U ilmni aql bilan quyidagicha bog'laydi: "Ey farzand! Alloh Xoliqni Zul Jalol avval aqlni yaratdi". Bu haqda Payg'ambar (s.a.v.) shunday deydilar: Alloh aqlni yaratib, uni nur ichiga quydi. Ilmni aqlning taniga kiydirdi..." [3; B.26]. Shuning uchun ham ilmni, ayniqsa buyuk ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan ta'limotlarni holis niyat, toza qalb bilan o'rganish zarur. Barcha mutafakkirlar ta'limotlarining markazida farzand – etuk, har tomonlama barkamol shaxs tarannum etilgan. Ularning fikricha, dunyoda farzandlar aqli, bilimli bo'lsalargina ularning oxiratlari obod bo'ladi. Bundan tashqari, farzandlari kuchli, bilimli yurtga hech qanday dushman rahna sololmaydi.

Sharq mutafakkirlarining estetik qarashlaridan zamonaviy badiiy ta'lim jarayonida foydalanishning ahamiyati shundaki, bu manbalar didaktik mazmunga ega bo'lib, bu ta'limotining asosiy yo'nalishi – farzand (yoshlar) tarbiyasini yuksaltirish bilan bog'liq. Shuning uchun shaxs ma'naviyatini tarbiyalash orqali butun jamiyatni rivojlantirishi bilan muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Allomalar ta'limotida barkamol avlod tarbiyasi bilan bir qatorda, ustoz-shogird munosabatlari ham asosiy o'rin egallaydi. Asrlar davomida shakllangan bu an'ana bugungi kunda ham samarali qo'llanib, ayniqsa, tasviriy va amaliy san'at, badiiy hunarmandchilik sohasida undan samarali foydalanib kelinmoqda. Allomalarning o'z asarlari, ta'limotlarida ta'kidlashlaricha, ustoz-murabbiylar har jihatdan shogirdlariga o'rnak bo'lishlari lozim. Bu talablar ilm o'rgatuvchi ustoz va ularning shogirdlariga ham taalluqli ekanligi alohida e'tiborga molik. Ilm bilan shug'ullanuvchi olim va ilmni o'rgatuvchi muallimlar yomon sifatlardan xoli bo'lib, o'z shogirdlarida ham bu illatlarni komillikka zid bo'lgan holat sifatida o'qtirishlari lozim. Ilm va hunar o'rganish odobi, go'zal xulq, go'zal narsalarni yaratuvchisi bo'lish, estetik madaniyat sohibi bo'lishga undash bugungi badiiy ta'lim amaliyoti uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mutafakkirlar o'z asarlarida ustozlarning odoblari haqida ham qimmatli fikr bildirganlar. Ustoz-murabbiylar hech qachon nafsga ruju' qo'ymasligi, shogirdlari bilan har bir muaommoni hal qilish, ularning manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yishi, halol, beg'araz, haqqo'y, adolatli, insofli bo'lishi lozimligini uqtiradilar.

Ularning ifkricha, ustozlar, murabbiylar ma'rifat ahllari bo'lib, ularning darajalari Alloh tomonidan berilgan oliy maqomdir. Shunday ekan, shogirdlar, yoshlar “ustoz otangdek ulug'” naqliga amal qilishlari zarur. Shu bilan bir qatorda, yoshlar ilm egalashning og'ir va mashaqqatli yo'lini bosib o'tishlari lozim. Bunda ta'lim va tarbiyaning ustoz turli vositalardan foydalanib, o'z shogirdlarining ilm va hunar o'rganishga yo'naltirilgan ta'limiy va tarbiyaviy jarayonga yo'l boshchilik qiladilar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Sharq mutafakkirlari ta'limoti barkamol inson haqidagi g'oyalarning vujudga kelishida alohida o'rin egallaydi. Ularning bizgacha etib kelgan asarlarini o'rganish natijalari fikrimizning yaqqol dalilidir. Mazkur fikrdan kelib chiqqan holda quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- Sharq mutafakkirlarining ta'limoti yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda aks etgan pedagogik g'oyalar bugungi kunda ham mazmunan umuminsoniy xususiyatlarga ega bo'lgan didaktik jarayon mazmunining milliy-tarixiy negizini tashkil etadi;

- yoshlarning yuksak ma'naviyatli bo'lib yotishishlarida o'zining ilg'or hayotbahsh g'oyalari bilan hissa qo'shib kelayotgan Sharq mutafakkirlarining barkamol avlod tarbiyasiga oid qarashlaridan tarixiy ta'limiy qadriyat, muhim didaktik vosita sifatida ta'lim-tarbiya amaliyotida foydalanish, bir necha bor ta'kidlaganimizdek bugungi kunda ham alohida pedagogik qimmatga ega. Shuning uchun ham, mutafakkirlarning pedagogik g'oyalari, jumladan, ularning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini, jumladan, badiiy ta'lim jarayoniga, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari o'quv dasturlari, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarining mazmuniga zamonaviy yondashuvlar asosida singdirilishi lozim;

- bugungi kunda Pedagogika oliy ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonida mutafakkirlarning barkamol avlod tarbiyasiga oid qarashlaridan foydalanish, mazkur g'oyalarni yosh avlod ongiga singdirishning vosita, shakl, usul va metodlarini aniqlash zaruriyati mavjud. Zero, tarixiy manbalar, shu jumladan mutafakkirlarning ta'limiy

qadriyatlaridan, jumladan, ularning estetik qadriyatlaridan foydalanish mazmuni va tartiblari jamiyatning ta'limiy talab va ehtiyojlari, ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalariga ko'ra o'zgarib boradi. "Shuni hisobga olgan holda pedagogika turkum fanlarining o'quv dasturlari mazmuniga islom ma'naviyati, uning kelib chiqishi, tarixiy ildizlari, asoschilari, Qur'oni karim va hadislar, shu bilan bir qatorda, Sharq mutafakkirlarining barkamol avlod tarbiyasiga oid pedagogik qarashlari va g'oyalari singdirish zarur" [2; B.103].

Bugungi yoshlarning barkamol bo'lib shakllanishlarida umumbashariy hamda milliy qadriyatlarga tayanish, mutafakkirlarning didaktik yo'nalishdagi asarlarini barkamollikka undovchi asosiy vosita sifatida foydalanish muhim ta'limiy va tarbiyaviy tadbir hisoblanadi. Chunonchi, yoshlar bilan kasb o'rganish hamda ilmning turli sohalariga xos yo'nalishlarda suhbatlar, savol-javoblar, bahs-munozaralar uyushtirishda tarixiy qadriyat sifatida e'tirof etilgan didaktik manbalardan, jumladan, allomalarning estetik qarashlaridan foydalanish ta'lim jarayonida kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Mutafakkirlarning ilmni nafaqat o'rganish, balki uni har tomonlama teran anglash, amalda qo'llash hamda atrof-dagilarga tarqatish jihatidan hozirgi zamon falsafasi bilan hamohang, ayrim jihatlariga ko'ra ta'limiy nazariya sifatida ancha mukammal, desak xato bo'lmaydi. Chunki, hozirgi zamon bilish nazariyasida asosiy e'tibor bilimni o'rgatishga qaratilib, xotirada saqlash, unga amaliy jihatdan amal qilish, kishilarga o'rgatish va tarqatish tizimiga uncha e'tibor berilmaydi. Sharq mutafakkirlarining ta'limotlari markazida jamiyat a'zolari, shu jumladan yoshlar yoshlar ilm-ma'rifatni o'rganish bilan bir qatorda, uni qalban his qilib, butun amaliy faoliyati, harakatlarini pok-halol amalga oshirilishi turadi. Forobiyning fikricha, ilmning fazilati shundaki, u yoshlarni axloqli, iymon-e'tiqodli qiladi, shu bilan bir qatorda, ularda tirishqoqlik, riyozat chekish, sabr, qanoat, doimiy harakatda bo'lish lozimligi kabi ijobiy siftni tarkib toptiradi. Ajdodlarimiz an'analari, boy ma'naviy merosiga munosabatda ham vijdoniylik va mas'uliyat etakchilik qilishiga ishonmoq zarur. Sharq, xususan Turon zaminda ham bu xususda qimmatli ma'naviy meros qoldirilgan. Fikrimizning dalili sifatida ularning ayrimlarini ma'naviy merosini imkon darajasida ixlos va ixlosmandlik uchun qay darajada ahamiyatli ekanligini ko'rsatib berishga harakat qilamiz.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida vijdon, diyonat, nomus iymonning inson axloqining posboni, yaxshilik va yomonlikni ajratuvchi mezon sifatida ta'riflaydilar. Ularning fikricha, vijdoni, nomusi, diyonati bo'lmagan kishi dunyoda bo'lgan hamma yomonlikni qilishga tayyordir. Yomonlik qilmagan, ya'ni yaxshi odam vijdonlidir. Talaba-yoshlarning bilimlarni ongli ravishda egallashlari atrof-muhit, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga baho berishlarida muhim o'rin tutadi. Buning nitajasida ular o'zlarining jamiyatdagi o'rinlariga ega bo'ladilar. Professor-o'qituvchilar dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda Sharq mutafakkirlarining ijodida mavjud bo'lgan tarbiyaviy qadriyatlardan unumli foydalanishlari lozim. Shunday usullardan biri – talabalarining o'z-o'zlarini tarbiyalash usullaridir. Bu jarayonda talabalar o'z-o'zlarini tarbiyalashlari, ya'ni o'z ustilarida faol ishlashlari, mustaqil faoliyat yuritishlari, tanqidiy fikr bildirishlari lozim. Talaba-yoshlar o'zlarini tarbiyalashlari jarayonida istiqbollarni yaratishga harakat qiladilar, ijtimoiy hayotda mustaqillikka erishishga harakat qiladilar. Talabalarining o'z-o'zlarini tarbiyalashlari jarayoni oila, mahalla va o'quv muassasasidagi tarbiyaviy ishlarning ta'siri ostida bo'lishi kerak. Zamonaviy oliy ta'limda kredit-modul tizimini joriy etilishi yuqoridagi g'oyalarning zamonaviy tatbig'i sifatida qaralishi mumkin.

Natijalar. Oliy badiiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning shaxsiy ruhiy xususiyatlari, yoshlarga qarab tarbiyaviy ishlarning shakllari ham o'zgarib boradi. Bu o'zgarishlar esa talabalar faoliyatlarini faollashtirishga xizmat qilishi kerak.

Bu jarayonlarni estetik ta'limga yo'naltirilgan pedagogik texnologiya va texnikalar orqali samarali amalga oshirish mumkin. Estetik mazmundagi pedagogik texnologiya va texnika o'qituvchi faoliyatida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Agar o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatida estetik mazmundan foydalanmasa, jarayonga ijodiy yondoshmasa, ta'limiy va tarbiyaviy jarayon samarali yakun topmaydi. Vaholanki, buday estetik-pedagogik texnikaviy vositalar juda ko'p. Eng asosiysi – ijodkor o'qituvchi bo'lish, pedagogik texnologiya estetikasining qo'yilgan maqsad va vazifalarga to'liq mos kelishidir. Buning uchun o'qituvchi:

- pedagogik jarayonni estetik jihatdan ijodiy tashkil eta olishi;
- estetik-tarbiyaviy maqsadlarni belgilab olishi;
- o'quvchilarni dars (suhbat) g'oyasiga qiziqтира olishi, o'rganilayotgan hodisa, ob'ektning estetik mohiyatini ochib berishi;
- yangi estetik materialga ta'lim oluvchilarning ijodiy munosabat bildirishlari uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratishi (mustaqil ijod qilishi) lozim.

Pedagogik tadqiqotlarda, estetik tarbiya amaliyotida "o'quv jarayonini estetizatsiyalash" tushunchasi qo'llanildi. Tadqiqotchi R.N.Ergashev ta'kidlaganidek, "o'quvchilarni tarbiyalash, ularni estetik tarbiyalashda muhim omildir" [4; B.85]. Bu omilning tarbiyaviy ahamiyati insonlar shaxsiyatida ijobiy fazilatlarini, jumladan, estetik did va badiiy tafakkurni shakllantirish nazarda tutiladi [5; B.6].

Estetik tarbiya kompleks yondashuv asosida amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, bu borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni idrok etish, to'g'ri tushunib etish, his etish ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ushbu go'zalliklarni hayotga va san'atga qayta olib kira olish didi, ehtiyoji va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'qituvchi va o'quvchilarning izchil xatti-harakatlari majmuidir" [6; B.181]. O'qituvchi-tarbiyachi o'quv-tarbiya faoliyatini estetizatsiyalash orqali o'quvchilarga estetik bilim, ko'nikma, his-tuyg'u va taassurotlar ulashishni ko'zda tutishi lozim. U shunday shior ostida ish olib borishi zarur: "Estetik tarbiya – shaxs mohiyati va ma'naviyatini shakllantirish, rivojlantirish jarayonidir". Oliy badiiy pedagogik ta'limda Sharq mutafakkirlarining estetik qarashlaridan foydalanishning pedagogik ahamiyati va mohiyatini yana shu omillar bilan tavsiflash mumkin, ya'ni oliy ta'lim talabasi – bo'lajak mutaxassislarining faoliyati ko'p hollarda bevosita maktab ta'limi bilan bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'limning 6-sinf "Tasviriy san'at" o'quv fani mazmunida Sharq miniatyurasi, qadimiy mumtozadabiyoti namoyondalari, Kamoliddin Behzodning hayoti va ijodiga oid o'quv materiallari o'rin olgan. Shuning uchun oliy badiiy pedagogik ta'lim muassasalarining talabalari maktab ta'limidagi bu mavzularni yuqori saviyada o'tishlari uchun o'sha davrda amal qilingan estetik ta'limot, estetik muhit, estetik hodisalar haqida etarli ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim. Zero, ijtimoiy-ma'naviy hayotimizda sodir bo'layotgan hodisalar tasviriy san'at fanlarining zimmasiga o'quv va tarbiya jarayonini takomillashtirishdek muhim vazifalarni qo'yimoqda. Bu jarayonda tasviriy san'at fani oldiga yosh avlodni estetik jihatdan tarbiyalash, ularning estetik dunyoqarashini boyitish, badiiy-estetik didini yanada yuksaltirish bilan bog'liq zamonaviy estetik tarbiya tizimini takomillashtirishda zamonaviy tendentsiyalar bilan bir qatorda tarixiy estetik voqealar haqida ham etarli tasavvurlarga ega bo'lishlari lozim.

Shunday qilib, tasviriy san'at estetik voqeliklarning asosiy xususiyatlarini to'la qamrab oladi, ya'ni badiiy asarning yaratilish arafasidagi shart-sharoitlardan tortib, to u bunyodga kelib, asl egasi – idrok etuvchiga etib borgunicha bo'lgan va undan keyingi jarayonlarni tadqiq etadi, hamda ulardan nazariy xulosalar chiqaradi [7; B.7]. Sharq allomalarining estetik qarashlari tizimida bevosita “estetika” atamasining talqinlari berilmagan bo'lsa-da, zamonaviy ta'lim uchun uning mazmuni va mohiyatini anglatuvchi tavsilotlar mavjud. Shuning uchun estetikaning zamonaviy talqinida tarixiy manbalarga murojaatlarga keng o'rin berish tavsiya etiladi.

Estetik did tushunchasining o'ziga xosligi shundaki, u bir tomondan, idrok, fahm, farosat kabi ildizi aqlga borib taqalsa, ikkinchidan, o'zining ehtiros, his-hayajon, sub'ktiv baholash xususiyati bilan ulardan ajralib turadi. Shu sababli biz did haqida gapirganimizda, odatda, estetik did deganda – insondagi go'zallik, ulug'vorlik, fojiviylik singari estetik xususiyatlarni, umuman, nafosatni idrok etish qobiliyati nazarda tutiladi [8; B.197]. Tarixiy manbalar, Sharq allomalarining estetik qarashlarida estetik ideal bo'lishiga arzigulik mazmuni ko'rish mumkin. Estetik ideal deganda, biz odatda muayyan bir inson shaxsi yoki ijtimoiy-tarixiy hodisaning boshqalar tomonidan yuksak namuna, oliy maqsad hamda komillik tarzida qabul qilinishini nazarda tutamiz. U tasavvurdagi shaxs yoki jamiyatni real shaxslar va mavjud jamiyatdan yuqori qo'yish, ya'ni ideallashtirish bilan bog'liq. Masalan, O'zbekistonni kelajagi buyuk davlat sifatida tasavvur etishimiz uning hozirgi reallikdan baland, namunaviy bo'lishi lozimligini anglatadi. Ayni paytda ana shu yuksak ma'naviylik har bir o'zini tanigan odam uchun oliy ijtimoiy maqsaddir [8; B.200].

Insoniyat madaniyat tarixida san'at va fan kabi bir-biriga yaqin ma'naviy hodisa kam uchraydi. Ularning har ikkisi ham bir vazifani bajaradi, voqelikni in'ikos ettiradi. Faqat san'at buni – muayyan, fan – mavhum tarzda amalga oshiradi. Ya'ni, san'at voqelikdagi umumiylikni xususiylashtirish, fan esa, xususiylilikni umumlashtirish – mavhumlashtirish orqali ish ko'radi. Shu sababli, san'atda badiiy qiyofalar, fanda tushunchalar muhim o'rin egallaydi.

San'at bilan fanning yana bir o'xshashlik tomoni bor, bu – ularning ro'y beradigan voqelikni avvaldan ko'ra bilish, karomat qilish xususiyatida ko'rinadi. Uni fanda – ilmiy taxmin, faraz, san'atda – xayolot, tasavvur deb ataydilar. Masalan, Beruniy globus yasar ekan, o'z ilmiy nazariy hisob-kitoblariga tayanib, dunyoda yana bir qit'a mavjud bo'lishi kerak, degan farazni ilgari suradi va u qit'ani xaritada qayd etadi. Bir necha asrdan so'ng Amerika qat'asi kashf etiladi va Beruniyning taxmini amaliyotda tasdiqlangan ilmiy xulosa tusini oladi.

Xulosa. Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlardan oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanishda ularning asarlaridagi fikrlar teranligi, inson hayoti, manfaatlariga yaqinligi bilan barcha davr va jamiyat uchun muhim didaktik qimmatga ega. Ularning inson hayoti, ta'lim-tarbiyasidagi fikrlarining teranligi, hayotiyiligi bilan pedagogika va ilm-fan taraqqiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham ularning ilg'or g'oyalari mohiyatini ochib bera oladigan yirik tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlardan oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanishda ularning pedagogik qarashlari asosida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari ko'lamini kengaytirish lozim.

Amaliyotdagi mavjud holatni o'rganish natijalari bu sohada amalga oshirilayotgan pedagogik chora-tadbirlar etirli emasligini ko'rsatdi. Bugungi kunga qadar Sharq mutafakkirlarining yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan pedagogik talaba yoshlarga

o'rgatishning samarali shakllari va metodlari mavjud emas. Shuning uchun ham, ularning ijodini o'rganishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik tizim ishlab chiqish zarur.

Amalga oshirilgan dastlabki tajriba-sinov ishlari tahlillari natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, oliy ta'lim muassasalari ta'lim tizimida Sharq mutafakkirlari pedagogik merosidan samarali foydalanish bu sohada kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Ularning yosh avlod axloqiy va estetik dunyoqarashini shakllantirishga oid qimmatli g'oyalari, fikrlari bugungi kunda alohida ijtimoiy-pedagogik qimmatga ega.

Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlardan oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanishda ularning asarlarida insonning iymoni pokligi muskahlamligi bilan bir qatorda, axloq-odobi, muomala madaniyati, kundalik insoniy va oilaviy munosabatlari, mahalla, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar bilan o'zaro muomalasida alohida e'tibor beriladi. Mutafakkirlar ota-ona farzandga mana shu munosabatlarni axloqiy asosga qo'yishning poydevori unga ilm berish ekanligini alohida uqtiradilar.

Адабиётлар/Литература/References:

1. A.Sulaymonov. Tasviriy san'at ta'limi sifati va samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari. Monografiya. T.: 2017.
2. Z.Jalilov. IX-XII asrlarda Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlardan Oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. T.: 2018 y.
3. Abu Homid G'azzoliy. Ey farzand. T.: Movarounnahr. 2005.
4. R.N.Ergashev. Bo'lajak o'qituvchi shaxsida estetik madaniyatni shakllantirish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: "O'qituvchi", 2017.
5. (P.Sultonov. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. -T.: "Musiqqa", 2007.
6. Т.А.Стефановская. Педагогика: наука и искусство. М.: "Совершенство", 1998.
7. Abdulla Sher. Estetika. -T.: "O'zbekiston falsafa fanlari nashriyoti", 2010.
8. Abdulla Sher. Estetika. Nafosat falsafasi. T.: "O'zbekiston", 2015.

13.00.00- Педагогика фанлари

Одилов Ёрқин Жўраевич
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги
Тошкент ахборот технологиялари
университети Қарши филиали, доцент

ФИЗИКА ФАНИ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИ ЛОЙИҲАВИЙ-КОНСТРУКТОРЛИК ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШ

Аннотация. Мазкур мақолада “Дастурий инжиниринг” таълим йўналиши талабаларини физика фанини ўқитиш орқали физикавий ҳодиса ва жараёнларни лойиҳалаш ва конструкциялаш бўйича компетенцияларини шакллантириш, уларни лойиҳавий-конструкторлик фаолиятига тайёрлаш ҳақида фикр юритилган. Бундан ташқари физика ўқув курсини ўқитишни ташкил этишнинг лойиҳалаш босқичлари ва лойиҳавий-конструкторлик фаолиятининг мазмуний блок-схемаси аниқ мисоллар орқали тушунтириб берилган.

Калит сўзлар: мотивация, методология, дастурлаш, лойиҳалаш, конструкциялаш, компетенция, физик жараён, дидактик, интеграция, концептуал.

Odilov Yorkin Juraevich
Karshi branch of the Tashkent
University of Information Technologies named after
Muhammad al-Khwarizmi, Associate Professor

PREPARATION OF STUDENTS FOR DESIGN ACTIVITIES ON THE BASIS OF PHYSICS

Abstract. This article discusses the formation of competencies for the design and construction of physical phenomena and processes in teaching physics to students in the direction of "Software Engineering", preparing them for design activities. In addition, specific examples explain the stages of designing the organization of a physics course and a meaningful flowchart of design and construction activities.

Keywords: motivation, methodology, programming, design, construction, competence, physical process, didactics, integration, conceptual.

Одилов Ёрқин Жураевич
Каршинский филиал Ташкентского
университета информационных
технологий имени Мухаммада ал-Хоразми, доцент

ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОВ К ПРОЕКТНО-СТРОИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ФИЗИКИ

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование компетенций проектирования и конструирования физических явлений и процессов при обучении физике студентов направления «Программная инженерия», подготовке их к проектно-конструкторской деятельности. Кроме того, на конкретных примерах поясняются этапы проектирования организации учебного курса физики и содержательная блок-схема проектно-конструктивной деятельности.

Ключевые слова: мотивация, методология, программирование, проектирование, построение, компетентность, физический процесс, дидактика, интеграция, концептуальность.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N23>

Бугунги кунда бутун жаҳонда физика ўқитиш асосида таълим олувчиларнинг касбий компетенцияларини ривожлантириш, физика таълимида ахборот технологияларини қўллаш, виртуал лаборатория машғулотларидан кенг миқёсда фойдаланиш, интерактив дастурий воситалар, визуал моделлар, мультимедиали электрон ресурслар яратиш, тажрибаларга асосланган таълимни (experiential-learning) жорий этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Бўлажак дастурчиларни тайёрлашнинг муҳим вазифаларидан бири физика ўқитишда таълим методларидан ва дастурлаш тилларидан фойдаланишдир. Ушбу вазифаларни техника олий таълим муассасаларида амалга ошириш физика курсини алоҳида бўлимларини ўқитишнинг шундай бир методик тизимини яратиш лозимки, унда таълимнинг мазмуни, мақсади, вазифаси ва барча компонентлари ўртасидаги ўзаро алоқадорликни таъминлаш бўлажак дастурчиларни лойиҳавий-конструкторлик фаолиятга тайёрлашга хизмат қилади.

Техника олий таълим муассасаларида дастурчи-муҳандисларни тайёрлашда физикавий ҳодиса ва жараёнларни лойиҳалаш ва конструкциялаш учун физика ўқув курсининг билимларидан фойдаланиб, таълим жараёнини ташкил этиш бир неча босқичда амалга оширилади. Лойиҳалаш фаолияти босқичларини амалга ошириш билан боғлиқ мотивацион, услубий, шакллантирувчи ва физик масалаларни мустақил ҳал қила олиш босқичлари мавжуд [1].

Мотивацион босқичда талабаларнинг физикавий ҳодиса ва жараёнларни лойиҳалаш ва конструкциялаш фаолияти ривожлантирилади. Бунинг учун талабаларга лойиҳавий-конструкторлик фаолиятининг маълум бир босқичи билан боғлиқ бўлган касбий вазиятни тавсифловчи, уларни ҳал этиш қийинчилик туғдирадиган аниқ вазифалар таклиф этилади.

Методологик босқич - лойиҳавий-конструкторлик фаолиятининг муайян босқичини амалга ошириш учун умумлаштирилган ҳаракатлар тизимини ажратишдан иборат. Танланган ҳаракатлар тизимлари физиканинг турли бўлимлари ("Механика", "Молекуляр физика ва термодинамика", "Электростатика" "Оптика") ҳақидаги билимлардан фойдаланган ҳолда, бажарилиши мумкинлиги сабабли лойиҳавий-конструкторлик фаолияти босқичларини бажаришнинг умумлашган усуллари тегишли мавзуларни изчил ўрганиш билан очиб берилади.

Шакллантирувчи босқич физика курсининг тегишли бўлимларини ўрганиш давомида бир неча марта ташкил этилади. Методологик босқичдан сўнг "Механика" бўлимини ўрганишда талабалар "физикавий ҳодиса ва жараёнлар ёки унинг алоҳида элементларининг механик тавсифларини ҳисоблаш" босқичини бажаришнинг умумлаштирилган усули асосида аниқ масалаларни ечиш учун ҳаракатларни режалаштиришга ўргатилади.

Шунингдек, талабалар лойиҳавий-конструкторлик фаолиятининг тегишли босқичларини бажаришлари учун умумлашган усуллари шакллантириш мақсадида "Молекуляр физика ва термодинамика", "Оптика" бўлимларини ўрганганда

шакллантирувчи босқич ташкил этилади: “Иссиқлик баланс тенгламалари”, “Ёруғлик ҳодисалари”ни ўрганишда бажариш усулларининг ҳаракатларини лойиҳавий-конструкторлик фаолиятининг аниқ босқичларини физика курсининг айрим бўлимларини билиш ёрдамида бажариш мумкин.

Лойиҳавий-конструкторликнинг муаммоларни мустақил ҳал қилиш босқичида (учинчи босқич) физика дарсларида ва махсус фанларни ўрганишда, диплом лойиҳаларини ишлаб чиқиш доирасида, курс лойиҳаларини амалга оширишда техник мазмундаги физикавий муаммоларни, жумладан: лойиҳавий-конструкторлик фаолиятининг ҳар қандай босқичини тўлиқ мустақил ҳал қилишни ўз ичига олади. Буларнинг барчаси ишлаб чиқилган ўқитиш методикасини амалга оширишнинг тўртинчи босқичининг давоми ҳисобланади.

Физика курсини ўрганиш давомида лойиҳавий-конструкторлик фаолияти босқичларини бажариш учун талабалар гуруҳи шакллантирилади. Гуруҳ учун махсус вазифалар ишлаб чиқилиб, унда физикавий ҳодиса ва жараёни лойиҳалаш, конструкциялаш ва дастурлаш билан боғлиқ мақсад ифодаланади.

“Дастурий инжиниринг” бакалавриат таълим йўналиши ўқув режасининг биринчи семестрида физика курси билан параллел равишда “Дастурлаш” фани ҳам ўқитилади. Ушбу фан касбий фаолият объектларини аниқлаш ва белгилаш учун хизмат қилади. “Дастурлаш” фанини ўрганишда талабалар ўқитувчи раҳбарлигида турли техник билимларга оид масалаларни замонавий дастурлаш тиллари ёрдамида ҳал этиш ва уларнинг усулларини ўрганади [2].

Лойиҳавий-конструкторлик касбий фаолияти босқичларини бажаришнинг умумлашган усулларини эгаллаш учун мотивацион босқич ташкил этилади. Мотивацион босқич такроран ўтказилади. Биринчи марта-физика курсининг тегишли бўлимлари (механика, молекуляр физика ва термодинамика, оптика) ни ўрганиш бошланишидаги маърузалар давомида, иккинчи марта - ҳар бир бўлимни ўрганиш охирида ва учинчи марта-физика курсини ўргангандан сўнг якуний дарсда ўтказилади [3].

Лойиҳавий-конструкторлик фаолиятининг мазмуний блок-схемаси 1-расмда кўрсатилган.

Кўрсатиб ўтилган блок-схема дастурчи-муҳандиснинг лойиҳавий-конструкторлик фаолиятига тайёргарлик кўриш йўналишини кўрсатиб беради. Бундан ташқари, талабалар билан биргаликда физикавий билимлардан фойдаланган ҳолда аниқ амалга ошириладиган босқичлар қуйидагича:

1) физикавий ҳодиса ва жараёнларни ёки унинг алоҳида элементларининг хусусиятларини аниқлаш;

2) масалада келтирилган алоҳида катталикларнинг асосий характеристикаларини аниқлаш;

3) масала шартига кўра берилган катталикларни аниқлаш ва ечимини топишни математик аппаратдан фойдаланган ҳолда алгоритмлаш;


4) алгоритмик кетма-кетликка асосланган ҳолда математик моделлаштириш;

5) физик жараёни лойиҳалаш;

6) физик жараёни конструкциялаш;

7) дастурлаш;

8) таҳхислаш ва натижа олиш.

**1-расм. Лойиҳавий-конструкторлик фаолиятининг мазмуний блок-схемаси**

Талабаларга физика ўқитишнинг методологик босқичи физика курсининг аниқ мавзулари билан боғлиқ.

Физика фанининг механика бўлимига доир мавзуларни ўрганишда ушбу босқичдан фойдаланишни келтириб ўтамиз. Бунинг учун ушбу мавзуга оид билимлар учун қўлланиладиган иккита аниқ физик масала орқали ҳаракатларни режалаштирган ҳолда намунали дарс машғулоти амалга оширамиз. Талабалардан масала ечимини ёзмалик, фақат ўқитувчи бажарадиган ҳаракатларни кузатиб бориш талаб қилинади. Бунда ўқувчилар варақни тенг иккига бўладилар ва ҳар бир қисмда ўқитувчининг биринчи ва иккинчи масалаларни ҳал қилиш йўллари ёзиб оладилар.

Ўқитувчининг асосий вазифаси талабалар томонидан умумлашган усулнинг етарли даражада ўзлаштиришидир. Бунинг учун ўқитувчи қуйидаги ишни бажариши керак. Ҳар бир талабага юқорида келтирилганларга ўхшаш мустақил ишлар ва бир неча лойиҳалаш топшириқлари (тахминан 5-6) учун ўқув карточкиси берилади. Биринчидан, ўқитувчи биринчи вазифани ўзи таҳлил қилиб, ўқув картасида кўрсатилган барча амалларни қатъий бажаради. Шу билан бирга мулоҳаза юритиш жараёнида технологик харитасида бажариладиган амалларни ёзади [4].

Сўнгра талабаларнинг мустақил ишлари бошланади. Барча талабалар рўйхатдан иккинчи масалани ечиш учун ҳаракатларни режалаштирадilar ва ўқитувчи ҳар бир амалнинг бажарилишини назорат қилади. Сўнгра вариантлар бўйича бошқа иккита топшириқ танланади ва талаба-ўқитувчи жуфтлигида амалга оширилади. “Талаба” умумлаштирилган методга киритилган ҳаракатларни овоз чиқариб талаффуз қилади ва “ўқитувчи”нинг ҳар бир ҳаракатини бажариши зарур. Кейин роллар ўзгаради. Бу босқичда лойиҳалаш вазифалари ҳал этилмайди.

Кейинги босқичда ҳар бир талаба ўз вазифа ва топшириғини олади: физик объектнинг ёки унинг алоҳида элементларининг механик хусусиятларини ҳисоблаш учун лойиҳалаш фаолияти босқичини амалга оширилади ва дастури тузилади. Бу вазифани барча ўқувчилар якка тартибда назорат қилишлари лозим.

Ушбу босқични амалга оширишнинг умумлашган усулини ўзлаштиришнинг баён этилган усули ақлий ҳаракатларни босқичма-босқич шакллантириш назариясига асосланади. Методологик босқич 2 академик соатга мўлжалланган бўлиб, битта амалий дарсдан иборатдир. Дарснинг охирида ўқувчиларга уйда бажариш учун иккита масала берилади ва уларни умумлаштирилган усул асосида ечиш сўралади.

Талабалар томонидан лойиҳавий-конструкторлик фаолиятининг методологик босқичини муваффақиятли амалга ошириш умумлаштирилган усулнинг ҳар бир амалини аниқ бажариш орқали амалга оширилади.

Талабаларни умумлаштирилган методлар асосида лойиҳавий-конструкторлик масалаларини ечишга ўргатишнинг учинчи шакллантирувчи босқичи методологик босқичдан сўнг амалий машғулотда ташкил этилади. Шу билан бирга физика фанини ўрганиш давом этади ва бу босқич кейинги мавзуларни ўрганиш давомида амалга оширилади. Масалан, “Механика” бўлимида бу босқич “Иш, қувват, энергия” мавзусида амалга оширилиши мумкин. “Молекуляр физика ва термодинамика” бўлимида “Термодинамиканинг иккинчи қонуни: Энтропия”, “Оптика” бўлимида геометрик оптика қонунлари ўрганилади [1, 2].

Лойиҳавий-конструкторлик фаолиятини амалга ошириш босқичларининг умумлаштирилган усуллари мазмуни тақдирот шаклида ёки талабалар дафтарларида келтирилмаганлиги асосли аҳамиятга эга. Бу усуллар талабаларнинг раҳбарлик қилиши, ҳар бир мавзу бўйича аниқ лойиҳалаш вазифаларини ҳал этишда ҳар бир ҳаракат натижаларини қайд этиши лозим. Ҳар бир босқичда уй вазифасини текшириш, ҳар бир амалнинг бажарилишини муҳокама қилишдан бошланади. Сўнгра ўқитувчи иштирокида таълим жараёнида талабалар ҳар бир ҳаракатни белгилаб, лойиҳалаш масалаларини ечадилар. Дарс якунида талабаларга тўлиқ мустақил ечишлари лозим бўлган лойиҳавий вазифалар рўйхати берилади.

Ўқувчиларни лойиҳалаш фаолиятига тайёрлашнинг тўртинчи босқичи кейинги барча мавзуларда амалий машғулотларда амалга оширилади. Талабалар физика курсининг бошқа мавзулари билан параллел равишда мустақил ечиш учун рўйхатлардан топшириқларни бажарадилар. Яъни, “Дастурлаш” фанини ўрганишда физикавий объект ёки унинг алоҳида элементларининг механик характеристикаларини ҳисоблаш, “Оптика” бўлимининг ўрганишда эса – линзанинг фокус масофасини аниқлашга доир дастурий маҳсулот яратишлари мумкин.

Лойиҳалаш масалаларини ечиш натижалари физика курсининг ҳар бир бўлимини ўрганиш якунида муҳокама қилинади. Масалан, конструкторлик фаолиятда тезкор ечимларни топишда жамоавий ишлаш, лойиҳа гуруҳларида ишлаш ва бошқалардан фойдаланилади. Иккинчи семестр якунида якуний дарс ташкил этилади, масалан, конференция шаклида жамоа аъзолари ечилган лойиҳалаш вазифалари билан сўзлашади ва натижаларни барча талабалар билан муҳокама қилишади. Шундай қилиб, физика курсини ўрганиш якунига кўра, ҳар бир талаба физик билимлар ёрдамида ҳал қилиниши мумкин бўлган лойиҳалаш ва конструкциялаш муаммоларининг “банки” ни ташкил этади.

Физика ўқитувчиси талабаларни лойиҳавий-конструкторлик фаолиятга тайёрлаш учун методиканинг тўрт босқичини ташкил этиш бўйича узоқ муддатли режага эга йўл харитаси бўлиши лозим.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, дастурчи-муҳандисларни тайёрлашда физикавий ҳодиса ва жараёнларни лойиҳалаш ва конструкциялаш учун физика ўқув курсининг билимларидан фойдаланиш, таълим жараёнини ташкил этишда юқорида кўрсатиб ўтилган босқичлардан фойдаланиб амалга ошириш муҳим аҳамиятга эга.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Масленникова, Л.В. Взаимосвязь фундаментальности и профессиональной направленности в подготовке по физике студентов инженерных вузов: Дис. . доктора пед. наук: 13.00.02 / Масленникова Людмила Васильевна. - Саранск, 2001 г. - 398 с.
2. Рыскулова, М. Н. Методика курсового проектирования на основе интеграции общетехнических и специальных дисциплин: Дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02 / Рыскулова Марина Николаевна. – Нижний Новгород, 2004. - 232 с.
3. Тураев С.Ж. Повышение качества профессиональной деятельности студентов с привлечением к научному проекту. XII Международной научно-практической конференции «Инновации в технологиях и образовании», 21-22 марта 2019 г., Филиал КузГТУ в г. Белово. – Белово: 2019. – Ч. 4. -240-241 с.
4. Turaev S.J. (2019) “Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics” Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 10 , Article 55. –P. 292-297.
5. Одилов Ё.Ж. Методы использования языков программирования в обучении физике // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1. ISSUE 9. ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor. – Тошкент, 2021. – P. 436-441.
6. Одилов Ё.Ж. Физикадан таълим бериш асосида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш методикаси // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Тошкент, 2021. – № 5. ISSN 2181-1709. – Б. 238-244.

13.00.00 – Педагогика фанлари

Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ETYUDLAR ORQALI BO'LAJAK REJISSORLARNING KASBIY BILIM VA KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak rejissorlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishda etyudlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari tatqiq etilgan bo'lib, talaba-rejissorlar tomonidan ijro etiladigan rejissorlik etyudlari ustida ishlashning ijodiy bosqichlari, etyudlar yaratishning badiiy omillari yoritilgan.

Kalit so'zlar: etyud, talaba-rejissor, bilim, ko'nikma, ijodiy jarayon, talaba-aktyor, ssenariy, sahna, teatr.

Mamatkasimov Jahongir Abirkulovich

Associate Professor of Uzbekistan
State Institute of arts and culture
Doctor of Philosophy (PhD) in
the field of Pedagogical sciences

ETUDE METHOD FOR IMPROVING PROFESSIONAL KNOWLEDGE AND SKILLS OF FUTURE DIRECTORS

Abstract: This article explores the theoretical and practical foundations for using etudes to improve the professional knowledge and skills of future directors, the creative stages of work on directorial etudes performed by student-directors, and the artistic factors in creating etudes.

Key words: etude, student-director, knowledge, skill, creative process, student actor, script, stage, theater.

Маматкасимов Джахангир Абиркулович

доцент Государственного института
искусства и культуры Узбекистана,
доктор философии в области
педагогических наук (PhD)

ЭТЮДНЫЙ МЕТОД ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ БУДУЩИХ РЕЖИССЁРОВ

Аннотация. В данной статье исследуются теоретические и практические основы использования этюдов для совершенствования профессиональных знаний и навыков будущих режиссеров, творческие этапы работы над режиссерскими этюдами в исполнении студентов-режиссеров, художественные факторы создания этюдов.

Ключевые слова: этюд, студент-режиссёр, знания, мастерство, творческий процесс, студент-актёр, сценарий, сцена, театр.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N24>

Kirish. Etyudlar ustida ishlash orqali bo'lajak rejissorlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini, ijodiy va badiiy tafakkurini rivojlantirish teatr reformatori K.S.Stanislavskiyning "agarda", "berilgan shart-sharoitda" ta'limotiga asoslanib bajarilgan dastlabki ijodiy jarayon bo'lib, o'z nazariyasi va amaliyotiga, o'qitish metodikasiga ega pedagogik jarayondir.

Etyudlar ustida ishlashda (bir kishilik, juft, ommaviy etyudlar) talabalar oldida yangi murakkab vazifalar paydo bo'ladi. Bu jarayonda ijodning barcha elementlarigina emas, balki soha bo'yicha olingan ilk bilimlar mustahkamlanib, keyingi bosqich uchun asos bo'ladi.

Etyud – hayotdan olingan bir voqea bo'lib, dialoglarsiz xatti-harakatda ijro etiladi. Etyud – lotincha so'zdan olingan bo'lib "mashq", "mashg'ulot" kabi ma'nolarni bildirib, teatr pedagogikasida aktyorlik texnikasini rivojlantirish va takomillashtirish uchun xizmat qiluvchi janrdir. Hayotiy haqiqat asosida harakatga asoslangan, kam so'zli, dialogsiz, dramaturgiya komponentlarini mujassam etgan kichik ko'rinish [6, 137].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Etyudlar orqali bo'lajak rejissorlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish yuzasidan pedagog-rejissorlar J.Mahmudov [5], B.Sayfullayev [7], R.Usmonov [8], F.Ahmedov [1; 2], F.Egamberdiyev [3] kabilar teatr ta'limi amaliyotiga joriy etilgan o'quv metodik adabiyotlarida etyudlar nazariyasi, rejissorlik va aktyorlik mahoratini takomillashtirishda etyudlardan foydalanishning ijodiy uslublari, etyudlar ustida ishlashning amaliy va ijodiy ahamiyatini tadqiq etgan.

Etyud o'z ichiga dramaturgiyaning asosiy komponentlarini oladi. Dramaturgiyaning asosiy komponentlariga voqea, qarama-qarshiliklar kiradi va ular kompozitsion tuzilishga ega bo'lishi kerak, bir so'z bilan aytganda dramatik asar uchun kerakli bo'lgan barcha jihatlar etyudda mujassam bo'lishi kerak.

Etyud deyarli so'zsiz harakat asosiga quriladi, ammo ba'zi hollarda bitta-ikkita so'zlarni ishlatish mumkin, masalan: allo, salom, xayr, yo'q, xo'b bo'ladi va h.k. so'zlarni shunday ishlatish kerakki u dialogga aylanmasligi kerak. Etyud sahna san'atini endigina o'rganayotgan ijrochi uchun eng muhim bosqichlardan hisoblanadi.

Rejissorlik sohasini egallashni o'ziga maqsad qilib qo'ygan har qanday ijrochi ijod yo'liga etyudlar orqali kirib boradi. Etyudlar esa aktyorlik mahoratini o'rganish va o'zlashtirishning asosi hisoblanib, rejissor-aktyorni tarbiyalovchi vositalardan biridir.

Tahlil va natijalar. Etyud ustida ishlash talabalarning ijodiy tasavvurlari va fantaziyalarini kuchaytiradi, mahorat texnikasini rivojlantiradi. Etyud yaratish uch bosqichdan iborat:

I – bosqich. Etyudning ssenariysini yaratish. Bunda pedagog tomonidan vazifa etib berilgan yoki talaba tomonidan o'ylangan g'oya va fikr qog'ozga tushirilib, ssenariy holatiga keltiriladi. Etyuddagi har bir xatti-harakat holati alohida bo'laklarga ajratilib yoziladi. Masalan sahnaga yigit chiqib keldi. U atrofni kuzatdi. Bu birinchi bo'lak bo'lsa, asosiy voqeaning boshlanishi yoqtirgan qizini ko'rib qolishi, begona odamni ko'rib qolishi va o'sha paytdagi holat va xatti-harakatlar ikkinchi bo'lakda yoritiladi va h.k.

II – bosqich. Yozilgan ssenariyni sahnalashtirish uchun obrazli yechimini topish. Ya’ni ssenariyni sahnalashtirishda original topilmalarga e’tibor berish, ishtirokchining obrazi tasnifini to’g’ri tanlash kerak.

III – bosqich. Yozilgan ssenariyni va topilgan sahnalashtirishning obrazli yechimini sahnaga olib chiqish va ishtirokchilar bilan ishlay olish malakasi [6, 138].

Etyudlar badiiy adabiyot asarlari asosida ham tayyorlanishi mumkin. U holda etyud uchun badiiy asarning syujeti asos qilib olinadi. Talaba-rejissorlar mustaqil yaratgan etyud ssenariysi ularning ijodiy tafakkurini takomillashtirsa, badiiy adabiyot asosida yaratilgan etyud talabaning badiiy tafakkurini rivojlantiradi.

Ko’rinib turibdiki etyudlar asosan talaba-rejissorlar tomonidan mustaqil ishlanadi va pedagog ko’rigiga namoyish etiladi. Yuqoridagi uchta bosqich asosida etyud tayyorlanadi. Etyudlar jiddiy, komik, fantastik usullarda ishlanishi mumkin. Etyudni sahnalashtirishda uning janrini belgilash talaba-rejissorning yutug’i hisoblanadi.

Etyud talaba-rejissor uchun – birinchi kichik tugallangan spektakl bo’lib, o’zining oliy maqsadi, emotsionalligi, janr bo’yicha hal etilganligi bilan ajralib turadi, u chiroq va musiqiy bezakli tomoshadir.

Talaba-rejissor etyud ssenariysini yaratishda berilgan shart-sharoitni aniq ko’rsatishi lozim. Bular: harakat qaysi vaqtda bo’lib o’tishi. Ya’ni harakatning vaqti, tongdami, kechasi va h.k.; harakat qayerda bo’lib o’tadi. Ya’ni qanday joyda, hovlidami, o’rmondami yoki dengizda.; kim ishtirok etadi. Har bir ishtirokchiga qisqacha tasnif beriladi. Uning yoshi, kasbi va xarakteri va h.k.; nima bo’lib o’tadi. Ya’ni etyud ma’nosining qisqacha harakat mazmuni, uning fabulasi, syujeti, maqsadi ko’rsatilib, bu harakat nima uchun amalga oshirilayotganligi hal etiladi. Qahramonlarning harakati ko’rsatiladi [1, 277]

Etyud har xil syujet asosida qurilishi mumkin. Bu yerda sekin-astalik bilan mashqdan harakatga o’tib, bir vaqtning o’zida rejissorlik va aktyorlik fikr qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Etyudni sahnalashtiruvchi talaba-rejissor bevosita sahnalashtirish jarayonida quyidagilarga amal qilishi lozim [1, 278-279]:

– ishni sahna kengligidagi o’yinni tashkil qilish, ya’ni berilgan shart-sharoitni amalga oshirish va aniqlashtirishdan boshlab, sahna kengligiga (sahna maydoniga) rejissorlik va aktyorlik nuqtai nazardan qarab, ular o’rtasida prinsipial farq borligini ko’zda tutish kerak, ijrochi o’z tanasining kenglikdagi harakati uchun maydonning qulayligiga qaraydi.

– joy, vaqt harakati va muhitning obrazli yechimini izlashni boshlab, maydonni to’sib qo’ymaslikka harakat qilib, 2-3 aniq bezakning detalini topish lozim. Sahna kengligini shunday tashkil qilish lozimki, unda ta’sirchan effekt va harakat muhiti yetarlicha ta’sirchan bo’lishi lozim. Har qanday sahnalashtirish effektlaridan – tovush, musiqa, chiroq va h.k.lardan foydalanishga ruxsat berildi.

– ijrochilar harakatiga ayniqsa katta ahamiyat berib, ularning harakatini faollashtirish lozim, buning uchun berilgan shart-sharoitni jadallashtirib, har bir parchada ijrochi uchun to’g’ri topshiriqlar topish kerak.

Bir kishilik etyudlarda mavjud qonun-qoidalarga juft etyudlarda ham amal qilinib, o’quv topshiriqlari bir muncha murakkablashib, bir qancha yangi tushuncha va elementlarni egallash talab qilinadi.

Juft etyudlardagi muloqot jarayonida, harakat qilayotgan qahramonlarning turli qarashlari to'qnashuvi, intilishlari, harakat rivojida qarama-qarshilikni keltirib chiqarib, uzviy kurash jarayonini yuzaga keltiradi.

Shunday bo'lishiga qaramay, ular xatti-harakatlarining turli maqsadlarini rivojlantirsa ham, ishtirokchilar bir-birlarisiz mustaqil harakat qila olmaydilar. Chunki, asarning yetakchi harakatdagi voqealar rivojida ular bir-biriga uzviy bog'langan bo'ladi. Shuning uchun etyudning yetakchi xatti-harakatini rejalashtirayotganda har bir ijrochining qaysi harakati bir xil voqeani yuzaga keltirishini aniqlab olishi kerak.

Bundan tashqari, juft etyudda, har bir qahramonning ma'lum mavzusi bo'lib, uning mavzusi oliy maqsadda o'z aksini topib, aniq xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Juft etyudlarda parallel ravishda ikki mavzu rivojlanadi. Ikki mavzuning aloqasini tushunish unchalik oson ish emas. Bu ikki mavzuning to'qnashuvi natijasida qarama-qarshilikda, juft etyudning asosiy g'oyasi vujudga keladi. Bu vaziyatda biz bosh qahramonning harakati va mavzusini asosiy deb qarab, unga qarab etyudning asosiy mavzusi va g'oyasini aniqlaymiz. Qarshi chiqayotgan qahramonning mavzusi va harakatini - ikkinchi mavzu va qarshi harakat qilib olish mumkin.

Juft etyud ustida ishlash jarayonida talaba qahramonlarning xarakterini aniqlash va egallashning prinsiplarini o'rganishi lozim. Bu bosqichda, bu narsani o'rganish uchun, muallifning ssenariysidagi ishtirokchilarning xarakteristikasi material bo'lib xizmat qiladi.

Talaba-rejissor va ijrochi ssenariyda ko'rsatilgan xarakterning chizgilarini topishda, yanada aniqlashtirib, ta'sirchanligini eng yuqori bosqichga olib chiqishlari lozim. Shuningdek xarakter ommaviy etyudlarda ham muhim sanaladi. Etyuddagi barcha ishtirokchilarning o'ziga xos jihatlarini izlab topishda rejissordan katta mehnat talab etiladi.

Talaba-rejissorlar ommaviy etyudni yaratish jarayonida etyudlarning soniga qarab guruhlariga bo'linib yoki butun guruh bo'lib bir etyudni yaratishlari mumkin. Bu yerda etyudlarning soni emas, balki sifati katta ahamiyatga ega.

K.S.Stanislavskiy bu haqida shunday yozadi: "Ba'zi o'qituvchilar haddan tashqari etyudlarni sifatiga emas, sonini ko'paytirishga urinadilar. Ammo, ular bilib qo'ysinlarki, ishning sifat darajasi muhimdir. Mayli bitta etyud bo'lsin, ammo oxirigacha yetkazilgan, tugallangan, puxta o'ylangan bo'lsin. To'liq, astoydil ishlangan etyud haqiqiy ijodga, son va tashqi jihatdan ishlangani esa xaltura, "hunarmandchilik"ka olib keladi" [4, 122].

Ommaviy etyudlarni yaratishda talaba-rejissorlar hal etilishi kerak bo'lgan yangi vazifalarga duch keladilar. Ommaviy etyudda talaba-rejissorlarning ssenariy yaratish bilimlari, ijrochilik texnikasi va rejissorlik mahoratlari toblanadi. Chunki ommaviy etyudlar ustida ijodiy ish jarayoni birinchi kursning ikkinchi yarmidan boshlanadi.

Ommaviy etyud asosida, bitta asosiy voqea bo'lib, barcha ishtirokchilarni birlashtiradi, etyud ustida ishlashning boshidan boshlab, oddiy oliy maqsad aniqlab olingan bo'lishi kerak.

Etyud ustida amaliy ish olib borganda, uning ma'nosi yaxshilab o'rganilib, harakatga yetaklovchi sharoitni to'g'ri yo'naltirib, harakat orqali har qanday vujudga kelgan savolga javob bera olish kerak. Yetakchi xatti-harakat yo'nalishini sezish uchun, uni vujudga keltiradigan bo'laklarni bo'lishni o'rganish uchun, ish jarayonida voqeadan voqeaga o'tishdagi sahnaviy harakat rivoji yo'nalishini ko'p marotaba tahlil qilish lozim.

Ko'pincha talaba-rejissorlar etyudni chuqur tahlil qilmay, yuzaki qaraydilar. Ularni ko'proq etyudning tashqi tomoni - fabulasi qiziqtirib, o'z ijrochilari orqali tasvirlashga harakat

qiladilar. Etyud rivojini chuqur tahlil qilish faqatgina fabula yo'nalishigina bo'lib qolmay, balki sahna badiiyligining boshqa elementlari orqali ham amalga oshiriladi.

Ommaviy etyudda qiyin ruhiy holatlar bo'lishi shart emas, lekin unda albatta faol rivojlanayotgan kurash jarayoni – o'tkir harakat qarama-qarshiligi bo'lishi kerak. Ommaviy etyudda sahna badiiyligining barcha elementlari mujassam bo'lib, birinchi navbatda ular yetakchi harakatning organik rivojlanish texnikasini mustahkamlaydi.

Talaba-rejissor bu narsa ustida ishlaganda sahna maydonida harakatsiz turgan holatiga yetakchi xatti-harakat turtki bo'lib, obrazdagi xatti-harakat yo'nalishiga yo'llaydi. Oldiniga har bir talaba o'zi uchun mantiqiy to'g'ri bo'lgan harakat va holatni tanlab, bu holatni tasvirlash uchun o'zining so'zlari va harakatidan foydalanadi. Bu bosqichda jonli izlanish jarayoni, erkin improvizatsiyani talab qiladi.

Ommaviy etyudlar ustida ishlayotganda har bir talaba-rejissor ish jarayonida yoki ijrochi vazifasini bajarganda quyidagilarni aniq bilishi lozim: ma'lum sahnaviy voqeaga qanday yondashish kerak; berilgan shart-sharoitda haqqoniy harakat degani nimani anglatadi; rolning mantiqiy harakatini bajarishda o'zining g'oyasi degani nimani anglatadi; rolning begona so'zlarni qanday qilib o'ziniki qilish va qanday qilib qahramonning fe'l-atvorini o'zining xayolida yaratilgan mantiqiy fikr bilan boyitish; mantiqiy harakatni qanday qayd etish kerak, lekin qayd qilish mumkin bo'lmagan sezgilar mantiqi; uzviy ravishda rivojlanayotgan yetakchi xatti-harakatga qanday yaqinlashish; o'zining oliy maqsad haqidagi tushunchasini harakatga o'tkazish; qanday qilib tipik xarakterlarni yaratish, buning uchun obrazni yaratishda tanish (o'rganilgan) berilgan shart-sharoitlarni va xarakterlilikning elementlarini toppish [1, 298].

Ommaviy etyud g'oyani obrazga ko'chirishning asosiy elementlari bilan tanishish imkoniyatini yaratadi. Birinchi bosqichda umumiy kompozitsiyada o'z o'rnini topa olish mahorati, juda ham muhimdir. Omma ichida o'zining mantiqiy harakatini aniqlash, qachon o'ziga diqqatni jalb qilish yoki aksincha, hech kimga bilinmaydigan holda ikkinchi planga o'ta olishni o'rganish juda ham muhimdir.

Xulosa va takliflar. Etyudlar ijrochilar sonidan qat'iy nazar, hoh u yakka etyud, hoh ommaviy etyud bo'lsin albatta rejissor tomonidan tahlil etiladi. Etyudlarni tahlil qilganda uning quyidagi jihatlari o'rganiladi:

- Asarning mavzusi – bunda asar nima haqida ekanligi aniqlanadi;
- Asar g'oyasi – etyudda ilgari surilgan fikr;
- Konflikt – etyuddagi voqeaga zid voqea va ularni kimlar keltirib chiqaradi;
- Kompozitsion tuzilishi – prolog, tugun, voqealar rivoj, kulminatsion nuqta, yechim aniqlanadi;
- Yetakchi xatti-harakat – oliy maqsadga olib chiquvchi yo'l;
- Oliy maqsad – shu asarni sahnalashtirish orqali rejissor nima demoqchi ekanligi;
- Obrazlarga xarakteristika – ishtirokchilarga qisqacha xarakteristika beriladi.

Talaba-rejissorlar tomonidan o'ylab topilgan etyudlarda tomoshabin to'g'ri xulosa chiqarishi uchun hatti-harakatlar tizimi aniq ifodalanishi va uning uchun tushunarli bo'lishi kerak.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. Darslik. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.
2. Ahmedov F.E. Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Cho'lpon, 2007. – 304 b.
3. Egamberdiyev F.T. Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 356 b.
4. Кристи Г. Воспитание актёра школы Станиславского. – Москва: Искусство, 1968.
5. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. Darslik. – Toshkent: Bilim, 2005. – 192 b.
6. Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Lesson Press, – 220 b.
7. Sayfullayev B. va boshq. Aktyorlik mahorati. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.
8. Usmonov R.I. Rejissura. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 1997. – 221 b.

13.00.00-Педагогика фанлари

Babadjanov Axmadjan Xudoyberdiyevich
GulDU "Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi" kafedrası katta o'qituvchisi,
Email: ahmadjanbabadjanov@gmail.com

TALABALARGA TASVIRIY SAN'ATDAN PORTRET CHIZISHNI O'RGATISHDA FIZIOGNOMIKANING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya: maqolada yoshlarga ta'lim tarbiya berish, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisida qalamtasvir fani bo'yicha portret tasvirlashda yuqori darajali texnik bilimlarni egallashdan tashqari, psixologiya sohasida ham yetarli ma'lumotga ega bo'lish kerakligi, buning uchun barcha fanlar qatori fiziognomikani ham chuqur egallash kerakligi to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, tasavvur, surat, siyrat, psixologiya, fiziognomika, etnopsixologiya, iridodiagnostika, dermatoglifika.

Babadjanov Akhmadjan Khudayberdiyevich
Senior teacher of the "Fine Art
and Engineering Graphics" department of GulSU

THE ROLE OF PHYSIOGNOMICS IN TEACHING FINE ART PORTRAIT DRAWING TO STUDENTS

Abstract. the article discusses the need to educate young people, in addition to acquiring high-level technical knowledge in drawing portraits in the field of pencil drawing, the future teacher of fine arts should also have sufficient knowledge in the field of psychology, and for this, along with all other sciences, physiognomy should be thoroughly mastered.

Key words: fine art, imagination, photography, poetry, psychology, physiognomy, ethnopsychology, iridodiagnosics, dermatoglyphics.

Бабаджанов Ахмаджан Худойбердийевич
Старший преподаватель кафедры "Изобразительное
искусство и инженерная графика" ГулГУ

РОЛЬ ФИЗИОНОМИКИ В ОБУЧЕНИИ ХУДОЖЕСТВЕННОМУ ПОРТРЕТНОМУ РИСУНКУ СТУДЕНТОВ

Аннотация: в статье рассматривается необходимость воспитания молодежи, помимо приобретения технических знаний высокого уровня в рисовании портретов в области карандашного рисунка, будущий учитель изобразительного искусства должен также обладать достаточными знаниями в области психологии, а для эту, наряду со всеми другими науками, физиогномику надо досконально освоить.

Ключевые слова: изобразительное искусство, воображение, фотография, поэзия, психология, физиогномика, этнопсихология, иридодиагностика, дерматоглифика.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N25>

Kirish. Talaba ta'lim va tarbiya borasidagi asosiy bilimlarni psixologiya fanlarini chuqur o'zlashtirish natijasida egallaydi. Oliy o'quv yurtlarida o'tkazilgan tajriba, kuzatish hamda xulosalar shuni ko'rsatadiki, yosh mutaxassis o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatida nafaqat psixologiyaning umumiy jihatlariga e'tibor berish (odam psixologiyani o'rganib to'g'ri muomala qilish, uning individual xususiyatlarini o'rganish, talabalarga muvofiq keladigan tarbiya usullarini izlab topish hamda ta'lim berish va boshqalar) balki turli mashg'ulotlar jarayonida xususan tasviriy faoliyatida va yoshlar tarbiyasida uni amaliy qo'llashi joiz.

Ilmiy manbalarni tahlil qilish hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida kuzatish natijalari shuni ko'rsatadiki, badiiy grafika fakultetlarida talaba yoshlariga ta'lim berish va ularni bo'lajak pedagogik faoliyatga tayyorlash ko'pgina nazariy hamda amaliy muammolarni hal etishni taqozo etadi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda portret qalamtasvir fani bo'yicha olib boriladigan psixologik kuzatish natijasida biz qo'yidagi xulosalarga keldik.

1. Portret qalamtasvirini bajarishdan oldin uning psixologik xarakteri yetarli darajada ochib berilmaydi.

2. U yoki bu amaliy ishlarni bajarishda talabalarga fiziolognimikasi miqdorlari yetarli tahlil qilinmaydi.

3. Qo'yilgan naturaning kompozitsion tuzilishi, uning metodik bosqichlarida amaliy tug'ri bajarish yo'llari har doim ham ochib berilmaydi. Yuqorida bayon etilgan muammolarning ajoyib hal etilishi bo'lajak rassom o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim omildir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Taniqli psixolog va pedagog olimlar ijodiy tasavvurni tasviriy faoliyatidagi asosiy psixologik jarayonni hisoblab, yoshlar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda uning mohiyati bexisob deb ta'kidlaydilar. Yoshlarning tasviriy san'at sohasidagi hamda tasvavurlarini shakllantirishning nazariy hamda amaliy muammolarini rus olimlaridan E.I.Ignatyev, V.S.Kuzin, L.T.Medvedev, N.N.Rostovtsev, E.V.Shoroxov, o'zbek olimlaridan R.Hasanov, S.Bulatov, B.Boymetov, A.Sulaymanov, O.Xudoyorova, U.Nurtayev, S.Abdirasilov, M.Nabiyev, G'Abdurahmanov, R.Rajabov va boshqalar o'zlarining nazariy va tajriba tadqiqot ishlarida amalga oshirganlar.

Har bir bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi uchun yuzani o'qish san'ati bilan atroflicha tanishish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun fiziognomika fanini yaxshi o'rganish yaxshi samara beradi.

Fiziognomika – yuzni o'qish san'ati juda qadim zamonlarda vujudga kelgan. Inson portretini psixologik holatini tasvirlashda yuzni o'qish san'ati asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Etibor bergan bo'lsangiz xalq og'zaki ijodida personajlarning yuz tuzilishiga alohida ahamiyat beriladi. Masalan, doimo devlarning ko'zi shokosaday, quloqlari supraday, yalmog'iz kampirlar qirg'iyburn, lablari osilgan bo'ladi. Donishmandlar keng peshonali, nuroniy chehrali qilib tasvirlanadi.

Umuman, folklor asarlarida ijobiy qahromonlarning yuz bichimi hamisha o'zaro mutanosiblikda – keng peshonali, tekis qoshli, chiroyli ko'zli, tiniq yuzli, xullas, hamma a'zolari uyg'unlikda bo'lgani holda salbiy qaxramonlar tor peshona, supurgiqosh, chag'irko'z, qirg'iyburn, shalpanquloq, qiyshiq og'iz, cho'tir yuz va hakoza tarzda, ya'ni yuzdagi a'zolarida

albatta biron nuqson bilan ko'rsatiladi [1; B.224.]. Xo'sh buning boisi nimada? Gap shuningdek kishining fe'l-atvori, axloq-odobi, qolaversa, ichki ma'naviy olamining qandayligi yuzida bamisoli ko'zgudagi kabi aks etib turishiga xalq azaldan e'tibor bergan. Masalan, ko'zning o'zini olaylik. Bundan yaxshilik kutib bo'lmaydi, deyishadi chag'irko'z, bitko'z odam haqida. «Ko'zi naq teshvorguday-a»! deyishadi nigohi qattiq odam to'g'risida. Va aksincha, yaxshi odamlar haqida ko'zlari porlab turadi, chaqnaq turadi, ko'zlarida sehri bor deyiladi [2; B.24.]. Shu bois ham go'zal qizlar qosh-ko'zlari popukdekkina deb tasvirlanadi, yorning ko'zlari charosga qiyoslanadi. Qo'yko'z, bo'tako'z, ohu ko'z, shahlo ko'z, xumor ko'z degan iboralar bor va hakozi. Yoki lablari yupqa odam zahar, achchig'i tez, serzarda bo'ladi deyiladi. Yuz terisining rangi tiniq qizlar haqida «sutga chayib olganday» yoxud «oqi-oq, qizili-qizilga ajralibdi», «yuzlari anorday», «yuzlari qirmiz» degan ta'riflar bor. Ertaklarda esa shum kampirlar to'g'risida «yuzlari tirishgan, xudo bilan urishgan» kabi iboralar uchraydi.

Shuningdek bodomqovoq, badqovoq degan iboralar ham qahromonlarning ichki olamini ochishda bir chizgi vazifasini o'taydi. Go'zallar qalamqosh, qayrilma qosh deb ta'riflangani holda badjahl kishilar o'siq qosh, supurgi qosh va hokazo deb ta'riflanadi. Burunning qandayligi ham ko'p narsadan dalolat beradi. qadimgilar burun yuzning ziynati deb bejiz aytishmagan. Binobarin, kishi chehrasini hech bir a'zo qiyshiq burunchalik buzib turmaydi va aksincha, nafis, qirra burun yuzga alohida husn bag'ishlaydi. Yana shunisi borki, xunuk yuzda chiroyli burunni uchratish qiyin. Chindan ham, agar e'tibor qilsangiz, xunuk yuzda hatto ohu ko'zlar yo bejirim lablar uchrab qolishi mumkin-u lekin nafis, qirra burun aslo uchramaydi. Xullas, kishining botiniy olamini yuzda zohir etuvchi bu xil alomatlar nihoyatda ko'p. Xalqimiz inson yuzini ko'zguga qiyoslashi ham bejiz emas. «Falonchining yuzidan nur yog'iladi» va yoki aksincha, «pistonchining turqi sovuq» kabi iboralarda jon bor. Etnopsixologiyadan bexabar, lekin kishining ichki olami bilan tashqi qiyofasidagi uzviy aloqadorlikni hayot tajribasida sinab bilgan xalqimiz bu xil iboralari bilan kim ezgulikka moyil-u kimdan yaxshilik kutib bo'lmasligini aniq ifodalay olgan.

Muhokama. Yuzdagi alomatlariga qarab kishining fe'l-atvori, axloq-odobi, ma'naviy olami to'g'risida xulosa chiqarish yuzni o'qish san'ati deb ataladi, u jahondagi barcha xalqlarda bor. Ilmiy tilda esa u «fiziognomika» deb ataladi. «Fiziognomika» yunoncha so'z bo'lib, «fizio» – tabiat (kishi tabiati, bu o'rinda yuzi ma'nosida) va «gnomika» – bilish ma'nolarini anglatadi. Ya'ni, fizognomika-yuzni o'rganish demakdir. Boshqacha aytganda, yuzni o'qish san'ati jiddiy e'tiborga sazovar. Zotan, u ham dermatoglifika yoki iridodiagnostika singari kishi organizimdagi hamma a'zolar o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Ko'pchilikka yaxshi ma'lumki, kaftdagi chiziq'larga qarab fol ochish yaqin-yaqinlarda ham firibgarlikdan boshqa narsa emas, deb tushunilardi. Endilikda esa dermatorlifika istiqbolli ilmiy yo'nalishga aylangan. Mutaxassislar kaftdagi naqsh-chiziq'larga qarab, organizmdagi irsiy kasalliklarni, aqliy nogironlik va hakozi larni aniqlashmoqda. Fiziognomikani dermatoglifika va iridodiagnostika kabi ilmiy yo'nalishlar qatorida tilga olayotganimizning boisi yuzdagi ba'zi alomatlar ham yashirin kasalliklar belgisi ekanligidadir. O'z holicha esa, hozirda, fiziognomika o'ziga xos etnografik ahamiyatga ega bo'lib, muayyan xalq, muayyan millat hayotining psixologik jihatlarni, inson surati va siyrati masalalariga doir qarashlarini o'rganishda yordam beradi.

Taassufki bir xalqda bor narsa boshqa xalqqa ham bemalol to'g'ri kelaveradi, deb bu xilda jo'n fikr yuritish etnografiyani anchayin yuzaki tushunishga va oqibatda oddiy narsalarda chalkash tasavvurlar tug'ilishiga olib keladi [3; B.89.]. Dunyoda bir xalqning o'zigagina xos

bo'lgan urf-odat yo tushunchani butkul boshqa xalqqa nisbatan to'g'ridan-to'g'ri qo'llayverish noto'g'rigina emas, hatto kulgili ekanligini yaqqol ko'rsatish uchun, keling, misollarga murojat qilaylik. Biz, o'zbeklarda hamsuxbatdan ko'zni olib qochaverish ayb sanaladi. «Qani, ko'zimga qarab gapir-chi!» degan ibora ham bor. Keniyaning luu qabilasida esa kuyov qaynonaning ko'ziga qarashi gunohi azim hisoblanadi, u gaplashganda hatto orqasini o'girib turishga majbur. Endi, o'zbek kuyovlari qaynonasi bilan gaplashganda orqasini o'girib turishini tasavvur qilib bo'ladimi!

Xitoy va Koreyada «llonga o'xshaysan-a!» degan gap qiz bola uchun eng yuksak maqtov, chunki ularda ilon-donolik, go'zallik, epcillik ramzi. Hindistonda esa sigir muqqadas hayvon, go'zallik timsoli hisoblanadi, unga qiyoslangan ayol xursand bo'ladi. Endi boyagi o'rtoqlar qizlarimiz yo ayollarimizga ilonga yoki sigirga o'xshaysan-a deb aytib ko'risin-chi qani!..

Xullas, etnografik ma'lumotlarni ko'r-ko'rona qabul qilmaslik, lekin ayni vaqtda har bir xalqning urf-odatlarini hurmatlamoq kerak. endi bevosita fiziognomikaning o'ziga keladigan bo'lsak, yuzidagi har bir alomat nimadandir darak berishi mumkinligi qaysi odamni qiziqtirmaydi deysiz.

Xitoydagi tarixiy solnomalar imperatorlar, hukumdorlar, donishmandlar hayotining tavsifi bilan to'lib ketgan [4; B.27.]. Ularda bu kishilarning hatti-harakati tashqi qiyofalari, asosan yuzlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'lanadi. Yuzdagi har bir belgi aniq narsani anglatadi, deb hisoblangan.

Vaqt o'tishi bilan xitoy fiziognomistlari yuzni o'qish san'atini ancha yuksaltirishdi, ular yozgan risolalalar Sharqning xilma-xil mamlakatlariga tarqalib ketdi [11; B.192.]. Bu risolalarni Yaponiyaga ham olib kelishgan. Garchi hozirgi vaqtda Yaponiyada fiziognomikaga yalpi qiziqish bo'lmasada, uning ta'siri tasviriy san'at, niqob ishlab chiqarish, teatrdagi, muloqotning turli sohalarida sezilib turadi. Xo'sh, yapon fiziognomikasining mohiyati nimadan iborat o'zi?

Odam yuzini o'qish qulay bo'lishi uchun yaponlar uni gorizontall chiziqlar bilan shartli ravishda uchta-yuqori, o'rta va quyi zonalarga bo'lishadi. Yuqori zona bu, asosan peshona qismi bo'lib, kishining butun hayot yo'lini yaqqol aks ettiradi. Umrning 15 dan 30 yoshgacha bo'lgan qismiga, shuningdek, nihoyatda keksalik davriga oid ma'lumotlar shu zonadan olinadi. Risoladagidek (shakli to'g'ri va terisining rangi toza) peshona kishining jismiyu ruhiyati sog'lomligidan dalolat beradi. qoshlardan burun uchigacha davom etuvchi o'rta zona hayot yo'lining 35 dan 50 yoshgacha bo'lgan davrini aks ettiradi. Bu zonaning har jihatdan uyg'unligi kishi psixikasi muvozanatda ekanligini ko'rsatadi. Quyi zona (yuqori lab, jag', og'iz, dahan) kishi umrining 51-57 yoshlardagi, shuningdek, keksalik davri haqida ma'lumot beradi. Bu zonaning shakli to'g'ri bo'lishi bosliqlik, vazminlik, yaxshi fe'l-atvordan dalolat beradi. Ko'rinib turibdiki, Yaponiyada yuzni o'qish usuli aniq belgilab chiqilgan alomatlarini sharhlashga asoslangan. Bu alomatlarining har biri esa muayyan yoshga oid bo'lib, kishi hatti-harakatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqdir. Yuzning o'qish bo'yicha bir qancha maktab mavjudki, ularning har biri o'zining alomatlar sistemasini qo'llaydi, alomatlar soni esa 99 tadan 130 tagacha boradi. Jamiki alomatlar o'rganib chiqilgandan keyingina kishining fe'l-atvori va shaxsiy sifatleri xaqida xulosa chiqaridai. Bundan tashqari beshta hayotiy xususiyat: qosh, ko'z, burun, og'iz, quloqning ahvoli ham e'tiborga olinadi [5; B.27.]. Bu xususiyatlarning o'zaro uyg'unligi (mutanosibli, rangi, tiniqligi va hakozolari) yaxshi alomat hisoblanadi. Mabodo ana shu beshta xususiyatning hammasi benuqson bo'lsa, bu xususiyatlar sohibining umri toshqin daryoday barakali o'tadi,

deb ta'kidlashadi yapon fiziognomistlari. Kishi yuzidagi nuqsonlar esa fe'l-atvoridagi uzilishlardan dalolat beradi.

Qosh enli, uzun qosh eng ajoyibi hisoblanadi. Uning shakli, rangi qalinligiga ko'ra mutanosib rivojlanishi kishining hissiyoti, aqli va fe'l-atvori o'zaro uyg'unlikda ekanligidan dalolat beradi [6; B.101.]. Dag'al va baroq qosh esa buning aksini ko'rsatadi. Fiziognomistlarning fikriga ko'ra, qosh kishining yaqin odamlari bilan o'zaro munosabatini aks ettiradi. Chiroyli qosh uning egasi atrofida gilar bilan yaxshi munosabatda bo'lishini ko'rsatadi. Qalin qoshning tashqi uchlari ko'tarilib turishi olihimmatlik va mardlik alomatidir [7; B.346.]. Bunda odamlar omadli hisoblanadi. Qoshning tashqi uchlari pastga qayrilishi tortinchoqlikni bildiradi. Bunday qoshning tuzilishi va rangi ko'rimsiz bo'lsa, bu – yurakdagi jo'shqinlik tugagani alomatidir. qosh tekis va o'zun, atrofdagi terisi tiniq rangda bo'lsa, bunday erkak aqillidir. Shunday ayol esa taniq hisoblanadiki, undan istalgan xatti-harakatni kutish mumkin. Kalta qosh xamisha bu xususiyatlarning teskarisini anglatadi. Biroq kalta, lekin qalin qosh birdan lovullab ketuvchi odamga xos. Qalin, supurgiqosh «iblisona» fe'l-atvorli odamda uchraydi. Supurgiqosh doim o'jarlik, sarkashlik, murosasizlik alomatidir. Enli, qalin va payvasta qosh urinishni bildiradi. Bunday ayollar kuchli xarakterga ega ekanligidan rsoladagidek uy bekasi bo'lolmaydi. Yuqori joylashgan qosh-maqсадga intilish alomati. Past joylashgan qosh esa – buning aksidir.

Ko'z azaldan qalb ko'zgusi deb ta'riflanadi. Kishining ichki kechinmalri hamisha ko'zidan ko'rinib turadi. Jozibador va maftunkor ko'z egasi sog'lom, irodali, aqli, jo'shqin, yuragida o'ti bor odam bo'ladi [9; B.77.]. Fiziognomistlarning fikriga ko'ra, bunday ko'zlar bir qator xususiyatlarga ega bo'lib, nur va iliqlik taratib turadi, qovoqlar bilan yaxshi himoyalangan, rangdor pardasi ifodali, serma'no. Mabodo shunday bo'lmasa, bu - kishining fe'l-atvori va aql-idrokida nuqson borligini ko'rsatadi. Ko'zlari yirik-yirik odam serhissiyot sezgir aksari hollarda mard va jasur, hatto yetakchilikka intiluvchan bo'ladi. Kichkina ko'zlar esa ko'pincha ichimdagini top deyidigan, goho o'ziga bino qo'ygan o'jar odamlarga xos. Aksari hollarda bunday kishilar hayratlanarli darajada sobit bo'lishadi. Rangdor pardaning yirikligi-yumshoq muomala va osoyishtalik belgisi, kichikligi esa ichki jarayonlarning o'zaro nomuvofiqligidan darak beradiki, bu o'z navbatida shaxsning atrofdagi kishilar bilan muloqatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Rangdor pardaning rangi odamday hayotiy kuchlar bor-yo'qligini ko'rsatadi: qora, jigarrang va yaxshi ko'z pardasi jo'shqinlik, g'ayratdan; moviy rang-ta'sirchanlikdan; och jigarrang parda – tortinchoqlikdan dalolat beradi. Ko'zlarning qanday joylashuvida ham o'ziga xos ma'no bor. Ikkovi bitta gorizonta chiziqda joylashuvi-yaxshi alomat. Ko'zlarning pastroq joylashuvi erkaklarda dovyuraklik, qat'iylikdan, ayollarda esa engiltaklikdan dalolat beradi [10; B.103.]. Yuqori qovoqning salqib turishi-etuklik belgisi, juda osilib ketishi esa erkaklarda jo'shqinlik, g'ayrat tugaganini ko'rsatadi. qovoqning yoqimsiz rangi fiziologik jarayonlar izdan chiqqanini ko'rsatadi. Pastki qovoqning salqib turishi-jo'shqin hayot belgisi, osilib tushishi, boshqacha aytganda, ko'z xaltasi mayl-xoxishlar betiyiqligidan dalolat beradi. Ustki va pastki qovoqlarning shishib turishi esa – hayotdan toliqish alomati. Ko'zlarning tashqi burchagi serajinligi – ziyraklik, aql-zakovat belgisi.

Yaponlar, shuningdek, ko'zlarni turlarga ham ajratishadi. Ajdarho ko'zlari deb ataluvchi yirik-yirik, chaqnab turuvchi, tiyrak ko'zlar odatda hukmfarmo odamlarda uchraydi. Ikki chekkasi yuqoriga qayrilgan uzunchoq ko'zlar qaqnus qush ko'zlari odamlarda bo'ladi. qovoqlari qatma-qat taxlanuvchi yirik-yirik ko'zlar sherning ko'zlari deyiladi. Boshqalarni

ortidan ergashtira oluvchi yetakchi odamlar shunday ko'zga ega. Qovoqlari ikki-uch qavatli, ensiz, uzunchoq ko'zlar filda bo'ladi. Ular odatda yumshoq muomalali semiz kishilarda uchraydi. Sarg'ish tusda yaltirovchi yumoloq ko'zlar – yo'lbarsniki, rangdor pardasi qoramtir-sarg'ish tusdagi ensiz va kichik ko'zlar - qo'yinki; qovoqlari salqigan, bichimi uch burchakli ko'zlar – otniki; rangdor pardasi haddan ziyod katta ko'zlar – bo'rinikidir. Yaponiyada qirqqa yaqin ko'z turlari o'zaro farqlanadi. Ularning biri hayvonlar ko'ziga qiyoslanadi va muayyan hayvonga xos hatti-harakat ko'zlari o'sha turdagi odamga ham xos deb hisoblanadi. Kishilarning fe'l-atvori va taqdirini aniqlashda ko'zlar asosiy o'rinda turadi. Fiziognomikaga oid risolalar yuzni o'qishni aynan ko'zlardan boshlashni tavsiya etishadi. Biroq shuni e'tiborda tutish kerakki, eng ishonchli ma'lumotlarni 40 yoshdan oshgan odamning ko'zlaridagina olish mumkin. Zero, shu davrga kelibgina barcha belgi-alomatlar to'la shakllangan bo'ladi.

Burun. Sharq fiziognomistlarining fikriga ko'ra, burun ham kishining ma'naviy hayotidagi o'ziga xos xususiyatlardan dalolat beruvchi ko'rsatkichdir. Ko'zlarda bo'lganidek, burun shakli ham 40 yoshdan keyin barqarorlashadi. Risoladagidek buruning uchi yumaloq, parraklari yaqqol shakllangan bo'ladi, deb hisoblanadi. Burun teshiklarining haddan ziyod kattaligi shaxsiyatdagi nuqsonlardan daraka beradi. Burun risoladagidek odam sherning shijoatiga ega, ya'ni jasur, serg'ayrat, taptortmas bo'ladi. Burni chiroyli odam atrofdagilarga yoqadi. Oqibat ham shunga yarasha: chiroyli burun egasi kuchli shaxsga aylanadi. Uzun burun, odatda, yaqqol ko'rinib turuvchi shaxsiyat belgisidir. Lekin u turli ko'rinishda xilma-xil ma'nolarni anglatadi. Masalan, ko'zlar, og'iz va dahan bilan uyg'un keluvchi uzun burun kuchli xarakterdan (va aksincha, qisqa burun ochiqko'ngillik va nekbinlikdan) dalolat beradi. Suyakdor uzun burun- takabburlik, kalondimog'lik, sho'rtumshuqlik belgisi. Suyakdor, uzun va qirg'iy burun esa ko'pincha badqovoq odamlarda uchraydi. Agar uzun burunning qanshari juda past, qiyshiq yoki ko'ndalang chiziqlari bo'lsa, bu- kasallik alomati. Lekin yuzning umumiy uyg'unligida kasallik alomati muhim rol o'ynamaydi. Yaponlar baland va tekis qansharni risoladagidek deb bilishadi. Bunday qanshar sog'lom odamlarda bo'ladi. Burunning uchi ham odam haqida ko'p ma'lumot beradi. Burunning uchi tomchiga o'xshab osilib turuvchi odam odatda xushchaqchaq, serzavq bo'ladi. qush tumshug'iga o'xshab qayrilgan burun ayyor, makkor va ko'pincha kek saqlovchi odamlarda uchraydi. Burun uchining katta va etdor bo'lishi-samimiylik, sidqidillik belgisi. Burun uchining baland bo'lib to'sig'ining oldinga chiqib turishi kishi o'zini tutib turolmasligi, o'zboshimcha, beboshligini ko'rsatadi. Burun uchining ikkiga bo'linib turishi-jur'atsizlik, tortinchoqlik alomati. Ko'ngilchan, ko'nuvchan odamning burun teshiklari juda kichkina bo'ladi. Burun paraklarining kattaligi-manmalik belgisi. qizil burun axloqsizlikni anglatadi. Cho'tirga o'xshash qizil burun esa odatda aroqxo'rlarda uchraydi. Burun uchida qora dog'lar bo'lishi-kasallik alomati. So'rraygan burun ayollarning yoshligi qiyin o'tgandan dalolat beradi. Biroq bu belgilar 35-40 yoshdan keyingina yaqqol ko'rina boshlaydi.

Og'iz shakli va o'lchamlari kishidagi hayotiy kuchlar qay darajadiligini aniqlashga imkon beradi [9; B.77.]. Yaponlar erkaklar og'zi katta, ayollarniki esa, aksincha, kichkina bo'lishini ma'qul ko'rishadi. Og'iz katta ayol mardonavor deb hisoblanadiki, bu erkaklarga ko'p ham yoqavermaydi. Umumiy xulosalar quyidagicha. Og'zi tor kishilar tirikchilik payiga tushgan bo'ladi, irodasi zaif. Yupqa lablar – injiqlik, serzardalik belgisi. Og'iz katta bo'lib, burchaklari pastga qayrilgan odam kuchli irodaga ega, unga ta'sir ko'rsatish osonmas. Lablarning xadeganda uchib turishi-asabiylik alomati. Burchaklari pastga qayrilgan kichkina og'iz ta'sirchan kishilarda uchraydi. Do'rdoq lablar – muvaffaqiyat garovi. Og'izning qiyshaymay, bir

tekis ochilishi histuyg'ular jilovlanganini ko'rsatadi. Agar og'iz burchaklarga ko'zlardan ajin tushib kelsa, bu-mashaqqatli hayot belgisi. Mabodo shunday ajinlar og'iz burchaklariga burunning ikki tomonidan tushib kelsa, bu – makkorlik alomati. O'jar, qaysar odamning og'zi odatda bir tomonga qiyshayib turadi. Yuqori labning oldinga chiqib turishi – qat'iyatsizlikdan, pastki labning chiqib turishi esa-xudbinlikdan dalolat beradi. Lablar ustidagi ajinlar-qarshi alomati. Bu ajinlarning ingichkaligi, ko'pincha, salomatlik zaifligini ko'rsatadi. Labdagi chuqur ajinlar esa gullagan yoshlikdan va etuklikdagi muhtojliklardan dalolat beradi. Chirigan tish hamda kasallangan til salomatlik yomonligini ko'rsatadi.

Quloq Sharq fiziognomikasida to'rt qismga bo'linadi: tashqi hoshiya, o'rta hoshiya, ichki hoshiya va solinchak – pastki yumshoq qismi. quloq bo'yicha, odatda bolalik qanday o'tgani aniqlanadi. Bunda umumiy qoidalar quyidagicha. Yaxshi shakllangan quloq baxtli bolalaikdan darak beradi. quloqning qing'ir-qiyshiqli va rangparligi-ko'ngilsizliklar darakchisi. Shalpangquloq qariyb hamisha shaxsiyatdagi qusurlardan dalolat beradi. Chuchvara quloq – baxtsizlik alomati. Quloq boshda qanday joylashgani ham ko'p narsani anglatadi. Quloqning yuqori uchi qoshdan baland bo'lishi yuksak aql-zakovoti ko'rsatadi; ko'z bilan bir chiziqda joylashuvi – aql-idrok o'rtachadan yuqoriligini; ko'zdan past bo'lishi aqli idrok o'rtacha yoki undan pastligini bildiradi. Quloqning solinchagi yaxshi shakllanmagani ruxiyatdagi nomuvofiqliklardan darak beradi. Solinchakning uzunligi-beg'amlik, yaqqol sezilmasligi-nozik tabiat, injiqlik belgisi. Solinchagi juda katta odamlar Sharqda donishmand sanaladi. Agar u sal oldinga chiqib tursa, bu – samimiylik alomati. Quloqning ichki hoshiyasi his-tuyg'ular ko'rsatkichidir: u ichkariga tortilgan bo'lsa-vazminlik, bosiqlik, tashqariga chiqib turgan bo'lsa-jizzakilik belgisi. quloqning och qizg'ish rangi maqbul hisoblanadi, sarg'ish yoki ko'kimtir rang kasalikdan darak beradi. Quloqning oldingi va yuqori qismlari yaqinda qoramtir rang bo'lishi-yashirin kasallik alomati. quloq ichida xol bo'lishi – ko'ngilsizlik baxtsizlik belgisi. Yuz asosan ana shu besh a'zoga qarab o'qiladi. Lekin bu faqat asosiy bosqich, xolos. Yuz haqida umumiy taassurot bosqich, hosil qilish uchun yana yong'oq suyaklari, jag' va dahan shaklining o'ziga xos xususiyatlari ham hisobga olinadi. Chunonchi, qosh bo'rtmasi baland bo'lib, yuqori joylashsa-kuchli iroda, past joylasa-kuchsiz iroda belgisi. Umuman, suyakdorlik va yirik dahan kuchli xarakterdan darak beradi. Biroq bu belgi-alomatlar yosh o'tganidan keyingina yaqqol ko'rinadi. Osilib turuvchi jag' ruhiyatda xilma-xil buzilishlar borligini ko'rsatadi. Yaxshi shakllanmagan dahan-muloyimlik belgisi. Uning sezilar-sezilmas darajada ikkiga bo'linishi ehtiros kuchligidan darak beradi. Lekin ikkiga bo'linishi yaqqol ko'rinib tursa, bu-tanholikka intilish belgisidir. Beso'naqay dahan-betizgin mayl-hohishlar alomati, ko'pincha haddan ziyod manmamlikdan dalolat beradi. Yuzni o'qish ikki usulda-chetdan kuzatish va bevosita suhbatlashish orqali olib boriladi. Odatda, ikkinchi usul maqbul sanaladi. Har ikkala holda ham avvalo yuz shakli aniqlab olinadi. Yapon fiziognomistlar yuzni uzunchoq, uchburchak, trapetsiyasimon, kvadrat va yumaloq shakllarga ajartishadi.

Yuz shakllari uzunchoq yuz to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'ladi, ya'ni peshona kengligi qariyb dahan kengligiga to'g'ri keladi. Bu, aslzodalarga xos yuz, deb bilinadi. Yapon fiziognomistlarning tasdiqlashicha, Yaponiya hukmdorlaridan aksariyatining yuzi mana shunday shaklda bo'lgan ekan. Uzunchoq yuz aql-zakovat, ta'sirchanlik, vazminlikdan dalolat beradi. Aksari hollarda bunday yuz omilkor, mulohazali odamlarda uchraydi. Aytishlaricha, bunday kishilarda tashkilotchilik qobiliyati, maqsadga intiluvchanlik kuchli bo'ladi. Uchburchak yuz uchun baland va keng pashaona, turtib chiqqan yong'oqlar, kichkina, lekin

suyakdor burun, chuqur joylashgan ko'zlar, kichkina, lekin oldinga chiqqan dahan xosdir. Bunday yuzning lunjida et kam bo'ladi. Uchburchak yuzli kishilar (erkaklar va ayollar) nihoyatda serhissiyot, ta'sirchan, deb hisoblanadi [12; B.135.]. Bunday shakldagi yuz Yaponiyada yuksak iste'dod belgisi, deb bilinadi. Lekin ayni vaqtda yaponlar uchburchak yuzli kishining fe'l-atvorida ayyorlik, boshqalar bilan chiqisha olmaslik kabi xususiyatlar ham bo'lishini ta'kidlashadi. Fiziognomistlarning fikricha, bunday kishilar fidokorlik, sadoqat kabi tuyg'ularga begona. Yana aytishlaricha josuslar va xoinlar orasida uchburchak yuzli kishilar juda ko'p uchrar ekan.

Trapetsiyasimon shakldagi yuz uchburchak yuz bilan ko'p jihatdan mushtarak. Bunday yuz uchun, keng peshona va torayib boruvchi, lekin uchli bo'lmagan dahan xosdir. Shunday yuzli odam aql-idrokli, ta'sirchan, artistona tabiatli deb hisoblanadi, lekin kurashchanlik ruhi ularga xos emas. Yuzining trapetsiyasimon shakli yaqqol ko'rinib turuvchi ayollar hamma narsaga umid va ishonch bilan qaraydigan bo'lishadi. Ular atrofdagilar uchun ko'ngildagidek sharoit yaratib, baxtli hayot kechirishadi.

Kvadrat shaklli yuz odatda badjahl, mard, ko'pincha qahri qattiq kishilarga xos. Ular odatda kaltafahm, ko'pincha qo'pol, keskin bo'lishadi. Qat'iyatlik bunday kishilarning fe'l-atvorida yaqqol ko'rinib turuvchi xususiyatdir. Boshqalar bilan dangaliga, ro'yirost muomala qilishadi. Kvadrat yuzli kishilar muvaffaqiyatga erishishga nihoyatda o'ch. Garchi o'zlari zo'r berib etakchilikka intilishsa ham, ulardan yaxshi ijrochilar chiqadi. Shunday yuzli ayollar esa hukumronlikka intiladi.

Yumoloq shaklli yuz ochiq ko'ngillik, muloyimlik, tinchliksevarlik ramzi deb hisoblanadi [8; B.166.]. Shunday yuzli kishilar ko'pincha shirin ovqatlar shinavandasi bo'ladi. Maishiy qulayliklarni, dilkash davralarni yaxshi ko'rishadi, shon shuhratga intilishmaydi. Lekin ayni vaqtda bunday odamlarga izzattalablik hissi ham yot emas. yumoloq yuzli odam, yong'oqlari turtib chiqqan, ko'zlari chaqanab turgan bo'lsa-maqсадga intiluvchandir. Fiziognomistlarning fikricha, bunday kishilardan ajoyib etakchilar va sarkardalar etishib chiqadi.

Natijalar. Fiziognomika yosh alomatlarini sistemasiga asoslanadi. Asosiy hayotiy alomatlar (qosh, ko'z, burun, og'iz, quloq) kabi yuz shakllari ham yoshni hisobga olgan holda baholanadi. Shu bois yuzni o'qishga kirishidan avval kishining yoshini albata aniqlab olish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, opretsiya, chandiq kosmetika tufayli kishi yuzining ayrim qismlari o'zgarishi mumkinligini ham hisobga olish talab qilinadi. Bu o'rinda o'rganiliyotgan odamning hatti-harakatidagi o'zgarishlarini baholash usullari yordamga keladi. Kishining kulgusi, imo-ishoralari, gavdasini qanday tutushiga e'tibor berish kerak deb hisoblanadi. Yaponlarning yuzida bir niqob bor desak, kulgu uning ortiga yashiringan fe'l-atvor xususiyatlarini ko'rishga imkon yaratadi. Imo-ishora kishilarning muayan kechinmalaridan ogoh qiladi, ularning xarakteriga doir qo'shimcha ma'lumotlar beradi. Gavda holati esa, aksari hollarda kishi ruhiyatining o'ta yashirin xususiyatlarini ko'rsatadi. Biroq bu belgi-alomatlarining barini tushuna olish, to'g'ri talqin eta bilish, yapon fiziognomistlarining fikricha, u qadar oson ish emas. yaponiyada san'atning boshqa barcha turlari qatorida yuzni o'qish san'ati ham tirishqoqlik va sabr-toqat bilan, o'zoq vaqt davomida o'rganiladi.

Xulosa. Ma'lumki qalamtasvir fani tasviriy san'atning har bir turlarini mukammal o'zlashtirishda asos hisoblanadi. O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki Badiiy grafika fakulteti talabalari va har bir qalamtasvir dasrlarida odam portretini chizishni o'rganuvchilar quyidagi asosiy talablarga e'tiborni qaratishlari lozim:

- Doimo xomaki rasm va qalamchizgi ishlari bajarish;
- Odam boshning gips bo'laklarini atroflicha chizib o'rganish;
- Odam plastik anatomiyasini atroflicha o'rganish;
- Yuzni o'qish san'atini nazariy bilish;
- Qalamtasvir o'qitish metodikasiga e'tibor berish;
- Tasviriy san'atning turli janrlarida ijod qilib o'tgan san'at ustalarining amaliy ishlaridan nusxa ko'chirish;
- Qalamtasvir chizishni o'rganishda milliy san'at namunalaridan foydalanish.

Yuqorida qayd etilgan talablar bilan birga talaba yoki mustaqil o'rganuvchi qalamtasvir ishlashda oldilarida turgan muammolar haqida va qalamtasvir ishlashda nafaqat qo'llar, balki aqlan ishlashlari zarur ekanligini yodda tutishlari lozim. O'ylaymizki ushbu ilmiy maqola tasviriy san'at yo'nalishi talabalari, kasb-hunar va san'at kollejlari tahsil olayotgan qiziquvchilarga ilmiy manba sifatida qo'l keladi va undan unumli foydalanadilar.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Xalq merosi. 1993.
2. Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat (ibratli so'zlar). - T.: Fan. 1993.
3. N.Sh.Almetov. O'quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining imkoniyatlaridan foydalanish. -Chimkent. 1993.
4. Amaliy psixologning ish kitobi. U.A.Yo'ldoshev, M.Po'latova, Z.Korayev, I.Aripov. Navoiy. 2000. - M.: 1987.
5. B.Boymetov. Portret qalamtasviri. -Toshkent. 2001.
6. S.Bulatov, B.Anaxanov. Rang psixologiyasi. -T.: Nizomiy nom. TDPU. 2003.
7. M.Vohidov. Bolalar psixologiyasi. -T.: O'qituvchi.1982.
8. Kaykovus «Qobusnoma» - T.: Istiqlol. 1994.
9. Jaborov. Rangshunoslikka oid ayrim atama va iboralarning izohli lug'ati. -T.: 2001.
10. B.Oripov. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. -N.: 2007.
11. R.Hasanov. Tasviriy san'at asoslari. -T.: G'.G'ulom. 2009.
12. N.Abdullaev. San'at tarixi. 2-jild, 1-kitob. -T.: San'at. 2001.

13.00.00-Педагогика фанлари

Хакимова Дилдора Машрабжоновна
Заведующая кафедрой, PhD, доцент
«Методика преподавания социально-экономических
и прикладных наук» национального центра
подготовки педагогов по новым методикам города Ташкента
e-mail: dildoraxon1984@mail.ru

ИННОВАЦИОННАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ НЕОТЪЕМЛЕМАЯ ЧАСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА

Аннотация. В статье описывается понятие инновации, проводится анализ зарубежной литературы по данному понятию. Также автор определил набор личностных качеств, определяющих инновационный потенциал педагога, были научно обоснованы характеристики, характеризующие инновационную активность педагога (здоровая конкуренция, открытость к новостям, постоянное саморазвитие).

Ключевые слова: инновации, инновационная деятельность, инновационный потенциал, качество образования, характер, личностные качества.

Xakimova Dildora Mashrabjonovna,
Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy va
amaliy fanlar metodikasi" kafedrasini mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent

INNOVATION SALOHİYAT PEDAGOG FAOLIYATINING AJRALMAS QISMI

Annotatsiya. Maqolada innovatsiya tushunchasi, mazkur tushuncha bo'yicha xorij adabiyotlari tahlili yoritib berilgan. Shuningdek, muallif pedagogning innovatsion salohiyatini belgilab beruvchi shaxsiy sifatlar majmuini aniqlashtirgan, pedagog innovatsion faoliyatini tasvirllovchi xususiyatlar (sog'lom raqobat, yangiliklarga ochiq bo'lishlik, doimiy o'zini rivojlantirish) ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion salohiyat, ta'lim sifati, xususiyat, shaxsiy sifatlar..

Khakimova Dildora Mashrabjonovna,
Head of the Department, PhD, Associate
Professor "Methods of Teaching Socio-
Economic and Applied Sciences" of the National
Center for Training Teachers on New Methods of the City of Tashkent

INNOVATIVE COMPETENCE IS AN INTEGRAL PART OF THE ACTIVITY OF A TEACHER

Abstract. The article describes the concept of innovation, analyzes foreign literature on this concept. The author also identified a set of personal qualities that determine the innovative potential of the teacher, the characteristics that characterize the innovative activity of the teacher (healthy competition, openness to news, constant self-development) were scientifically substantiated.

Key words: innovations, innovation activity, innovation potential, quality of education, character, personal qualities.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N26>

Введение.

Последние годы стали периодом коренных перемен и реформ, обновления, творчества и развития, модернизации и либерализации в сфере образования. Главной целью реформ было создание основ демократического, гражданского, правового и светского государства в Узбекистане. Поскольку в Республике Узбекистан продолжается формирование основ демократического и гражданского общества, очевидно, что вопросы формирования всесторонне развитой личности не потеряют своей актуальности в этом процессе.

Изучение вопроса инновационного фактора в системе образования Республики Узбекистан является одной из научных проблем, вызвавших наибольший научный интерес в годы независимости. Соответственно, проблема инноваций в образовании стала одним из направлений, охвативших его широкую и содержательную практическую деятельность. В их основу положены коренные изменения и реформаторские процессы в системе образования страны.

Литература и методология.

Понятие «инновация» происходит от латинского языка (in-в, novus-новый), что означает «обновление», «ассимиляция», «внесение чего-то нового», «привнесение чего-то нового», «введение чего-то нового». В свою очередь, слово «новый» является ядром этого понятия.

По мнению ученого-педагога С. Тургунова, создавшего уникальную школу управления образовательной системой, инновация - это целенаправленное изменение, привносящее новые, относительно устойчивые элементы в определенную социальную единицу - институт, ассоциацию, сообщество и группу в целом, духовно-культурных отношений народа и страны заключается во внедрении инноваций, неразрывно связанных с социально-экономическим развитием [1].

Понятие «авторитет» происходит от латинского слова «potentia», что в переводе с арабского означает «сила», «возможность», «способность» [2, с. 64].

Абу Наср Фараби в своем труде «Трактат о взглядах жителей добродетельного города» признает понятие «компетентность» аспектом, характерным для совершенного человека, включающим в себя такие качества, как ум, воля, интерес к науке, справедливость, вдумчивость, настойчивость [3].

Как справедливо заметил А.С. Запесоский, «Компетентность — это умение действовать в определенной ситуации. Превращение потенциала в реальность есть проявление потенциала» [4, с. 88]. Категория проявления компетентности показывает, что это явление имеет двоякое описание: с одной стороны, энтузиазм педагога, а с другой стороны, активность учащихся. То есть формы проявления потенциала личности всегда отражают культуру диалогических отношений, результаты совместного творчества и совместной деятельности.

Анализ зарубежной литературы по проблеме инноваций показал, что термин «инновационный потенциал человека» стал использоваться в 50-х годах 20 века, и был использован в монографии «Инновации: основа культурных изменений», написанной в 1953 г. американским социологом Г. Барнеттом.

В этих исследованиях принципиальное отличие инновационного потенциала от креативности проявляется в том, что инновационный подход рассматривается как механизм реализации потенциала, определяющий качество инновационной деятельности.

А.Р.Арипджанова попыталась выделить некоторые элементы инновационного потенциала в связи с информатизацией образования и инновационной деятельностью: «Сегодня инновационная деятельность в высшей школе считается одним из основных видов деятельности (наравне с образовательной и научной деятельностью). Инновационная деятельность - это прежде всего процесс самоактуализации субъектов образовательного процесса, происходящий в результате саморазвития, самостоятельного обучения, рефлексии» [10, с. 20].

Под инновационным потенциалом понимается готовность отдельных педагогов и педагогического коллектива в целом осваивать инновации, уметь использовать их на практике и достигать ожидаемых результатов. В педагогике и педагогическом менеджменте понятие инновационного потенциала трактуется двояко: в широком смысле - инновационный потенциал образовательного учреждения (в нашем исследовании центры переподготовки педагогических кадров и их повышения квалификации), в узком смысле - инновационный потенциал педагогических кадров (профессора-преподавателя).

Инновационный потенциал вуза означает его готовность к саморазвитию, многообразию культурно-образовательной среды и условий для саморазвития личности, высокий уровень коммуникативных отношений. А для отдельного педагога - это совокупность социокультурных и творческих характеристик его личности, готовность к совершенствованию педагогической деятельности, наличие для этого необходимых внутренних инструментов и методов. Инновационный потенциал педагогов требует их самосознания, самообразования, самосовершенствования, умения видеть изменения в обществе, умения эффективно использовать их в педагогической деятельности.

Результаты.

Исходя из вышеперечисленных моментов, можно сказать, что инновационная деятельность педагога характеризуется качеством, новизной, оригинальностью, уникальностью, а педагогу для осуществления инноваций требуются определенные личностные качества. Можно выделить четыре группы личностных качеств, связанных с накоплением, развитием и реализацией профессионального инновационного потенциала.

К первой группе качеств, связанных с инновационной подготовкой педагогических кадров, относятся: интеллектуальное развитие и быстрое приобретение знаний; профессиональные компетенции, связанные с необходимостью идти в ногу с темпом жизни; творческий, инициативный подход к работе, креативность;

способность разрабатывать программы повышения качества образования; навыки самостоятельного обучения и саморазвития.

Вторая группа характеризует инновационно-мотивационные качества педагогических кадров: самостоятельность, инициативность, высокое чувство долга; критичность ума, высокий уровень любознательности; более высокая производительность, чем ожидалось (удовольствие от работы), внутренняя потребность в инновациях.

Третья группа характеризует инновационный подход к педагогической деятельности: ориентация на высокие стандарты качества работы; наличие уверенности в представлении новостей; готовность к неожиданным решениям и новым правилам; адаптивность ко всем изменениям в образовательном процессе.

Четвертая группа требований отражает личностные качества универсальных и инновационных педагогических кадров: владение творческими способностями, знание своих сильных и слабых сторон; стремление к регулярному опыту; наличие здоровой конкуренции и потребность в профессиональном росте; готовность делиться идеями и опытом с командой.

Обсуждение.

Опираясь на структурные основания, воплощающие личностные качества, можно говорить о возможности целенаправленного воздействия на развитие инновационного потенциала педагогов, а личностные качества отражают: психологическую готовность к инновационной деятельности; мотивационно-ценностные аспекты личности, связанные с потребностью в инновационной деятельности; инновационный подход к педагогической деятельности; творческие способности педагогов.

Заключение.

В заключение можно сказать что развитие инновационного потенциала педагогов требует внутренних ресурсов, профессиональных качеств, определения оптимальной внешней среды, что требует совместной деятельности субъектов образования, которые считаются важными условиями реализации инновационного потенциала. На основе теоретического анализа раскрытия характера инновационного потенциала педагога можно отметить, что данная проблема очень сложна, многогранна и требует дальнейшего исследования.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Турғунов С.Т. Таълим муассасаларини бошқаришда инновацион фаолият. // ж. Узлуксиз таълим. – Т., 2006. — №4. – Б.4.
2. Педагогик атамалар луғати. – Т.: ЎзПФТИ, 2008. – 136 б.
3. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 222 б.
4. Запесоцкий А.С. Образование: философия, культурология, политика / А.С. Запесоцкий. -М.: Наука, 2002. - 456 с.
5. Баранчев В. Управление знаниями: Учебное пособие (журнал «Маркетинг». Специальный выпуск № 29) / В.Барачев. – М.: Центр маркетинговых исследований

- и менеджмента, 2005. – 144 с.
6. Simonton D.K. Creativity: Cognitive, personal, developmental and social aspects // American Psychologist. 2000. V. 55. – P. 151–158.
 7. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека. – М.: Прогресс, 1994. – 480 с.
 8. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. СПб.: Питер, 2009. – 434 с.
 9. Бьюзен Т. Могущества творческого интеллекта / Т. Бьюзен. - Минск: Попурри, 2004. – 160 с.
 10. Арипджанова А.Р. Таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг креатив салоҳиятини ривожлантириш: Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (ПхД). ... дисс. Автореф. – Т., 2017. – 50 б.
 11. Юнусова Д.И. Бўлажак математика ўқитувчиларини инновацион фаолиятга тайёрлаш назарияси ва амалиёти: педагогика фанлари доктори. ...дисс. – Тошкент, 2012. – 47 б.

13.00.00-Педагогика фанлари

Bo'riboeva Dilraxon Norboy qizi

Guliston davlat universiteti
tayanch doktoranti

E-mail: dilraxonboriboyeva@gmail.com

TALABALARNING GRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada chizmachilik o'qituvchisining grafik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy asosi keltirilgan. Muammo yuzasidan bo'lajak chizmachilik o'qituvchisiga xos kompetentlik sifatleri, kasbiy pedagogik faoliyatidagi ahamiyatlari chet el va respublikamiz pedagog-olimlarimizning izlanishlari taxlil qilingan. Taxlillar natijasida bo'lg'usi pedagoglarning grafik kompetentligini rivojlantirish haqida ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: chizmachilik, kompetensiya, grafik kompetentlik, kasbiy kompetensiya, bilim, ko'nikma, malaka.

Bo'riboeva Dilraxon Norboy qizi

Doctoral student of
Gulistan State University

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' GRAPHIC COMPETENCE

Abstract. This article presents the scientific basis of development of graphic competence of a drawing teacher. In relation to the problem, the researches of our pedagogues-scientists abroad and our republic have been analyzed about the qualities of competence specific to the future drawing teacher, their importance in professional pedagogical activity. As a result of the analysis, it is scientifically based on the development of graphic competence of future pedagogues.

Key words: drawing, competence, graphic competence, professional competence, knowledge, skill, qualification.

Бўрибоева Дилрабохон Норбой қизи

Докторант Гулистанского
государственного университета

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье представлены научные основы развития изобразительной компетентности учителя рисования. В связи с проблемой проанализированы исследования наших педагогов-ученых за рубежом и в нашей республике о качествах компетентности, свойственных будущему учителю рисования, их значении в профессиональной педагогической деятельности. В результате анализа научно обосновано развитие изобразительной компетентности будущих педагогов.

Ключевые слова: рисунок, компетентность, графическая компетентность, профессиональная компетентность, знание, умение, квалификация.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N27>

Kirish.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashning hozirgi zamondagi maqsadlari bitiruvchilarning grafik ta'lim mazmuni va tuzilmasini jiddiy o'zgartirishni nazarda tutadi. Ushbu maqsadlar jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini ijtimoiy joriy etishga, bugungi kundagi maktablarning chizmachilik o'qituvchilariga qo'yayotgan talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan. Ayniqsa fan va texnikani hozirgi rivojlanishi sharoitida oliy pedagogika ta'lim muassasalarida bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarini kasbiy-grafik tayyorlashning yaxlit tizimini yaratish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida chizmachilik o'qituvchilarini kasbiy-metodik jihatdan tayyorlash negizida quyidagi tamoyillar yotadi: bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarni kasbiy-metodik jihatdan tayyorlashning insonparvarlashtirish; ilm-fan texnologiyalarning tezkor rivojlanishi sharoitida chizmachilik o'qituvchisining shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga tizimli va texnologik ta'lim o'qituvchisining shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga tizimli va texnologik yondashuv; bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarini sohaga oid bilimlar bir qatorda metodologik bilimlar bilan qurollantirish; chizmachilik o'qituvchilarini tayyorlash mazmuni va metodikasini takomillashtirish.

Yuqorida qayd etilganlardan anglanadiki, bugungi kunda chizmachilik o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy axborot texnologiyalari va ularni ta'lim jarayonida tatbiq etish amaliyotidan foydalanib, ularning o'z kasbiy malakalarini muntazam ravishda oshirib borish va bunda samarali innovatsion uslublarni o'zlashtirib olib, amaliyotga joriy etish zarurligi kelib chiqadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

O'qituvchilarning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarini olimlar tomonidan uzoq vaqtdan beri ko'rib chiqilib kelinmoqda va kasbiy kompetentlikning mazmunini belgilab olish, uni shakllantirishning pedagogik, psixologik, ijtimoiy sharoitlarini aniqlashdir.

Terminologiyadagi farqlarga qaramay, mualliflar kompetentlik tarkibida uchta komponent (daraja) mavjudligini nazarda tutadilar: nazariy, amaliy va shaxsiy. Nazariy nuqtai nazardan turli mualliflar (.A. Slastenim, N.M. Boritko, O.A. Solomennikov va boshqalar) pedagogik kompetentlikga ta'riflar berishdi, tuzilishini taqdim etdilar va kompetentliklar tasnifini tuzdilar.

I.D.Lapteva kompetentlikni, asosiy va maxsusga ajratadi. Asosiy kompetentliklar shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonaviy dunyoda shaxsning muvaffaqiyati bilan bog'liq bo'lib, asosylari ma'lum bir predmetning yoki sub'ektdan tashqari sohaning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. O'qituvchilik kasbi ham o'zgaruvchan, ham boshqaruvchidir. Va shaxsning rivojlanishini boshqarish uchun siz malakali bo'lishingiz kerak. SHuning uchun o'qituvchining kasbiy kompetentligi tushunchasi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorligini ifodalaydi va uning kasbiy mahoratini tavsiflaydi.

"Kompetentlik" tushunchasining mazmuni va mohiyatini o'rganish unga nisbatan bir nechta izohlarning mavjudligini ko'rsatdi. "Kompetentlik" tushunchasi turli fan sohalaridagi olimlar tomonidan qo'llaniladi.

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda “kompetentlik” (lot. “compete”, ingl. “competens” (competents)-qobiliyat, kompetentli, kompetentlar) tushunchasi shunday talqin etiladi: biror narsani muhokama qilmoq, bilimlarni egallash; biror masala haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lish; yaxshi ma’lumot berilgan masalalar sohasi; muayyan sohaga tegishli, qobiliyatli, bilimdon va yaxshi o’zlashtiruvchi [1]; biror sohada malakali, bilimdon, hurmatga sazovor shaxs

Muhokama.

Yaqin xorijiy davlatlarda grafik kompetentlik va uni mutaxassis qiyofasida aks etishi hamda bo’lajak mutaxassislarda mazkur sifatni shakllantirish, izchil rivojlantirish muammosining tadqiq etilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, O.S.Bekova [4], E.P.Vox, G.A.Galenyuk, S.V. Jilich , G.M.Klochkova, T.K. Musalimov[5], T.P.Petlina, A.V.Petuxova , N.V.Fedotova kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda tadqiqot ob’ekti etib “grafik kompetentlik”, “grafik-konstruktorlik kompetentligi” kabi tushunchalarning nazariy talqinini aniqlash, shuningdek, bo’lajak mutaxassislarda mazkur kompetentlikni samarali rivojlantirish jarayonlari qabul qilingan.

N.V.Fedotovanning ishida “grafik kompetentlik” tushunchasi quyidagicha ta’riflangan: bo’lajak chizmachilik mutaxassisning kasbiy yo’nalishida kamolotga erishib borishini hamda maxsus bilimlarga, grafikaviy malaka, amaliy ko’nikmalarni yorituvchi shaxsiy xususiyat bo’lib, u axborotlashgan jamiyatda shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi kuchli raqobatga asoslangan muhitda konstruktorlik-loyihaviy faoliyatni tashkil etishga turtki beruvchi kuchli motivatsiya va keng tafakkurga egalikni, sohaga talluqli yangi texnologiyalarni o’zlashtirishga tayyorlikni yoritishga hizmat qiladi [6].

Natijalar.

Olib borilgan tahlillardan aniqlandiki, chizmachilik o’qituvchilarida bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirishda quyidagilarga asoslanadi: chizmachilikni amalga oshirishning mazmuni va vazifalari; hal etiladigan muammolar va yuzaga kelish ehtimoli bo’lgan qiyinchiliklar xususida yaxlit tasavvurga ega bo’lish; shaxsiy faollikka erisha olish; texnologik, pedagogik va psixologik bilimlarning an’anaviy tizimga emas, balki texnologik ta’limning o’ziga xosligi bilan belgilanadigan tuzilmasi va mazmuniga yo’naltirilganlik; talabaning fanlarga qiziqishi va ongli fikrlashi, bilim, ko’nikma, mahoratlari, bilimlarini doimiy ravishda boyitishga intilishi; tarbiyalangan darajasi (axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat); ijtimoiylashuvi (kasbiy va ijtimoiy faoliytni amalga oshirishga tayyorgarligi); madaniyatligi (ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni qabul qila olish, ekalogik madaniyat, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati).

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish bo’yicha natijalar, ular uchun kasbiy kompetensiya kasbiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning birikmasi sifatida qabul qilinadi va kasbiy ahamiyatga ega bo’lgan xususiyatlar hisoblanadi. Ba’zi olimlarning ta’kidlashicha, kasbiy kompetensiya, birinchi navbatda, kasbiy faoliyat sohasi sharoitida aniqlangan muammolarni hal qilish qobiliyatiga yo’naltirilgan. Yuqori darajadagi bilimlarni o’z ichiga oladi. Faoliyat, xulq-atvorda shaxsiyatning faol namayon bo’lishi bo’lib, u har qanday zarur vaziyatda inson tomonidan o’zlashtiriladigan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Kasbiy kompetensiyalarning tarkibiy qismlari har qanday mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish qobiliyat sifatida tavsiflanadi. Kasbiy kompetensiyalarning tarkibiy qismlari har qanday mutaxassislik uchun malaka meyorlariga javob beradigan va mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini belgilaydigan

minimal va yetarli darajada xususiy qurilishlar sifatida ko'rib chiqiladi. Kasbiy mahoratning xususiy qurilishi asosida malakali mutaxassis uchun zarur bo'lgan asosiy sifatlar rivojlanadi. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish sharoitida uning tarkibidagi turli qismlarni va turlarini shakllantirish mumkin.

Xulosa.

Bo'lajak o'qituvchining grafik kompetensiyasi shaxsiyatning yaxlit sifati, zaruriy innovatsion bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlar tizimi bo'lib, kelajakdagi mutaxassisning ma'lum bir tarixiy lahzada jamiyatda qabul qilingan meyorlar va standartlarga muvofiq kasbiy funksiyalarni bajarishga tayyorligi va qobiliyatini ta'minlaydi. Grafik kompetensiyani rivojlantirish muammolari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili uning har xil turlarini ajratishimizga imkon beradi. Kasbiy faoliyat: dizayn, intellektual, faol, ijodiy, axborot, tadqiqot, tashkiliy, texnologik, tahliliy, kommunikativ, ijtimoiy-psixologik, boshqaruv, shaxsiy, shaxslararo, aks ettiruvchi, maxsus. Har bir kompetensiya turi o'ziga xos maqsadga ega va uning shakllanishi kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq.

OTMda chizmachilik o'qituvchilarini kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishda o'quv mashg'ulotlari, ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim metodlarini tanlashga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash quyidagi natijalarga erishishni kafolatlaydi: talabalarda grafika fanlari asoslarini puxta o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani hosil qilish; ularning o'quv- bilish faolligini oshirish; talabalarining mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlash; talabalar tomonidan grafika fanlari asoslarini o'qitish sifatini yaxshilash; grafika fanlarini o'qitishning samaradorligini oshirish.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Xasanboyev J va b. Pedagogika fanidan izohli lug'at.-T.: "Fan va texnologiya" 2009.-672 b.
2. M.Holimov. Oliy ta'limda muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish metodikasi O'quv-uslubiy majmua TDPU, 2017 y
3. Muslimov.N.A, Usmonboyeva M.H, Sayfurov D.M., To'rayev A.B/ Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.
4. Галенюк Г.А, Жилич.С.В, Быкова О.С. Окружающая среда и ее роль в профессиональном формировании агроинженера // инновационные технологии в инженерной графике: проблемы и перспективы Сбор. Трудов междунар. Научно-практ. Конф.-Новосибирск: Брест, 2018.-С.82-83.
5. Муслимов.Т.К, Алижан.А, Бекишева.А.Д, исследование проблемы формирования графической компетентности студентов на занятиях начертательной геометрии и инженерной графике.
6. Федотова Н.В.Формирование графической кометентности студентов технического вуза на основе трехмерного моделирования: дис.... Канд.пед.наук.-Тамбов, 2011.-180.

13.00.00- Педагогика фанлари

Kadirov Ramz Turabovich
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti mustaqil izlanuvchisi

KVINTILIAN NUTQIY USLUBLARINING TALABA-AKTYORLAR SAHNAVIY NUTQINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon madaniyati tarixida birinchi bo'lib davlat notiqlik maktabini ochgan Rim yirik notig'i va notiqlik san'ati nazariyotchisi Mark Fabiy Kvintilianning talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish yo'lida yaratgan pedagogik metodi va uning bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan. Bugun ham sahna nutqini o'qitishning mavjud metodikasida Kvintilianning pedagogik takliflari va kashfiyotlari yashab kelayotganining isboti sifatida esa talaba-aktyorlar bilan asar ustida ishlashda tahlil va talqin jarayoni yoritilgan, amaliy mashq va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: notiqlik san'ati, metod, sahna nutqi, pedagog, talaba-aktyor, xotira, artikulyatsiya, diksiya, ixtiro etish, joylashtirish, bayon etish, eslab qolish va so'zlash.

Kadirov Ramz Turabovich
State Institute of Arts and Culture
of Uzbekistan, Independent Researcher

PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF QUINTILIAN SPEECH STYLES IN IMPROVING STAGE SPEECH OF STUDENT-ACTORS

Abstract. This article describes the pedagogical method created by Marcus Fabius Quintilian, the great Roman orator and theoretician of oratory, who opened the public speech school for the first time in the history of world culture, in order to improve the knowledge and skills of stage speech in student-actors, and its importance today. As a proof that Quintilian's pedagogical proposals and discoveries are still alive in the existing methodology of stage speech teaching, the process of analysis and interpretation in working with student-actors on the work is highlighted, practical exercises and recommendations are given.

Key words: rhetoric, method, stage speech, pedagogue, student-actor, memory, articulation, diction, invention, placement, statement, recall and speaking.

Кадыров Рамз Турабович
Независимый соискатель
Государственного института
искусств и культуры Узбекистана

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ КВИНТИЛИАНСКИХ СТИЛЕЙ РЕЧИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СЦЕНИЧЕСКОЙ РЕЧИ У СТУДЕНТОВ-АКТЕРОВ

Аннотация. В данной статье описывается педагогический метод, созданный Марком Фабием Квинтилианом, великим римским оратором и теоретиком ораторского искусства, впервые в истории мировой культуры открывшим школу публичной речи, с целью совершенствования знаний и навыков сценической речи у студентов-актеров, и раскрывающим его значение в наши дни. В статье освещается вопрос педагогических предложений Квинтилиана, которые живы в существующей методике обучения

сценической речи. В процессе анализа и интерпретации работы со студентами-актёрами над произведением даются практические упражнения и рекомендации.

Ключевые слова: риторика, прием, сценическая речь, педагог, студент-актёр, память, артикуляция, дикция, изобретательность, расстановка, высказывание, припоминание и говорение

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N28>

Kirish.

Mark Fabiy Kvintilian (er.av. 35-96 y.) Qadimgi Rim pedagogi, notiq va siyosatchi. U birinchilardan bo'lib, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimini shakllantirgan, tizimlagan, unga tizimli, uzviy izchillik olib kirgan, inson tabiati va uning rivojlanish rolini tushunishga e'tibor qaratgan. O'zi yashagan davr ta'limida mavjud tizim va pedagogikani mukammal o'rganib, uni rivojlantirgan olim Kvintiliandir. U maktabgacha ta'limdanoq bolaning tabiiy xususiyatlariga, iqtidoriga katta ahamiyat bergan. Tabiiy qobiliyatning erta yoshdan aniqlash mumkinligini isbotlab, kichik bolalar ongining qobiliyat belgilari deb xotira va tez, aniq fikrlash, kuchli sezuvchanlik, uzoq vaqt davomida yodda saqlash, bolaning taqlid qilish istagi kabi fazilatlarni ko'rsatib o'tgan.

Tabiiy qobiliyat bolaning onasi, enagasi, yon atrofdagi insonlar, oilaviy muhit, undagi muomala madaniyati va yashash tarzining shakllariga borib taqalishini, bola o'ta nozik sezuvchanlik, kuzatuvchanlik va taqlid qiluvchanligini ota-ona, kattalar hech qachon unutmasliklari, shularni nazarda tutib bola qobiliyatini erkin, ozod shakllanishiga salbiy ta'sir etuvchi ziyofatlar, marosimlar, o'zaro tortishuv janjallar, kelishmovchilik mojarolar bola ko'z o'ngida bo'lmasligi lozimligi haqida gapirgan. O'qituvchi va do'st tanlashning ham ahamiyatli hol ekanligini uqtiradi. Shuningdek, maktab yoshini 5, 7 yosh deb, 7 yoshda ikki til bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi.

Kvintilian bolada tabiiy qobiliyat borligi qanchalar yaxshi bo'lmasin, o'z davrining loyiq fuqarosi, oliy tabaqali ziyolisi bo'lishi uchun ta'lim olishi va bu ta'lim tizimli bo'lishi lozimligini uqtiradi. Pedagogik maslahatlar beradi.

Pedagogning xulq atvori bilim ko'lamining kengligi, egallagan bilimining mustahkamligi bilan bir qatorda pedagog uchun zaruriy fazilat – bu bolalarni yaxshi ko'rish, ularga rahmdillik bilan muomala qila oluvchi sabrli shaxslar bo'lishi lozim deydi.

O'qish-o'qitish jarayoni qiziqarli, quvonchli, yoqimli bo'lishi shart. Bolalarni maqtov, rag'bat, muloyim muomala bilan, iltimos va iltifotlar bilan siylash, ularni tengdoshlari bilan musobaqalarga chaqirish, mukofotlarni olmaslikni maslahat beradi. Ko'rgazmali qurollar, qo'shimcha harakatlar bilan o'qitish va bu o'qish tizimli, izchil bo'lishi o'ta ahamiyatli ekanini tayinlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Tadqiqodchi P.Amonashivilining "Mark Fabiy Kvintilian" kitobi kirish qismida kelgan Kvintilianning "Ey ota, o'g'ling dunyoga kelgach, unga katta umid bog'la, chunki katta umidlar katta pedagogikani yaratadi" – degan fikri hamma zamonlar uchun tegishlidir. Uning mashhur pedagogik metodlari jahon madaniyati tarixida birinchilardan bo'lib davlat notiqlik maktabini ochishiga sabab bo'lgan. U imperator vorislarining pedagogi sifatida faoliyat yuritib, katta siyosiy maydon, imperator saroy zodagonlarining nutqiy salohiyatlarini tarbiyalash

metodlarini yaratib, davlat g'aznasidan maosh, nafaqa tayinlangan birinchi pedagog, ritor, notiqlik maktabining asoschisiga aylangan [1].

12, 16 yoshli bolalarni "so'zamollik, notiqlik maktablari ochib, boy va zodagonlar farzandlarini, haqiqiy vatanparvar, halqsevar, fidoiy shaxs etib tarbiyalashda uning ochgan notiqlik maktablari va yozgan kitoblari ahamiyatlidir. Uning notiqlik pedagogikasidagi ahamiyatli ilg'or fikrlari bugun ham yashab kelmoqda.

Bugun sahna nutqini o'qitishning mavjud metodikasida ham Kvintilianning pedagogik takliflari va kashfiyotlari yashab kelayotganini ko'rish mumkin. Masalan, sahna nutqi fani ikki qismdan texnika mahorati va so'z ustida ishlash mahoratiga bo'linishi Kvintilianning notiqlik maktabida, notiqlik nazariyasi bilan birga notiqlik texnikasi ham o'qitilgani va bu o'sha davr notiqlik san'ati pedagogikasida muhim yangilik bo'lgan deb ta'kidlanadi [4].

Demak texnik mashqlarning bugungi shakllangan ildizlari Kvintilian davridayoq mavjud va uning yaxshi diksiya va intonatsiya, nutq va mimika ekspressivligiga ahamiyat berganligida ko'rinadi. O'zining notiq tarbiyasi haqidagi risolasida 12-bobdan iborat metodik va amaliy ishlar jarayonida bayon etiladi [3].

Diksiya ustida ishlash metodlari yunon tilini o'rganish va sof talaffuzini, grammatikasi va fonetikasi meyorlarini egallashdagi uslublarga aylanib ketganligida ko'rinadi.

Tahlil va natijalar.

Kvintilian o'qitish metodiga har-xil o'yinlarni mashq sifatida kiritadi. Bola tushunishi, idrok etib eslab qolishi kuchayadi. U ham talaba-aktyor tarbiyalashda bugun ham qo'llanadi. Har-xil xalq o'yinlaridan, bolalar o'yinlaridan foydalanib, natija foydali ish koeffitsiyentining ortishiga erishiladi.

Kvintilian bolalarni ko'rgazmali qurollar bilan o'qitish metodida fil suyagidan har-xil shakldagi harflar ko'rinishini ko'rsatib o'rgatishdan boshlagan.

Bugun nafaqat notiqlik, aktyorlik va boshqa o'quv maskanlarida ham bu metod faol foydalaniladi. Kvintilian bo'lajak notiq, ma'ruzachilarning xotira, ritm, badiiy so'zni his qilish metodlariga e'tibor qaratgan.

Bugun ham talaba-aktyor tarbiyasida xotira uchun mashqlar kompleks tarzda o'tiladi. Xotirani badiiy tasavvurga ko'chirish, tasavvurni uyg'otish uchun xotira asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ritmni his qilish, uni mustahkamlab takomillashtirish, badiiy so'zning ta'sirchanligini oshirish alohida asosiy omil sifatida urg'ulanadi. "Notiq tarbiyalash haqida" risolasida notiqlik san'atini "fan" sifatida o'qitish metodlarini asoslashga bag'ishlab maslahatlar, ko'rsatmalar keltirgan.

Kvintilian o'z asarlarida bugungi kun "Sahna nutqi" pedagogikasiga taaluqli qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan. Jumladan, Kvintilian nazariyotchi sifatida nutq jarayonini bir necha qismga bo'ladi:

1. Ixtiro etish (inventio). Bu – muayyan mavzu aniqlangach, o'sha mavzuga xos bo'lgan va uni yorituvchi fakt va raqamlarni o'rganish, to'plash jarayonini o'z ichiga oladi;
2. Joylashtirish (dispositio). Bu davr to'plangan va o'rganib chiqilgan fakt va hujjatlarni joylashtirish, boshqacha qilib aytganda nutq kompozitsiyasi masalalarini qamrab oladi;
3. Bayon etish (elocutio). Masalani bayon etish, ya'ni yozish;
4. Eslab qolish va so'zlash (pronuntiatio). Bu davr tayyor nutqni repetitsiya qilish va talqin etish jarayonidan iborat [2].

Tadqiqot jarayonida talaba-aktyor Isfandiyor Xomidov bilan aynan Kvintilian metodi asosida Yayra Sa'dullayevaning "Biz yigirma millionimiz" deb boshlanadigan "Shahidlar monologi" va Musa Jalilning "Vahshad" she'riy monologi asosida adabiy kompozitsiya yaratildi. Tanlangan asarlar qayta-qayta o'qilib, grammatik-orfoepik nutqni mashq qilish bilan birga uni tinglovchi-tomoshabinga yetkazish muammolari hal etiladi. Shundan so'ng, talaba-aktyor o'zining qobiliyati va o'rgangan, orttirilgan bilimlari mutanosibligiga erishish va tabiiy tug'ilgan fikrdagi jummalarni maqsadli ifodalash vazifasini uddalaydi.

I.Xomidov bu kompozitsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutidagi talaba-aktyorlar o'rtasida bo'lib o'tgan "Obod yurtning otashin so'zi" tanlovida qatnashib faxrli 1 o'rin sohibiga aylandi.

Kvintilianning notiq katta bilim egasi, oliyjanob va yuksak fazilat egasi bo'lishi kerak degan gumanistik fikri bugungi badiiy so'z ijrochilari va talaba-aktyorlar uchun ham ahamiyatlidir.

Rim notiqlik san'ati asoschilaridan Sitseron Kvintilian uchun eng namunaviy pedagog, faylasuf, notiq ekanligi va Sitseron notiqlik sir-asrorlarini o'rganish davomida tragik va komik aktyorlardan ham alohida darslar olgani aytiladi.

Talaba-aktyor tarbiyalashda aktyorlik ijro sahna nutqi fazilatlarigacha bo'lgan, ularning o'ta muhim tahlil etish jarayoniga taalluqli darajalarda akslanadi. Talqin ijro qoidalari nutqdagi pauza-tinim, psixologik pauzalar urg'ular ko'chma psixologik urg'ular, ma'no va tub ma'no, fikr tug'ilishidagi tabiiy psixofizik holat, bu psixofizik holatni yaralishiga sabab bo'lgan va berilgan shart-sharoit, shu shart-sharoitni yuzaga keltirgan, qarama-qarshilik, konflikt bu qarama-qarshiliklar paydo bo'lgan voqea – voqealarning o'zgarishiga turtki bo'lgan konfliktlarni yengib o'tish uchun qilingan harakatlar, harakatlarni xatti-harakatga aylantirgan (maishiy, quruq shart-sharoit) kichik doiradagi qarshilik.

Bu xatti-harakat natijasida tug'ilgan so'z harakatli, psixofizik holatdagi so'z harakati sahna nutqi mahsuli bo'lib, shu jarayonlardan o'tibgina jonli, ta'sirchan nutq paydo bo'ladi. Demak, talaba-aktyor tarbiyasi shu qadar keng ko'lamlı jarayonki ko'hna fikrlarning navqiron, o'ktam jonli ifodasiga yetkazish jarayonidir.

Albatta, sahna nutqining tarkibiy qismidagi badiiy so'z ijrochiligi bunga zamin yaratuvchi poydevordir. Poydevorning ildizlari Mark Fabiy Kvintilian zamoniga borib taqalishi ham shundandir. Kvintilian she'r o'qish san'atini egallash haqida gapiradi: she'rning axloqiy tarbiyaga ta'siri ahamiyatlidir deb ushbu she'r o'qish uslubini taklif etadi:

1. She'rni to'liq o'qish;
2. Mantiqiy qismlarga bo'lish;
3. Qismlarga bo'lib yod olish;
4. Yakunda to'liq yodlashga erishish [3].

Kvintilian taklif etgan she'r ustida ishlash uslubi bugun ham badiiy so'z ijrosida ahamiyatini yo'qotmaganligi, uning shu metod asoschisi sifatida ko'z oldimizda gavdalanadi.

Xulosa va takliflar.

Bundan xulosa shuki notiqlik faylasuf bo'lish va siyosatchiga aylanish mezoni sifatida qadrlangan. Aktyor tragik yoki komik bo'lsin u notiq emas siyosatchi, faylasuf ham emas. Demak, aktyorlar tayyorlash maktabi alohida maktab sifatida mavjud bo'lgan va u ijro, tomosha, tomoshabin ko'z oldida ro'y bergan voqea va xulosalardagi holatli, ta'sirli va

to'liqlantiruvchi fikrlarni junbushga keltirib, yangi fikr tug'iluvchi, shu yangi holat yangi fikr tug'ilishidan (o'zgarishdan) rohat tuyadigan jarayon.

Bu jarayondagi nutq "sahna nutqi" deb ataladi. Bugun pedagogik yondashuvlar shu jarayonlarning yangi tadqiqotlarini, izlanishlarini, yangiliklarini kutmoqda. Kvintilian pedagogikasidagi notiqlik bilan bog'liq barcha metodik ko'rsatmalar filologiya, psixologiya, odam anatomiyasi xullas falsafasi hayotdagi biror mavqe, amalni egallagan.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Амонашвили П. Марк Фабий Квинтилиан. –Пермь: Издательский дом Шалвы Амонашвили, 2017. – 256 с.
2. Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 132 б.
3. Квинтилиан, Марк Фабий. О воспитании оратора / Квинтилиан Марк Фабий // Краткая хрестоматия по истории зарубежной и отечественной педагогической мысли: учеб. пособие для вузов / сост.: И. П. Андриади, Е. Б. Куракина, С. Н. Ромашова, А. А. Серова, А. В. Кудряшев, И. Э. Смирнова, Н. Н. Илюшина [и др.]; под общ. ред. И. П. Андриади; Правительство Москвы, Департамент образования г. Москвы, ГОУ ВПО Моск. гор. пед. ун-т. – М., 2007. – 547 с.
4. Первакова С.А. Педагогические идеи Марка Фабия Квинтилиана: 35-96 гг. н.э.: Дис. ... канд. пед. наук. – Карачаевск: Карачаево-Черкесского государственного университета, 2005. – 145 с.

13.00.00- Педагогика фанлари

Usmanov Botir Allaberdiyevich

GulDu, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"
kafedrası o'qıtuvchısı

Email: botirusmanov3@gmail.com

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola, asosan tasviriy san'at darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash jarayoni, tasviriy san'at o'qıtuvchilari tayyorlash tizimini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishga qaratilgan. Darslarni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash va u orqali samarali natijalarga erishish masalalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion texnologiya, konservatorlik, novatorlik, innovatsiya muhiti, interfaol metodlar, pedagog, talaba, akmeologiya, kreativlik.

Усманов Ботир Аллабердиевич

преподаватель кафедры

"Изобразительное искусство

и инженерная графика" ГулГУ

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. Данная статья в основном посвящена процессу использования инновационных технологий на занятиях искусством, совершенствованию системы подготовки учителей изобразительного искусства на основе инновационных технологий. Представлены вопросы использования инновационных педагогических технологий в организации уроков и достижения с их помощью эффективных результатов.

Ключевые слова: инновации, инновационная технология, консерватизм, инновации, инновационная среда, интерактивные методы, педагог, студент, акмеология, творчество.

Usmanov Botir Allaberdiyevich

teacher of the department "Fine arts

and engineering graphics", Gulistan State University

THEORETICAL PRINCIPLES OF IMPROVING THE TRAINING SYSTEM OF FINE ART TEACHERS BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES

Abstract: This article is mainly focused on the process of using innovative technologies in art classes, improvement of the system of training of art teachers based on innovative technologies. The issues of using innovative pedagogical technologies in the organization of lessons and achieving effective results through it are presented.

Key words: innovation, innovative technology, conservatism, innovation, innovation environment, interactive methods, pedagogue, student, acmeology, creativity.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N29>

“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”.
Sh. Mirziyoyev

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning navbatdagi (2017 yil) Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018-yilga “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash yili” deb nom berishni taklif etdi. O‘sha murojaatnomada davlatimiz rahbari innovatsiyaning ahamiyati tog‘risida quyidagilarni ta’kidlagan edi: “Innovatsiya bu – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”. 2018-yilda respublikamizda innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilandi: “Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har yoqlama qo‘llab quvvatlash vazifasi e’tiborimiz markazida bo‘ladi” [1]. Bugungi kunda turli soha va tizim faoliyatini innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi va bevosita innovatsion yondashuv asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo “innovatsiya” so‘ziga biroz to‘xtalsak. Innovatsiya XIX asrda turli sohalar yuzasidan tadqiqot va ilmiy izlanish ishlarida qo‘llanila boshlagan tushunchadir. Dastavval, u alohida ba’zi elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan bo‘lsa, keyinchlik, sohalarga texnikaviy yangiliklar kiritish qonuniyatlarini o‘rganib, firmalar foyda olish uchun “innovatsion siyosatni” butun bir tizim sifatida o‘zlashtirishgan. Mazkur faoliyat jamiyat hayotining ixtiyoriy bo‘g‘inini yangilash bo‘yicha umumiy belgilar, qonuniyatlar, yangilik kiritish mexanizmiga ega. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir talabaning faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi [4; B.33.]. Shu o‘rinda “innovatsion texnologiya” so‘zlarining ma’nosi nima ekanligini haqida batafsilroq to‘xtalib o‘tsak, “innovatsiya” so‘zi kelib chiqishi lotincha “novation” – ya’ni, “yangilash”, “o‘zgartirish” va “in” – “yo‘nalish” degan ma’noni anglatib, so‘zma-so‘z “innovatio” – “o‘zgarish yo‘nalishi” deb tarjima qilingan. Bundan tashqari, bu tushuncha shunchaki har qanday yangilik emas, balki uni qo‘llashdan keyingi faoliyat samaradorligi va natijaning sifati sezilarli darajada yaxshilanishi kutiladi. Texnologiya (yunoncha techne, o‘zbekcha – “san’at”, “mahorat”, logos “fan”, “bilim” – san’at haqidagi fan) deganda, har qanday biznesda yoki biror narsa ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan usullar va jarayonlar takomillashtirish bilan shug‘ullanadigan fan tushuniladi [5; B.240.]. Shunday qilib, innovatsion texnologiya - bu inson faoliyatining turli sohalarida taraqqiyotni ta’minlash va samaradorlikni oshirish uchun yangi materiallarni yaratish yoki mavjudini takomillashtirish jarayonidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ta'limda amaldagi usullar, innovatsion ta'lim texnologiyalarisiz yangi avlod o'quvchi-yoshlari bilan unchalik samarali ishlamaydi. An'anaviy ta'lim talabani individual fazilatlarini va ijodiy o'sishga bo'lgan ehtiyojini hisobga olmaydi. Eski usullar bilan hal qilib bo'lmaydigan qator muammolarga qaramay, innovatsiyalarni joriy etishda qiyinchiliklar mavjud. Har bir o'qituvchi tushunishi kerakki, innovatsion usullarni joriy etish, nafaqat talabalarga fan(material)larni yanada samarali o'zlashtirishga yordam beradi, balki ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishi bilan birga, o'qituvchining o'z intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishiga ham yordam beradi. Oliy ta'limda turli xil pedagogik innovatsion usullar qo'llaniladi. Innovatsion texnologiya usullarini tanlashda ta'lim muassasasining mutaxassislik yo'nalishi, uning an'analari va standartlari muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim jarayonidagi eng keng tarqalgan innovatsion texnologiyalar turlari:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT);
- talabalarga yo'naltirilgan ta'lim;
- dizayn va tadqiqot faoliyati;

- o'yin texnologiyalari [6; B.171.]. Zamonaviy ta'lim muassasalarida joriy etilgan pedagogik innovatsiyalar ijtimoiy yosh qatlam bo'lgan: umumta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalarida vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, ona vatanga muhabbat, xalq an'alariga hurmat tuyg'ularini tarbiyalashga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bolalar bog'chalari, maktablar, akademiyalar va universitet va boshqalarda qo'llash odatiy holga aylangan [7; B.80.]. Masalan: ta'lim muassasalari hamda talabalarga samarali ta'sir ko'rsatadigan so'nggi yangiliklar qatoriga: bo'lajak talabalarining o'qishga kirishi uchun hujjatlarini onlayn tarzda qabul qilinishi, o'qish davomida turli hujjatlarning OTM tomonidan tashkil etilgan elektron tizim (masalan:hemis.guldu.uz) orqali mustaqil yuklab olish imkoniyati, darslarni masofaviy o'tish vaqtlarida onlayn platforma(zoom, telegram, Google Met va boshqalar...) orqali olib borilishi, imtihon hujjatlarini skanerlash orqali o'qituvchi-talaba orasida o'zaro baholash uchun almashinish va hokazolarni keltirishimiz mumkin.

Jamiyatning jadal rivojlanishi, ta'lim jarayonining texnologiyalari va usullarini takomillashtirish zarurligini taqozo etmoqda. Badiiy (ijodiy) ta'lim muassasalarining bitiruvchilari o'zgaruvchan zamonaviy tendentsiyalarga tayyor bo'lishi kerakligini ko'rsatmoqda. Shu bois ta'limda (husususan, tasviriy san'atda) individual yondashuv, mustaqil ta'lim va masofaviylikka yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etish zarur va muqarrar ko'rinadi.

Innovatsiya – deganda muayyan ijtimoiy birlikka – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir. (A.I.Prigojin).

Innovatsion texnologiyalar – pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan foydalaniladi.

Interfaol metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog talabalarining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- talabning dars davomida befarq bo'lmashiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;

- talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;

- talabning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va talabning doimiy hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi [8; B.157.]. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konseptsiyasini paydo qilish bosqichi. U kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi [8; B.160.]. Biron sohaga yangilik kiritish, ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Muhokama. Pedagogik innovatsiyada "yangi" tushunchasi eng asosiy o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va subyektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi. Oliy ta'limda tasviriy san'at o'qituvchisi tayyorlash uchun o'quv dasturlarni tuzish jarayonida ham yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, ularni har bir dars mavzularining ketma-ketligini qiziqarli, bir-biriga bog'langan (zanjir) tarzida tuzishdan boshlash eng muhim jihatlardan bo'lishi kerak. Tuzilayotgan auditoriya mavzulari va ayniqsa talabning mustaqil ta'limi (TMI)ga belgilanayotgan mavzulari, ularni o'z ustida ishlashlari, tasviriy san'at asarlarga nisbatan ijodiy-tanqidiy yondashuv hususiyatlarini shakllanishi, mushohada qila olishi, mustaqil fikr va takliflar bera olishi kabi tushunchalarga ega bo'lishida xizmat qilishi kerak.

Xususiy yangilik V.A.Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi.

Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi.

Yangilik – bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

V.I.Zagvyazinskiy yangilik tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangilik bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir. Lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmua yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi.

R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka, o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova innovatsion jarayon tuzulmasining uch blokini farqlaydi:

Birinchi blok – pedagogikadagi yangilikni ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangilikni yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, yangilikni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangilikni yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok – yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok – yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangilikni tadbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari haqidagi talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl - metodlar - metodika komponentlari yig'indisi;

subyektiv tuzilma-innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;

sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;

mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;

bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi - yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - yetuklik - o'zlashtirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) - boyish (to'yinish) - qoloqlik - inqiroz - irradiyasiya (aldanish) - zamonaviylashtirish;

boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalantirish - tashkil etish - rahbarlik qilish – nazorat qilish;

tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ega bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaromlik qonuni;

- qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;

- pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni. [9; B.291].

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni shundan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipga tushirish va amaliy harakatga o'tish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunday holatda pedagogik qolip (stereotip) qoloqlikka, boshqa yangiliklarning amalga oshish yo'liga to'siq bo'lishga majbur bo'ladi.

Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqilaydilar:

- Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, ya'ni innovatsion jarayonda unga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart-sharoitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bildirilmaydi.

- Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir.

Oliy ta'limdagi innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.Ya.Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Oliy ta'lim innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;
- shaxsiy faoliyat jihatidan (ta'limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv
- ko'p subyektli (dialogik) yondashuv, ya'ni kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;
- individual – ijodiy (o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari asosida) yondashuv.

Oliy ta'limda innovatsion faoliyatning subyeksi o'qituvchi va uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi.

S.M.Godninning ishlarida talabaning shaxsiy xislatlari pedagogik jarayonning subyeksi sifatida yoritiladi. Unga quyidagilarni kiritadi: o'qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o'quv - tarbiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko'rsatmalarini anglay bilish; intellektual mehnatning yangi tadbirlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a'lo darajada yenga bilish, o'sish va mustahkam o'rin egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o'zining sotsial roli funksiyasini bajarishida faol munosabatda bo'lish va hokazolarni aytib o'tgan.

Natijalar. Innovation pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini-o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan bilan talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish.

Bunday yo'nalish talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi.

Tayanch yo'nalishlar – ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, ularning o'zaro aloqalarida yangi tamoyillarga o'tish hisoblanadi.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat omillari nazariyasi tahlili uning eng muhim yo'nalishi gumanistik aksiologiya ekan, degan xulosaga olib keladi.

Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar jamul-jamini anglatadi.

Aksiologiya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akte) – yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi [10; B.30.]. Tadqiqotchilar B.G.Ananev, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan inson hayotining eng ijodiy davrlari, yetuklik bosqichlari to'g'risida fikr yuritadilar. Ular yetuk insonlarning professionalizmi, shaxs

rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlari, professionalizmga yetishdagi balandliklardan o'ta olish masalalari bilan shug'ullanganlar.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan subyektiv va obyektiv omillarini asoslab berdi. Obyektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, subyektiv omillarga esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi ma'suliyatini, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.

Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- iste'dod nishonalari;
- uquvlilik;
- qobiliyat;
- iste'dod;
- oila tarbiyasi sharoiti;
- o'quv yurti;
- o'z hatti-harakati.

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi.

Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- ijodiy individuallik;
- o'zining o'sish va takomillashish jarayoni;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

O'qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- intellektual - ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi, intellektual qobiliyati;
- ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashuvchanlik qobiliyati;
- axborotlarga tashnalik, muammolardagi g'ayri odatiylikka va yangilikka bo'lgan his-tuyg'u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanqoqlik (N.V.Vishnekova).

V.A.Slastenin ijodiy individualizmni ro'yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

- ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;
- pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;
- samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;
- shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi namoyon qila olishi asosida o'z rivojlanishini ta'minlash [11; B.22.].

Shu tariqa o'qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi.

Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o'z-o'zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o'zini boshqalarga qiyos qilish asosida o'z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o'zi to'g'risidagi kreativ ko'rinishlar va tasavvurlari to'plami; individual kreativ o'ziga xosliklarning bir butunligi va uyg'unligi, ichki birligi; shaxsning o'z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o'zini namoyon qila olishi va o'zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o'zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rnini anglay olishi.

Xulosa. Hulosa qilib aytish mumkinki, innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv – o‘qituvchining kasbiy mahorati cho‘qqilariga erishuvida uning shaxsiy rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o‘rganish oliy maktab o‘quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil 23 dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: “Sharq”, 1998.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: “Sharq”, 1998.
4. N.Azizxo‘jayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.:TDPU. 2006.
5. S.Madyarova va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: Iqtisod-moliya, 2009.
6. N.Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: “Moliya ” nashriyoti, 2003.
7. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi. “Nasaf”, 2000 y.
8. Tolipov U., Usmanbayeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T.: “Fan”, 2005.
9. B.Farberman. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. T.:2001.
10. G‘.Dadamirzayev. Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha izohli tayanch so‘z va iboralar. Metodik qo‘llanma. Namangan, NamMPI, 2008.
11. А.А.Деркача. Акмеология. Издательство “Рарс” Москва. 2002.
12. www. ziyonet.uz

13.00.00 – Педагогика фанлари

Nusharov Bobir Bolbekovich

GulDU “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”

kafedrasida katta o’qituvchisi,

Email: bobirnusharov@gmail.com

**BO’LAJAK TASVIRIY SAN’AT O’QITUVCHILARINI KASBIY KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK DOLZARB MASALALARI**

Annotatsiya. Maqolada kasbiy kompetentlikni rivojlantirish tushunchalari ko’p yillardan beri jahon pedagogika sohasida ilmiy o’rganilib kelinligi ta’kidlangan. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan o’quv uslubiy majmualardan unumli foydalanish negizida bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish muhim vazifalardan biri ekanligini to’g’risida fikrlar yuritilgan.

Kalit so’zlar: metodika, zamonaviy ta’lim, pedagogik dolzarblik, modellashirish, kompetentsiya, kompetentlik, tasviriy san’at.

Nusharov Bobir Bolbekovich

Senior Teacher, the Department of "Fine Arts and

Engineering Graphics", Gulistan State University

**PEDAGOGICAL ISSUES OF PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT
TECHNOLOGIES OF FUTURE FINE ART TEACHERS**

Abstract. The article emphasizes that the concepts of professional competence development have been scientifically studied for many years in the field of world pedagogy. On the basis of effective use of the opportunities of modern educational technologies and the created educational methodological complexes, it was discussed that one of the important tasks is to create the theoretical and practical foundations of the process of developing the professional competence of future visual arts teachers.

Key words: methodology, modern education, pedagogical relevance, modeling, competence, competence, visual art.

Нушаров Бобир Болбекович

Старший преподаватель кафедры “Изобразительное

искусство и инженерная графика” ГулГУ,

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО
ИСКУССТВА**

Аннотация. В статье подчеркивается, что концепции развития профессиональной компетентности на протяжении многих лет являются предметом научного изучения в мировой педагогике. На основе эффективного использования возможностей современных образовательных

технологий и созданных учебно-методических комплексов одной из важных задач является создание теоретических и практических основ процесса формирования профессиональной компетентности будущих учителей изобразительного искусства.

Ключевые слова: методика, современное образование, педагогическая актуальность, моделирование, компетенция, компетентность, изобразительное искусство.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N30>

Kirish

Oliy ta'lim tizimiga ilg'or xorijiy tajribani, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan, bo'lajak tasiriy san'at o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning dolzarb pedagogik masalalaridan biridir [1; 2.B.]. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5032-son qarorida "Oliy ma'lumotli pedagog kadrlar tayyorlash va o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish" bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarning kompetentligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, muqobil ta'lim tizimlari paydo bo'lib, bugungi kunda jamiyatda malakali mutaxassislariga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu bilan birga, kasbiy kompetentlik haqida gap ketar ekan, bu vazifalar kelajak avlod tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan tasviriy san'at o'qituvchilari uchun ikki baravar ahamiyat kasb etadi. Ta'lim natijalarini bashorat qilish va ta'lim jarayonlarini modellashtirish, hozirgi vaqtda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bugungi kunda ta'limga doir bir qator me'yoriy hujjatlarda ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish vositasi sifatida pedagogik texnologiyalardan yanada kengroq foydalanish lozimligi ko'p bor tilga olinadi [2; 25-26.B.]. Bu talab o'sib kelayotgan avlodning tasviriy savodxonligini oshiradigan o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va badiiy pedagogik ta'lim sohasidagi strategik reja asosida belgilanadi hamda tasviriy san'at fani bo'yicha bo'lajak kadrlarni tayyorlash sohasidagi asosiy kasbiy ta'lim dasturining maqsadi bilan bevosita bog'liqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish, ularni kasbga yunaltirishning pedagogik-psixologik asoslari xakida e'tiborga molik fikrlarni ilgari surishgan pedagog olimlardan N.Azizxodjayeva, R.X.Djurayev, M.Davletshin, V.Karimova, X.Abdikarimov, N.Muslimov va boshkalar o'z ilmiy ishlarida tarixiy meroslarimizda kasbga yunaltirilganlik g'oyalarning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va muhimligi masalalari xakida ko'plab fikr-mulohazalar bayon etishgan. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilim va malakalarni shakllantirish, malakali kadrlar tayyorlash masalasini M.Ochilov, U.Mahkamov, M.Kuronov, J.Xasanboyev, Y.Daydarov, U.Tolipov, N.Sayidahmedov, N.Nishonaliyev, R.A.Mavlonova, F.Yuzlikayev, E.Choriyev, O.A.Abdullina, R.A.Mavlonova, N.A.Muslimov, N.S.Gaipova, M.M.Qodirov, B.A.Nazarova, O.A.Qo'sinov, D.O.Ximmataliyev, N.Shodiyevlar o'zlaring ilmiy-tadqiqotlarida muammoni ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etishgan.

Ushbu tahlil quyidagi xulosalarni keltirib chiqaradi:

- Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari masalasi etarli darajada o'rganilmagan;
- tasviriy san'at fanlarni o'qitish jarayonida tasviriy san'at, rangtasvir, qalamtasvir, haykaltaroshlik san'at turlarini o'rganish masalasi etarli darajada ochib berilmagan;
- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarining oliy ta'lim tizimidagi badiiy ta'lim yo'nalishlarida o'rni aniq belgilanmagan.

Shunday qilib, qator adabiyotlarni tahlil qilib amalda quyidagicha ob'ektivlik qarama-qarshiliklar aniqlandi:

- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari mazmuni va mohiyatini ochib berish, tasviriy san'atning o'ziga xosligini aniqlash, ob'ektiv ehtiyoj hamda muammoning oliy ta'lim tizimida nazariy va amaliy jihatlarining etarli darajada o'rganilmaganligini;

- ta'lim jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarining kontseptual masalalari, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari mazmuni, turlari va usullarini ishlab chiqish zarurati va bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarning samaradorligini orttirish va imkon beruvchi nazariy-metodologik yo'nalishlarining mavjud emasligi borasida.

Ushbu qarama-qarshiliklar tadqiqot muammolari: oliy ta'lim muassasining ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalariga imkon beruvchi nazariy-uslubiy asoslar va pedagogik samarali sharoitlarning qanday holatda ekanligi kabi muammolar bilan o'zaro bog'liq [3, B.10.]. Ko'rilayotgan masalaning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati va uning nazariy hamda amaliy jihatdan etarli darajada o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusini: "Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari" deb belgilashga asos bo'ldi.

Muhokama

Fan, texnika va texnologiyalarning bugungi kun darajasi, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga qo'yiladigan yangi va yanada yuqori talablari bilan kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, mexanizmi, metodlari va texnologiyalarining etarlicha ishlanmaganligi, talaba kasbiy shakllanish jarayonning sub'ekti sifatida ishtirok etishining ta'minlanmaganligi echimini kutayotgan pedagogik muammodir. Bu kabi muammolarning asosiy manbai va sababi – kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni ta'minlovchi texnologiyalarning etarlicha mukammal emasligidir. Shu bilan birga, muammoning pedagogik dolzarbliigi shu bilan izohlanadiki umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun mutaxassislarni tayyorlashda oliy pedagogik ta'limda mutaxassislar tayyorlashni kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha texnologiyalarni yo'lga qo'yish lozim. Bu jarayon bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirishning istiqbolga yo'naltirilgan chora-tadbirlaridan biridir.

Yana bir pedagogik dolzarb masala – tasviriy san'at ta'limiga munosabatni o'zgartirish. Bolani rivojlanish bosqichlarining qiziqishlar bo'yicha tasnifi dastlab tasviriy faoliyat usuvorligida kechishi ilmiy jihatdan asoslanilgan. Biroq, bolalarning qiziqish yo'nalishlarini o'zgarib borishi faqat ularning ta'limiy ehtiyoj va rejalari bilan bog'liq emas, balki otalar, jamoatchilik, hattoki ta'lim mutasaddilarining munosabatlariga borib taqaladi. Keyingi yillarda sohada nisbatan ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotgan bo'lsada, mazkur o'quv faniga etarli e'tibor qaratilmayotgan holatlar ko'plab uchrab turibdi, deb ta'kidlaydi Toshkent arxitektura-

qurilish instituti “Tasviriy san’at” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi Asqarali Sulaymonov [4, B.192.]. Yuqoridagi olimlarning fikrlaridan kelib, tasviriy san’at o’qitish metodikasini yaxshi egallagan, metodikada o’zining individual uslubiga ega bo’lgan bo’lajak o’qituvchini kasbiy kompetentli, deb hisoblaymiz.

Natijalar

Ta’limda kasbiy kompetentlik oid materiallar tahlili asosida quyidagi ma’lumotlarni keltirish mumkin.

“Kompetentsiya” va “Kompetentlik” so’zlari ilk bor XX asr o’rtalaridan ilmiy adabiyotlarda qo’llanila boshlandi. Masalan, tilshunoslik nazariyasiga nisbatan kompetentsiya atamasining amerikalik lingvist N.Xomskiy tomonidan “Sintaksis nazariyasi aspektlari” nomli asarida “Kompetentsiya (o’z tilini biladigan, gapiradigan, eshitadigan) iste’mol qiladigan (aniq hollarda tildan real foydalanadigan) fundamental farqni ajratamiz” yoki “insonning qandaydir faoliyatni bajarish qobiliyatidir” degan fikrlarini ilk bor surgan [5, B. 8.]. Taniqli pedagog olim B.B.Gershunskiy kompetentlikni “savodlilik”, “ta’lim olganlik”, “madaniyat”, “mentalitet” kabi tushunchalarni o’zaro bog’liq holda tadqiq etadi. G.A.Asilova dissertatsiya ishida “kompetentsiya” va “kompetentlik” tushunchalarini quyidagicha ta’riflab, uni umumlashtirgan holda “kompetentsiya” – ma’lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko’nikma va malakalarning samarali qo’llanishi; “kompetentlik” muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo’lgan layoqatdir [6, B.42.] deb ta’riflab o’tgan.

A.K.Markova, O.A.Qo’ysinovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida, kasbiy kompetentlik – mutaxassisning o’z kasbiy faoliyatini egallaganligining sifat ko’rsatkichi bo’lib, mazkur faoliyatga nisbatan o’zining moyilligini anglash, shaxsiy sifatlarini baholay olish, kasbiy jihatdan shakllanishini to’g’ri yo’naltira bilish, o’z-o’zini takomillashtirish hamda o’z-o’zini tarbiyalay olishini nazarda tutadi, deb qaraladi. Pedagog-olimlarning ta’kidlashlaricha, kasbiy kompetentlikning tuzilmasi uch tarkibiy qismdan iborat: mazmuniy, motivatsion va ijro etish (amalga oshirish)dan iborat.

B.X.Xodjayevning fikricha “kompetentsiya yangi shaxsiy tajribani o’zlashtirishga doir o’z-o’zini rivojlantirishga doir harakatlarini integratsiyalashga xizmat qiladi”.

N.A.Muslimovning ilmiy ishlarida kompetentlik – alohida bilim va malakalarning egallanishi emas, balki har bir mustaqil yo’nalish bo’yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o’zlashtirilishi ekanini ta’kidlaydi [7, B.4.]. J.E.Usarov o’z ilmiy ishlarida kompetentsiyaning “ma’lum soha yoki yo’nalishdagi tajriba va bilimlar, faoliyatni amalga oshirishga bo’lgan tayyorlikning namoyon bo’lishi hamda shaxsning turli nostandart holatlarda muvaffaqiyatli harakat qila olishidir” ta’rifini ta’kidlab o’tgan [7, B.4.]. Taniqli rus pedagoglari V.A.Adolf va V.A.Slasteninning fikriga ko’ra, kasbiy kompetentlik aniq ifodalangan amaliy xususiyatga ega va o’z mohiyatiga ko’ra u yoki bu fanni o’qitishning aniq qurish masalalari bo’yicha kengaytirilgan bilimlar tizimini aks ettiradi. R.H.Safarova va R.H. Jo’rayevlar muharrirligida 2015 yilda chop etilgan “Pedagogika: entsiklopediya” da “Kasb” yoki “Kasbiy” tushunchalariga, maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma’lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy kunikma va malakalarni egallagan shaxsning jismoniy imkoniyat, akliy kobilyat va yuridik xukuklar asosida shugullanadigan mexnat faoliyatining turi, deb ta’rif berilgan [8, B.163.]. Kasbiy tayyorgarlik – ta’lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuini bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash maksadini

nazarda tutadigan ped. jarayon. Kasbiy tayyorgarlik – aniq kasbiy faoliyat doirasida ish bajarishga imkon beruvchi bilimlar, kunikma va malakalarni shakllantiruvchi jarayondir.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning diagnostik vositalari takomillashtirilgan;

- Rangtasvir, qalamtasvir fanlaridan interaktiv o'quv-uslubiy majmua ishlab chiqilgan;

- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali shakl, metod va vositalari ishlab chiqilgan;

- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalari tasviriy san'at o'qitish metodikasining aniq mezonlari hisoblangan kasbiy kompetentlikka yo'nalganlikka ega bo'lishlari kerak. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari nafaqat tasviriy san'at o'qitish metodikasi o'zlashtirishi, balki pedagogik mahorat asoslarini ham bilishlari kerakdir. Shuning uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi tushunchasi mazmuni va tuzilmasi hamda oliy ta'lim jarayoni sharoitida uni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlashtirishga alohida zaruriyat mavjuddir.

Xulosa

Yuqorida aytib o'tilgan barcha faktlar bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishga yordam beradi. Tasviriy san'atdagi kasbiy kompetentlik bitiruvchilarning egallashi kerak bo'lgan kasbiy kompetentlik to'plamidan iboratdir. Kasbiy kompetentlik bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash uchun ayniqsa muhimdir.

Shunday qilib, yuqoridagi ushbu tarkibiy qismlarning barchasi bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini tashkil etadi va tasviriy san'atdagi amaliy darslarning mazmunini rejalashtirish va tanlashda hisobga olinishi kerak. Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, kasbiy kompetentlik - bu o'zidan ijodiy va amaliy tayyorgarlikni kasb etgan bilim va ko'nikmalar, pedagogik fazilatlar yig'indisidir. Yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlash uchun attestatsiya tizimini yaratish, joyida o'qishni qo'llab-quvatlash, universitetlar o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish va o'quv dasturlari o'qituvchilarning malakasiga asoslanganligini ta'minlash kerak.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha faktlar bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishga yordam beradi. Tasviriy san'atdagi kasbiy kompetentlik bitiruvchilarning egallashi kerak bo'lgan kasbiy kompetentlik to'plamidan iboratdir. Kasbiy kompetentlik bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash uchun ayniqsa muhimdir. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishni ta'lim jarayonida shaxs ijodiy faoliyatini kreativligi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan, deb qarashimiz mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy o'qitishning eng muxim vazifasi bu bo'lajak o'qituvchilarning kasbi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratishdir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi" PQ-5032-son qarori.

2. Т.С.Зеленецкая. О формировании компетентности. Высшее образование в России, №6, 2005.
3. N.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Sayfurov, A.To'rayev. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. - T.: Sano standart, 2015.
4. Sulaymonov A. Tasviriy san'at ta'limi sifati va samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari. Monografiya. Qayta ishlangan, to'ldirilgan va tuzatilgan 2-nashri. T.: "Bayoz", 2021.
5. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To'rayev. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. T.: "Sano standart", 2015.
6. N.Muslimov va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. "Fan va texnologiya" nashriyoti. T.: 2013.
7. N.Baxriyeva. Ta'lim muassasalari mutaxassislari kasbiy kompetentligining tuzilishi. Zamonaviy ta'lim jurnali, 9-son (82) 2019.
8. Т.А.Барышева, Ю.А.Жигалов. Психолого-педагогические основы развития креативности – СПб.: СПГУТД, 2006.

13.00.00 – Педагогика фанлари

Mamatqosimova Nodira

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti mustaqil izlanuvchisi

**BO'LAJAK MADANIYAT XODIMLARINING BADIY DIDINI RIVOJLANTIRISHDA
SSENOGRAFIYA MASALALARI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak madaniyat xodimlarining badiiy didini rivojlantirishning badiiy omili sifatida ssenografiyadan foydalanish, ssenografiya nazariyasi va uning badiiy funksiyasi masalalari yoritilgan. Mavzu yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, san'at, bo'lajak madaniyat xodimi, ssenografiya, rassom, rejissor, rejissura, sahna, badiiy bezak

Mamatkasimova Nodira

independent applicant of the State Institute of
Arts and Culture of Uzbekistan

**ISSUES OF SCENOGRAPHY IN FORMING THE ARTISTIC TASTE OF FUTURE CULTURAL
EMPLOYEE**

Abstract. This article discusses the use of scenography as an artistic factor in the development of the artistic taste of future cultural figures, the theory of scenography and its artistic function. Practical recommendations have been developed on the article.

Key words: culture, arts, future cultural figure, scenography, artist, director, directing, stage, decoration

Маматкасимова Нодира

самостоятельный соискатель Государственного института
искусств и культуры Узбекистана

**ВОПРОСЫ СЦЕНОГРАФИИ В ФОРМИРОВАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВКУСА
БУДУЩИХ ДЕЯТЕЛЕЙ КУЛЬТУРЫ**

Аннотация. В данной статье рассмотрено использование сценографии как художественного фактора развития художественного вкуса будущих деятелей культуры, теория сценографии и ее художественная функция. По теме разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: культура, искусства, будущий деятель культуры, сценография, художник, режиссер, режиссура, сцена, художественное оформление.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N31>

Kirish. Bo'lajak madaniyat xodimlarini o'qitish va tarbiyalashda ularni bevosita madaniyat va san'at masalalariga oid bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish, xususan ularning badiiy didini rivojlantirish muhim jarayondir.

Bu borada dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni bevosita talabalarning badiiy didini rivojlantirishga qaratish, dars mashg'ulotlarini badiiy did mazmunini tashkil etish, badiiy didni yuksaltirishda ssenografiya ssetsifikasini dars jarayoniga tatbiq etish ko'rilayotgan masalaning amaliy ifodasidir. Bu jarayonlarni bo'lajak madaniyat xodimlarini tayyorlash o'quv rejasidagi "Ssenariynavsilik va madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish", "Madaniy tadbirlarni badiiy bezash" o'quv mashg'ulotlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Madaniy tadbirlarda tomoshaning badiiyliги ta'minlovchi bir qancha omillar bo'lib, ular orasida ssenografiya masalasi aynan estetik va badiiy didni shakllantirishdagi birlamchi omildir.

Tomosha xoh u sahna uchun, xoh maydon uchun mo'ljallanmasin albatta ssenografiyasiz amalga oshirilmaydi. Ssenografiya bu tomoshaning mazmunini yanada oydinlashtiruvchi, ta'sirchanligini yanada oshiruvchi teatr komponenti bo'lib o'z ijodkori, o'z nazariyasi va amaliyoti, o'rganuvchisi va tadqiqotchisi, eng muhimi muxlisi bor.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ssenografiya bu o'ziga xos fan bo'lib, bu fanning ilmiy-nazariy asoslarini, tadrijiy taraqqiyotini V.V.Bazanov, V.I.Berezkin, A.A.Mixaylova kabi xorijlik olimlar, M.Rahmonov, M.Qodirov, T.Tursunov, M.To'laxo'jayeve, T.Islomov, D.Qodirova, N.Toshpo'latova, T.G'ofurov kabi o'zbek olimlari tadqiq etishgan.

Xususan, N.SH.Toshpo'latovanning tadqiqot ishida 1980-2003-yillar ssenografiya san'atining rivojlanish jarayonlari mavjud nazariy qarashlarga tayangan holda tadqiq etiladi. Tadqiqotchi o'z ishida asosan poytaxt teatrlari ssenograflari faoliyatiga murojaat etadi. Shuningdek, jahon va milliy teatr mutaxassislarining ssenografiya haqidagi qarashlari muammo doirasida ko'rilib, sahnaviy janrlar, xususan, milliy va jahon mumtoz asarlari, folklor va zamonaviy dramaturgiya namunalari misolida ko'rib chiqilgan, O'zbekiston teatr san'ati ssenografiyasiga xos xususiyatlar ko'rsatilgan [4].

Tadqiqotchi D.Qodirovning "XX asr o'zbek teatri ssenografiyasi: tarkib topishi va rivojlanish jarayonlari" nomli yirik tadqiqotida 1914-2000-yillarda ssenografiya san'atining ilmiy-nazariy asoslari, funksiyalari va mezonlari aniqlanib, teatrning umumiy tarixi bilan bog'liq holda ssenografiyaning tarkib topishi va rivojlanish bosqichlari ilmiy tadqiq etilgan, tahlil asosida sahna makonini ishga solishda, sahna muhiti yaratishda ssenograflar qo'llagan uslublar va usullarni, umuman, teatr rassomi ijodining teatr san'atida tutgan o'rni va ahamiyati o'rganilgan [2].

Yuqorida nomlari qayd etilgan tadqiqotchilar asosan teatr spektakllari ssenografiyasi ustida ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lib, ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasida ssenografiya yoki badiiy bezak masalalari bo'yicha tadqiqotchilar M.Qodirov, B.Sayfullayev, B.Shodiyev, M.Ismoilov, F.Ahmedov, V.Rustamov ilmiy-tadqiqot va o'quv-uslubiy ishlarida umumiy ma'lumotlarni qayd etishgan bo'lib, bayram va maydon tomoshalari ssenografiyasini chuqur o'rganish va keng ilmiy tadqiqot etish hozirgi kun san'atshunosligi oldidagi dolzarb vazifadir.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda Respublika miqiyosida o'tkaziladigan bayram va tomoshalar, madaniy tadbirlarning badiiy bezagi bilan shug'ullanuvchilar ijodiga e'tibor beradigan bo'lsak, O'zbekiston sharoitida bunday mutaxassislar barmoq bilan sanarli darajada kam.

San'atshunos olim K.Makarov dekorativ bezak haqida fikr yuritib shunday deydi: «Badiiy bezash-sintezlashgan dunyoning go'zalligini tasvirlash formasidir» [3, 29]. Darhaqiqat, dunyoning go'zalligini tasvirlash har qanday rassom ijodining oliy cho'qqisidir.

Madaniy tadbirlarda rassom ijodi boshqa soha rassomlari ijodidan farq qilib, doimiy harakatda bo'ladigan obyektlar – eng avvalo ommaviy sahnalar, ommaviy ishtirokchilar, shuningdek, tabiiy yorug'lik, uning ta'siri ostidagi rang-barang tabiat manzaralari bilan alohida til topisha olish lozim.

Ommaviy bayram va tomoshalarda eng muhim ijodiy jarayon bu tabiatning o'zi rassom ekanligidir. Navro'z, Boysun bahori, Sharq taronalari, sport estafetalari kabi bayramlarning ochiq maydonda o'tkazilishida ana shunday tabiatning go'zal manzaralaridan mantiqiy va mazmunli foydalana olish zarurdir.

Madaniy tadbirlarda rassom – arxitektor, dizayner, dekorator – bezovchi va muxandis-konstruktorga aylanadi.

Teatr rassomi aniq «sahna qutisi» ichida, ya'ni sahnani bezashga o'z fantaziyasini ishga solib spektakl bezagini to'laqonli yoritishi mumkin. Ammo ommaviy bayram va tomoshalar asosan yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ko'chalarda, bog'larda, sport maydonlarida, suv havzalarida, sirk arenalari, xullas, noan'anaviy sahnaviy sharoitda o'tkazilganligi uchun uning o'ziga yarasha qiyinchiliklari, hal qilish zarur bo'lgan muammolari bor.

Masalan, sport maydonini olaylik, u yerda na sahna, na biror bir plakat yoki shiorlar, gullar, sharlar osadigan moslamalar bor, tomoshabin o'rindiqlari-yu, darvozadan boshqa hech narsa yo'q. Rassom o'zining mehnati, fantaziyasi, dunyoqarashi va saviyasi bilan shu maydonga ma'no va mazmun baxsh eta olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Ba'zan joyning o'zidagi sharoit o'tkaziladigan tadbirning g'oyasiga mos kelishi ham mumkin. Bunda rejissor, ssenarist va rassomning ijod uyg'unligida chuqur fantaziyalar, badiiy effektlar va boshqa ta'sirli imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilishi mumkin. Lekin ko'p hollarda buning aksi buladi. Shuning uchun ham rassom butun maydonni masshtabini aniq olib «korobka»ga joylashtirib, uni badiiy jihatdan bezab, tadbirga tomoshaviylik effektini berishi lozim.

Rassomning bayram va tomoshalarni sahnalashtirish jarayonidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tadbir mazmun-mohiyati va mavzusi asosida o'tkaziladigan joy tanlanadi;
- o'tkaziladigan joy tabiiy jihatdan o'rganiladi;
- ssenariy bilan tanishib chiqiladi;
- tadbir mavzusi va g'oyasidan kelib chiqqan holda smaydonning eskizlari tayyorlanadi;
- eskizlar rejissor tasdig'idan o'tgandan so'ng sahna uchun moslashtiriladi va badiiy bezatiladi.

Rejissorning rassom bilan hamkorligi jarayonida sahnaviy maydonni konstruksiyalashda ko'p sonli ishtirokchilarning sahnada paydo bo'lishi va tezda g'oyib bo'lishi, nomerlarni dinamik ravishda almashishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratishni ham hisobga olish zarur.

Rassomning vazifasi faqat sahnani va uning atrofini bezash bilan cheklanmay, balki rang, bezak bilan bog'liq bo'lgan barcha ijodiy jarayonlarni masalan, dekoratsiyalar, butaforiyalar, sahnaviy liboslarni, sahnada ishlatiladigan barcha jihozlarni tanlashda ham ishtirok etadi. Ayniqsa, u rejissorga obrazli yechimini topishga katta yordam beradi. Hamma rassomlar ham

teatrda va ommaviy bayramlarni sahnalashtirishda o'zining mahoratlarini namoyon eta olmasliklari mumkin.

1997-yilda ilk marotaba Samarqandda o'tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalining tantanali ochilish tomoshasida (rejissor B.Yuldoshev, rassom G.Brim) Registon obidasining kengligi ba'zi dekoratsiya elementlari bilan boyitilgan. Sharq bozorini eslatuvchi qovun-tarvuzlar, savatlar, Registon obidasi binolarida omma xatti-harakati, aktyorlarning o'ziga xos kostyumlari va ritmik harakatlari tomoshabinga o'zgacha ta'sir qildi.

Tomosha o'tkazishga to'g'ri kelgan joy, tomoshaga ijobiy ta'sir qilib, mavzu va oliy maqsadga muvofiq kelib, rejissorning fantaziyasini rivojlantirib, rassom maydonni badiiy hal etishiga yo'l ko'rsatishi mumkin.

Ayniqsa, rassom sahna maydonini yaratish jarayonida sahna konstruksiyasining chidamliligi, qancha og'irlik ko'tara olishini aniq hisob-kitob qilishi lozim. Axir bu sahnada yuzlab ishtirokchilar raqsga tushishi, turli xatti-harakatlarda bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, rassom vertikal ravishda o'rnatiladigan dekoratsiyalarning mustahkamligiga ham katta e'tibor berishi lozim. Shamol kuchi, yomg'irdan himoyalash vositalarini o'ylab topishi lozim. Xullas, ommaviy bayram va tomoshalarda texnika xavfsizligiga jiddiy rioya qilish va bu jarayonda rassom birlamchi bo'lishi shartdir.

Agar tadbir ochiq maydonda o'tkazilayotgan bo'lsa, elektr toki, ovoz kuchaytirgich apparaturasini joylashtirish, buning uchun maxsus kabel tortilib, maxsus mashinalar qo'llaniladi yoki ko'chma dizel elektrostansiyasi ishlatiladi. Bularning hammasini rejissor va rassom oldindan hisobga olishlari lozim. Maydonni yoritish uskunalari maxsus qurilgan minoralarga, simyog'ochlar yoki daraxtlarga o'rnatilishi mumkin.

Bundan tashqari, rejissor bilan rassom kam xarajat qilib, ajoyib bezaklar, dekoratsiyalar yarata olishlari lozim. Shuning uchun rassom iloji boricha tayyor bezak va dekoratsiyaning elementlarini ishlata olishi lozim. Bular teatr stanoklari, shirmalar, zinalar, xor stanoklari, yuk mashinalari pritseplari, turli stendlar va h.k.

Rassom tomonidan sahnalar loyihalashtirilganda, albatta tomoshabinni, eng tepada va burchakda o'tirganlarni ham hisobga olish lozim. Bundan tashqari, sahna maydonini loyihalashtirishda, ko'p ming sonli ishtirokchilarning tezda paydo bo'lib, chiqib ketishlarini hamda nomerlarning yengil va dinamik ravishda almashishini hisobga olish lozimdir. Bu muammo katta, murakkab sahnalarda tomoshabinning diqqatini intermedik harakat orqali chiroq nurlarini bir sahnadan ikkinchisiga o'tkazish, ayniqsa tomoshabin yo'laklariga ko'chirish bilan hal qilish mumkin. Ko'pincha turli yasama, doimiy sahna kiyimlari-parda va kulislar ishlatiladi. Bular maxsus roliklarga o'rnatilgan shirmalar katta, rang-barang bayroqlar, nur, suv va tutunli shirmalar bo'lishi mumkin [4, 98].

Ommaviy bayram va tomoshalarda tomoshabinni qayerga, qanday joylashtirish muammosini hal etish lozim. An'anaviy teatrda bunday muammo yo'q. O'tkazilayotgan tadbirda tomoshabinlar o'tiradimi, turadimi yoki harakat qiladimi, aniqlash lozim. Bundan tashqari, ko'p ming sonli tomoshabinlarni maydoniga hech qanday to'siqqa yo'l qo'ymay olib kirish, olib chiqish, ularning harakat yo'laklariga yo'l ko'rsatkichlari o'rnatish, hammasi, rassom va rejissor ishining spetsifikasiga kiradi. Shu bilan birga, o'ziga xos taklifnomalar yaratishdan boshlab, tomoshabinlarning xavfsizligini ichki ishlar xodimlari yordamida ta'minlash masalalaridan to transport harakati va avtomobillar to'xtaydigan joylarni aniqlab, hal etish vazifasi turadi.

Bayram va tomoshani tashkil qilishda ishtirok etayotgan dekorator, chiroqchi, liboschi, fon guruhlari rahbarlari va boshqa barcha ijodiy guruhlar rejissor va rassomning nuqtai nazariga xizmat qiladilar.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida qayd etish lozimki, hozirgi kunda madaniy tadbirlarda ssenografiya masalasiga xorijiy tajribalarni tatbiq etish, innovatsion metodlardan foydalanishni keng targ'ib etish zarurdir. Ommaviy bayramlar va tomoshalar ssenografiyasini yanada takomillashtirish unda milliy va zamonaviylik integratsiyasiga erishish yuzasidan quyidagilar tavsiya etiladi:

– kadrlar tayyorlash jarayoniga e'tiborni kuchaytirish va Ustoz-shogird an'alarining bardavomligini ta'minlash;

– dars jarayonini talabalarning badiiy didini shakllantirish mazmunida tashkillashtirish;

– ta'limiy va ijodiy jarayonga xorijiy tajribalarni targ'ib qilish, tajribali mutaxassislar ishtirokida master klasslar tashkil etish;

ssenografiya badiiyligini ta'minlashda inovatsion texnologiya va texnikalardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishdan iborat.

Adabiyotlar / Literatura / References:

1. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.
2. Qodirova D.M. XX asr o'zbek teatri ssenografiyasi: tarkib topishi va rivojlanish jarayonlari: Avtoreferat. ... san.fan. dok. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi San'atshunoslik instituti, 2010. – 48 b.
3. Немиро О. Декоративно-оформителское искусство и праздничный город. – Москва. 1987. – 304 с.
4. Ташпулатова Н.Ш. Основные тенденции развития сценографии Узбекистана (1980-2003): Дис. ... канд. искус. – – Ташкент: Научный фонд НИИ Искусствознаний. 2007. – 157 с.

13.00.00-Педагогика фанлари

Eliboyeva Lola Sulaymonovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
pedagogika kafedrası o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA BILIMLARNI O'ZLASHTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning ta'lim jarayonida o'quv materialini o'zlashtirishning didaktik asoslari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'slar: o'zlashtirish, biologik, idrok, ko'nikma, raqobat, tashabbuskorlik, ijodkorlik

Eliboeva Lola Sulaymonovna,
Teacher of the Department of Pedagogy,
Bukhara State Pedagogical Institute

DIDACTIC PRINCIPLES FOR OBTAINING KNOWLEDGE IN THE PRIMARY SCHOOL

Abstract. The article discusses the didactic basis for the development of educational material for elementary school students.

Keywords: mastery, biological, cognition, skills, competition, initiative, creativity.

Элибаева Лола Сулаймоновна,
преподаватель кафедры педагогики
Бухарского государственного
педагогического института

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ПОЛУЧЕНИЯ ЗНАНИЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В статье рассматриваются дидактические основы освоения учебного материала для учащихся начальной школы.

Ключевые слова: овладение, биологическое, познание, навыки, соревнование, инициатива, творчество.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N32>

Bugungi kunda jamiyat a'zolari oldiga qo'yilgan o'lkan maqsadlarga erishish uchun davr talablariga javob bera oladigan, zukko, ma'rifatli, insonparvar, mustaqil fikrlaydigan, izlanuvchan, tadbirkor, yangilikka intiluvchi, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan yoshlarni ta'lim jarayonida shakllantirish zaruriyati vujudga keldi. Bu zaruriyat, o'z navbatida, shaxs jamiyat hayotida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni anglashi,

chuqur idrok qilishi lozimligini talab qilmoqda. Chunki, yosh avlodning ma'naviy qiyofasini jamiyat hayoti, unda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklar belgilaydi.

O'quv faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy xarakterga ega. Uning amalga oshishi jarayonida bolalar ijtimoiy tajribani — fan, adabiyot, madaniyat asoslarini o'zlashtirishadi. O'quv faoliyati — o'rganiladigan, o'zgaralar baholaydigan faoliyat. U mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi yo'li bilan paydo bo'lgan, baholash, rag'batlantirishga moyil faoliyat turi. O'quv faoliyati ijtimoiy qimmatga ega me'yoriy talablar asosida boshqariladi. Boshqarish yo'li bilan bola faoliyati quyi, past darajadan eng yuqori, takomillashgan pog'onaga ko'tariladi. O'quv faoliyati dinamiklik xususiyatiga ham ega. U doimiy harakatda, shu bilan birga, uning davomiyligida osoyishtalik nuqtalari ham mavjud. Oldingi osoyishtalik nuqtasidan keyingi osoyishtalik nuqtasigacha miqdor o'zgarishlari, intervallarida sifat o'zgarishlari yuz beradi.

O'quvchida yuz beradigan barcha sub'ektiv, shaxsiy o'zgarishlar o'quv faoliyati natijasidir. Bolada o'quv faoliyati rivojlanib, takomillashgan sayin u o'z faoliyatini o'zi tashkil etish, boshqarish, nazorat etishga oid malakalarni ham puxta egallay boradi. O'z faoliyatini tashkil etish, boshqarish va o'z-o'zini baholay olish layoqati o'quv faoliyatining eng rivojlangan shaklidir.

Maktab ta'limida o'quv faoliyati qator funksiyalarni bajaradi: xatti-harakatlarni maqsadga yo'naltirish; o'quv materiallarini to'liq o'zlashtirish; shaxsiy tezaurusni kengaytirish; o'quv mehnatiga munosabatni tarbiyalash.

O'quv faoliyati — o'quv materialiga yo'nalgan, ma'lumot mazmuni hamda faoliyat usullarini ilmiy o'zlashtirishga qaratilgan insoniy faoliyatning alohida turidir.

Bilish jarayonining sub'ektlari sifatida olim va o'quvchi bir-biridan farq qiladi. Olim o'z sohasiga oid fan asoslarini mukammal o'rgangan shaxs. U oldin o'zlashtirgan bilimlariga tayanib ilmiy farazlarni shakllantiradi, shu farazlarni turmushda, ishlab chiqarishda bevosita tekshirib ko'radi, ilmiy ish o'tkazish bosqichlarini o'z so'zlari bilan erkin aytib bera oladi. Bola esa ta'lim metodlari, o'quv usullarini olim o'zlashtirgan darajada egallagan emas. Ko'rinadiki, farq olim bilan o'quvchining bilish yo'llarida emas, balki ularning aqliy taraqqiyot darajasidadir. Shu bilan birga, ilmiy bilish jarayoni bilan ta'lim jarayoni o'rtasida juda ko'p tafovutlar mavjud. Bu quyidagilar:

- ta'lim jarayonida ikki daxldor faoliyatning — o'qitish va o'qishning ishtiroki shart. Binobarin, o'quvchilarning bilishi tashkil qilinadi, boshqariladi, nazorat qilinadi;

- ta'lim jarayoni natijasi doimo individual, bilish jarayoni natijasi ijtimoiy-tarixiydir;

- ta'lim chegaralangan. Ta'lim sharoitida kishilar tomonidan kashf qilingan haqiqatlar o'zlashtiriladi. Bilish jarayoni cheksizdir. Unda tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga oid hodisalarning hali o'rganilmagan sohalari tadqiq qilinadi;

- bilish jarayonida kashf qilingan bilimlar ijtimoiy-tarixiy yangilikdir. Ta'lim sharoitida bolalar o'rganadigan bilimlar esa shaxsiy-individualdir.

Yuqoridagi o'xshash va farqli tomonlariga ko'ra bolalarning ta'lim sharoitida bilish jarayoniga quyidagicha ta'rif beramiz: bilish — sub'ekt va ob'ekt (o'quv material) ning o'zaro ta'siri natijasida tabiat, jamiyat, ong hodisalari to'g'risidagi sub'ektiv yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonidir.

O'quvchilarning biluv faoliyati predmeti o'quvchi uchun (sub'ektiv) yangi bilimlar hisoblanadi. Olimlarning biluv faoliyati predmeti esa ob'ektiv, ijtimoiy-tarixiy yangi bilimlar

sanaladi. O'quvchi bilib olgan bilim bola shaxsini, olim kashf qilgan bilim jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi didaktika oldidagi dolzarb muammolardan biri ta'lim jarayonida bolalarning bilishini olimlar bilishiga yaqinlashtirishdir. Fan sohasida qo'llanadigan metodlarni ta'lim jarayoniga olib kirish, bolalarga aqliy faoliyat usullari — analiz, sintez, taqqoslash, abstrako'iyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqara olish yo'llarini o'rgatish, o'quvchilarda darslik va boshqa ta'lim manbalari ustida mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish orqali ta'lim jarayoni va bilish jarayoni o'rtasidagi tafovutlar bir qadar kamaytiriladi.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni murakkab psixik operatsiyalar bilan bog'liq. Ayniqsa, kichik maktab yoshi o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirish jarayonlari o'ziga xos nozik jihatlari bilan boshqa yosh davrlaridan farq qiladi. Kichik maktab yoshi davri bola hayotida yangi sahifani ochib beradigan bosqich bo'lganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda bolaning faoliyatida ham, munosabatlarida ham, boshqa kishilar bilan munosabatida ham keskin o'zgarishlar ro'y beradi.

Bolalar o'rganishi, o'qishining barcha turlari qurilishiga ko'ra bir-biridan farq qilmaydi. Ularning farqlari faoliyat turlarining qanday amal qilishi bilan xarakterlidir. O'quv faoliyatiga o'xshab biluv faoliyati ham tarkiban maqsad, motiv, vosita, natijadan iborat.

Maqsad — oldidan anglangan, rejalashtirgan natija bo'lib, u insondan ongli maqsadga yo'nalgan faoliyatni talab etadi. Maqsad va maqsadga muvofiq faoliyat bir jarayonning, oldindan belgilangan natijaga erishish jarayonining elementlari sanaladi. Amalga oshirilgan maqsad natijaga, keyingisi, qo'lga kiritilgan natija, yangidan qo'yilgan maqsadlarga erishish vositasi vazifasida ishtirok etadi.

Bilish faoliyati maqsadlari ob'ektiv xarakterga ega. U kishilar tomonidan o'ylab topilmaydi. Aksincha, bilish faoliyati maqsadi jamiyatning taraqqiyoti, fan va texnikaning, san'at va adabiyotning rivojiga bog'liq, binobarin, u ijtimoiy tajribani o'zlashtirish talablari, e'tiyojlariga ko'ra belgilanadi.

Agar o'quv faoliyati maqsadlari bilimlarni egallash, ko'nikma, malakalarni shakllantirish ehtiyojlari zaminida shakllantirilsa, bilish faoliyati maqsadlari yanada keng, mazmun jihatdan boy hodisalarga borib taqaladi. Bunday hodisalar qatoriga bolaning jamiyatda o'z o'rnini anglashga intilishi, sinfdosh va tengdoshlari bilan fikrlashish ishtiyoqi, o'zini yaxshi fazilat, odatlarga tayyorlash uchun kurashi, o'quv predmetlaridan birontasini boshqalarga nisbatan xohlab qolish, unga qiziqishi kabilar kiradi

Ana shularga ko'ra bilish maqsadlarining quyidagicha ko'rinishlarini ajratamiz:

Ijtimoiy maqsadlar: ular istiqbolga yo'nalgan maqsadlar bo'lib, bolaning kelajakka intilishi va o'zini unga tayyorlashida ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy maqsadlar xususidagi bolalarning tasavvurlari juda erta, maktabgacha tarbiya yoshida shakllana boshlaydi. Fikrlashish, aloqalashuv maqsadi bolani o'qish-o'rganishga, o'z fikrlarini o'zgarar: ota-ona, sinfdosh, o'qituvchi bilan baham ko'rishga yetaklovchi maqsaddir.

Axloqiy maqsad. Unda barkamol shaxsni shakllantirishga oid orzu-istaklar aks etadi.

Jamiyatda, jamoada o'z o'rnini anglash, ota-ona, o'qituvchi, sinfdoshlar oldidagi o'z burchini anglash bolani o'qish-o'rganishga oid qiyinchiliklarni bartaraf etishga yetaklaydi.

O'z-o'zini tarbiyalash, faollashtirish maqsadi — o'z faoliyatida yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish, kamchiliklarni bartaraf etishga intilish, faoliyatdagi yutuqlarni ko'paytirish,

qiyinchiliklarni bartaraf etishga oid maqsadlardir. Bola u yoki bu masalani qanday, qaysi yo'llar bilan bajarganini tahlil qilish, insho yoki yozilgan hikoyani qayta ko'rib chiqish yo'li bilan bunday maqsadni amalga oshiradi.

Bilish maqsadlari bevosita o'quv materiallarini o'rganish bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy aloqalashuv, axloqiy, o'z-o'zini faollashtirish maqsadlarini amalga oshirish bilish maqsadlarini reallashtirish, ongli amalga oshirishga olib keladi. O'rganilgan bilimlarni yangi sharoitga tatbiq etish, masala, misol, mashqlarni yangicha usullar bilan bajarishga intilish, mavzuga oid yangi faktlarni izlab topish va shu kabilarni bilishga oid maqsadlarni amalga oshirishga olib keladi.

Biologik jihatdan bola ikkinchi umumlashish davrini boshidan kechiradi: ularda bog'cha yosh davridagiga nisbatan bo'yining o'sishi sekinlashadi, vazni ortib boradi; skelet tizimida suyaklashish jarayoni davom etadi. Muskul tizimi intensiv rivojlana boshlaydi. Qo'l kaftining mayda muskullari rivojlanib borishi tufayli bolada qo'l barmoqlari yordamida nozik harakatlarni bajara olish ko'nikmalari paydo bo'ladi va bolada tezroq yozish malakalari shakllana boshlaydi. Umuman, bola organizmining barcha to'qimalari o'sish holatida bo'ladi.

Kichik maktab yoshida asab tizimi takomillashadi, miya katta yarim sharlari faoliyati rivojlanadi. Bu yoshda bola miyasining vazni deyarli katta kishi miyasining vazni bilan teng bo'ladi, ya'ni o'rtacha 1400 grammgacha bo'ladi. Bola psixikasi tez rivojlanadi. Qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari o'rtasidagi muvofiqlik o'zgaradi: tormozlanish jarayoni biroz kuchliroq bo'ladi, biroq avvalgidek qo'zg'alish jarayoni ham yuqori bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari yuqori darajada qo'zg'aluvchanligi bilan ajralib turadi. Sezish organlari ishi yanada ravshanlashadi. Maktabgacha yoshdagiga nisbatan kichik maktab yoshida bolalarning ranglarni ajrata olish sezgisi 45%ga, suyak-muskul sezgisi 50%ga, ko'rish sezgisi 80%ga ortadi [4].

Kichik maktab yoshi o'quvchilarining idroki notashkiliyligi va qat'iy emasligi, ammo shu bilan birga o'tkirligi va aniqligiga ko'ra ajralib turadi. U 9 va 6 raqamlarini, tutuq belgisi (') bilan vergul (,) ni almashtirishi mumkin, ammo shunga qaramay uning ko'z oldida har kuni yangi-yangi sahifalarni ochayotgan uni o'rab turgan hayotni jonli qiziquvchanlik bilan idrok etadi. Idrokning kam tabaqalashganligi, idrok jarayonidagi analiz-sintezning sayozligi, ayni paytda uning yorqin ifodalangan emotsionalligi bilan to'ldiriladi. Idrokning ana shu xususiyatiga tayangan holda tajribali pedagoglar asta-sekinlik bilan bolalarda maqsadga yo'nalgan holda eshitish va ko'rish ko'nikmalari hamda kuzatuvchanlikni shakllantirib boradilar.

Kichik maktab yoshi o'quvchilarining diqqati ixtiyorsiz, hajmiga ko'ra tor. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda butun o'quv-tarbiya jarayoni o'quvchilarda diqqat madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Maktab hayoti boladan doimiy ravishda ixtiyoriy diqqat ustida ishlashni, fikrni bir joyga to'plash uchun irodaviy aktlarni amalga oshirishni talab etadi. Ixtiyoriy diqqat o'qishni motivlashtirish, o'quv faoliyatida yutuqlarga erishish uchun mas'uliyat hissini shakllantirish jarayonlari bilan birgalikda rivojlanadi.

Tafakkur kichik maktab yoshi davrida hissiy-obrazli ko'rinishdan abstrakt-mantiqiy tafakkurga tomon o'sib boradi. "Bola shakllar, ranglar, tovushlar va umuman sezgilar orqali fikrlaydi",-deb yozgan edi K.D.Ushinskiy va o'qituvchilarni maktab hayotining dastlabki davrlarida bola tafakkurining ana shu xususiyatlariga tayanishga chaqiradi [9,41]. Maktabning birinchi bosqichdagi vazifasi bola tafakkurini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunish darajasiga ko'tarish bo'lib hisoblanadi.

L.S.Vigotskiy ta'kidlaganidek, maktabga kelganida bolaning intellekt ko'rsatkichi past darajada bo'ladi [10,15]. Maktabda intellekt shu darajada takomillashadiki, maktab davridan boshqa davrda hech qachon bunday rivojlana olmaydi. Bu borada maktab va o'qituvchilarning o'rni nihoyatda ahamiyatli. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar o'quv-tarbiya jarayoni xilma-xil tashkil etilsa, ta'lim mazmuni va metodlari, o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish metodikasi o'zgartirilsa, kichik maktab yoshi o'quvchilarining turli ko'rinishlarini shakllantirishga erishish mumkin.

Bolalarning tafakkuri ularning nutqi bilan birga rivojlanadi. Hozirgi to'rtinchi sinf o'quvchilarining so'z boyligi 3500-4000 so'zgacha bo'lishi aniqlangan. Maktab ta'limining ta'siri natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining faqat so'z boyliglarigina oshmaydi, shuningdek, ular o'z fikrlarini og'zaki va yozma nutq orqali bayon etishga ham o'rganadilar.

O'quv materiallarini o'zlashtirishida boshlang'ich sinf o'quvchisining xotirasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada boshlang'ich sinf o'quvchisining imkoniyatlari nihoyatda katta, bu yoshdagi bolalarning miyasi egiluvchan (unda kechadigan jarayonlar nuqtai nazaridan) bo'lganligi sababli so'zma-so'z yod olish bilan bog'liq topshiriqlarni tez va oson bajara oladi. Taqqoslaymiz: maktabgacha yoshdagi bola 15 ta so'zdan 3-5 tasini eslab qolsa, kichik maktab yoshidagi o'quvchi 6-8 ta so'zni eslab qola oladi. Ular qiziqarli, aniq va yorqin o'quv materialini xatosiz eslab qoladi. Uning xotirasi ko'rsatmali-obrazli xarakterga ega bo'ladi. Ammo boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z xotiralarini boshqarish va uni o'quv topshiriqlariga bo'yinsundirishga qiynaladilar. Shuning uchun ham o'qituvchilardan bolalarda yodlash jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tekshirish, o'quv mehnatini samarali tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirishga katta e'tibor qaratishlari talab etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsining shakllanishi kattalar (o'qituvchilar), tengdoshlari (sinfdozlar) bilan bo'ladigan yangicha munosabatlar, faoliyatning yangicha ko'rinishi (o'qish), butun bir boshli jamoalar (umummaktab, umumsinf jamoasi) ning safiga kirish kabi jarayonlar ta'siri ostida amalga oshiriladi. Unda ijtimoiylik tuyg'usi elementlari, ijtimoiy xulq-atvor ko'rinishlari shakllana boshlaydi. Kichik maktab yoshida o'quvchilarda axloqiy xususiyatlar va ijobiy fazilatlarini shakllantirish uchun imkoniyat katta bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning ta'sirga beriluvchanligi, ishonuvchanligi, taqlidchanligi, o'qituvchining ular uchun katta obro'ga ega bo'lganligi ularda yuksak axloqiy fazilatlarini shakllantirish uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi. Axloqiy me'yorlarning asoslari aynan boshlang'ich ta'limda shakllantiriladi, shuning uchun ham shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida uning o'rni nihoyatda beqiyosdir.

Boshlang'ich ta'lim tarbiyalanuvchilarni ongli tashkil etilgan, o'quvchilarning imkoniyatlariga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish mehnatiga jalb etishi kerak. Binobarin, bu shaxsda ijtimoiy sifatning shakllanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar bajaradigan ishlar o'z-o'ziga xizmat, kattalarga yoki yuqori sinf o'quvchilariga ko'maklashish shaklida bo'lishi mumkin. Mehnatni o'yin bilan qo'shib olib borish ham yaxshi natija beradi. Chunki bunda o'zaro raqobat, tashabbuskorlik, ijodkorlik muhiti yaratiladi.

Kichik maktab yoshi davrining yuqorida sanab o'tilgan va tahlil etilgan xususiyatlarini chuqur o'rganish va bilish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv materialini to'liq va puxta o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatini kengaytiradi.

Xulosa. Boshlang'ich ta'lim bolalarning umumiy aqliy rivojlanishi va taraqqiyoti uchun poydevor quradigan davr bo'lib hisoblanadi. Ana shu poydevorning mustahkamligi ta'limning

keyingi bosqichlarida va kelajakda bolaning taqdirida muhim ahamiyatga ega bo'lgan mustaqil fikr yurita olish, muhim va qat'iy qaror chiqara olish, o'z xatti-harakatlarini tanqidiy baholay olish, muammoni anglash, taqqoslash va uni hal etishning bir necha yo'llarini topa olish, olingan bilimlarni turli nostandart vaziyatlarda qo'llay olish kabi ko'nikmalarning shakllanishi uchun asos bo'ladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza G'G'Xalq so'zi. - 2016.-8 dekabr.
2. Abdullayeva Q., Safarova R., Bikboeva N. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi// Boshlang'ich ta'lim, 6-son. 1998. -2-9 betlar.
3. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Dokt. diss. Toshkent, 2003. -320 b.
4. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. 3-издание. -М.: Наука, 1972. -с562.
5. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. - 2017. - Т. 31.
6. Жураев Б. Т. Социально-духовное развитие студентов //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. - 2019. - С. 22-23.
7. Amonov M. N. The problems of designing professional skills and independent training of future teachers in Uzbekistan //Academic research in educational sciences. - 2021. - Т. 2. - №. 3. - С. 22-26.
8. Ortiqov O. R. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTALOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI //Scientific progress. - 2021. - Т. 2. - №. 5. - С. 42-47.
9. Ушинский К.Д., Педагогические сочинения в 6 т.-Т.4. -М.: Педагогика, 1988-90 гг., стр.41
10. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. Психологический очерк. - Просвещение, 1991.

13.00.00 – Педагогика фанлари

Mustafayev Yoqubjon Xayrullayevich

Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

E-mail: yoqubjon.mustafayev@mail.ru

JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI KOMPETENTLI TAYYORLASHNING DIDAKTIK MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya mutaxassislarini kompetentli tayyorlashning didaktik masalalari, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari kompetentligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi didaktik ta'minot va unga qo'yilgan talablar, didaktik ta'minotini modernizatsiyalash orqali ularda kompetentlik darajasini rivojlanganligining pedagogik diagnostikasini takomillashtirishga oid masalalar muhokama etilgan.

Kalit so'zlar: kompetent, kompetensiya, kommunikatsiya, konsepsiya, didaktika, diagnostika, modernizatsiya, ko'nikma, malaka, yondashuv, mutaxassis

Mustafaev Yokubjon Khairullaevich

senior lecturer, Navoi State Pedagogical Institute,

DIDACTIC ISSUES OF COMPETENCE TRAINING OF SPECIALISTS OF PHYSICAL EDUCATION

Abstract. This article discusses the didactic issues of competent training of physical culture specialists, didactic support that influences the formation of the competence of future specialists in physical culture and sports and the requirements for it, discusses issues related to the improvement of pedagogical diagnostics of the development of the level of competence in them by modernizing didactic support.

Key words: competence, competence, communication, concept, didactics, diagnostics, modernization, skill, ability, approach, specialist.

Мустафаев Ёкубжон Хайруллаевич

старший преподаватель,

Навайский государственный

педагогический институт

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ КОМПЕТЕНЦИОННОЙ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассмотрены дидактические вопросы грамотной подготовки специалистов физической культуры, дидактическое обеспечение и требования, влияющие на развитие компетентности будущих специалистов физической культуры и спорта, обсуждены вопросы, связанные с совершенствованием педагогической диагностики развития уровня компетентности у них за счет модернизации дидактического обеспечения.

Ключевые слова: компетентность, компетенция, общение, концепция, дидактика, диагностика, модернизация, навык, умение, подход, специалист.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N33>

Yangi renessans davrida mamlakatimizda zamonaviy talablar asosida oliy ta'lim tizimida ta'lim va tarbiya jarayoni sifatini oshirish, jumladan jismoniy tarbiya yo'nalishida ta'lim tizimini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida, jumladan, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bakalavriyatning huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik va moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, jismoniy madaniyat va sport mutaxassisliklarining Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tatbiq qilishni davr taqazo qila boshladi.

Zamonaviy o'qituvchi o'zining bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo'llay olishi - kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir.

Jumladan,

- dunyo va mamlakatda ta'lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, xalq ta'limi tizimida o'quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta'minlashga, uzviylik va uzluksizligiga amal qilish;

- kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik faoliyatida qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- talabalarning ruhiy, jismoniy rivojlanishi va yosh xususiyatlari qonuniyatlarini bilishi, ta'lim-tarbiyada pedagogik-psixologik yondashuvga asoslanish;

- o'quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun samarali zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda metodlarni to'g'ri tanlash va qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

- o'quv-tarbiya va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida bolalar hayoti va sog'ligi, texnik hamda axborot xavfsizligini ta'minlashga tayyor bo'lish;

- dars jarayonida mediaresurslar va elektron tarmoq imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda mediavaxfsizlik me'yorlariga amal qilish. [1; 7-b.]

Yaqin o'n yilliklar davrida bir qator rivojlangan davlatlar Germaniya, Finlandiya, Yaponiya, AQSh, Rossiya va shuningdek, bizning mamlakatimizda, oliy ta'lim tizimi tubdan isloh qilina boshlandi. Bunda asosiy e'tibor, talabalarda egallayotgan mutaxassisligi bo'yicha kompetensiya shakllanishi va takomillashuviga qaratilmoqda. Bugungi kun talabi sifatida jamiyat, soha taraqqiyoti uchun butunlay yangi qiyofadagi, yangicha fikr va mulohaza yurituvchi, raqobatbardosh mutaxassislar talab qilinayapti. Bunday mutaxassislar - mustaqil, erkin, faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchan, ilmiy axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi va ularni o'z amaliy faoliyatida qo'llovchi mutaxassis bo'lib yetishishi lozimligini bugungi shiddat bilan odimlab borayotgan davr taqazo etayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Sohaga oid mutaxassislarning fikri va mulohazasiga ko'ra, oliy ta'limni isloh qilish, yangilash, takomillashirishda zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashning asosiy yo'llaridan biri kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuv hisoblanadi. Oliy ta'limda o'qish va tarbiyaning bunday uslubini joriy qilish o'z-o'zidan an'anaviy qarashlarni tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarni egallashda esa, bu borada endi kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda.

Hozirgi zamon pedagogika fani va bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlasak, turli soha va mutaxassisliklarga, fan va uslublarga, o'qitish usullari, texnologiyalariga juda ko'p e'tibor qaratilganligini sezamiz. Ammo ana shu pedagogik usullarni tushunish, ularni amaliy faoliyatda qo'llash masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ta'kidlash mumkin.[1; 9-b.]

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi va mamlakatimiz ta'lim amaliyotining kompetentlik yondashuv asosida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha zamonaviy izlanishlar asosidagi muammolarning tahlili shuni namoyon qilmoqdaki, fan va ishlab chiqarishning zamon talablariga javob beruvchi yangi ta'lim konsepsiyasi bakalavriyat talabalarida shaxsiy, kasbiy, ijodiy imkoniyat va integrativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilganligini kuzatish mumkin.

Mavjud "bilimli" konsepsiyaga asoslangan an'anaviy didaktik ta'minot esa bu jihatlarni bakalavriyat talabalarida rivojlantirishga psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish uchun yetarli hisoblanmaydi. Ushbu sharoitda kompetentli ta'lim konsepsiyasiga asoslangan didaktik ta'minotini takomillashtirishga qaratilgan izlanishlar va o'rganishlar shu o'rinda dolzarblik kasb etadi.

Bu kabi masalalar yechimini topish va ilmiy muhokama etish uchun bir qator vazifalarni belgilab olish o'rinlidir.

Birinchi, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari kompetentligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi didaktik ta'minotning asosiy parametrlarini belgilab olish;

ikkinchi, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tayyorlashning didaktik ta'minotiga qo'yiladigan asosiy talablarni aniqlash, zamon talablariga mos bo'lgan bakalavr bitiruvchisining shaxs modelini takomillashtirish;

uchinchi, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarni tayyorlashning didaktik ta'minotini modernizatsiyalash orqali ularda kompetentlik darajasini rivojlanganligining pedagogik diagnostikasini takomillashtirish va kompetentli tayyorlashning didaktik ta'minotini o'quv jarayoniga tadbiiq etishga asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Ushbu yuqoridagi vazifalar asosida quyidagi ilmiy g'oyalarga tayanish va ular asosida masalaga yechim topishga asoslanish mumkin deb o'ylayman.

Ya'ni, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari kompetentlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi zamon talablariga mos bo'lgan, maqsadli, mazmunli va tuzilmaviy parametrlarni tizimli tahlil asosida aniqlash, didaktik ta'minotiga qo'yiladigan bakalavriyat talabalarini ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga, kasbiy bilimlarini integratsiyalashga, o'qish jarayonini intensivatsiyalash va individuallashtirishga, amaliy-kasbiy ko'nikma va tajribalarini shakllantirishga yo'naltirilgan talablarni kompetentlik tahlil asosida takomillashtirish, didaktik ta'minotini modernizatsiyalashning metodologik asosi bo'lgan, diagnostik va tizimli didaktika prinsiplariga asoslangan hamda kompetentli tayyorlash sharoitlariga mos tushuvchi bitiruvchining shaxs modelini takomillashtirish, ta'lim maqsadi darajasida – o'quv reja, mazmuni darajasida – kompetentli o'quv-uslubiy majmua, texnologiya darajasida – kreativ o'qish tizimi, ta'lim natijalarini baholash darajasida – kompetentlikning kompleks pedagogik diagnostikasi kabilarni o'z ichiga olgan modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotining tuzilishi va mazmunini aniqlash, kompetentlikni shakllanganlik darajasini kirish, semestrlararo hamda attestatsion bosqichlaridagi pedagogik-diaagnostik majmuasining

tuzilmaviy va mazmunli tizimini takomillashtirishni - ko'pgina soha vakillari ham o'z tajribalarida ilgari surmoqdalar.

Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg'unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga, kasbiy-amaliy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning bilim samaradorligini oshirish hamda dars va ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etishda:

Birinchidan, tizimda yuqori malakali pedagog-kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini zamon talablariga mos holda uzluksiz va sifatli ravishda oshirib borishga;

Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari kasbiy-amaliy qiyinchiliklari va ehtiyojlariga asoslangan uzluksiz sifatli "metodik xizmat"ni tashkil etishga;

Uchinchidan, mavjud fan xonalari, sport maydonlari, sport zallari, sport trenajyorlari, o'quv laboratoriya asbob-uskunalair, jihozlar va kompyuter texnikasidan, umuman olganda, barcha shart-sharoitlardan samarali foydalanishga;

To'rtinchidan, sifatli ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda, oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish institutlari va umumta'lim maktablari, ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktablari hamkorligida ilg'or ish tajribalarini amaliyotga joriy etishga;

Eng asosiysi esa, xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borishga tayyorlanayotgan bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning kasbiy-amaliy kompetentligi va mahoratiga bevosita bog'liqdir.

An'anaviy bilim-malakaga asoslangan ta'lim tizimida qayd etilgan ziddiyatlarni hal etishning imkoni yo'qligi sababli bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarni tayyorlash tizimining asosini integrallashgan bilimlarni tashkil etuvchi yangi ta'lim konsepsiyasiga(kompetentlikka) o'tishni taqozo etadi. Bunday bilimlar talabalarda tafakkurini tizimli va ijodiy shakllantirishga, ilmiy-kasbiy muammolar yechimini tezkor va samarali yo'llarini topishga, yangi kasbiy bilimlarga ega bo'lish qobiliyatiga hamda o'z ijodiy imkoniyatlarini uzluksiz o'stirishga qaratiladi.

Xorijiy davlatlardagi bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tayyorlash tuzilmasi va mazmunini chuqur tahlili kompetentlik yondashuviga xos quyidagi didaktik jihatlarini aniqlash imkonini berdi: o'qitish maqsadi va mazmuni bakalavriyatda kasbiy kompetentlikni (kompetensiyalar guruhini) shakllantirishga qaratilishi, qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalar talabalarda ijodiy imkoniyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilishi, o'quv dasturlari moslashuvchanligi hamda ta'lim jarayonida kasbiy-amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish imkoniyatlarining o'sishi, o'quv jarayonida asosan o'qitishni tadqiqot metodlaridan foydalanilishi, o'quv mashg'ulotlarining ma'lum bir qismi mustaqil mashg'ulotlar ekanligi, shakllangan kompetentlik darajasini o'lchash uchun miqdoriy mezonlar qo'llanilayotganligi, o'qitishning individuallashtirilgan yondashuv asosida tashkil qilinishi, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning yuqori darajadagi integratsiyasi va boshqalar.

Respublikamizda bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tayyorlashning tashkiliy-boshqaruv va me'yoriy-huquqiy asoslarining tuzilmaviy-mazmunli tahlili (joriy ta'lim tizimidagi akademik tuzilma va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda), ularda kompetentli yondashuvni nazariy asoslash va amaliy tatbiq etish uchun muhim bo'lgan me'yoriy-huquqiy negiz mavjudligini ko'rsatmoqda.

Shunday qilib, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tayyorlash tizimiga qator innovatsiyalar joriy etilayotganiga qaramay, mavjud tizim yaxlit qo'rinishda quyidagi didaktik xususiyatlardan iborat bo'lgan "bilimli" yondashuvni aks ettiradi: tayyor bilimlar tizimini o'zlashtirish (bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish maqsadiga yo'naltirilganlik); o'quv dasturlarining reproduktiv mazmunga ega bo'lishi; o'qishni markazlashgan fanlar shakli va ekstensiv pedagogik texnologiyalarni qo'llash; kasbiy tayyorgarlik darajasini o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalar orqali baholash.

Shu o'rinda "kompetentlik" tushunchasini eslatib o'tsak. Kompetentlik (lot. competens - munosib, muvofiq, tegishli, layoqatli, bilimli) - ma'lum sohada har taraflama bilimlarga ega bo'lgan insonning sifatidir. Kompetensiya (lot. competo)- "maqsadga erishish, munosib bo'lmoq, to'g'ri kelmoq" kabi ma'nolarni bildiradi. Ushbu tushunchalar ilmiy adabiyotlarda turlicha ta'riflanishidan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, hozirgi kunda ilmiy-pedagogik hamjamiyatda kompetentlik, kompetensiya tushunchalarining mazmuni haqida yagona va aniq to'xtamga kelingan emas. [2;]

Aksariyat tadqiqotchilar muayyan hajmdagi ilmiy-texnik ma'lumotlarni o'zlashtirish hamda yetarli bo'lmagan bilimlarni izlab topish metodlarini egallashda aks etadigan "kompetentlik" tushunchasining integrativ mohiyatini qayd etishmoqda. "Kompetentlik" ta'lim oluvchining mutaxassislikka aloqador boshqa fanlarga oid bilimlarni kompleks qo'llashga tayyorligi va layoqatliligini nazarda tutadi. Tuzilmaviy jihatdan "kompetentlik" tushunchasi o'zaro aloqador va bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi kognitiv, operatsion-texnologik, motivatsion, axloqiy, ijtimoiy, xulqli kabi tarkiblardan iborat. [2;]

Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiqaradi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo'llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin.[3]

Ushbu masala mohiyatiga oid ko'pgina ilmiy va axborot manbalari talqinidan bizga ma'lumki, kompetensiya - shaxsning muayyan predmet va jarayonlarga xos o'zaro aloqador sifatleri majmuini qamrab olsa, kompetentlik - "ma'lum sohada samarali faoliyat olib borish uchun o'z imkoniyatlari (bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, shaxsiy sifatleri)ni amalga oshirish" layoqati deb tushuniladi.

Amaliyotda kuzatilgan ko'pgina tajribalar, tahlillar, qo'llanilgan metodik ishlanmalar va tavsiyalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Amaldagi an'anaviy didaktik ta'minotini modernizatsiyalash sabablarini aniqlash, murakkab va ko'p qirrali yechimini kutayotgan muammolariga xos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy o'zgarishlarga muvofiq kompetentli bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyojning oshishi hamda kompetentli yetuk mutaxassislarni an'anaviy "bilimli" ta'lim konsepsiyasiga asoslangan didaktik ta'minoti asosida tayyorlashga imkoniyat yaratish, sohaga oid ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlarini, texnologiyalarini va ta'lim natijalarini baholash tizimlarini qaytadan ko'rib chiqish lozimligini anglatadi.

Ta'lim maqsadi darajasida esa, yuqorida bildirilgan va keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib, o'quv-ijodiy reja; mazmuni darajasida - innovatsion-kompetentli o'quv-uslubiy

majmua; axborot – kommunikatsion texnologiya darajasida - kreativ o'qish tizimi; ta'lim natijalarini shaffof baholash darajasida – kompetentlikning kompleks pedagogik diagnostikasi kabilarni o'z ichiga olgan modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotining tuzilishi va mazmuni boyitishni taqazo etadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik (Uslubiy qo'llanma) -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.
2. Maxmudov A.X. Pedagogika fanlari doktori(DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2017.
3. Tojiboyeva R.G. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804

13.00.00 – Педагогика фанлари

Inoyatov Odiljon Sobitovich

Guliston davlat inistituti katta o'qituvchisi.

Email:gulduinayatov@gmail.com

Yakubova Nafisa Odiljanovna

Guliston davlat universiteti doktoranti

Email:nafisaodiljonovna@gmail.com

O'QUVCHILAR BILISH VA GRAFIK FAOLIYATINING RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Annotatsiya. Fazoviy tasavvurni rivojlantirishda, tasvirlanayotgan obyekt, chizma, buyum, detal va boshqalarni shakli, hajmi, ko'rinishi, vaziyati, uning haraktiriskasi haqida to'liq tushunchaga ega bo'lishdir. Fazoviy tasavvur deganda chizilayotgan chizma, detal va boshqalarning inson tasavvuri, hayolida ko'z oldiga keltira olishi hamda uni qog'ozga tushira olishi tushuniladi.

Kalit so'zlar: chizma, qobiliyat, tasavvur qilish, fazoviy tasavvurlarini shakillantrish, idrok, modellashtirish, fa'oliyat.

Inoyatov Odiljon Sobitovich

Senior Lecturer at Gulistan State Institute.

Yakubova Nafisa Odiljanovna

Doctorate of Gulistan State University

PEDAGOGICAL PROBLEMS OF THE DEVELOPMENT OF KNOWLEDGE AND FINE ACTIVITY OF STUDENTS.

Abstract. In the development of spatial imagination, it is to have a complete understanding of the shape, size, appearance, situation, end characteristics of the depicted object, drawing, item, detail, etc. Spatial imagination means the human imagination, the ability to visualize the drawn drawing, details, etc, and put it on paper.

Key words: Drawing, ability, imagination, spatial imagination, perception, modeling, activity.

Иноятлов Одилжон Собитович

Старший преподаватель Гулистанского государственного института

Якубова Нафиса Одилжановна

Докторант Гулистанского государственного университета

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЗНАНИЙ И ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ.

Аннотация. В развитии пространственного воображения необходимо иметь полное представление о форме, величине, внешнем виде, положении и особенностях изображаемого предмета, рисунка, предмета, детали и т. д. Под пространственным воображением понимается воображение человека, способность визуализировать нарисованный рисунок, детали и т. д. и перенести его на бумагу.

Ключевые слова: рисование, способность, воображение, пространственное воображение, восприятие, моделирование, деятельность.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N34>

Kirish. Bugungi kun yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, kitobxonlikni targ'ib etish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalari bo'yicha Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan, ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Yoshlarimizning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda ta'lim tizimida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, zamonaviy o'quv uslubiy manbalarni yaratish va o'quv tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanmoqda. Shu sababli, dars jarayonlarini hozirgi ta'lim tizimi yo'nalishiga oid uslublarda ishlab chiqib va uni amaliyotga tatbiq etish katta vazifalardan biridir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biri bu tasviriy san'at to'garak mashg'uloti bo'lib, bunda o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasi, badiiy ta'limi, mehnat intizomini kuchaytirish muhim bo'g'ini hisoblanadi. Ularda tafakkur qilish madaniyat va ma'naviy fikrlash, maqsadga yo'naltirilganlik, o'zini-o'zi nazorat qilish, yuklatilgan vazifaga nisbatan javobgarlik hissini sezish kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maktabda chizmachilik o'qitishni tahlil qilishdan oldin uning fan sifatida shakllanishi haqida qisqacha to'htalamiz.

1953 - 1968 yillarda nashr qilingan darsliklarda keltirilgan amaliy va grafik topshiriqlarning umumiy soni 300 ga yaqin bo'lib, ularning ko'pchiligi reproduktiv faoliyat bilan bog'liq. Chunki o'sha davrda chizmachilikni o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilar tomonidan chizish texnikasini egallashga qaratilgan edi. Keyinchalik chizmachilikdan nashr etilgan adabiyotlarda tasvirlarni tahlil qilish, almashtirish kabi o'quvchilarning grafik faoliyatni rivojlantruvchi ta'lim g'oyalari o'z ifodasini topganligi aniqlandi. Ayniqisa, maktab chizmachilik darsligida sifat o'zgarishlar sodir bo'lgan. Yechilishi reproduktiv faoliyat bilan bog'liq masalalarning soni darslikda birmuncha kamaygan. Shu bilan birga o'quvchilarning qiziqishini oshiradigan masalalar soni sezilarli darajada ko'paydi. [3,5,7]

Ayniqisa, bu davrda tasvirlarni almashtirish yoki ularning tuzishga bo'lgan talabning oshganligini alohida ko'rsatib o'tmoq lozim, ularning soni masalalarning uchdan bir qismini tashkil etadi. Darslikdagi bunday katta o'zgarishlarning sodir bo'lishiga asosiy sabab, ta'limning mazmunini qayta tuzish jarayonida A.D.Botvinnikov boshliq mualliflar jamoasining ilmiy izlanishlari natijalaridir.

Chizmachilik darsligining tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, avvalo darslikka kiritilgan

masalalar tarkibi bilan tanishib o'tamiz. Mualliflar jamoasi darslikning mazmunini turli mashq va masalalar bilan boyitishga harakat qilishgan, bular orasida taqqoslash, chizmani yetishmovchi chiziqlarini to'ldirish, turli materiallardan modellar yasash, geometrik jismlar guruhining chizmasini o'qish kabi topshiriqlar o'rin olgan. Ayniqisa, darslikda jismning fazoviy vaziyati va shaklini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan almashtirishlar, shuningdek, chizmani tahlil qilishga doir mashqlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Tahlildan xulosa qilib shuni takidlash mumkinki, ko'rsatilgan qo'llanmada o'quvchilarning ta'limdagi o'quv faoliyatining almashinuvchanligiga yetarli darajada e'tibor berilmagan.

Endi, chizmachilik o'qitish metodikasidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilamiz. Chizmachilikdan 1970 yillarga xos vazifalarga yaqin bo'lgan dissertasiyalarga murojaat qilamiz. Bunday ishlarga K.S.Satimovning [132] nomzodlik dissertasiyasini misol qilib keltirish mumkin. Uning 1972 yilda yoqlangan "O'rta umumiy ta'lim maktablarida chizmachilik o'qitishning didaktik asoslari" deb nomlangan ilmiy tadqiqotini sarlavhasi bo'yicha fikr yuritilsa, tadqiqot har bir chizmachilik darsining yangicha tashkil etib o'tkazishni anglatishi kerak edi. Ammo, bu ish bo'yicha o'tkazilgan tahlil ilmiy-tadqiqotning siyqaligidan dalolat beradi.

Darslarning tarkibidagi topshiriqlarning murakkablik darajasi o'quvchilarning butun dars davomida uzluksiz bosh qotirib ishlashlariga imkon bermaydi. Ko'pchilik darslarni umumlashtirishga to'g'ri keladi, chunki ko'pgina dars mavzulari haddan tashqari maydalashtirib yuborilgan. Darslarda o'quvchilarning o'quv faoliyatlari o'qituvchi ketidan doskadagi tasvirni ko'cherish bilan chegaralangan. Tabiiyki, bunday nusxa ko'cherish usulida o'quvchining faolligi susayadi, ularning ijodiy faoliyati chegaralanib qoladi. Bundan tashqari, tahlillar shuni ko'rsatdiki, muallif dasturda ko'zda tutilgan grafik va amaliy ishlar majburiy minimumiga kiruvchi ishlar mazmunini to'la ochib bermagan, bunday pala-partishliklar ilmiy tadqiqotda ba'zan ko'rinib turadi. Masalan, dasturda ko'zda tutilgan ikkinchi amaliy ish chizma bo'yicha plastilin, karton va simdan model yasashni, uning chizmasini bajarish bilan almashtirib qo'yilgan.

Chizmalarni og'zaki o'qish, prizma, silindr, konus va piramidalarning chizmasi va sirtini yoyish bilan almashtirilgan. Bu ishlarni frontal ravishda o'tkazish rejalashtirilgan bo'lib, unga 3 soatdan ko'proq vaqt ajratilgan. Faqat to'rtinchi soatdan keyingina xuddi shu tarzda ish mustaqil bajarish uchun o'quvchilarning o'zlariga topshirish rejalashtirilgan. Eng muhim bo'lgan karton materiallaridan predmetlarning sirtini yoyib ularning modellarini yasashday foydali ish ilmiy tadqiqotchining nazaridan chetda qolgan. Chizmalarni chizish usuli va ularning aksonometriyada tasvirlash darslikda ko'rsatilgan bo'lib, to'g'ri burchakli proektsiyalash bilan parallel berilmagan.

Muhokama. Mashg'ulot jarayonida mazkur vazifalarni zamonaviy ta'lim texnologiyalari negizida qo'llash o'quvchilar natijalarini yuqoriga olib chiqishda yanada samarali sanaladi. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning xususiyati haqidagi ilk manbalar qadim zamonlarga borib taqaladi. O'quvchilar bilish faoliyatining narsa, jarayon va hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borishga yordam berishi, hotirani mustahkamlash qadim zamonlardayoq ma'lum bo'lgan. Yaqin va O'rta Sharqdagi yashab iyod etgan o'rta asirlik mutafakirlar ijodiy ilmiy bilishning tur ta'moyil, tuzilish mezonlari inson aqliy rivoji va kamoli bilan bog'liqligiga jiddiy etibor berilgan [16,19].

Al – Xorazimiy [111] hissiyot orqali bilishni “mantiqiy mulohazalar” vositasida bilishdan aniq farqlangan: hissiyot “mayda” xususiyat, “mantiqiy” esa mohiyatini o‘rganadi va ular o‘zaro aloqada kechadi deb hisoblagan.

Beruniyning ilmiy merosida tabiatni o‘rganish va bilishning ilmiy metodiga katta o‘rin ajratilgan. Beruniy ilmiy metodining xarakterli xususiyatlari obyektivlik va oqilona yondashuv, kuzatish, tajribalar, og‘zaki va yozma yodgorliklarni o‘rganish, dalillarga tanqidiy yondashuv, ularni aqliy xulosalar shaklida mantiqiy umumlashtirishva haqiqatni aniqlash maqsadida qiyoslashdan iboratdir.

Beruniy fazoni o‘lchash haqida gapirib, oltita tomonni – o‘lchovining yo‘nalishlarini aniqlaydi. So‘ngra tekislik, to‘g‘ri chiziq, burchaklar, ularning turlari, doira va undagi chiziqlar, to‘rtburchakning turlari, parallel to‘g‘ri chiziqlar, ularni bir to‘g‘ri chiziq kesganda hosil bo‘lgan burchaklar, urunma, ichki va tashqi chizilgan shakillar bayon etiladi, shuningdek, to‘g‘ri chizikli shakillarning yuzalarini aniqlash qoidalari, aylana uzunligi va doira yuzini hisoblash qoidalari berilgan.[23]

Asarning stereometriyaga doir bo‘limida kub, prizma, silindr, konus, shar, shar bo‘laklari, sferik shakillar, ularning sirtlari va hajimlarini aniqlash qoidalari berilgan. Shuningdek, bu bobda konus kesimlaridan iborat ikkinchi tartibli egri chiziqlarning hosil qilinishi, ya‘ni konusni turli vaziyatdagi tekisliklar bilan kesganda kesimda aylana, ellips, giperbola, parabola va to‘g‘ri chiziq xosil bo‘lishi haqida ma‘lumotlar bor.

Abu Rayhon Beruniyning ta‘kidlashicha ta‘lim izchil, ko‘rgazmali, maqsadga qaratilgan bo‘lishi va muayyan tizim bo‘yicha olib borilishi kerak. Uning fikricha, ko‘rgazmaliylik ta‘limni ancha qulay, aniq va qiziqarli qiladi, kuzatuvchanlikni va tafakkurni rivojlantiradi. [19]

Ibin Sino (X-XI) bilish faoliyatining turli tarzlarini “ruhning hilma –hil kuchlari” deb tasvirlaydi va bu kuchlarning anchagina qismini ilohiy ibtido hukmi ta‘siridan ajratib talqin qiladi. U qadimiy (antik) ananalarga muvofiq ruhni uch ko‘rinishga: nisbatan, hayvonot va aqilga ajratadi. Birinchisi- harakatlantiruvchi va qabul qiluvchiga bo‘linadi. Qabul qiluvchi esa, o‘z navbatida, tashqari va ichkaridan qabul qiluvchiga ajraladi.

Ibin Sinoning ilmiy merosi [17] tabiiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarini qamrab olgan. U “ta‘lim osondan murakkabga qarab borishi kerak” degan didaktik tamoyilni rivojlantiradi. Shuningdek, “bollarning mayil va qobiliyatlarini hisobga olish”, “mashiqlar bolaning imkoni darajasida bo‘lishi kerak” va “ta‘limni jismoniy mahiqlar bilan uyg‘unlikda olib boorish lozim” kabi tamoyillar Ibbn Sinoning didaktik qarashlarida muhim ro‘l o‘ynaydi.

Masalan Ibin Sinoning “Donishnoma” asarining geometriyaga oid bobida, jumladan geometric asboblardan sirkul (pargar) hamda chizg‘ich bilan bajariladigan masalalarning bajarilish tartibi tushuntirib beriladi. Mexanikaga bag‘ishlangan boblarda esa chig‘iriy, blok, vint, pona kabi oddiy mashinalarning tuzilishi bayon qilinadi hamda ular chizma va grafik tasvirlarda yaqqolko‘rsatib beriladi. Shunisi diqqatga sazavorki chig‘iriy, vint, pona kabilarining yaqqol tasviri proeksiyada ko‘rsatilgan bo‘lib, u aksonometrik yani frontal-dimmetrik proeksiyaga juda yaqin turadi. Blok ustun kabilar esa, aksonometrik proeksiya bilan omixtalashtirilgan holda perspektivada tasvirlanadi. Ibin Sino bu asarda mexanizimlarning yaqqol tasviri bilan bir qatorda, ularning chizmasini sxemada ham tasvirlaydi. Chunonchi, g‘ildirak bilan vintlarni, shuningdek g‘ildirak, vint va biloklarni tutashtirishni tasvirlar ekan, ayni paytda ularni chizmalarda ko‘rsatadi. Bular yig‘ma chizmalar bo‘lib, hozirgi zamon kinematic sxemalarini eslatadi [16].

Hozirgi kunda ham bilish faoliyatini rivojlantirish pedagogic muammolardan biri bo'lib, uning maqbul echimi o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan. Mavjud ahvolning tahlili shuni ko'rsatadiki, chizmachilik ta'limi amaliyotida o'quvchilarda bu muhim faoliyatni tarkib topdirishga etarli ahamiyat berilmay kelinmoqda.

Bilish faoliyatini rivojlantirish muammosi maxsus usul va uslublarni ishlab chiqish va qo'llash bilan bog'liqdir.

O'quvchilar ishlarini maxsus tajriba-sinovda kuzatgan P.D.Zubenko [87] tasdiqlashiga qaraganda o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish ko'p jihatdan o'qitish vositalariga bog'liq. Biroq, bilish faoliyatini tashkil etishning o'zi muammoning echimini to'la ta'minlay olmaydi. Keying yillarda ta'limda o'qitishni faol va sustmetodlarga ajratish xato ekanligi isbotlanadi.

An'anaviy ta'limda o'qituvchining o'zi o'quv materyalini tushuntiradi, muammoni qo'yadi, uning echimini topadi, o'quvchi esa, o'qituvchi ketidan o'qituvchi bajargan amallarni takrorlaydi. Bunday o'qitish metodida o'qituvchi faollik ko'rsatadi, o'quvchilar esa sust ijrochi vazifasini bajarish bilan cheklanadi. An'anaviy yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan qator tadqiqodlar o'tkazilgan. A.J.Attokurova [24], S.YU.Qutlimurodova [100], M.I.Enekeev [66], S.Kariev [94] o'z tadqiqodlarida, o'quvchilarning bilish faoliyatini mustaqilishlar bajarish bilan rivojlantirish mumkin, degan fikriga kelishgan.

Chizmachilik o'qitish amaliyotida o'quvchilarning mustaqil ishlariga formal ravishda qaralib, ularda mustaqil faoliyatlarini shakillantirish va rivojlantirishimkoniyatlari inobatga olinmaydi. Pedagogic amaliyotda o'quvchilarning mustaqilishlari darsning turli bosqichlaridagi didaktik vazifalar bilan moslashtirilmay qolgan, balki o'quvchilarning fikirlash faoliyatini rivojlantirish o'rniga reproduktiv harakatlari-chizmani ko'cherish, giyometrik yasash kabi ishlarga e'tibor qaratilgan.

Natijalar. Real o'quv jarayonida ko'rsatilgan faoliyat turlari va ularni bajarish usullarining uyg'unlashuvi qiyin kechadi. Bularning hammasi, tabiyki o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishning didaktik asoslariga kiradi.

Bilish faoliyatining tashqi tamoni deganda biz ancha soda bilish jarayonlarini (qabul qilish, diqqat va boshqalar) rag'batlantirish va o'quvchining umumiy ish qobiliyatini rag'batlantirishni tushunamiz. Buning uchun quydagi usullar xizmat qiladi:

- Turli metodlar va o'quv ishlarini almashtirib turish orqali turli asab markazlari ishlarini almashib turishini ta'minlash;

- O'quv jarayonida so'z va ko'rgazmalilik va mavhumiylikning to'g'ri munosibligi; darsda dam olish daqiqalari; ijodiy hissiyotlarni qo'llab quvvatlash; didaktik usul sifatida o'yin va musobaqalarni qo'llash, zero bilish faoliyatining ichki tomoni – bu avvalambor o'quvchilar fikirlash va fazoviy tasavvurni faollashtirish, 8 va 9-sinflarda esa ular tasavvuri va ijodkorligini rag'batlantirish hamdir.

Bilish faoliyatini rivojlantirishning ichki maqsadlarida foydalaniladigan asosiy usullar: o'quvchilarningb mustaqil ishi; o'z – o'zini va o'zaro nazorat etish elementlar; chizmachilik ta'limiga muammoli yondashuv va boshqalardir. Ishlab chiqilgan bilish faoliyatining rivojlantirish modeli quydagi bosqichlardan iborat; jonli mushohada yuritish, axborotni qabul qilish va tasavvurni yuzaga kelishi, axborotni idrok etish va sistemalashtirish, abstrakssiyalash, xulosalarni shakillantirish, eslab qolish, o'zlashtirilgan axborotni qo'llash.

Ba'zan yaxshi o'ylab topilgan tizim va bilish faoliyati usullaridan oqilona foydalanilganda ham o'quvchi o'qituvchi rejalashtirgan ta'sirlarni to'la qabul qilavermaydi. Shu bois bilish faoliyatini shakillantiruvchi imkoniyat va vositalar bilan bir qatorda bilishning ichki mexanizimini ham o'rganish zarur.

O'quvchining umumiy tayyorgarligi birinchidan, maqsadni izlashga, ikkinchidan maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quvchining bilish faoliyati ichki mexanizmining kuchi qondirilmagan extiyojlar kuchiga bog'liq. Maqsadga yo'naltirilgan maxsus faollashtiruvchi kuch esa o'quvchining o'z-o'zini baholashi va topshiriq qiyinligiga baho berishga bog'liqdir. Maqsadlarni qabul qilish o'quvchining o'z-o'zini baholashi bilan boshqariladi.

"Ta'limda bilish jarayonini faollashtirish, - deydi M.N.Skatkin [133], faqat bilimlarni o'zlashtirish metodlarini takomillashtirish emas, balki masalalarni echishda ijodiy yondasha oladigan, mustaqil va tanqidiy fikrlay oladigan, o'z qarashlari va hulosalarini bayon qila oladigan, o'z bilimini uzluksiz ravishda to'ldirib boradigan, nazaryani amaliyot bilan bog'lay oladigan shaxsning sifatlarini tarkib toptirish zarur".

Chizmachilik o'qitish jarayonida grafik faoliyatning eng muhim sifati o'quvchilarda fazoviy tasavvur va mantiqiy tafakkurni tarkib toptiradi. Binobarin, bunday sifatlar turli darajadagi fazoviy almashtirishlar jarayonida shakillanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar bilish faoliyatiga bag'ishlangan adabiyotlarning nazariy tahlili shundan guvohlik beradiki, pedagogika fanida yuqori sinf o'quvchilari bilish faoliyati mohiyati, uning ko'p jihatlarini tushuntirishda va talqin etishda olimlar o'rtasida bir hillik yo'q.

Chizmachilik o'qitishda maktab o'quvchilari bilish faoliyatini rivojlantirish muammolarning didaktik asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu muammo chizmachilikni o'qitish amaliyotida mahsus tadqiq etilmagan. Faqat uning ayrim jihatlarigina ko'rib chiqilgan.

Chizmachilik ta'limida bilish faoliyatini rivojlantirish deganda o'quvchilar tafakkurda turli darajadagi tasvir almashtirish usullarining faolligini tushunamiz. O'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantrish bo'lib, bu o'z navbatida o'quvchi shahsining quydagi sifatlari bilan uyg'unlashishi kerak; 1. Ziyraklik, 2. Faollik, 3. Mustaqillik, 4. Tashabbuskorlik, 5. Ishga ijodiy yondashish, 6. Qiziquvchanlik, 7. Mustaqil bilish. Chizmachilik o'qitish jarayonida grafik faoliyatning eng muhim sifati o'quvchilarda fazoviy tasavvurning tarkib topshi bo'lib, bu turli darajadagi fazoviy almashtirishlar jarayonida shakillanishi aniqlanadi va asoslanadi.

O'quvchilar bilish faoliyatini o'rganishda zamonaviy didaktika ta'lim psixologiyasi yutuqlaridan foydalanadi. O'quv materyali yosh va mazmuniga bog'liq holda bu faoliyatning o'ziga hosligi ta'lim jarayoni psixologik qonuniyatlarini o'rnatadi, bilish faoliyatida o'quvchilarning individual va tipik hususiyatlarini ko'rib chiqadi.

O'zlashtirish jarayonida tahliliy – sintetik faoliyat, shuningdek qiyoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish va aniqlashtirish kabi fikriy operassiyalar muhim ro'l o'ynaydi.

Analiz – bilish predmetini qisimlarga fikran bo'lishdir.

Sintez – alohida elementlar yoki qisimlarni bir butunga fikran birlashtirishdir.

Ta'lim bosqichlarining murakkablashib borishi bilan o'quvchilarda tahliliy – sintetik darajaning oshishi kuzatiladi. Tahlil sekin – asta ko'rgazmali – amaliylikdan (obyektlarni fikran bilish, mazkur obyektlar bilan amaliy harakatlar jarayonida amalga oshirilayotganda)

ko'rgazmali (bilish obrazlar yordamida amalga oshirilayotganda) va so'zli – mantiqiyga (bilish mavhum tushuncha va mulohazalar shaklida amalga oshirilganda) tomon rivojlanadi. Sintez shuningdek, ancha to'liq va ko'p tomonlama bo'ladi.

Qiyoslash bu – o'xshashliklar (umumiy hususiyatlarni ajratish) va tafovutlarni (har bir qiyoslanayotgan obyektlarning o'ziga hos hususiyatlarni ajratish) toppish maqsadida bilish obyektlarini qiyoslash.

Bu amallar boshqa barcha asosiy fikriy operassiyalar asosida yotadi.

Umumlashtirish – o'rganilayotgan ob'ektdan umumiy, hususiy, mavhum nomuhimni ajratishdir.

Etakchi psihologlar tomonidan umumlashtirishga oid quydagi qoida ishlab chiqilgan: o'quvchilarda to'g'ri umumlashmalarning shakillantirishning zaruriy qoidasi – muhimning doimiyligida, tushuncha, hususiyat va dalillarning no muhim belgilarini o'zgartirishdir. Bu qoida tasavvur va tushunchalarni shakillantirishda o'ta muhim ahamiyatga ega. Umumlashtirish oddiy shakillardan to ilmiy umumlashmalariga qadar rivojlanadi. Umumlashmalarning to'g'riligi uni o'quvchilar egallashning mezonini. Bu o'zlashtirilgan operatsiyalarni ko'chirib o'tqazish, ya'ni ulardan yangi sharoitlarda foydalanishga xizmat etadi.

Ta'limning dastlabki bosqichlaridayoq o'quvchilarning mavhumlashtirish shakli ham murakkablashadi hissiy ko'rgazmaliylikdan fikriylikka o'tiladi, u ikkinchisi signal sistemasi yordamida tushunchaga aylanadi.

Mavhumlashtirishga yaqin fikriy operassiya aniqlashtirish nomini olgan. Aniqlashtirish:

1. Umumiydan hususiyga fikriy o'tish sifatida;
2. Mavhumiydan umumiyga, aniq – hususiyga uning turli hususiyat va belgilarini toppish orqali etishish, mavhum – umumiyani aniq mazmun bilan to'ldirish, boyitish, sifatida namoyon bo'ladi.

Dialektika bilishda mavhumiylik va aniqlashtirish birligi o'rnatiladi. Bu birlik o'zaro aloqadagi fiziologik asosi – ikki signal tizimga ega. Aniqlashtirish yordamida ilmiy mavhumiylik mazmuni ochiladi, ular aniq predmetlarning alohida tomonlarini boshqalaridan mavhumlashtirib aks ettiradi. Mavhumlashtirishda predmetlar o'z butunligini yo'qotadi; bilish esa real voqiylikdagi predmet va hodisalar tomonlarini bir butunlikda ochib bergandagina haqqoniy bo'ladi. Bilimni chinakkam egallashga mavhum tushunchalar dalillar orqali aniqlashtirilgandagina erishiladi.

Ta'lim jarayonida aniqlashtirish ikki shakilda: hissiy ko'rgazmali vositalar (kompyuterdagi tasvirlar, predmetlar, rasmlar, chizmalar va boshqalar) va so'zli – mavhum shakilda (og'zaki tahlil, tushuntirish, mahsus topshiriqlarni hal etish) amalga oshiriladi.

Aqliy faoliyat usullari o'quv ishlari usullari bilan uzviy bog'liqdir. O'quv ishlari usullari muayyan amallar, ko'rsatmalar, tavsiyalar, qoida va hokozolar shaklida ifodalanadi. Ularning vazifasi – muayyan masalalarni hal etishda o'quvchilar tashabbusini bo'g'may, umumiy yo'nalish berishdir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning aqliy rivojini, ularning faol va mustaqilligi, ijodiy yondashuv ko'p jihatdan o'quvchilarning o'quv ishlari va aqliy faoliyat usullarini egallaganligiga bog'liq.

Ta'lim jarayonida bilish o'rganilayotgan hodisalarni idrok etish va tushunchalarni shakillantirish bilan tugamaydi. Bilimlarni chuqur va mustahkam egallash uchun idrok etish,

eslab qolish, ko'nikma va o'quvchilarni mashqlar orqali ishlab chiqish, nihoyat bilimlarni umumlashtirish va sistemalashtirish bo'yicha bundan keying ishlarini davom ettirish zarur.

O'quvchilarning bilish faoliyati deganda biz ular tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashni tushunamiz. Bilim – bu insoniyatning umumlashtirilgan tajribasidir. U faoliyatning turli sohalarini fanda mavjud dalil, qoida, hulosa, qonuniyatlar, g'oya, nazariyalar ko'rinishida aks ettiradi.

“O'quv”, “ko'nikma”, “malaka”, tushunchalarini tavsiflaganda “amal” “operassiya”, “usul” kabi tushunchalardan tez – tez foydalaniladi. Faoliyat ongli maqsadlarga bo'ysunuvchi jarayonlar bo'lgan muayyan amallar qo'shilishi vositasida amalga oshiriladi. Amallarni qo'llash usullariga operatsiyalar diyiladi. Biror bir faoliyat usulini egallashning jamlanmasi uquv deb ataladi. O'quv jarayonida egallaydigan uquv juda xilma – xil: kuzatish va to'g'ri hulosalar chiqarish, fikirlarni og'zaki va yozma bayon etish, qiyoslash umumlashtirish, ishning eng oqilona usullarini toppish, topshiriqlarni hal etish, texnik chizmalarni o'qish hamda tayyorlash va hokazolar.

Beixtiyor eslab qolishning mahsuldorligi o'quvchi yangi materyalni ko'rib chiqish jarayonida muayyan aqliy faoliyat va mustaqillikni namoyon etib predmetlar, rasmlari kartochkalarni jamlab, predmet modellarini yaratib, o'rganilayotgan materyalni qiyoslab, guruhlab, xulosalar chiqargandagina beixtiyor eslab qolishning mahsuldorligi yuqoridir. Masalan, o'quvchilar ko'pyoqli bilan tanishuvda o'qituvchi rahbarligida eng avvalo ko'pyoqlik (prizma, piramida va boshqalar) modelini yoyilmasiga asosan yaratadi. O'quvchilar hosil qilingan ko'pyoqlik modelidan foydalanib geometrik shakllarga ajratadi, ularni qiyoslaydi va tasniflaydi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Murodov Sh.K. va boshqalar “Chizma geometriya kursi” O'qituvchi.1988-y.
3. Murodov Sh.K., Tashimov N.E. “Grafik tasvirlash asoslari”. -T.: “Navro'z”. 2013-y.
4. Ro'ziyev E.I., Ashirboyev A.O. “Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi”. - T.; “Yangi asr avlodi”. 2010-y
5. Sh.K. Murodov va b. “Yaqqol tasvirlar nazariyasi (aksonometrik proyeksiyalar)” T. TDPU ruzograi. 2010y.
6. Rahmonov I.,Valiyev A. Chizmachilik. -T., “Voriz-nashriyot”, 2011.
7. Rahmonov I, A. Abdurahmonov. “Chizmachilikdan ma'lumotnoma”. Toshkent, “A.Navoiy nomidagi milliy kutubxona nashryoti”,2005.

13.00.00 – Педагогика фанлар

Raxmanova Dildora Abdulxamid qizi
NamDU, Ijtimoiy-gumanitar yoʻnalishlar
boʻyicha chet tillar kafedrasida oʻqituvchisi
Email: raxdildora18@gmail.com

OʻQIB TUSHUNISH KOʻNIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA METAKOGNITIV STRATEGIYADAN FOYDALANISHNING AHAMYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini oʻqitishda oʻqib tushunish koʻnikmasini boshlangʻich darajadagi oʻrganuvchilar uchun rivojlantirishning zamonaviy usullari xususida soʻz yuritilgan boʻlib, unda chet el tajribalari va muallifning mavzu boʻyicha fikr mulohazalari va xulosalari yoritilgan.

Kalit soʻzlar: metakognitiv yondashuv, oʻqish koʻnikmasi, strategiya, kognitiv omil, aqliy jarayonlar, mantiqiy yondashuv

Rakhmanova Dildora Abdulkhamid daughter
NamSU, Social and humanitarian directions
teacher of the department of foreign languages

THE IMPORTANCE OF USING METACOGNITIVE STRATEGIES IN DEVELOPING READING COMPREHENSION SKILLS

Abstract. This article analyzes the modern methods of developing reading comprehension skills for primary level learners in English language teaching, it covers foreign experiences and the author's opinions and conclusions on the topic.

Key words: metacognitive approach, reading skills, strategy, cognitive factor, mental processes, logical approach.

Рахманова Дилдора Абдулхамидовна
НамГУ, Социально-гуманитарное направление,
преподаватель кафедры иностранных языков

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТАКОГНИТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ПОНИМАТЕЛЬНОГО ЧТЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассказывается о современных методах развития навыков понимания прочитанного у учащихся начальных классов при обучении английскому языку, освещается зарубежный опыт, а также мнения и выводы автора по теме.

Ключевые слова: метакогнитивный подход, навыки чтения, стратегия, когнитивный фактор, психические процессы, логический подход.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N35>

Kirish. Chet tili ta'limida o'qishni tushunish o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan to'rtta ko'nikmalardan biri hisoblanadi. Til o'rganuvchilar uchun bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun ushbu ko'nikmani rivojlantirish juda muhim, chunki u bevosita o'rganishda, yangi ma'lumotlarni egallashda asosiy ko'nikma bo'lib xizmat qiladi. Tilni egallash bu faqat grammatik qoidalarni tushunish, yaxshi lug'at boyligiga ega bo'lish emas, balki o'qilgan ma'lumotni to'liq anglab yetish hamdir. Ta'kidlanganidek, "Yuqori darajadagi o'qish malakasi nafaqat lingvistik, balki yanada samarali bilish jarayonini kafolatlaydi" [6; 1-11-betlar]. Bundan tashqari, matnlarni to'laqonli tushuna oladigan usullardan foydalanib o'zlashtirgan o'rganuvchilar bilan, bunday tajribaga ega bo'lmaganlar o'rtasida ularning natijalarini solishtirganda ancha farqlar seziladi [5;23-29 betlar].

Shu nuqtai nazardan, xorijiy tilda berilgan ma'lumotni to'liq anglab yetish, o'quvchilardan o'ziga xos usullardan foydalanish va ma'lum bir qobiliyatni talab qiladi. O'qib tushunishni dinamik jarayon deb hisoblasak, u keng qamrovli bo'lishni talab qiladi ammo bazi bir o'rganuvchilar bunday strategiyalardan foydalanmagani uchun samaraga erishishlari qiyin bo'ladi [9; 34-44betlar]. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kerakli va zamonaviy usullardan foydalanish o'qish jarayonida o'quvchilarga foydali bo'lib, tushunishni osonlashtiradi va o'qish ko'nikmasini samarali tashkil qilishga yordam beradi [7;175-187betlar]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda metakognitiv strategiyadan foydalanish xususida gap ketar ekan, avvalo bu tushunchalarning o'zi haqida ma'lumotga ega bo'lish ham katta ahamiyatga ega.

"Strategiya" tushunchasiga turli adabiyotlarda turlicha ta'riflar keltirilgan. Misol uchun, [10;41-51betlar]Rubin(1975) uni o'quvchi tomonidan foydalaniladigan qurilmalar va texnikalar' deb ta'riflaydi. Garner(1987) ning fikriga ko'ra strategiya bu- kognitiv idrokni takomillashtirish uchun rejalashtirilgan ko'p marta amalga oshiriladigan tadbirlar' hisoblanadi. Oksford(1993)[7;175-187betlar] ning qarashlaricha esa u 'ikkinchi tilni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan faol, o'zini o'zi boshqaradigan ishtirokdir"[8]

Lekin maxsus o'qish strategiyalari deganda biz tushunishimiz mumkinki " u aqliy jarayonlardan iborat bo'lganligi sababli, kitobxonlar matnga samarali yondashadilar va o'qiganlarini anglaydilar [3;150-161].

Yuqorida keldirilgan fikrlardan anglash mumkinki o'qish strategiyasi bu o'quvchilarning ma'lum bir o'ziga xos o'qish usullaridan va yo'nalishlaridan foydalana olish mahorati bo'lib, uni o'rganish va o'qitish jarayonida qamrab olinishini ta'minlash katta samaraga ega ekan.

Hozirgi kunda, zamonaviy tilshunoslikda metakognitiv strategiyadan foydalanish keng qo'llanib kelinmoqda. Yevropa olimlaridan bir nechtalari 'metakognitlik'tushunchasiga o'zlarining yondashuvlarini berib o'tganlar. Misol uchun, Lam [8;56-66betlar]ning fikricha 'metakognitiv strategiyalar bu- o'rganish jarayonidagi o'ylash bo'lib, u shunchaki topshiriqlarni bajarish emas, balki turli topshiriqlar asosida anglashdir. Boshqacha qilib aytganda, o'qish insonning o'qishdan xabardor bo'lish qobiliyatidan iborat jarayon bo'lib, u o'qishdan oldin rejalashtirish va qanday o'qishini nazorat qilish va tartibga solish, o'qiganini baholash kabilarni ham nazarda tutadi. Shunday qilib, metakognitiv o'qish strategiyalari - bu ko'zdan kechirish,

bashorat qilish, aniqlikni baholash, kuzatish, tushunish, maqsadlarni belgilash, o'qishni baholash, ko'rib chiqish, umumlashtirish,

oldingi bilimlardan foydalanish, oldingi bilimlarni yangi ma'lumotlar bilan bog'lash yoki matn qiyinligini baholash, matnning asosiy g'oyalarini aniqlash, semantik xaritalar va klasterlarni ishlab chiqish va o'zgartirish

kerak bo'lganda o'qish tezligi o'zgartirish jarayonlardan iborat bo'ladi [11;78-80betlar] (Hartman, 2001) Shuning uchun metacognitive bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan o'rganuvchilar bu til ko'nikmasida muvaffaqiyatli hisoblanadilar. Chunki o'qish bu maqsadli va mazmunli faoliyatdir.

O'quvchi matnni nima uchun o'qiyotganini bilishi va undan xulosa chiqarishi kutiladi [1;41-51betlar]. Metakognitiv o'qish strategiyalari o'qish va tushunish sifatini rag'batlantiradi va shu bilan akademik ko'rsatkichlarni yaxshilaydi, o'quvchilarga ijobiy o'qish tajribasi bilan faol shug'ullanishlariga imkon beradi, buning natijasida ular ko'proq o'qishdan zavqlana oladi va bu o'qish mashg'ulotlarida ishtirok etish istagini oshiradi. Bu shuni ko'rsatadiki, kognitiv va motivatsion omillarning ikkalasi ham o'qish va o'qishni tushunishda muhim rol o'ynaydi.

Muhokama. Ushbu ilmiy ishni yozish jarayonida izlanuvchi manbalar tayyorlash uchun hozirgi kunda o'zi yashab turgan hududning o'rta maktab ingliz tili o'qituvchilari tomonidan o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish uchun keng qo'llanilayotgan usullar xususida so'rovnomani olib bordi. Natijalar shuni ko'rsatdiki o'qituvchilarning ko'p foizi "tarjima qilish", "qayta o'qish", "lug'atdan foydalanish" kabi keng tarqalgan va qaysidur ma'noda eskirgan usullardan foydalanishi aniqlandi. "O'qib tushunish uchun o'zida bor bilimdan foydalanish", "Yangi ma'lumotni tushunganligini tekshirish" kabi metakognitiv usullardan foydalanayotgan o'qituvchilar kamchilikni tashkil qildi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, sohaga yangi o'qitish usullarini olib kirish, o'rganuvchilarga kerakli o'qib tushunish strategiyalardan foydalanish ham o'qitish jarayonini osonlashtiradi va albatta bu o'quvchilarning natijalarida ham seziladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ingliz tilida o'qib tushunish ko'nikmasini endi rivojlantirayotgan o'quvchilarga to'g'ri yo'nalish berish ham katta ahamiyatga ega. Chunki, tajribadan ko'rish mumkinki, har bir talaba individual shaxs va o'ziga xos o'rganish yo'nalishiga ega hisoblanadi. Aynan o'qib tushunishga ham buni tadbiiq qila olish o'rgatuvchidan ma'lum bir malaka, bilim va mahoratni ham talb qiladi ekan.

Natija. Ilg'or metakognitiv ko'nikmalarga ega bo'lgan odamlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda, shunga mos ravishda quyidagi malakalar shakllantiriladi. [10;120-130betlar]:

- o'z qobiliyatlari va ko'nikmalaridan xabardor bo'lish,
- o'rganish usullarini tanlash;
- ta'lim strategiyalarini samarali qo'llash,
- o'quv jarayonida muvaffaqiyatga erishish,
- o'z ta'lim jarayonlarini baholay olish;
- oldingi bilimlaridan unumli foydalana olish,
- muammolarga mos yechim topa olish,
- muammolar bo'yicha harakat rejasini tayyorlay olish,
- nima/nima/qanday/qachon kabi savollar bilan har qanday mavzuni tekshira olish,
- ilg'or so'roq qilish ko'nikmalariga ega bo'lish.

Ushbu to'liq ta'riflarga asoslanib, metakognitsiya yuqori darajadagi fikrlash jarayonidir va ba'zi dqiqotchilar uni "ettinchi tuyg'u" va muvaffaqiyatli ruhiy xususiyatlardan biri sifatida ham ko'rib chiqadilar [13;73-81].

Umuman olganda, o'qish harakati kognitiv va metakognitiv strategiyalardan foydalanishni talab qiladigan murakkab jarayondir. O'rganuvchilar ushbu jarayonni nazorat qilishda strategiyalarni qo'llashlari maqsadga muvofiq hisoblanar ekan, ushbu strategiyalarni to'liq va to'g'ri qo'llashlari uchun ularning metakognitiv ongi va ko'nikmalari rivojlangan bo'lishi ham kerak [4;121-134betlar].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi tavsiyalarni berish mumkin. Shunday qilib, maktablarda yoki til kurslarida o'quvchilarga o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda strategiyalardan foydalanish to'g'risida bir qator tadbirlarni o'tkazish orqali xabardor qilishlari mumkin.

Shu tarzda, o'qish va tushunish darajalari va akademik yutuqlarning oshishiga erishish mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilarning matnlar ustida ishlash bosqichlarida turli xil metakognitiv strategiyalarni qo'llashi ularning darsga qiziqishini oshiradi. O'qib tushunish ko'nikmasi ham boshqa til ko'nikmalari kabi doimiy rivojlantirish va takomillashtirib borishni talab qiladi ekan, uni o'rganish va o'qitish jarayonini mukammal rejalashtirish kerak.

Qisqacha aytganda metakognitiv strategiyalardan foydalanish o'qib tushunish ko'nikmasini o'qitishda va o'rganishda zamonaviy usullardan hisoblanar ekan, albatta ta'lim jarayonida ulardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Metakognitiv o'qish strategiyalari rejalashtirilgan, maqsadli va kelajakka yo'naltirilgan aqliy faoliyat bo'lib, o'quvchilarga qanday qilib to'liq kognitiv rivojlanishga erishganliklarini kuzatishga yordam beradi.

Adabiyotlar/Literatura/References

1. Akın, E., & Çeçen, M. A. (2014). Ortaokul öğrencilerinin okuma stratejileri üstbilişsel farkındalık düzeylerinin değerlendirilmesi (Muş-Bulanık örneği). *Turkish Studies-International Periodical For The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic*
2. Azizoğlu, N. İ., & Okur, A. (2020). The Relationship Between Metacognitive Awareness Of Reading Strategies and Demographic Variables, Circadian Rhythm Characteristics Among University Students. *Ana Dili Eğitimi Dergisi*, 8(2), 258-269
3. Barnett, M. V. (1988). Reading through context: How real and perceived strategy use affects L2 comprehension. *The Modern Language Journal*, 72, 150 – 161
4. Carrell, P. L. (1989). Metacognitive Awareness and Second Language Reading. *The Modern Language Journal*, 72, 121-134. Retrieved from <https://www.jstor.org/stable/32656>
5. Krashen, S. (2007). Extensive reading in English as a foreign language by adolescents and young adults: A meta-analysis. *International Journal of Foreign Language Teaching*, 3(2), 23-29
6. Kung, F. – W. (2017). Teaching second language reading comprehension: the effects of classroom materials and reading strategy use. *Innovation in Language Learning and Teaching*, 1- 11

7. Oxford, R. L., Lavine, R. Z., & Crookall, D. (1989). Language learning strategies, the communicative approach, and their classroom implications. *Foreign Language Annals*, 22(1), 29 – 39.
8. Oxford, R. L. (1993). Research on second language learning strategies. *Annual Review of Applied Linguistics*, 13, 175 – 187.
9. Roomy, M., & Alhawsawi, S. (2019). Understanding reading strategies of EFL Saudi students. *English Language Teaching*, 12(6), 33 – 44
10. Rubin, J. (1975). What the “Good language learner” can teach us. *TESOL Quarterly*, 9(1), 41 – 51
11. Hartman, H. J. (2001). *Teaching Metacognitively. Metacognition in Learning and Instruction, Theory, Research and Practice*, Netherland, Kluwer Academic Publishers,
12. Raxmanova, D. (2023). The Role of Writing Skill in Foreign Language Fluency. *MIASTO PRZYSZŁOŚCI*, 31, 382-384.
13. Rahimi, M., & Katal, M. (2012). Metacognitive Strategies Awareness and Success in Learning English as a Foreign Language: An Overview. *Procedia- Social and Behavioral Sciences*, 31, 73-81. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2011.12.019>

13.00.00 – Педагогика фанлар

Yusupova Shoxista Alimjanovna
GulDU “Tasviriy san’at va muhandislik
grafikasi” kafedrasida o’qituvchisi,
Email: yusupovashoxista32@gmail.com

TASVIRIY SAN’AT TO’GARAK MASHG’ULOTLARIDA QO’YILADIGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK TALABLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san’at to’garak mashg’ulotlarining o’quvchilar uchun muhim ahamiyati, umumiy o’rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at to’garak mashg’ulotlarining faoliyati, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo’llanilishi va uning ta’lim sifatini oshirishidagi o’rni. Tasviriy san’at to’garak darslarining mazmuni va metodikasining zamonaviy talablari, dars mashg’ulotlarini tashkil etish qoidalari haqida qisqacha ma’lumot berib o’tilgan.

Kalit so’zlar: tasviriy san’at, to’garak, maqsad, dars, ijodkorlik, xotira, grafik, o’yin, o’qituvchi, o’quvchi, ta’lim, zamonaviy vosita, an’anaviy, pedagogik texnologiya, psixologik.

Yusupova Shakhista Alimzhanovna
teacher of the department "Fine arts
and engineering graphics", Gulistan State University

MODERN PEDAGOGICAL REQUIREMENTS APPLIED IN THE CLASSES OF FINE ARTS

Abstract. This article discusses the importance of fine art circles for students, the activities of fine art circles in secondary schools, the use of modern pedagogical technologies during the lesson and its significance, its role in improving the quality of education. Work researches modern requirements for the content and methodology of fine arts, gives information about the rules for organizing lessons.

Key words: fine arts, circle, goal, lesson, creativity, memory, graphics, game, teacher, student, education, modern instrument, traditional, pedagogical technology, psychological.

Юсупова Шахиста Алимжановна
преподаватель кафедры “Изобразительное искусство
и инженерная графика” ГулГУ

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ НА ЗАНЯТИЯХ КРУЖКОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫМ ИСКУССТВОМ

Аннотация. В данной статье рассматривается значение кружков изобразительного искусства для учащихся, деятельность кружков изобразительного искусства в общеобразовательных общеобразовательных школах, использование современных педагогических технологий в ходе урока и его значение, его роль в повышении качества образования. В работе исследуются такие вопросы как, современные требования к содержанию и методике занятий изобразительным искусством, дана информация о правилах организации уроков.

Ключевые слова: изобразительное искусство, круг, цель, урок, творчество, память, графика, игра, учитель, ученик, образование, современный инструмент, традиционный, педагогическая технология, психологический

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N36>

Kirish. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan, bugungi kun yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, kitobxonlikni targ'ib etish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalari bo'yicha ilgari surilgan 5ta muhim tashabbusni amalga oshirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Yoshlarimizning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda ta'lim tizimida ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv uslubiy manbalarni yaratish va o'quv tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanmoqda. Shu sababli, dars jarayonlarini hozirgi ta'lim tizimi yo'nalishiga oid uslublarda ishlab chiqib va uni amaliyotga tadbiiq etish katta vazifalardan biridir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biri bu tasviriy san'at to'garak mashg'uloti bo'lib, bunda o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasi, badiiy ta'limi, mehnat intizomini kuchaytirish muhim bo'g'ini hisoblanadi. Ularda tafakkur qilish madaniyati va ma'naviy fikrlash, maqsadga yo'naltirilganlik, o'zini-o'zi nazorat qilish, yuklatilgan vazifaga nisbatan javobgarlik hissini sezish kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tasviriy san'at kompozitsiyalar orqali o'quvchilarning ijodiy tasavvurlari, san'at haqidagi tushunchalari va badiiy didlarini rivojlantirish- pedagogik vazifa hisoblanadi. Hozirgi globallashtirilgan, tashqi ma'naviy tahdidlar kuchaygan, axborot texnologiyalarning rivojlanishi, mobil telefonlar imkoniyatlarining oshib borayotganligi yoshlar bilim olishi uchun qulay sharoitlar yaratish bilan bir qator zararli odatlarning ko'payishiga ham olib kelinmoqda. Ular har bir muammolar echimi internet saytlaridan qidirib, turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishmoqda. Bu hozirgi yoshlarni ma'naviy etuk shaxs sifatida tarbiyalashdagi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda [3; B.4]. Shu sababdan, yoshlarni har hil to'garak mashg'ulotlariga jalb etish va qiziqtirish o'qituvchilarning muhim vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlari o'quvchilar har tomonlama chuqur ma'naviy tarbiya olishlari muhim omilga aylangan. Zero, tasviriy san'at turlarining fazilatlarini ham o'ziga xos bo'lib, ularni boshqa hech qanday soha va narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Biroq bu soha qanchalik qiziqarli ekanligini yoshlarga singdirilsagina pedagog o'z maqsadiga erisha oladi. Bunda albatta, o'qituvchilar tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilsa, dars jarayonlari yanada qiziqarli va samarali tarzda o'tkaziladi. Mashg'ulot jarayonida zamonaviy texnologiyalarning imkoniyati juda keng. Biroq bugungi kunda tasviriy san'at mashg'ulotlarimiz ko'proq an'anaviy tarzga olib borilmoqda. Bu ko'rinishdagi dars mashg'ulotlari o'quvchilarning bu sohaga bo'lgan qiziqishlarini so'nishiga va bu to'garakni tark etishlariga olib kelishi mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fani bo'yicha darsdan tashqari ya'ni to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish muhim hisoblanib kelinmoqda. Bular nafaqat tasviriy

san'at (rasm), amaliy san'at(naqqoshlik), rangtasvir(dastgohli rangtasvir), grafika, me'morchilik, chizmachilik, haykaltaroshlik va boshqalar ham bo'lishi mumkin. To'garaklar uch guruhga taqsimlanadi, bular (1-4 sinflar) kichik guruhlar, (5-8 sinflar) o'rta guruhlar va (9-11 sinflar) katta guruhlar bo'linib tashkil etiladi. Tasviriy san'at soxasidagi sinfdan tashqari ishlar ya'ni to'garak mashg'ulotlari badiiy ta'lim va estetik tarbiyaning eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlari ishlari quyidagi vazifalarni amalga oshirish amalga oshirishni nazarda tutadi:

- o'quvchilarda tevarak-atrofdagi narsa va xodisalarga estetik munosabatni tarkib toptirish, ularni go'zallikni xis qila bilishga va tushunishga xamda shu xis-tushunchalarni xayotga tatbiq etishga o'rgatish;

-o'quvchilarga xaqqoniy rasm chizish asoslari xaqida ma'lumot va bilim berish, ularda narsaning o'ziga qarab, xotiradan va tasavvurdan rasm chizish soxasida ko'nikma xamda malakalar xosil qilish;

-ularni dekorativ-amliy san'at xususiyatlari bilan tanishtirish;

- tasviriy san'atning barcha o'quv mashg'ulotlarini bolalarda ijodiy qobiliyat, did va tasavvurni o'stirishga qaratish;

- o'quvchilarni tasviriy san'at va dekorativ-amaliy san'atning eng yaxshi namunalari bilan tanishtirib, ularda bu san'at turining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi tushunchalarning o'sishiga yordam berish, ularning asarlarni emotsional idrok etish qobiliyatini o'stirish, san'atga qiziqish va muxabbatini oshirish;

- o'quvchilarda turli-tuman ijtimoiy faoliyatlarga estetik talablarni xisobga olgan xolda ijodiy yondashish ko'nikmasini xosil qilish;

- turli o'quv fanlarini o'rganayotganda, shuningdek, texnik ijodiyotda rasmdan foydalana bilishga o'rgatish.

To'garak mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar tasviriy san'at turlari (xaykaltaroshlik, me'morlik, grafika, rangtasvir, dekorativ va amaliy san'at)dan dars jarayonida olgan bilimlarini kengaytirib, uning biror turi bilan amalda shug'ullanadilar [2; B.155.].

Ta'lim tizimida yangidan-yangi o'zgarishlar bo'lgani sababli barcha predmetlar qatori tasviriy san'at darslarining mazmuni va metodikasiga ham yangi va zamonaviy talablar qo'yilmoqda. Bu talablarning asosiylari quyidagilardan iboradir:

1.Darsda ta'limiy-didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni to'g'ri qo'ya bilish va ularni amalga oshirish.

2.Darsda ta'limning faol usul va uslublarini qo'llay bilish.

3.Dars jarayonida xalq pedagogikasi an'alarini, jahon pedagogikasi, ruhshunosligi borasiga yaratilgan yangiliklarni sintetik tarzda ishlatish.

"Zamonaviy talablar" tushunchasi san'at va fan sohasidagi yutuqlar jamiyatning rivojlanish darajasini hisobga olingan holda, dars mashg'ulotlariga qo'yilgan talablar bo'lib, tasviriy san'at to'garak darslari o'qitishning maqsad va vazifalariga mos tarzda keyingi o'quv-kasbiy hamda pedagogik faoliyatiga tayyorlashda xizmat qilishni bildiradi.

Muhokama. Mashg'ulot jarayonida mazkur vazifalarni zamonaviy ta'lim texnologiyalari negizida qo'llash o'quvchilar natijalarini yuqoriga olib chiqishda yanada samarali sanaladi. Qolaversa, zamonaviy sharoitda tasviriy san'at to'garaklarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini yanada rivojlantirishda ijodiy faoliyat jarayonini tashkil etadi. Metodik jihatdan to'g'ri va samarali tashkil etishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ham muhum talab

qilinadi. Hozirgi kunda respublika uzluksiz ta'lim tizimida o'ndan ortiq ta'lim texnologiyalaridan foydalanib kelinmoqda. Tasviriy san'at to'garaklarida o'quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun ta'lim texnologiyalari orasidan individual, muammoli, tabaqalashtirilgan, interfaol, loyiha va innovatsion ta'lim texnologiyalari tanlab olingan.

To'garak faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'quvchilarning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va bu qiziqishni doimiy ravishda oshirib borishga bog'liqdir. Mashg'ulot a'zosida tasviriy san'atga qiziqishi va hafsala bo'lmagan o'quvchilardan yaxshi natija kutib bo'lmaydi [4; B.23.]. O'qituvchining qimmat vaqti va mehnati sarflangani qoladi. Agar mashg'ulotlar o'yinli tarzda interfaol metodlarga tayanib, har mavzuda qiziquvchi a'zo o'ziga kerakli ma'lumotlarini olaversa keyingi mashg'ulotni intiq bo'lib kuta boshlaydi. O'qituvchining mehnatini va mas'uliyatni bo'yniga olgan holda his qilib yuzaga chiqaradi.

Tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishning bir qator yo'llari mavjuddir bular:

- san'atning mohiyatini o'quvchilar ongiga singdirish;
- mashhur san'at namoyandalarining hayoti va ijodi yuzasidan suhbatlar o'tkazish, filmlar namoyish etish va albomlar tayyorlatish;
- meyorini olgan holda, o'quvchilarning erishgan yutuqlarini yuzaga chiqarib qayd qilish, rag'batlantirish va ibratli ishlarni to'garakdagi barcha o'quvchilarga namoyish etish;
- mashhur va qiziqarli bo'lgan san'at asarlari, rassomlar haqida suhbat, savol-javob va munozara o'tkazish;
- muvaffaqiyatga erishgan o'quvchilarning ishlaridan ko'rgazmalar tashkil etish va ularning ishlarini shahar, tuman, viloyat va respublika ko'rgazmalariga tavsiya etish;
- har bir mashg'ulotda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga yangi bilim, tushuncha va malakalar berish;
- tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarida o'yin, savol-javoblar, musobaqa tarzda tashkil etish(viktorina, krosvord, chaynvord echish);
- o'quvchilarning tasviriy ijodi uchun ularni ruhiy holati bo'yicha qiziqtirgan mavzularini tavsiya etish;
- mashg'ulot jarayonida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirib va uni echish darsini o'tish;
- to'garak ishtirokchilarni yirik muzey va ko'rgazmalarga olib borib, sayohatlarni tashkil etish.

Shuni takidlab o'tish joizki, o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish maqsadida, aniq bir mavzularni tanlashda bir yoqlama qarash yaramaydi. Buning uchun faqat mavzularning va vazifalarning qiziqishlari bo'lishiga emas balkim, bu materialning o'quvchilar idroki, qobiliyatiga, ruhiy holatiga, mahoratiga, tasviriy imkoniyatiga mosligiga e'tibor qaratmoq kerak. Bunda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalangan holdagina albatta.

Natijalar. O'quvchilarning mashg'ulot jarayonida faol ishtiroki albatta, birinchi navbatda to'garak raxbarining shaxsiy namunasi ijodkor bo'lishi juda muhim vazifalardan biridir. O'qituvchi har bir dars mashg'uloti uchun mavzuga oid tarqatma materiallar va ko'rgazmali qurollarni tayyorlaydi, aniqrog'i dars o'tishga tayyorlanadi. Shu sababli har bir dars mashg'ulotlariga o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'rmog'i, zarur ko'rgazmalar, didaktik, tarqatma materiallar tayyorlashi va ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanishi muhimdir. O'qituvchi tomonidan faollik va ijodkorlik bilan ish jarayoni olib borilsa, o'quvchilarning darsga

bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi. Bunda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ayni muddaodir. Bu albatta, xar bir o'qituvchining izlanuvchanligi va ijodkorligiga bog'liqdir. Mashg'ulot davomida yangi metodlardan foydalanishi va dars jarayoni puxta tayyorlanishida yuzaga keladi. Yana shuni ta'kidlash joizkim, mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning har bir yutug'i uchun rag'batlantirishi va o'quvchilarning ruhiyatini ko'taruvchi barcha usullardan foydalanishi kerak. Bu esa quyidagi talablar orqali amalga oshiriladi:

1) Tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish hamda to'garak mashg'ulotlarini takomillashtirish pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil etish;

2) Tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarida texnologiya asosida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish;

3) Tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlaridavitagen texnologiyalar vositasida to'garaklarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning metodik ta'minotini takomillashtirish;

4) Tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarida kompetensiyaviy va refleksiv yondashuv asosida to'garaklarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyati rivojlanganlik darajasini tashxislovchi mezonlarni takomillashtirish.

Ta'lim tizimida o'qitish usullarining boy xazinasini to'planib kelingan. Biz ta'limning rivojlanishida pedagogik talablardan to'g'ri foydalana olsak, ko'zlangan natijaga ishonch va qisqa yo'l bilan erisha olamiz. Biroq, zamon o'zgarishi bilan ta'lim tizimining rivojlanishiga qarab yangidan-yangi texnologiyalar yaratilib kelinmoqda [5; B.72.]. Ushbu yaratilayotgan zamonaviy texnologiyalardan ko'proq foydalanish yaxshi, biroq eski texnologiyalarni yoddan chiqarmasligimiz lozim, ya'ni ular (eski texnologiyalar)ni yaxshi, sifatli, o'tkir metodlarini dars jarayonida qo'llab turishimiz foydadan xoli bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'garak mashg'ulotlarida olib borilgan kuzatishlar natijasida, ko'pchilik o'qituvchilar turli xil materil va tasvirlash texnikasini qo'llashga e'tibor qaratishmaydi. Mashg'ulotlar juda ham zerikarli va samarasiz olib boriladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlari oddiy ya'ni an'anaviy ko'rinishida emas balkim, ba'zi hollarda no'anaviy texnologiyalardan foydalanilsa o'qituvchi o'z oldigan qo'yan maqsadiga yanada tezroq erishadi. To'garak mashg'uloti jarayonlarida muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda dars jarayoni oqilona tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rivojlantirib turilishi, o'quv mavzuni kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning mazmunini ochishda bahs-munozara, aqliy hujum, o'z fikrlarini isbotlab berish qobiliyatini rivojlantirishga undash, kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi savol-javoblar va ularga misollar keltirish, o'quvchilarni berilgan amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarishga undash, har xil baholash usullari va ta'lim vositalaridan o'z o'rnida va vaziyatga qarab joyida foydalanish talab etiladi. Interfaol metodlarning keng miqiyosda ta'lim jarayoniga tatbiq etilayotganligining boisi shundaki, unda o'quv maqsadlariga garovli erishiladi. Texnologik yondashuvning eng avvalo yuzakichilikka emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi samarali yondashuv

ekanligini anglagan o'qituvchilar uni o'z faoliyatlariga yondashgan holda tatbiq etishlariga omil bo'la oladi. An'anaviy o'quv jarayonida asosiy omil-pedagog (va uning faoliyati) hisoblansa, pedagogik texnologiyada birinchi o'rinda o'qish jarayonidagi o'quvchilar faoliyati qo'yiladi.

Hozirgi zamon ta'limida bugungi kun yoshlarning talabiga muvofiq o'qituvchi o'z faoliyatida birqator vazifalarni amalga oshirishi lozim. Birinchidan, o'z faoliyatini tahlil qilish, ijodkorlik, izlanish, qiyoslash, yo'l qo'ygan uslubiy kamchiliklarni tanqidiy baholab, ularni bartaraf etishni o'rganish, o'z ish faoliyatini yanada takomillashtirish ustida tinimsiz mehnat qilish, pirovard natijada o'z faoliyatining mukammal, o'ziga xos shakl va uslubini belgilab maqsad qilib olishi kerak. Ikkinchidan, ilg'or, tajribali, yutuq va imkoniyatga ega bo'lgan hamkasblarining ish tajribalarini qunt bilan o'rganish, o'z sharoiti va imkoniyatidan kelib chiqib, ularni amaliyotga qo'llay olishi va takomillashtirib borish lozim. Uchinchidan, yuqori natijalarni ko'rsatgan xorijiy pedagogik tajribalarni ijodiy va amaliy o'rganishi lozim. To'rtinchidan, respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda chop etilayotgan pedagogik texnologiyalar va metodik yangiliklarni uzluksiz tarzda kuzatib, o'ziga kerak ma'lumotlarni qayd etib borish kerak.

Biz texnologiyalar kundan-kunga rivojlanayotgan davrda yashamoqdamiz. rivojlanishlar natijasida o'quvchi yo'shlar, o'qituvchilardan yanada kunli va qiziqarli ma'lumotlarni talab etmoqda. Bugungi kunda, darsning ta'limiy maqsadiga bir emas, bir necha metodlardan foydalanish evaziga erishilmoqda [6; B.22.]. Agar mashg'ulotlar jarayonida samaradorlik darajasi pasaysa yoki o'sish kuzatilmasa, darrov xushyorlik tortib, metodni o'zgartirishga tog'ri keladi. Har bir mashg'ulotlarni turli hil va eng yaxshi saralangan o'qitish metodlarini qo'llagan holda tashkil etilsa, o'quvchilarning mustaqil aqliy faoliyatini faollashtirishga, o'quvchining nazariy bilimlarni to'liq o'zlashtirishlariga yordam beradi. Buning samarasining natijasida esa o'qituvchining o'z kasbiga qiziqishi ortib borishiga va o'z ustida yanada mehnat qilib yuqori natijalarga erishish istagini olib keladi. Darslarda berilayotgan ilmiy-nazariy bilimlar yordamida o'quvchida mustaqil fikrlay olishiga, dunyoqarashi, tasviriy san'at borasidagi bilimlarining o'trib borishiga sharoit yaratiladi. Aksincha, bir xil metodning qo'llanishi yoki uning noto'g'ri qo'llanilishida esa o'quvchidagi fanga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi, zerikadi va uning aqliy faoliyatini susaytiradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'qituvchi interfaol usullarni ko'p bilsa, o'z pedagogik faoliyatida faqat yagona bir metodning o'zi bilan chegaralanib qolmay, amaliyotda ularni bir-biriga qiyoslab, darsning ta'limiy maqsadlariga muvofiqligini tanlab dars o'tish imkoniyatlari shakllanadi.

Tasviriy san'at dars mashg'ulotlari, o'quvchirining ma'naviy olamini boyitiladi, badiiy didini shakllantiradi, tabiatga muhabbatni oshiradi, ranglar olamini yanada kengroq o'rganadi, dunyoqarashini kengaytirdi, mustaqil fikrlashga undaydi, ruhiyatini tarbiyalaydi, barcha san'at turlari o'z o'quvchisiga va tinglovchisiga yoki tomoshabiniga o'tkaziladigan badiiy, ruhiy ta'siri orqali bilim beradi va eng muhimi uni tarbiyalaydi. Zero, har bir o'qituvchining oliy maqsadi o'quvchilarni ijodkorlik ruhida tarbiyalash, Vatanga muhabbat, milliy g'urur, yurt tinchligi, yuksak axloqiy fazilatlar, mehnatsevarlik tuyg'ulari muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar/Literatura/References

1. Sh.Mirziyoyev “Bilimli avlod-buyuk kelajakning, tadbirkor halqi-farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”. T.: 2018.
2. Abdurasulov S.F.Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. T.: 2002.
3. Sultonov X.E.,Sobirov T, Xudoynazarova U.Sh., Anqaboyev R.T. “Yosh musavvir” metodik qo‘llanma.T.: 2017.
4. T.Qoziyev, A.Enamov, T.Qanoatov, A.Nurqobilov. “San’at” jurnali nashriyoti. T.: 2003.
5. R.Hasanov. Tasviriy san’at asoslari. T.: 2008 y.
6. S.Abdurasulov. Tasviriy san’at o‘qitish metodlari. T.: 2012 y.

13.00.00 –Педагогика фанлар

Пиримбетов Бахыт Аллабаевич
Нукус давлат педагогика институти
мақсадли таянч докторанти

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ТЕАТР ПЕДАГОГИКАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИАТЛАРИ

Аннотация. Ушбу мақолада бўлажак ўқитувчиларнинг театр педагогикасидан фойдаланиш имкониятлари, педагогик артистизм элементларини эгаллашнинг самарали жиҳатлари баён қилинган. Ўқитувчиларнинг педагогик артистизм орқали ўқувчилар диққатини жалб эта олиш малакалари, ўқувчиларга ўқув материалларини етказишда инновацион методикаларнинг аҳамияти таҳлил қилинган. Шу билан бир қаторда, ўқитувчининг ўқувчилардаги пассивликни фаоллик, ижодкорликка айлантира олиш қобилиятлари ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: замонавий таълим, ўқитувчи, ўқувчи, дарс, ўқув материаллари, театр педагогикаси, педагогик артистизм, идрок, тафаккур, таҳлил қилиш, мантиқий семантик фиксатор, ҳазил-мутойиба.

Pirimbetov Bakhyt Allabaevich
Nukus State Pedagogical Institute
Doctorate Student

POSSIBILITIES OF USING THEATER PEDAGOGY FOR FUTURE TEACHERS

Abstract. The article describes the possibilities of future teachers in the use of theater pedagogy, effective aspects of mastering the elements of pedagogical skills. The ability of teachers to attract the attention of students through pedagogical artistry, the importance of innovative methods in conveying educational material to students are analyzed. In addition, the teacher's ability to transform students' passivity into activity and creativity was discussed.

Keywords: modern education, teacher, student, lesson, educational materials, theater pedagogy, pedagogical skills, perception, thinking, analysis, logical and semantic fixer, humor.

Пиримбетов Бахыт Аллабаевич
Целевой докторант
Нукусского государственного
педагогического института

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕАТРАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. В статье описаны возможности будущих педагогов в использовании театральной педагогики, эффективные аспекты овладения элементами педагогического мастерства. Анализируется

способность педагогов привлекать внимание учащихся за счет педагогического артистизма, значение новаторских методов в донесении учебного материала до учащихся. Кроме того, обсуждалось умение учителя трансформировать пассивность учащихся в активность и творчество.

Ключевые слова: современное образование, учитель, ученик, урок, учебные материалы, театральная педагогика, педагогическое мастерство, восприятие, мышление, анализ, логико-смысловой фиксатор, юмор.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N37>

Кириш. Бугунги ва эртанги кунда ўқитувчиларнинг театр педагогикасидан фойдаланиш имкониятлари, педагогик артистизм элементларини эгаллашнинг самарали жиҳатлари баён этиш ва ўқувчиларни ҳар томонлама интеллектуал ривожлантиришга ёрдам беради.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Бўлажак ўқитувчининг театр педагогикасидан фойдаланиш имкониятлари ҳақида илмий тадқиқот ишларини амалга оширган олимлар О.С.Булатова, Ж.В.Ваганова, К.Станиславскийларнинг ишларини кўрсатиб ўтиш мумкин.

Тадқиқот методологияси. Мазкур мақолани тайёрлашда театр педагогикасининг жараёни, мантиқий ёндошув, ижтимоий кузатув, ёзма анкета савол-жавоб, оғзаки суҳбат усулларидан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Замонавий таълим жараёнида ўқув материалларини тақдим этишда ўқитувчидан жуда катта актёрлик маҳорати талаб этилади. Ўқув материалларини эшитишдан уни тушуниш, идрок этиш, ўзлаштиришга ўтиш жараёнида ўқувчилардаги ўрганиш, таҳлил қилиш, тафаккур қилиш, қайта ишлаш, амалиётда қўллаш кўникмаси ривожланади. Бу жараёнда ўқитувчида ҳар бир ўқувчи билан индивидуал ишлаш компетенцияси шаклланган бўлиши керак.

Шу билан бир қаторда, бугунги кунда умумий ўрта таълимда фойдаланиб келинаётган таълим стандартлари, ўқув дастурлари фақатгина назарий билим беришга йўналтирилган бўлиб, ўқувчиларни мантиқий фикрлаш, амалий кўникмаларни шакллантириш ҳамда уларни ҳаётга тайёрлашга ўргатмайди.

Бугунги кунда 504 минг педагогдан 12 фоизи ўрта махсус маълумотли, 38 фоизида эса умуман малака тоифаси мавжуд эмас.

“Бу педагогларнинг дарс ўтиш маҳорати етарли эмас. Улар ўқувчиларга фақатгина ўзи чала билган нарсаларни ўргата олади, холос. Сабаби ўқитувчиларнинг ўзининг устида мустақил ишлаш ва рағбатлантиришнинг самарали тизими яратилмаган. Ўқитувчи сифатли дарс ўтишга эмас, кўпроқ соат олишга интилади” [1].

Олимларнинг таъкидлашларича, ўқувчиларнинг ўқитувчини тинглашга тайёрлигининг ўн даражаси мавжуд:

1. Ҳар бир ўқувчи дарсда ўз ихтиёри билан мустақил келиши, дарсларни мароқ билан тинглаши.

2. Дарс жараёнида ўқувчилар ўзлари учун шаклланган сунъий тўсиқларни бартараф эта олишлари.

3. Ўқувчилар ҳар бир ўқитувчини ўзларига дўст деб ҳис қилишлари, уларга нисбатан дўстона муносабатда бўлишлари.

4. Танаффус муддати тугаши билан тезда синф хонасига кириб навбатдаги дарсга тайёргарлик кўришлари.

5. Ўзларини қизиқтирган саволларини эркин тарзда баён эта олишлари.

6. Дарсда ўқитувчини тинглаш жараёнида ўзларини жамиятнинг бир аъзоси, келажак вориси сифатида ҳис этишлари.

7. Ўқитувчиларнинг чақириқларига мустақил жавоб беришлари.

8. Дарс якунида уй вазифаларини тушуниб олишлари, агар тушунмасалар, ўқитувчига савол бериб, уларни тушунишга ҳаракат қилишлари.

9. Дарс жараёнида ўқитувчига халақит бермасликлари, савол туғилиб қолса, уларни дафтарларига ёзиб олиб дарснинг савол-жавоб вақтида саволларни тақдим этишлари.

10. Энг асосийси, дарс жараёнида ўқитувчиларнинг ўқувчиларга нисбатан жисмоний куч ишлатишларига йўл қўймаслик лозим [3].

Бу ўринда ўқитувчидан юксак даражадаги педагогик артистизм элементларини эгаллаганлик талаб этилади. Ўқитувчилар ўқувчиларга қандай маълумотларни етказганлиги эмас, балки ўқувчилар нимани қабул қилганликлари, дарснинг мазмундорлиги муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, дарс жараёнида ўқитувчининг қандай маълумотлар ва ахборотларни тақдим этганлиги, у нимани назарда тутганлиги эмас, балки ўқувчиларнинг ушбу маълумотларни онгли, мустақил тарзда қабул қилиш кўникмаларининг ривожланганлиги билан боғлиқ. Шундагина, ўқитувчи ўқувчилардаги пассивликни фаоллик, ижодкорликка айлантира олади, яъни ўқувчиларни ижодий фикрлаш кўникмалари ривожлантирилади.

Юқори ахборот мазмунига эришган ҳолда, ўқитувчи визуал ва мантиқий семантик фиксаторлардан фойдаланади, матн темпи ва ахборот изчиллиги ўртасидаги тўғри нисбатни топади, темпни ритм (темпо-ритм) билан бирлаштиради, ўқувчиларга тақдим этилаётган ахборотлар изчиллиги уларнинг жисмоний хусусиятлари ва кайфиятини ҳисобга олган ҳолда ўзгаради, ривожланади.

Фанда “темпо-ритм” атамасини биринчи бўлиб К.С.Станиславский қўллаган. Унинг фикрича, томошабин спектакль пайтида тўсатдан театрда эканлигини эслайди ва театрда алоқаси бўлмаган нарсалар ҳақида ўйлай бошлайди. Бу ерда асар муаллифи ёки режиссёрнинг айби туфайли темп ритмининг бузилиши кузатилади. Мактабда эса дарс вақтида ўқувчиларнинг умуман бошқа нарсалар ҳақида ўйлаши ўқитувчиларда педагогик артистизм ёки актёрлик маҳоратининг етишмаслигида кўринади [4].

Бизга маълумки, мактабдаги ҳар бир дарс ўқувчи тафаккурини ривожлантиришга қаратилган янги воқелик сифатида мавзуга кириш билан бошланади. Бир мавзудан навбатдаги мавзуга ўтган сари воқеликлар ўзгариб ривожланиш, янгиланиб боради. Албатта бу бежизга эмас, чунки умумий ўрта таълим мактаблари учун тузилган дарсликлардаги мавзулар оддийдан мураккабга бориш принципи асосида шакллантирилган. Мавзулараро изчиллик, узвийлик, улар орасидаги муносабатлар, босқичма-босқич ривожланиб боради. Бу эса ўқувчиларнинг билимларни осон ўзлаштиришларига кўмаклашади. Шу маънода, ўқитувчиларнинг педагогик фаолияти, уларнинг актёрлик маҳоратлари театр режиссёрининг актёрлар билан индивидуал ишлашига ҳамоҳангдир. Ўқитувчи ҳар сафар янги дарсга тайёрланиш жараёнида ўқувчиларнинг мўъжиза кутишларини ҳис қилиши керак. Бунинг учун ундан дарсни

аниқ тақсимлай олиши, дарснинг қизиқарлилигини таъминлаш мақсадида педагогик артистизм элементларидан ўз вақтида ва тўғри фойдалана олиши талаб этилади. Жумладан:

ўқитувчининг синф хонасига киришдаги ҳолати, ўзига нисбатан ишончининг мавжудлиги;

синфда муҳитни ўзгартира олиши, синфдаги барча ўқувчиларнинг диққатини ўзига қарата олиши;

синфда ишчан муҳитни ярата олиши;

янги мавзуни бошлашдан олдин ўқувчиларга кутилмаган савол билан мурожаат қилиши, доскага расм чизиб унинг нима эканлиги тўғрисида баҳслашиши, бирорта мусиқа эшиттириб, унинг муаллифи ёки ижроچиси кимлигини сўраши ва шу орқали янги мавзу тақдимотиغا ўтиши;

ҳар бир янги мавзу ўқувчиларнинг ақлий, ахлоқий ва маънавий ривожланишига қаратилганлигига эришиши;

ўқитувчилар дарс жараёнида ўқувчиларнинг эркин, мустақил, танқидий-таҳлилий фикрлашга ундаши;

ўқувчиларни дарсга қизиқтириш учун янги мавзуни илғор технологиялар асосида хорижий тажрибаларни жорий қилган ҳолда тақдим этиши;

ўқитувчи дарс жараёнининг юқори чўққисига чиқа олиши (кульминацион), ўқувчилар билан дўстона мулоқот ўрната олиши;

ўқитувчи ўқувчиларга қанақа саволларни қандай кетма-кетликда ва қандай оҳангда узатишни билиши, мазкур саволлар ҳақида уларга тасаввур уйғота олиши ва ечим топишга кўмаклашиши;

ўқитувчи дарснинг қайси қисмида ўқувчилар билан дидактик ўйинлардан фойдалана олиши, ўқувчиларда ҳаётий барча жараёнларни моделлаштириш кўникмаларини шакллантира олиши;

ўқитувчи дарсни яқунлаш жараёнида айрим саволларни очиқ қолдириши ва дарс жараёни узлуксиз эканлигини ўқувчиларга сингдириши керак.

Баъзи ўқитувчилар дарс жараёнини ўзлари яқунлаб саволларни очиқ қолдирмайдилар, барча саволларга ўқувчилар билан биргаликда жавоб излайдилар. Баъзилари эса, айрим саволларни очиқ қолдириб, уй вазифаси сифатида қолдирадилар, ота-оналарини фарзандлари билан бирга ишлашга ундайдилар.

Бўлажак ўқитувчилар учун дарс жараёнига режиссёрлик қилиш билан бир вақтнинг ўзида ўша дарсда актёрлик қилиш маҳоратини эгаллашлари керак. Улар ҳар бир дарсни бошлашдан олдин дарс қандай яқунланиши, ўқувчилар билимларни қандай ўзлаштиришлари мумкинлигини яхши билиши керак. Шу билан бир қаторда, педагогик артистизмни яхши эгаллаган ўқитувчи ўқувчилар билан муаммоли вазиятлар занжирини ҳал қилиш орқали дарснинг асосий режаси, ғояси, мантиқи, асосий воқелик ва энг муҳим вазифаларни ажратиб кўрсатиши керак [2].

Бўлажак ўқитувчи дарс жараёнида доимо ўқув дастури мазмуни ҳамда уни амалга оширишнинг замонавий усуллари яхши ўзлаштириши зарур. Шуни унутмаслик керакки, ўқувчи катталар каби, ҳиссиётга берилувчан, қувноқ, тенгдошининг дардини эшитадиган суҳбатдошга муҳтож бўлиши, акс ҳолда ундай ўқувчи билан мулоқот ҳеч қачон тўлиқ маънода диалогик кўринишда бўлмайди. Агар бўлажак ўқитувчи бундай

билимларни эгалламаган бўлса, демак у ўқувчилар орасида дўстона мулоқотни шакллантира олмайди.

Театр педагогикаси бўлажак ўқитувчига буларнинг барчасини амалда қандай қўллашни яхшироқ тушунишга ёрдам беради. Шунингдек, бўлажак ўқитувчининг театр педагогикасини қанчалик эгаллаганлиги ҳамда ўз-ўзига бўлган ишончи жуда муҳим бўлиб, дарс жараёнида бу бўлажак ўқитувчи нутқининг равонлиги, очиқлиги, овоз тембрининг мўътадиллигида намоён бўлади. Агар бўлажак ўқитувчи ўзига ишонмаса нутқида кучли ифодали оҳангга эга бўлмайди.

Маълумки, ўқитувчи учун фақатгина билимдонликнинг ўзи етарли эмас, балки улардан педагогик артистизмни мукамал эгаллаш талаб этилади. Педагогик амалиёт даврида кузатишларимиз жараёнида бўлажак ўқитувчиларнинг ўқувчилар билан дўстона мулоқотга кириша олмаганликлари, уларни ўзларидан узоқлаштиришга ҳаракат қилганликлари, хушмуомалалик билан диалогга кириша олмаганликлари намоён бўлди. Биз бундай респондентлар билан индивидуал ишлаб уларга педагогик артистизм элементларини сингдиришга ҳаракат қилдик ва қисқа муддатда юқоридаги каби бўлажак ўқитувчилар фаолиятида ҳам ижобий ўзгаришлар кузатилди.

Бўлажак ўқитувчи педагогик артистизм элементларини эгаллаш орқали ўқувчиларни назорат қилади, уларнинг диққати ва эътиборини дарсга жалб этишга эришади. Шундай экан, ҳар бир бўлажак ўқитувчи олий педагогик таълим жараёнида педагогик артистизмни яхши эгаллаши зарур.

Педагогик артистизмни эгаллаган бўлажак ўқитувчи дарс жараёнида ташқи кўриниши, кийиниши, овоз тембри, имо-ишорадан фойдалана олиши, юз ифодаси катта аҳамиятга эга. Буларнинг барчаси унинг кўз қарашларида намоён бўлади. Дарс жараёнида ўқитувчининг кўзларида ҳиссиёт сезилмаса, улар ўқувчиларга оддийгина қараб турса, у маъноли кўз ишораларини амалга ошира олмаса, демак, бундай вазиятда жиддий муаммо келиб чиқади, яъни ўқувчилар дарсга диққат қаратмайдилар, янги мавзуга қизиқмайдилар. Бундай дарс зерикарли бўлиб, ўқувчилар турли ҳаракатларни амалга ошира бошлайдилар. Шу тариқа, дарс жараёни самарасиз яқунланади.

Хулоса. Юқоридаги ҳолатларни олдини олиш мақсадида ўқитувчилар ўқувчилар билан ишлаш жараёнида ҳазил-мутойиба имкониятларидан унумли фойдаланишлари зарур. Ҳазил-мутойиба орқали ўқувчилар хатти-ҳаракатларидаги кўплаб нуқсонлар ва камчиликларни самарали тарзда “даволаш” мумкин. Шунингдек, бундай ҳолатларда ўқитувчи-ўқувчи орасидаги муносабатларнинг кескинлашувига йўл қўйилмайди.

Адабиётлар/ Литература/ References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январь куни мактаб таълимини ривожлантириш масалалари юзасидан видеоселектордаги нутқидан // Lex.uz
2. Булатова О.С. Педагогический артистизм: Учеб.пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. — М.: Издательский центр «Академия» 2001.-240 с.

3. Ваганова Ж.В. Артистизм педагога как компонент его творческой индивидуальности: Дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. — Челябинск, 2000. — С. 81.
4. Станиславский К. Педагогический артистизм // Москва, - 2006 г. — С. 39.

13.00.00 – Педагогика фанлари

Байбаева Мухайё Худайбергеновна
Тошкент кимё халқаро университети
(ТКХУ), «Педагогика» кафедраси профессори, п.ф.д.

Имомов Инъомиддин Абдулхамидович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Умумий ва аниқ фанлар кафедраси катта ўқитувчиси

**БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИДА СОҒЛОМ ВА ИЖОДИЙ МУҲИТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА
БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИ (HARD SKILLS) ВА (SOFT SKILLS) РАҲБАР
ПРОФЕССИОНАЛИЗМИНИ ИФОДАЛАШ БИРЛИГИ СИФАТИДА**

Аннотация. Ушбу мақолада раҳбарларнинг бошқарув фаолиятида соғлом ва ижодий муҳитни ривожлантиришда бошқарув компетенциялари (hard skills) ва (soft skills) раҳбар профессионализмини ифодалаш бўйича маълумотлар ёритилган.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'zining obro'sidan oqilona va omilkorlik bilan foydalanib, o'quvchilarda uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o'qishga ijobiy munosabat, o'z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o'zini tuta bilish, qiyinchiliklarni engish kabi fazilatlarini shakllantirishi lozim. Buning uchun har tomonlama ta'sir ko'rsatish usulini qo'llash kerak.

Maqsadga muvofiq o'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aql-idrogi, sezgirligi, kuzatuvchanligi, uquvliligi, esda saqlab qolish, esga tushurish imkoniyatlarini rivojlantirishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi; bolalarda o'qish, yozish, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Bundan tashqari mazkur ta'lim jarayonida ularning bilimlar ko'lami kengayadi, bilishga qiziqishlari ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. O'quv fanlariga ijobiy munosabat, qat'iy shug'ullanish niyati, jamoatchilik oldidagi mas'uliyatni his qilish, bilim olishning ijtimoiy, ahamiyatini anglash tuyg'ulari tarkib topadi.

O'qituvchilarning muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda materiallarni eslab qolishi uchun muayyan intilishni tarkib topishi, ularga eslab qolishning fikr yuritish yo'llarini (taqqoslash, tahlil qilishni) o'rganishdan iboratdir.

Bu vazifani eng avvalo maktab psixologlari qatorida boshlang'ich sinf o'qituvchilari amalga oshirishlari shart. Tafakkur atrof-muhitdagi voq'elikni nutq yordami bilan bevosita umumlashgan hoda aks ettiruvchi jarayon.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta'lim jarayonida o'zini -o'zi nazorat qilish, o'rganilgan materialni takrorlash orqali tekshirish, esga tushurish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga eslab qolish va eslash usullari o'rgatilmasa, ular materiallarni bevosita takrorlashda uzoq vaqt to'xtalib qoladilar. Lekin o'quvchilar materiallarni eslashni xush ko'rmaydilar va uni osongina tiklash yo'lini

tushunmaydilar. Materialni eslab qolish, esda saqlash, esga tushurish va eslash usullarini o'rgatish mantiqiy xotira o'sishining garovidir.

Ta'lim jarayonida bolalarning yorqin, aniq, tiniq, yaqqol tasavvurlari fikr yordamida muayyan voqelikka aylanadi. O'rganilayotgan fan materiallari eshitilgan va o'qilgan badiiy obrazlar tizimi yaratiladi. O'qish davomida turmush tajribasida to'plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangi obrazlar ijodiy izlanishning eng muhim omili-ijodiy tasavvurni takomillashtiradi. Ijodiy tasavvur eng muhim xususiyatlaridan biri yaratilgan tasvirlarning yaqqolliigi, mantiqiy qonunlarga uzviy bog'liqligi, g'ayri tabiiy, ajoyib-g'aroyib istaklardan uzoqligidir. SHuning uchun o'quvchi tasavvurida turmushga, voqelikka zid kelmaydigan tasvirlar, timsollar holati toboro kengayadi. Bu esa o'quvchilar hodisalarni tanqidiy baholash ko'nikmasi paydo bo'lganini bildiradi. Natijada u taassurot qurshovidan qutuladi. Yaratilgan obrazlarni tabiat va jamiyatning ob'ektiv qonunlariga suyangan holda baholash ko'nikmasi yanada takomillashadi[2, B34].

Boshlang'ich ta'limning o'ziga xos xususiyati ham bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi ijtimoiy tajribasi psixofiziologik rivojlanishi bir xil emasligi bilan farqlanishidadir. SHunga ko'ra boshlang'ich ta'limda har bir o'quvchining ijodiy faoliyatini va uning o'ziga xos individualligini namoyon etishga sharoit yaratishdan iboratdir.

Tahlil natijalari asosida boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishning quyidagi mezonlari aniqlashtirildi: motivatsion-emotsional, irodaviy, kognitiv, faoliyatli-ijodiy. Motivatsion-emotsional mezon ko'rsatkichlari: faoliyatda ishtirok etish istagi, ongililik, ko'proq bilishga intilish, ijobiy emotsional qayg'urish, ishtiyoq, faoliyatdan qoniqish hissi. Irodaviy mezon ko'rsatkichlari: qat'iylik, bilishga yo'nalganlik; jur'atilik. Bilishga doir mezon ko'rsatkichlari: mo'tadillik, moslashuvchanlik, ishchanlik, fikrlashning individual o'ziga xosligi. Faoliyatli-ijodiy mezon ko'rsatkichlari: jadallik, ijodiy bilish faoliyatining natijaviyligi.

Xulosa. Mazkur mezonlar asosida boshlang'ich ta'limda ijodiy foliyatni tashkil etish mezonlariga mos quyidagi darajalar aniqlandi: reproduktiv, izlanishli-evristik, ijodiy-tashabbuskorlik. Reproductiv daraja bilishga qiziqishning pastligi, o'quv jarayoniga ichki qiziqishning mavjud emasligi, ijodiy vazifalarni hal etishda irodaviy xususiyatlarning etarli ifoda etilmasligi, o'qituvchi rahbarligida harakatlanish layoqati bilan tavsiflanadi. Izlanishli-evristik darajada bilishga qiziqish o'quv motivatsiyasi tuzilmasida o'rtacha o'rinni egallaydi. Barqaror bilishga qiziqish, savollar tuza olish, o'qituvchiga fikr-mulohaza bilan murojaat qilish ko'nikmalariga egalikni o'zida aks ettiradi. Ijodiy-tashabbuskor darajada bilishga qiziqish, o'quv-bilish topshiriqlarini hal etish istagi yuqori tarzda namoyon bo'ladi. O'z-o'zidan qoniqish va quvonch hissini uyg'otuvchi natijalarga erishishda qat'iylik va jur'atilik bilan ajralib turadi. Faollik, tashabbuskorlik va mustaqillik muntazam namoyon bo'ladi. Bilimlarni o'zlashtirish ijodiy tavsifga ega.

Xulosa qilib aytganda, ta'limda birlamchi vazifa keyingi ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan boshlang'ich umumiy ta'lim malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон Фармони. – Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06/19/5712/3034-сон, 29.04.2019 й.
2. Болтаева Ш.Т., Бошланғич таълимда ўқувчилар ижодий фаолиятини шакллантириш, Монография, Тошкент 2013 й.28,34-б.
3. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. –М., 1969. -248 с.
4. Лейтес Н.С. Склонности одаренность в детские годы //Знание, 1984, №4.
5. Выготский Л.С. Педагогическая психология// под ред. В.В.Давыдов.-М.: Педагогика, 1999.-321 с.
6. Левитов Н.Д. Субъект. Объект. Познание.- М. Знание, 1999.- 47 с.
7. Нишаналиев У. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. –Т.: Фан, 1990. -85с.
8. Ҳасанбоева О., Ҳасанбоев Ж. ва б.қ. Педагогика –Т.: Фан, 2006.- 282 б.

13.00.00 – Педагогика фанлари

Kayumov Erkin Kazakbayevich
GulDu, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"
kafedراسи o'qituvchisi
Email: kayumoverkin@gmail.com
Tel: +998 99 367 22 67

TO'GARAK MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNI KAMOLIDDIN BEHZODNING IJODI BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada ilm-fan, adabiyot, san'at sohalarida iste'dodli yoshlarni izlab topish ularning ijodiy salohiyatini yurtimiz mustaqilligi va xalqimiz ma'naviyatini boyitishga yo'naltirish, g'amho'rlik qilish kabilar kun tartibiga qo'yilganligiga urg'u berilgan. To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni Kamoliddin Behzodning sharqona tasviriy san'at uslubi bilan tanishtirish yullari hamda to'garak rahbarligi kabi muammolarni xalq etishga urinish ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim va tarbiya, estetik tarbiya, madaniy meros, komil inson, badiiy meros, yuksak fazilat, tasviriy san'at, miniatyura san'ati, ijodiy to'garak.

Каюмов Эркин Казакбаевич
преподаватель кафедры "Изобразительное искусство
и инженерная графика", ГулГУ

ЗНАЧЕНИЕ ПРИВЕДЕНИЯ СТУДЕНТОВ К ТВОРЧЕСТВУ КАМОЛИДДИНА БЕХЗАДА В КРУГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В статье подчеркивается важность поиска талантливейшей молодежи в области науки, литературы и искусства, направления ее творческого потенциала на независимость нашей страны и обогащение духовности нашего народа, забота о нем. На клубных занятиях студентов познакомили со стилем восточного изобразительного искусства Камолиддина Бехзода и предприняли попытку решить такие проблемы, как руководство клубом.

Ключевые слова: воспитание и воспитание, эстетическое воспитание, культурное наследие, совершенный человек, художественное наследие, высокое качество, изобразительное искусство, искусство миниатюры, творческий круг.

Kayumov Erkin Kazakbayevich
teacher of the department "Fine arts
and engineering graphics", Gulistan State University

THE SIGNIFICANCE OF INTRODUCING STUDENTS TO THE CREATION OF KAMOLIDDIN BEHZAD IN THE CIRCLE ACTIVITIES

Abstract. in the article, it is emphasized that finding talented young people in the fields of science, literature, art, directing their creative potential to enrich the independence of our country and the spirituality of our people, and taking care of them is on the agenda. In the club sessions, the methods of introducing students to

Kamoliddin Behzod's style of oriental visual art and an attempt to solve problems such as the leadership of the club were expressed.

Key words: education and upbringing, aesthetic education, cultural heritage, perfect human being, artistic heritage, high virtue, fine art, miniature art, creative circle.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N41>

Kirish. Har bir jamiyatning ma'naviy darajasi, bilimli, iste'dodli, qobiliyatli va o'quvli insonlarni qadrlash ularga alohida g'amxo'rlik qilish, kamol topishi uchun etarli shart-sharoitlarni ta'minlab berishi bilan belgilanadi. Ma'naviy jihatdan rivojlangan jamiyatdan iste'dod egalari millatning g'ururi kelajagi deb qaraladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, har sohada bo'lgani kabi iste'dod egalari bo'lgan munosabat ham o'zgaradi. Halol, nomusli, pok qalbli, o'ziga talabchan bo'lmasdan turib, g'oyaviy inson bo'lishi mumkin emas. Ya'ni jamiyat ideallari, prinsiplari va qadriyatlarini qanchalik zo'r g'ayrat bilan qaror toptirib borilsa, olib borilayotgan ijodiy to'garak tarbiyaviy jihatdan samarali bo'ladi. Bu esa g'oyaviy ishlar samaradorligini oshirishning nosog'lom muhitlar ro'y berishidan saqlanishning eng ta'sirchan usulidir. "Ta'lim to'g'risida" gi qonunning 17-moddasiga asosan maktabdan tashqari ta'limda bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy-texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyot saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Tasviriy san'atdan ommaviy va tarbiyaviy ishlarga oid to'garaklarda o'quvchilarning badiiy-estetik didini, ma'naviyatini, axloqini, Vatanga, el-yurtga bo'lgan mehr-muhabbatini mehnatga, bilim olishga bo'lgan intilishini, qobiliyatini oshirish va albatta yangi-yangi samarali ishlarga bosh qo'shmog'i muhim ahamiyat kasb etadi [1:37]. Tadbirni amalga oshirish rejasida estetik tarbiyaga e'tiborni qaratish lozim.

O'quvchilar qalbini urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizni o'rgatish orqali ulardan odob-axloq nurlarini yoritmoqchi bo'lgan tarbiyachi o'qutuvchi chuqur bilim, keng maxorat va tarbiyachilik, tashkilotchilik san'atini egallamog'i lozim.

Maktabda sinfdan tashqari tasviriy san'at tugaraklarini amalga oshirish metodikasi kursining maqsadi:

-bo'lajak o'qituvchi tarbiyachilar, to'garak rahbarlariga tarbiyaga doir tadbirlarni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslari haqida bilim berish;

-o'quvchilarni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda o'zbek xalqining urf-odatlarini, milliy va ma'naviy qadriyatlaridan foydalanish, manbashunoslikka o'rgatish;

-ommaviy tadbirlarni rejalashtirishda o'quvchi yoshlarning yosh xususiyatlari qiziqishi, jamoadagi ijobiy va salbiy tomonlarining mavjud darajasiga e'tibor berish;

-tarbiyaviy tadbirlar, ijodiy to'garaklarni sifat va samaradorligini oshirishda yangicha ishlash metodi va shakllaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish kabilar.

Tasviriy san'atda nafosat tarbiyasi masalasi hozirgi zamon pedagogikasida ta'lim tarbiyaning umumiy muammosi bilan bog'liq. Tasviriy san'at ijodida va idrokida intellektual asosiy qaror topshirishdan hech qachon voz kechmaslik kerak. Tasviriy san'at mashg'uloti, tasviriy san'atdan sinfdan tashqari to'garak ishlarini olib borish tarbiya berishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tarbiya haqida Shayx Sa'diy o'zining "Guliston" asarida shunday deb yozgan edi: "Kimda-kim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo'lgach baxtli bo'lolmaydi. Xo'l novdani istagancha bukish mumkin. Quruq novdani esa faqat olovda toblab to'g'rilash mumkin". Tarbiya haqidagi bu g'oya avlod-ajdodlarimizdan bizga etib kelgan bo'lak meros bo'lib, u komil insonni voyaga etkazishda muhimdir. Tarbiya tug'ilgan kundan boshlanmog'i lozim [2:11]. Tasviriy san'atdan turli xil tadbirlarni amalga oshirish jarayonida ularning ongi va irodasini o'stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga tarbiya ijtimoiy xodisa bo'lib, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'zining amalga oshirish shakliga egadir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng yosh avlodni milliy-ma'naviy ruhda tarbiyalashga, tasviriy va amaliy san'at bo'yicha turli xil ommaviy tadbirlarni amalga oshirishga keng imkon yaratildi. Ma'naviy jihatdan rivojlangan jamiyatdan iste'dod egalari millatning g'ururi kelajagi deb qaraladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib talaba-o'quvchi yoshlar tarbiyasida uch manbadan foydalanish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.Karimovning "Istiqlol va ma'naviyat" asarida quyidagicha uch omil ko'rsatilgan:

1. Umumiy insoniy qadriyatlar;
2. Islom ta'limoti;
3. O'zbek milliy urf-odatlari.

Yuqoridagi omillar bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, talaba-o'quvchi yoshlarda tasviriy san'atdan turli xil badiiy – ijodiy, ommaviy tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Maktabda sinfdan tashqari to'garak ishlarini amalga oshirish jarayoni o'quvchilarni ongli ma'naviy etuk inson qilib tarbiyalashda har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Tasviriy san'atdan tugaraklarni amalga oshirish metodikasi fanining predmeti, bo'lajak tarbiyachi-o'qituvchilarga kelajak avlodni ma'naviy jixatdan yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash, san'atning qirralari, shakl va yo'llari to'g'risida bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish haqida bahs yuritadi.

Tasviriy san'atdan to'garaklarni tashkil qilish va uni amalga oshirish metodikasi ijtimoiy fan bo'lib, milliy ong va istiqloq mafkurasini shakllantirishga xizmat qiladi. Uning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- bo'lajak o'qituvchilar, tarbiyachilar, to'garak xabarlar tarbiyaviy tadbirlarning mazmundorligini ta'minlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyatlardan keng foydalanish, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan manbalarni o'rgata bilish;
- tarbiyaviy tadbirlar uchun zarur metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora tadbirlarini ko'ra bilish;
- ilg'or tajribalarni kuzatib, tahlil qilib undan ijodiy foydalanish;
- tarbiyaviy tadbirlarni o'quvchilarning ruxiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishi va takomillashtirish;
- tarbiyaviy tadbirlarni samaradorligini oshirishda o'z bilimini tarbiyaviy ravishda boyitib borishi lozim.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar o'quvchilarni insonparvarlik, ona Vatanga muhabbat, jasorat, fidokorlik, vafo, go'zal hulq ruxida tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda. Chunki bunday xususiyatlar barkamol inson fazilatidir. Mamlakatimizdagi madaniy hayotning yuksalishi esa hozirgi kunda oliy ta'limda tayyorlanayotgan tasviriy san'at o'qituvchisi va to'garak rahbari mutaxassislarni tayyorlashda o'quv yurtlari oldiga o'ta dolzarb muammolarni qo'ymoqda. Bu muammolarni hal etish esa o'z navbatida hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan tasviriy san'at o'qituvchilarini va to'garak rahbarlarini tayyorlashni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ajdodlarimiz tarixi bizdan qancha uzoq bo'lmasin va ularning diniy e'tiqodlari o'ziga xos bo'lganligidan qat'iy nazar biz bilan ularni bog'lab turadigan nozik ko'priklar bor. U ham bo'lsa, ular yaratgan ajoyib san'at namunalari, ularning ma'naviy qadriyatlarini, umumiy dunyoqarashlarida insoniyat tafakkurining uzviy rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan tushunchalari va bilimlaridir. Shuning uchun ham zamonaviy tasviriy san'at o'qituvchilarni har tomonlama tarbiyalashda, shakllantirishimizda bunday o'tmish meros namunalariга murojat qilib turishimiz, ularni ta'lim jarayonida nafaqat o'tmish namunasi sifatida, balki uslubiy mukammal vositalar sifatida foydalanishimiz mumkin.

Eng qadimgi tasviriy san'atdan farqli o'laroq Markaziy Osiyo san'at maktabini Yunon san'ati bilan uyg'unlashgan namunalari dan ko'rish mumkin. Bu san'at maktabini Iskandar izi bo'ylab shakllangan tasviriy san'at maktabi deb atashga asoslar bor. Ma'lumki, miloddan avvalgi 329-327 yillarda Iskandar qo'shinlari Markaziy Osiyo hududlarini bosib olishgan. Yunon tili, madaniyati, san'ati, dini targ'ib qilingan. Natijada yunonlashtirish vujudga kelgan [3:104]. Mahalliy xalqlar tasviriy va amaliy san'ati bilan yunonlar san'ati o'rtasida uyg'unlashuv boshlangan, natijada yunon san'atiga xos haykaltaroshlik, devoriy rasmlar, amaliy san'at namunalari paydo bo'lgan.

Tasviriy san'at tarixida xalqlarning aloqalarini bog'lab turgan Buyuk ipak yo'lining ham ta'siri katta bo'lgan. Xalqlar o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari, ulardagi har xil asbob-uskuna, qimmatbaho san'at namunalari orqali o'tishi natijasida tasviriy san'atning uyg'unlashuviga olib kelishi tabiiy bir hol edi. Buyuk ipak yo'li orqali xalqlar o'rtasidagi aloqa tasviriy san'atni nafaqat uyg'unlashuviga ta'siri bo'lib qolmasdan, bir-biridan andoza olib, boyib borishiga sababchi bo'lganini Kushonlar davrini o'rganish jarayonida guvoh bo'lamiz.

Tasviriy san'atning ilg'or namunalari qadimgi madaniy taraqqiy etgan o'lkalar Sug'diyona (Zarafshon va Qashqadaryo viloyatlari), Baqtriya (Surxondaryo, Janubiy-G'arbiy Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston), Parfiya (Turkmanistonning Ashxobod viloyati, Shimoliy-g'arbiy Eron), Choch (Sirdaryoning o'rta havzasi, hozirgi Toshkent viloyati, Janubiy Qozog'iston) shuningdek Qadimgi Xorazm, Qadimgi Farg'ona xududlarida mavjud bo'lib kelganini ko'ramiz [3:5]. Tasviriy san'at borasida bebaho asarlarini har bir san'at o'qituvchisi bilishi lozim. Chunki O'zbekiston tasviriy san'at tarixi, uning ilg'or o'ziga xos an'analarini o'qituvchilar tayyorlashdagi tasviriy san'at ta'limini mazmunini boyitibgina qolmasdan, ilmiy pedagogik jihatdan to'g'ri talqin qilishning mohiyatini ochib beradi.

O'zbekiston hududiga mansub qadimgi rangtasvir san'ati o'ziga xos bebaho namunalarga ega. Afrosiyob rangtasvir san'ati, Beshiktepa rangtasvir san'ati, Varaxsha san'ati singari o'tmishdagi taniqli musavvirlarning ish tajribasi, bilimi, malakasi, shuningdek pedagogik mahoratiga e'tibor qaratish lozim. Bugungi tasviriy san'at o'qituvchilari salohiyatini shakllantirishda san'atimiz merosidan to'g'ri, unumli va ilmiy asosida foydalanish joizligini

zamonning o'zi taqozo etmoqda.

Miniatyura san'atiga kelsak, bu san'at avvalo qog'oz bilan bog'liq. Arab olimi Ibn Nadimning yozishicha, 87 hijriy (melodiy 706) yilda dastlab Samarqandga kelganlarida qog'ozsozlik korxonalarini ko'rar ekan, hayratga tushganligi haqida yozib qoldirgan [4:19]. Bunday ishlab chiqarish ustaxonalari Xiva, Qo'qon, Buxoro, Samarqand, Toshkent va boshqa joylarda mavjud bo'lgan. Xiva xoni Said Muhammad o'z saroyida bir qancha hattotlarni, mohir naqqoshlar va rassomlarni to'plagan ma'lum bo'lib, u kitobga ixlos qo'ygan kishi edi. Uning katta kutubxonasi bo'lib, shu kutubxonada qo'lyozmalar ko'chirilgan va bezatilar edi. Bundan tashqari Buxoro xoni Amir Olimxon saroyida ham mashhur kutubxona bo'lib, unda juda ko'p miqdorda kitoblar to'plangan va hattotlar shug'ullanganlar.

Tasviriy san'atning tarbiyaviy vazifalarini yuksak mutaxassislik tayyorgarligiga ega bo'lgan o'qituvchi musavvirlar tomonidan amalga oshirilishi, tarbiyaning yanada mazmunli bo'lishiga turtki bo'ladi. Agar san'at turlari orqali estetik tarbiya olib borilmas ekan, bunday ta'lim sinadi va o'z ta'sirini yo'qotadi [5:67]. Bunday ta'lim-tarbiyaning mohiyatini ulug' mutaxassislar, olimlar, shoiru yozuvchilar, musavvir-pedagoglardan Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Bobur, Samarqandiy, Muzahhib, Xondamir, Behzod, Attor, Ahmad Yassaviy, Abu Nasr bin Arron, Ulug'bek, Abdulhay, Pir Said Ahmad va boshqalar juda yaxshi tushinishgan. Pir Said Ahmad va Abdulxay kabi rassomlar Samarqanda yashab ijod etgan va ularni Osiyo miniatyurachilari qatorida eslashimiz mumkin.

Muhokama. O'tmishdan qolgan va bizning zamonamizgacha etib kelgan tarixiy manba hamda obidalar ota-bobolarimizning juda qadim zamonlardan beri shu zaminda yashab, insoniyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganliklaridan darak beradi. Ular asrlar davomida o'zlari to'plagan hayotiy tajribalarni turli o'yinlar, ertak va rivoyatlar, kuy va qo'shiqlar, bayram va marosimlar, maqol va nasihatlar, afsona va dostonlar, noma va bitiklar vositasida kelajak avlodlarga, ya'ni bizga me'ros qoldirishgan [2:11]. Bu ma'naviy boyliklar ajdodlarimiz madaniyatining qanchalik yuksak darajada ekanini ko'rsatadi. "Tarixiy-madaniy meros to'g'risida gap ketganida vorislik tamoyilini, uning milliy o'zlikni anglashdagi o'rnini alohida ta'kidlash lozim" [6:18]. Demak, Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi deganda nafaqat ular tomonidan aytilgan fikr, yozilgan manba, balki ularning asarlariga oid materiallar ham badiiy ta'lim uchun tarixiy material sifatida qo'llanishi mumkin. Zero, "Boburnoma"ga ishlangan miniatyuralar yuksak badiiy saviyada yaratilgan, yuqori darajadagi estetik qadriyatga daxldor manba sifatida dunyoning eng nufuzli muzeylarida saqlanishi bugungi kun o'quvchisi uchun nafaqat estetik zavq beruvchi manba, balki milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalovchi vosita sifatida ham e'tiborlidir.

Mana shunday atoqli shaxslar yashab ijod etgan davrda, Xuroson o'lkasi poytaxti Hirotga dunyoga kelgan Kamoliddin Behzod o'z davrining buyuk rassom va miniatyurasozi, "Moniyi soniy" ("Sharq Rafaeli") unvoniga sazovor bo'lib, asr nodiri, XV asr ikkinchi yarmi Hirot miniatyura maktabi asoschisi sifatida shuhrat qozondi [7:4]. O'zining betakror go'zal san'ati bilan Sharq xalqlari, balki butun dunyo xalqlari madaniyati tarixida sezilarli iz qoldirgan, uning taraqqiyoti uchun barakali hissa qo'shgan. Kamoliddin Behzodning mashhur asarlaridan yana biri "Samarqanddagi masjid" ("Masjid qurilishida") deb nomlanadi. Bu asar Nizomiyning "Hamsa" nomli asariga ishlangan bo'lib, hozirda Londondagi milliy kutubxonada saqlanadi. Unda yirik masjid qurilishi aks etgan. Bu asarda quruvchilar uch guruhga bo'lib tasvirlanadi. Birinchisi – eng yuqorida aks etgan g'isht teruvchilar, ikkinchisi – o'rtadagi yordamchilar

(material etkazib beruvchilar), uchinchi – tayyorlovchi (g'isht va toshtaroshlardir). Suvratning yuqori va o'rta qismidagi yo'l-yo'l sallali, tasha va g'isht ushlagan kishi usta tasviri bo'lsa kerak. Suvratdagi qurilish shunday bir muhim binoki, uni quruvchilar zo'r shijoat va ko'tarinkilik bilan qurishmoqda. Musavvir buni bildirish uchun ularning hammasini harakatda tasvirlagan, bironta ham dam olayotgan yoki tomoshabin bo'lib turgan befarq odam yo'q. Ularni kuzatayotgan nazoratchi ham yo'q. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, bino qurilishidagi kishilar qullar emas, o'z xoxishi bilan ishlayotgan kishilardir.

Behzodning asarlari yuksak qadrlanib, O'zbekistondan tashqari, AQSh, Buyuk Britaniya, Turkiya, Rossiya, Eron, Frantsiya, Germaniya, Misr kabi bir qator mamlakatlarning kutubxonalarida avaylab saqlanmoqda. Toshkentdagi milliy rassomchilik va dizayn instituti Kamoliddin Behzod nomiga qo'yilgan. Toshkentda Kamoliddin Behzod hayoti va ijodiga bag'ishlangan muzey bor [8:143]. Behzod ijodini o'rganish faqatgina san'atnigina emas, balki o'sha davr tarixini o'rganish demakdir. Buyuk musavvirning asarlari o'sib kelayotgan yosh avlod uchun bitmas-tuganmas xazinadir [9:93]. Bu esa bizda mana shunday ajdodlarning avlodi ekanligimizdan faxrlanish, shu bilan birga zimmamizga ularga munosib voris bo'lish mas'uliyatini yuklaydi.

Behzod ijodini o'rganish faqat san'atnigina emas, balki o'sha davr tarixini o'rganish demakdir. Buyuk musavvirning asarlari o'sib kelayotgan yosh avlod uchun bitmas-tuganmas xazinadir [10:144]. Bu esa bizda mana shunday ajdodlarning avlodi ekanligimizdan faxrlanish, shu bilan birga zimmamizga ularga munosib voris bo'lish mas'uliyatini yuklaydi.

Natijalar. To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni Kamoliddin Behzodning sharqona tasviriy san'at uslubi bilan tanishtirishning samarali yo'llari, pedagogik shart-sharoitlari ko'rsatib berildi. Tadqiqot ishida ilgari surilgan nazariy qarashlar sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonini mazmunan boyitadi, ushbu jarayonni takomillashtiradi hamda sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini oshirish borasidagi adabiyotlar, qo'llanmalar hamda uslubiy ishlanmalarni yaratishda foydalanish mumkin.

Tasviriy, amaliy san'at va me'morchilik tashkil etiladigan to'garaklar umumiy o'rta ta'lim maktablarining barcha sinflarini qamrab oladi. Ular kichik (1-4 sinflar), o'rta (5-7 sinflar), katta (8-9 sinflar) guruhlardan tashkil etiladi va rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, qashtachilik, yog'och o'ymakorligi, badiiy sopoldo'zlik, shuningdek, me'morchilik, san'atshunoslik to'garaklari hisoblanadi.

To'garak tasviriy san'atning u yoki bu turi janri asosida ham tashkil etilishi mumkin. Miniatur, monumental, badiiy bezak, mozaika v.b. Bu to'garaklarning turlari ularga ajratilgan soatlar, xajmi va ta'lim mazmuni bolalarning istaklari, mayllari va maktab imkoniyatlari, bolalarning yoshlik hususiyatlaridan kelib chiqib tanlanadi. Maktablarda to'garaklarning maqsad va vazifalari asosan bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanar ekan, ular qat'iy reja asosida muntazam olib borilishi talab etiladi. To'garaklar har bir maktabda san'atning turlari, guruhlar bo'yicha bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'garak rahbarining asosiy e'tibori quyidagilarga qaratiladi:

- to'garaklarga tasviriy yoki amaliy san'atga qiziqishi va qobiliyati bor o'quvchilar qabul qilinadi hamda har bir guruhda ularning soni 10-15 tadan oshmasligi lozim. Aks holda ular bilan olib boriladigan ishlarning sifati pasayib ketadi;

- to'garakka bolalarning qiziqishi, idroki, tasviriy malakalari, ijodiy qobiliyatlari o'rganilib va ma'lum vaqt mobaynida sinovdan o'tkazilib, qabul qilinadi.

Tasviriy va amaliy san'atdan nazariy bilimlar to'garak turiga qarab oddiy yoki murakkab mazmun beriladi.

1. San'shunoslik to'garaklari (Tasviriy san'atning alohida tur va janrlari, O'zbekiston tasviriy san'ati, u yoki bu davr tasviriy san'ati bo'yicha). bunday to'garaklarda nazariy bilimlar bolalarga ancha keng va chuqurroq hajmda beriladi.

2. Tasviriy san't (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika) to'garaklari. Bunday to'garaklarda nazariy bilimlar o'rtacha hajmda beriladi.

3. Amaliy-bezak san'ati to'garaklari. Bunday to'garaklarda nazariy bilimlar qisqartirilgan hajmda beriladi. Biroq, xalq amaliy san'ati tarixi uni nazariy asoslari, xalq ustalari, amaliy san'atda ishlatiladigan ish turlari va jihozlar, materiallar, ish uslublari, xalq san'ati rivoj topgan markazlar, san'at va viloyat o'lkashunoslik muzeylari, ulardagi eksponatlar haqida keng ma'lumotlar berilishi talab etiladi.

Amaliy san'atning u yoki bu turi bo'yicha mashg'ulotlarda bolalar kompozitsiya ishlar ekanlar avvalo uni bevosita amaliyot yoki buyumlar bilan bog'lab amalga oshiradilar, ya'ni bajariladigan naqsh yoki bezaklar u yoki bu buyumning badiiy bezagi uchun mo'ljallangan bo'lishligi lozim. Bunda bolalar buyumning vazifasi, materiali, shakli, o'lchovlari kabilarni hisobga oladilar. Ular buyumning vazifasi, shakli, materialini hisobga olib, yo'lsimon, kvadrat, uchburchak, to'rtburchak, doira, ko'pburchak, namoyon shakllarida badiiy bezak ishlarini bajaradilar. Bu ishlar amaliy san'atning turiga qarab ham eskiz, ham bevosita buyum yuzasiga ishlanishi mumkin.

San'atshunoslik asoslari tasviriy va amaliy san'atdan barcha to'garak mashg'ulotlarida o'rganiladi. San'atshunoslik bo'yicha to'garaklarda san'at tarixi ancha keng va chuqur o'rgatilsa amaliy tarzdagi rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, shuningdek, amaliy san'atning turlari bo'yicha tashkil etilgan to'garaklarda uning hajmi ma'lum miqdorda torayadi. Quyida tasviriy san'at tarixi bo'yicha to'garak mashg'ulotlarining mazmuni bayon etiladi. Shuningdek, bolalar san'at asarlarining reproduktsiyalari va otkritkalarini, rassom, haykaltaroshlar haqida materiallar to'plashga odatlantirish yaxshi natijalar beradi. Tasviriy san'atning tur va janrlari rassom va haykaltaroshlar haqida albom tayyorlashlari mumkin [11:7]. Bu ish ularni san'atga qiziqishini oshirishda, badiiy fikr doirasini kengaytirishda, badiiy tafakkurini o'stirishda katta yordam beradi. San'at tarixiga doir to'garak mashg'ulotlarida o'qituvchi o'zbek mashhur san'atining mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti, jahonga mashhur o'zbek rassomlari va ustalari, o'zbek tasviriy va amaliy-bezak san'ati ustalarining yuksak badiiy saviyada yaratgan asarlari jahonning yirik va mashhur muzeylaridan o'rin olganligi hamda o'zbek xalqi bundan faxrlanishi haqida so'zlab berishi lozim. Afrosiyob, Varahsha, Xalchayonda va boshqa er ostidan topilgan shaharlar va uylar devorlariga ishlangan devoriy rasmlar, shuningdek haykallar nushalarini namoyish etish va Sharq uyg'onish davrida Movarounnaxr miniatyura san'ati, Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan tengi yo'q asarlar, IX-XV asrlarda O'zbekiston me'morchiligining noyob asarlari haqida ma'lumot berish bolalarda san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Moniy mo'yqalamga o'xshash rassomlik mo'yqalami butun dunyo Musavvirlarini unutishga majbur qiladi. Uning ajoyib va mu'jizakor barmoqlarini esa Odam Atoning avlodlari orqasiga barcha rassomlarning asarlarini his qilib qo'yadi. Sof xaqiqatni o'zida mujassam etgan

zamonimiz ajoyiboti bo'lgan bu musavvir hozirgi paytda butun dunyo xukumdorlarining marhamatiga sazovor. Buyuk rassomning zamondoshlaridan biri bo'lgan Hirotlik tarixchi Xondamir o'zining "Xabab us-siyar" asarida Behzod haqida hayratlanib ana shunday yozgan edi. "Rassomlar haqidagi mashhur risolaning muallifi qozi Axmad musavvir xakida!" qisqa bir vaqt orasida Behzod shu darajada moxir musavvir bo'lib etadiki, rang tasvir paydo bo'lgandan buyon bu soxada san'at axli orasida unga teng keladigan yo'q edi, - deb yozadi. "Kamoliddin Behzod zamondosh mo'yqalam soxiblari orasida eng yaxshi musavvir hattotlarning boshlig'i o'z san'atining cho'qqisiga erishgan ulug'lardan edi" - deydi boshqa bir zamondoshi. Rassom va hattot Dustmuhammad Behzodning shuhrati Sharqning buyuk miniatyurachisi bo'lmish shuhrati nakadar baland bo'lganligini kursatadi.

Behzod qadimgi Xurosonning katta shaharlaridan birida temuriylar poytaxti Hirotida 1455 yilda tug'iladi. Tarixiy asarlarda yozilishicha Behzod ota-onadan juda erta etim qolib taniqli Hirot hattoti va rassomi Mirak naqqosh Xurosoniy qo'lida tarbiya oldi. Mirak naqqosh Xuroson xukumdori Sulton Husayn (1465-1506) saroyida shoh kutubxonasining boshkaruvchisi kitobdor vazifasida ishladi [12]. Behzod musavvir sifatida tanilgach, 1487 yil Sulton Husayn farmoni bilan saltanat kutubxonasiga rahbar etib tayinlangan. Tez orada bu joy o'z davrining badiiy akademiyasiga aylanadi. Uni mutaxassislar "Nigor xonayi Behzod" yoki "Behzod akademiyasi" deb atagan. Behzoddan rang-barang janrlarda ko'plab asarlar qolgan. U Sharq tasviriy san'atini janr, mavzu, g'oyaviy yo'nalishi, tuzilishi, ranglar tanosibi, shakl va voqealar mutanosibligi jihatdan yangi taraqqiyot cho'qqisiga ko'tardi, daho allomalarning shoh asarlarini, tarix kitoblarini bezadi, zamonasidagi buyuk shaxslarning aksini – portretini yaratib, tasviriy san'atimiz tarixiga portret janrini olib kirdi [13]. Mirak naqqosh Behzodning ustozlaridan biri edi. Uning miniatyura san'ati bo'yicha ustozlaridan yana biri buxorolik ustoz Jahongirning shogirdi mashhur rassom pir Sayid Tabriziy bo'lgan. Uning ustodlari o'z zaonmasining mashhur rassomlari edi. Behzodning asarlaridagi o'ziga xos xususiyatlaridan ustozlarning ta'siri kattadir.

Sulton Husayn Bayqaro zamonida Hirotida uzining rassomga bo'lgan hurmatini aniq bildirish maqsadida Shoh Ismoil 1522 yilda maxsus buyruq bilan Behzodni Shoh kutubxonasining boshlig'i kitobdor qilib tayinlaydi.

Keksayib saksonlarga borib qolgan rassom vataniga qaytib kelgach, 1535-36 yillarda Hirotida vafot etadi. Uning portretini Tabrizda yashagan rassom tomonidan ishlangan portreti saqlanib qolgan. Uning qomati bir muncha bukchaygan holda tasvirlangan. Behzod yaratgan asarlarning aniq bir xisobi yo'q edi. U yaratgan asarlarda xattoki imzo chekilmagan. Behzod o'z ishlarida Sheroz, Tabriz va Hirot miniatyura maktablarining muvaffaqiyatlari ajoyib ravishda uyg'unlashtiriladi.

Rassom o'zining yoshlik yillarida ishlagan ilk asarlaridayoq xatni jiddiy kuzatuvchi mohir san'atkor ekanini ko'rsatadi. Behzod illyustrasiya qilinadigan qo'lyozmadan shunaqa syujetlarni tanlab oladiki, bu syujetlar uningcha hayotning turli lavhalarini, mavjudotini doimo harakatda ekanini ko'rsatish lozim. Shungacha va shundan keyingi davrlarda yaratilgan kompozitsiyalarda Behzod uncha katta bo'lmagan juda keskin harakat va katta kenglikni o'zida mujassamlatirgan miniatyuralarni yaratish uchun alohida bir usulni qo'llaydi, u figuralarni miniatyura ramkalari bilan kesib qo'yadi va ushbu usul bilan tomoshabinning hayotida harakat davom etayotganining tasavvurini tug'diradi. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asariga ishlangan "Xiva qal'asining qamal qilinishi" nomli asarida aniq detallarni ko'rish mumkin.

Behzodning masjid qurilishi tasvirlanayotgan asarida esa ishlarining borishini keng ko'lamda ko'rsatib bergan. Bu miniatyuralarga qarab turib, odam ish juda kizg'in ketayotganini ko'rish mumkin. Navoiyning "Farxod va Shirin" dostonida Farxod jasoratini qanchalik kuylangan bo'lsa, Behzod ham o'z miniatyuralarida Hirot shahrini obod qilgan nomsiz ustalar va hunarmandlarni muhabbat bilan tasvirlaydi. Sa'diyning shahri O'rta Sharqda unga teng keladigan shahar yo'q edi. Hirot shahri me'morchiligiga masjidning salobatligi bilan madrasalarni, mexmonxonalar, shifoxonalar, hammomlarning barcha qurilish binolarining aniq qurilmalari uni bezab turgan naqshinkor koshinlari kishilarni hayratga solgan. Bu erda miniatyura va hattotlik asarlarining eng yaxshi namunalari ishlanardi. Sulton Husaynning zamondoshlari Jomiy, Navoiy, Mirxond va Xondamir chiroyli husnixat mualliflari hattot Sulton Ali, Mashhadiy Kamoliddin, Kamoliddin Behzod o'sha paytlarda Hirotning gultojlarini edilar. Sulton Husaynning o'zi ham shoir bo'lib, nafis san'atning nozik bilimdoni sifatida ijodkorlarga homiylik qilardi. Buyuk Behzodning shakllanishida Navoiy katta ta'sir ko'rsatadi. Buyuk ustoz o'zining mashhur musavvirlariga Amir Nizomiddin Alisher Navoiyning marhamati va g'amxo'rliqi tufayligina erishdi deydi tarixchi Xondamir. XV asrning 90 yillarida Sulton Husayn Bayqaro Behzodni o'z kutubxonasiga boshliq qilib tayinlaydi. U Sharqning buyuk yozuvchisi va shoirlarining asarlariga miniatyura chizishni buyuradi. Sulton Husayn hattot o'z bog'ida Behzodga ijodxonasi qurdirgan. Uning ishidan zavqlanish uchun uni oldiga tez-tez kelib turar edi. Bu bilan dunyoning tashvishlarini birmuncha unutmagan bo'lardi. 1537 yilda Sulton Husayn vafot etdi. Shayboniyxon Hirotni bosib oldi. Behzod Hirotta qolib o'z ijodini davom ettirdi. Shayboniyxon ham bilimdon xukmdor bo'lib rassomga alohida e'tibor beradi va unga o'z portretini chizishni buyuradi. Shayboniyxon xalokatidan so'ng 1510 yil Hirotni shoh Ismoil bosib oladi. Behzod boshqa bir hukmdor harakatiga o'tishga majbur bo'ladi va safaviylar poytaxti Tabrizga boradi. Shoh Ismoil Behzod ijodini yuqori baxolaydi. 1514 yilda Childiran yonidagi jangda muvaffaqiyatsizlikka uchragan Shoh Ismoil qaytib kelib ularning ahvollarini so'rattirgan. Bo'ston asarida mashhur Doro cho'pon miniatyurasi Navoiyning insonparvarlik qoyalari ta'siri ostida yaratilgan. Bu miniatyurada qoyali tog'lar, ba'zi joylar butalar bilan qoplangan yam-yashil o'tloq, cho'ponlar va otlar yorqin bo'yoqlar ostida bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Bu asarida ham Behzod baytal onasini emayotgan toychoq va qimiz quyayotgan cho'pon bola kabi haqqoniy va hayotiy lavhalarni tasvirlaydi. Ayniqsa, cho'pon qomati juda ta'sirchan chiqqan. Muallif yoki bosh qaxramon "portreti" ichki kechinmalarini tasvirlovchi sahnalar suhbat mavzusi beriladigan bo'ldi. Avliyolar, payg'ambarni tasvirlash mavzulari cheklana bordi. Jang, ov sa'nalari vasfiy mavzularga munosabat bir muncha o'zgaradi. Mustakil peyzaj kompozitsiyalari yo'qoladi. Ko'p kishilik bazm manzaralari kam figurali soqiylar bilan almashinadi. Yangi kompozitsion echimlar, sxemalar paydo bo'ladi. Keyingi davr qo'lyozmalarida miniatyuraning O'rta asr uslubiga pala-partish rioya qilishi va personajlarning tarkibiy xarakteristikasiga alohida-alohida urg'u berish sezilib turiladi.

Harakterli belgi sifatida me'moriy bezak tarzida Boburiylar davri oq marmar inshooatlaridan nisbatan ilgarigi yolg'iz daraxt yoki peyzash fonini yassi perspektiv qisqartmalarisiz tasvirlovchi Eron va O'rta Osiyo usulidan foydalanishni ta'kidlash mumkin. Ularda Kashmir etnik tipik zargarlik taqinchoqlarga boy milliy kiyimda tasvirlanib yashil va ko'kimtir ranglar bilan birga noranjiy rang, qizil oltin ranglarning munosib uyqunlashuvini ko'ramiz [14:11]. Kashmircha uslubda ishlangan O'rta Osiyo miniatyuralarida uning jihatlari

kompozitsion ko'rilish me'moriy fon ifoda etiladi. Ammo etnik tipik va koloritda muayan o'zgarishlar mavjud.

Sharq miniatyura san'atida Kamoliddin Behzod va uning takrorlanmas badiiy tasviriy mahorat maktabi san'atdagi kamolot namunasi bo'lgan bo'lsa, Temuriylar davri ilm-fani, ayniqsa adabiyot va miniatyura san'ati yuksaklikka erishdi [15:16]. Umuman ilm-fan va madaniyatning oltin asri bo'lib tarixga kirdi. Miniatyura san'ati asarlarini idrok etishda uning funksional vazifalari badiiy bezatilgan qo'lyozma asarlarining tarkibiy qismi, ajralmas badiiy – grafik elementi sifatida qarash lozim. Bunday yondashish o'quvchilarning bu durdona san'atdagi sintezni ilg'ash, ularning hamohangligini ta'minlovchi omillarni aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi. Jumladan, so'z bilan tasvir birligidagi badiiy matn va badiiy tasvir sintezi, badiiy bezatilgan qo'lyozma asarlarini yaratilishida turli kasb egalari – hattot, naqqosh, muzahhib, lovvoh va musavvirlarning ijodiy hamkorligining samarali yuksak badiiy qiymatga ega bo'lgan, badiiy jihatdan mukammal bezatilgan qo'lyozma asarlarini yaratilishini asosiy zamini ekanligi haqida taassurotga ega bo'ladilar. Masalaga shu tariqa yondashish hattotlik badiiy naqqoshlik kabi miniatyura san'atiga aloqador bo'lgan san'at turlaridan alohida mashg'ulotlar o'tkazish imkoni berildi.

Xulosa. Ma'lumki Sharq miniatyura rangtasviri ma'lum davrlarda katta shuhrat qozondi. Uning shuhrati hozirgi davrda ham ko'pgina Sharq va G'arb sharqshunoslarining e'tiborini o'ziga qaratib kelmoqda. U o'zining ishlanish uslubi, bezakdorligi bilan G'arb san'atidan keskin farq qiladi. Shuning uchun ham Sharq miniatyura maktabi asarlarini, uning namoyondalari faoliyatini o'rganish tasviriy san'atdan to'garak mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar uchun faqat turli san'at maktablarini bilishda ahamiyatli bo'libgina qolmay, balki Sharq san'atining o'ziga xos xususiyatlari o'sha davrdagi xalq hayotini bilib olishga yordam beradi. To'garak mashg'ulotlarida Sharq miniatyura asarlarini o'rganishda o'qituvchi Behzod va uning miniatyura maktabiga alohida e'tibor berishi, uning shogirdlari hisoblanmish Sulton Muhammad, Qosim Ali, Darvish Muhammad, Muzaffar Ali, Rustam Ali, Mir Said Ali, Maxmud Muzaxxib, shuningdek, Muhammad Murod Samarqandiy, Sa'di Buxoriy, Muhammad Nodir Samarqandiy, Ahmad Kalla va boshqalarining hayoti va faoliyati haqida to'xtalishi o'quvchilarni san'atga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga yo'l ochib beradi.

Sharq miniatyura san'atini umumta'lim maktablari sharoitida o'rganishga karatilgan va unda yukorida sanab o'tilgan vazifalarni hal etish quyidagi asosiy pedagogik muammolarni echish bilan bog'liq xolda olib boriladi. Chunonchi, san'at vositasida o'quvchilar ongiga Sharqona falsafiy duneqarash, axloq me'yorlarini singdirish, miniatyura san'atining rivojlanish bosqichlarini o'rganish orqali xalqimizning madaniy tarixini, badiiy an'analarini o'zlashtirish, Sharqona badiiy – tasviriy kamolot borasidagi bilim va malakalarini oshirish yo'li bilan o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish imkonini yaratishi zarur.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. T.: "Muharrir", 2008y.
2. N.Vohidova. Sharq mutafakkirlarining ta'limiy-axloqiy qarashlari. Oliy ta'lim. 2008 y. 8-son.
3. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T.:1991 y.

4. Sh.K.Shoyoqubov. Zamonaviy O'zbekiston miniatyurasi. T.: "O'zbekiston" nashriyoti 2006 y.
5. N.Jumaboev. Sharq miniatyura san'atining estetik tarbiyadagi o'rni. "Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari" elektron jurnali. 1-son. 2022 y.
6. V.Qo'chqorov. Ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash. T.: Akademiya, 2008 y.
7. O.Usmonov, A.Madrahimov. Kamoliddin Behzod. T.: 2000 y.
8. N.Jumaboev, Kamoliddin Behzodning sharqona tasviriy san'at uslubi va asarlari tahlili. "Oriental Art and Culture" ilmiy-uslubiy jurnali. 3-son. 2020 y.
9. N.Jumaboev. Sharq mutafakkirlarining ta'limiy-tarbiyaviy ilmiy merosini o'rganishning zaruriyati. "UzBridge" elektron ilmiy-ommabop jurnali. 1-son. 2022 y.
10. N.Jumaboev. Kamoliddin Behzodning sharqona tasviriy san'at uslubi va asarlari tahlili. "Oriental Art and Culture" ilmiy-uslubiy jurnali. 3-son. 2020 y.
11. R.Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T.: 2004 y.
12. Behzod Kamoliddin. A.Farg'oniy nomidagi Farg'ona viloyat axborot-kutubxona markazi. http://G'G'ferlibrary.uzG'bezod_kamoliddin
13. B.To'raev., A.Boboev. Fan taraqqiyotida movarounnahrlik ulamolarning o'rni. T.: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi. <https://G'G'www.bukhari.uzG'?pq18379>
14. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi "SAN'AT" jurnali. 5-son. 2010 y.
15. O.Usmonov. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. T: "Fan" 1977 y.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).